

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Marhabo Allayarova

MA‘NAVIYATSHUNOSLIK

(Falsafa - 5120500)

O‘quv qo‘llanma

SAMARQAND-2021

UO‘K: 008(075)

KBK: 71. 0

M: A 51

M.Allayarova. Ma‘naviyatshunoslik. O‘quv qo‘llanma.

– Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 288 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ma‘naviyatning mazmun-mohiyati, kategoriyalari, rivojlanish qonuniyatlari, falsafiy asoslari, so‘nggi yillarda bu sohada erishilgan yutuqlar, uning masalalariga bo‘lgan turlichay yondashuvlar talqin qilinadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarida 5220300 - фалсафа yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Manaviyatshunoslik” fani yuzasidan tayyorlandi. U Samarqand davlat universitetida tasdiqlangan namunaviy dastur hamda ishchi o‘quv dasturidagi mavzularning 1-qismini qamrab olgan bo‘lib, talabalarga ma’ruza va seminar darslariga tayyorgarlik ko‘rishda hamda O‘zbekistonda ma‘naviy sohani rivojlanishini tushunish, ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalash uchun amaliy yordam beradi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma universitetning balakavr bosqichida ta’lim olayotgan talabalar, magistrantlar, shuningdek, o‘rta maxsus ta’lim o‘quvchilari hamda ma‘naviy sohasi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma SamDU Kengashining 2021 yil 25 fevraldagisi (8-sonli bayonnomasi) yig‘ilishi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir

Ruxsora Ruziyeva, O’zMU falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

**J.Ya.Yaxshilikov, SamDU falsafa va milliy g‘oya kafedrasи, f.f.d.
professor,**
O.G‘aybullayev, SamDChTI, f.f.d., professor.

ISBN 978-9943-5942-1-0

KIRISH

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma'rifiy sohalarda juda katta o‘zgarishlar yuzaga eldi, yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu mamlakatimizda barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatini qurish konsepsiysi bilan bog‘liqidir. Mustaqillikning boshlang‘ich yillarida totalitarizm davrida yo‘qotilgan ma’naviy boyliklarimizni tiklash va xalqimizning milliy o‘zligini anglash boshlang‘ich vazifalardan biri edi. Bugungi kunda bu konsepsiyaning mantiqiy davomiyligida milliy taraqqiyotimiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jumladan, 2021 yil 26 mart kuni “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi¹ va ushbu qaror “Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari” g‘oysini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummiliy harakatga aylantirish; oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyilagini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda qurilayotgan fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos tomonlaridan biri – dunyo bo‘ylab kechayotgan globallashuv jarayonida paydo bo‘layotgan ma’naviy tahdidlarni, global muammolarni hal etishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma’naviy me’rosga, xalqimizning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, qadriyatlariga tayanish va ulardan keng foydalanishga asoslangandir. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev mazkur masalani mamlakatimiz ma’naviy-ma'rifiy soha kun tartibidagi asosiy masala sifatida qayd etib: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.”²-deb ta’kidlaydi.

Ana shu ko‘rsatmaga mufoviq ma’naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada bir qator maxsus qarorlar qabul

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021, 26 mart.

² Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 27-бет.

qilindi. “Hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbliji va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyatga, yoshlarga yangi-yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”¹ deya ta’kidlaydi davlatimiz rahbari va globallashuv vaziyatini hisobga olgan holda, ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarni aslo kechiktirib bo‘masligiga alohida urg‘u beradi.

Millat, xalq qanchlik yuksak ma’naviyatli bo‘lsa, u shuncha qudratli va yengilmas bo‘ladi, chunki ma’naviyat insonnni ruhan pok, qalban uygoq va ulg‘ayishga chorlaydigan, iymon e’tiqodini but qilishib, botiniy kuch beradigan omildir, u inson qalbida ezgulik, vijdon, iymon-e’tiqod, diyonat tuyg‘ulrini uyg‘otibgina qolmay, uning ongida vatanparvarlik, sadoqat, insonparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ularini yuksak darajaga ko‘taradi, o‘zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, or-nomus, burch, mas’uliyat va boshqa bir qator ijobjiy fazilatlarni mustahkam shakllantirib boraveradi.

Ma’naviyatshunoslik kursini o‘qitishning nazariy metodologik asosini Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviyat va ma’rifat sohasiga oid asarlari, nutqlari tashkil etadi va bu masalaga mamlakatda avval boshdanoq katta ahamiyat berib kelinmoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un rivoji ta’min etilsagina, O‘zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatidan o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

Mazkur kursni o‘qitishning maqsad va vazifalarini jamiyatimiz taraqqiyoti, olib borilayotgan yangi bosqichdagи islohotlardan kelib chiqqan holda bayon etishga qaratilmog‘i kerak. Shuningdek, mazkur kursning predmeti – jamiyat va inson ma’naviy kamoloti, jamiyatning

¹ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 22-23.

inson ma'naviy yuksalishiga ta'siri va ayni vaqtda inson ma'naviy yuksakligining jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini o'rganish, ma'naviy barkamol insonning asosiy xislatlarini, Markaziy Osiyo xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ma'naviy merosi va ilm-fan yutuqlaridagi ma'rifatini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda tashkil etishi lozim bo'ladi. Mazkur matnlarning tayyorlashda mavzular fan dasturlariga muvofiq tayyorlandi va falsafa fanlari doktorlari, professor A.Erkayev va M.Imomnazarovlarning shu kursga oid materiallaridan foydalanildi.

1-bo‘lim. MUSTAQILLIK – MA’NAVIY TIKLANISH VA YUKSALISH ASOSI

1-mavzu: “MA’NAVIYATSHUNOSLIK” FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA MA’NAVIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Reja:

- 1.1. Ma’naviyatshunoslik” fanining obyekti, predmeti.*
- 1.2. “Ma’naviyatshunoslik” fanining maqsad, vazifalari.*
- 1.3. Ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni.*
- 1.4. “Ma’naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatida.*
- 1.5. “Ma’naviyatshunoslik” fanining metodologik asosi.*

1.1. “Ma’naviyatshunoslik” fanining obyekti va predmeti

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritguniga qadar ilmiy adabiyotlarda “Ma’naviyat” mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo‘llanilmagan edi. Shu bois bu tushunchani chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning unga bo‘lgan e’tiboridan keyin oshib ketdi. Uni o‘rganish, jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini bilish, shaxs va millatning o‘zligini anglashdagi o‘rni beqiyosdir.

“Ma’naviyat” ko‘p qirrali tushuncha. U insonning zoxiriyl va botiniy jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Shu bois, “Ma’naviyatshunoslik” fani orqali ma’naviyatning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish imkoniy yuzaga keldi. Jamiyatdagi barcha munosabatlar – siyosiy, huquqiy, maishiy, hatto iqtisodiy va boshqa munosabatlar axloqiylik, insoniylik, kengroq olsak – ma’naviyilik nuqtayi nazaridan baholanishi mumkin va lozim. Binobarin, insonning har qanday faoliyati o‘zining ma’naviy tomoniga ega. Shu sababdan ma’naviyatga oid hodisalarini ko‘plab fanlar o‘rganib kelgan. Ma’naviyat yaxlit, bus-butun tizim sifatida ham o‘rganilishi lozim. Bu vazifani ma’naviyatshunoslik fani bajaradi.

Ma’naviyatshunoslik fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan yaqindan aloqa qiladi. Ularning xulosalarini, tadqiqotlarini tahlil qiladi, umumlashtiradi. Ulardan foydalanish asosida o‘z predmetini, didaktik mazmunini, tushunchalar tizimini, ilmiy apparatini, ilmiy xulosalarini

shakllantiradi va mudom boyitib boradi. Ayni paytda, ma'naviyatshunoslik fani falsafiy fanlar jumlasiga kirsada, o'zining aniq predmetiga, alohida tadqiqot obyektiga ega. U falsafaning ilmiy usullaridan, ontologik, epestimeologik (gnoseologiya), aksiologik kategoriyalardan, tushunchalaridan, ijtimoiy falsafa materiallardan, xulosalaridan o'z predmetini o'rganish zaruriyatiga mos ish ko'radi.

Ma'naviyatshunoslik fanini o'rganish obyekti sifatida aytish lozimki, butun insoniyatga tegishli ma'naviy boyliklar, milliy va umuminsoniy ma'naviy meros, moddiy va ma'naviy boyliklarimiz, buyuk allomalarimiz hayoti va ijodi, ular yaratgan ta'limotlar, ijodiy merosi, oila ma'naviyati, xalqimizning ma'naviy hayoti, muhtaram I.A.Karimov, shuningdek Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bu sohadagi qarorlari, nutqlari, asarlari kabilar tashkil etadi. Bundan tashqari mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy va axloqiy negizlari, ma'naviytni rivojlanish qonuniyatları, uning metodologik asoslarini o'rganish hisoblanadi. Fanning obyekti insonning ichki aqliy va hissiy dunyosiga, erkinligiga, irodasiga, jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy munosabatlariga, yaratuvchilik faoliyatiga, haqiqat va ezgulik, go'zallik va ijodga intilishi, bu intilishlarning natijalariga oid barcha hodisalar, inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy munosabatlar, muhit, jamiyat hayotining turli sohalari ham tashkil etadi. Masalan, ma'naviyatshunoslik fanining tadqiqot obyekti jamiyat, oila ma'naviyati yoki ijtimoy-iqtisodiy, axloqiy muammolarga shaxsning, butun jamiyatning munosabati bo'lishi mumkin. Lekin bu muammolarni ma'naviyatshunoslik o'z predmeti nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Barcha fanlarda bo'lganidek, ma'naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma'naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iymon etiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish va jamiyat ma'naviy salohiyatini rivojlantirish, kuchli adolatparvar va fuqarolik jamiyatini barpo etishning usul va vositalaridir. Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko'rinish turibdiki, inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko'tarilishi ma'naviyatni rivojlantirishga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy ong shakillari (axloq, din, fan, san'at, mafkura, huquq)ning o'zaro funksional aloqaga kirishib yaxlit sistema ma'naviyat fenomeni (hodisasi) sifatida amal qilishni ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviyat masalasiga oid ko'pgina ilmiy, o'quv adabiyotlarida ijtimoiy ong shakillarining mexanik tarzdagi yig'indisi, majmui yoki ba'zan

axloq, e’tiqodning, ko‘pincha madaniyatning ma’naviyat turi sifatida talqin qilinadi.

Shunday manbalardan biri bo‘lgan E.Yusupovning “Hodisalarda dunyoviy va diniy g‘oyalarning bog‘liqligi” nomli maqolasida “Ma’naviyat – jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan madaniyatning insoniyat, shaxs ongida akslanishidir. Madaniyat mazmun jihatdan nihoyatda keng bo‘lib, har bir tarixiy davrdagi ma’naviyat uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi”¹, deb ta’kidlanadi.

Ma’naviyat bir butun sistema sifatida ijtimoiy hayotda, uning taraqqiyotida muayyan qonuniyatlar tamoyillar asosida amal qilishini aniqlab beradi. Keyingi yillarda chop etilgan aksariyat ilmiy, o‘quv adabiyotlarida ma’naviyat o‘ziga xos yaxlit sistema sifatida tadqiq qilinmaydi. (Bu o‘rinda faylasuf A.Erkayevning ma’naviyatshunoslik fanini boyitish va tizimli o‘rganishi alohida ahamiyatga egadir.)

Vaholanki, ilmiy bilimlar muayyan sistema maqomida bo‘ladiki, ijtimoiy bilish shakli bo‘lgan ma’naviyatni ham ana shunday murakkab sistema sifatida olib qarash, talab etiladi. U kishilarda dunyoqarashning tarkibiy qismi, o‘zak elementi – e’tiqodni shakillantiradi. E’tiqod – bu muayyan maqsad, qadriyatga ishonch va shu asosda shakllangan tafakkurdir². E’tiqodning mazmunini ilm tashkil etadi. Chunki kishi narsaga e’tiqod qilayotganida muayyan bilimlarga tayanadi, asosalmadi. Bu bilish diniy yoki dunyoviy yoxud ularning ma’lum darajadagi qorishuvi bo‘ladimi, undan qat’iy nazar, e’tiqodning hayotiy mazmunini tashkil etadi. Ilmsiz e’tiqod yo‘q, e’tiqodsiz esa ma’naviyat yo‘q. Demak, ma’naviyatning taraqqiy etishi, kishilarning hayotiy faoliyatida amal qilish uchun e’tiqod, ya’ni ilmga asoslangan ishonch, dunyoqarashga shakllanishi kerak.

Ma’naviyat haqidagi fikr, mushohadalar, qarashlarni umumlashtirib, ularni muayyan sistemaga solib, uning (ma’naviyat) obyektiv ijtimoiy jarayon sifatidagi qonuniyatları, tamoyillarini aniqlash va ularga amal qilish malakasini keng aholi qatlamida shakllantirishdir. Ma’naviyatshunoslik ijtimoiy-gumanitar fanlarning deyarli hammasi bilan aloqa qiladi. U falsafiy fanlardan yana dinshunoslik fani bilan yaqindan bog‘langan. Din uzoq tarixiy davrlar davomida odamlar

¹ Yusupov E.Yu. Hodisalarda dunyoviy va diniy g‘oyalarning bog‘liqligi. “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1994-yil 5-son.

² Falsafa: qomusiy lug‘at. – T., 2004. – 468-bet.

e'tiqodini, dunyoqarashini belgilagan. Jamiyat mafkurasiga, axloqiga, san'atiga, iqtisodiy, huquqiy, maishiy ongiga, odamlarning o'zaro munosabatlariga, urf-odatlariga to kapitalizm qaror topib industrial jamiyat vujudga kelgan davrgacha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hozirgacha dinning ta'siri kuchli. Shu bois ma'naviyatning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari va qonuniyatlarini o'rganishda dinshunoslik faniga murojaat etiladi.

Lekin ta'kidlash joizki, ma'naviyat hatto qadimgi ibtidoiy jamiyatda ham faqatgina diniy tasavvurlar va qarashlar bilan bog'liq holda rivojlanmagan. U ibtidoiy raqlar, asotirlar (mifologiya), ertaklar, rivoyatlar, qoya suratlari, oilaviy munosabatlar, urf-odatlar shaklida ham rivojlangan, insonning ilk nodiniy ijodkorlik faoliyatidan oziqlanib kelgan. Bu tendensiya muttasil kuchayib borgan. Ma'naviyatshunoslik folklor va adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va keng ma'nodagi madaniyatshunoslik, tarix, psixologiya, falsafa fanlari hisobidan aniq dalillar va ma'lumotlar bilan boyiydi, o'z predmeti yo'nalishida ularni to'ldiradi va boyitadi.

Ma'naviyatshunoslik alohida fan sifatida mustaqillik davrigacha qayd etilmas edi. Ammo u o'rganadigan masalalar va mavzular ilm-fan e'tiboridan mutlaqo chetda bo'lмаган. Ular turli fanlar doirasida, jumladan, ijtimoiy falsafa, etika, estetika, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, madaniyat nazariyasi, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar doirasida u yoki bu darajada o'rganilgan. Ammo har bir fan mazkur masalalarni o'z predmeti nuqtayi nazaridan – yo juda toraytirib, yo juda kengaytirib (falsafa) o'rgangan. Ma'naviyatshunoslik o'z predmetiga taalluqli boshqa fanlar tadqiqotlarini, axborotlarini umumlashtiruvchi va uyg'unlashtiruvchi vazifani bajaradi. Shu bois uning predmeti yuqorida zikr etilgan fanlar predmetiga nisbatan o'ziga xosligi, ularning aksariyatiga nisbatan kengligi va ko'pqirraligi bilan ajralib turadi.

1.2. “Ma'naviyatshunoslik” fanining maqsad va vazifalari

“Ma'naviyatshunoslik” o'quv fanining maqsadi jamiyat hayotida ma'navi-yatni to'g'ri rivojlantirish, uning mohiyatini, mazmunini, namoyon bo'lish shakllarini, ular o'rtasidagi aloqalarni, umuman, ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va mamlakat ma'naviy taraqqiyotiga tadbiq etish, komil insonlarni tarbiyalash, fuqarolik jamiyatni barpo etishda ma'naviy salohiyatni oshirish, millatning

o‘zligini anglashda milliy va umuminsoniy ma’naviyat uyg‘unligini ta’minlash, yo‘qotilgan milliy va ma’naviy merosimizni, buyuk allomalarimiz nomini va ijodiy ta’limotlarini tiklash. Ma’naviyat rivojlanishining asosiy maqsadi ma’naviy shaxsni tarbiyalashdir. Jumladan, Prezidentimizning “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14- avgustdagи qarori ana shu maqsadga qaratildi va bir qator vazifalar belgilandi.¹

Ma’naviy shaxs erkin tafakkurga, uning asosida erkin tanlay olish imkoniga ega insondir. Ongli tanlash, ijtimoiy zaruratni va o‘z mas’ulligini, burchini anglash, insonparvarlikka va taraqqiyotga xizmat qiluvchi huquqiy, axloqiy, estetik va iqtisodiy me’yorlarni yaratib, ularga ongli ravishda, ixtiyoriy itoat etishgina insonga erkinlik va ma’naviylik bag‘ishlaydi. Erkin inson, ma’naviy shaxs jamiyat va o‘z shaxsi oldida mas’ulligini va burchini chuqur idrok etadi. Binobarin, shaxsning ma’naviylik darajasi bevosita uning o‘z mas’ulligini qanchalik to‘g‘ri tushunishiga va unga amal qilishiga bog‘liq. Shu sababdan ma’naviyatshunoslik fani erkin, ma’naviy shaxsni tarbiyalashning ilmiy-nazariy va metodologik masalalarini ham qamrab oladi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqib oliy o‘quv yurtlarida alohida fan sifatida o‘rganish talab etiladi va uning ahamiyati quyidagi vazifalar bilan belgilanadi. Xususan:

- 1) ijtimoiy bilish shakli sifatida ma’naviyatning ilmiy-nazariy asoslari haqida bilimlarni kishilarda shakillantish;
- 2) ma’naviyatning ijtimoiy hayot rivojlanishi, taraqqiyotida obyektiv jarayon sifatida o‘zgarib takomillashib borishining ziddiyatli jihatlarini aniqlab berish;
- 3) ma’naviyatni muayan yaxlit sistema sifatida amal qilishini tadqiq qilishni, aniqlashning metod usullarini aniqlash;
- 4) yoshlarni ma’naviy barkamol inson sifatida kamol topishi va mamlakat ma’naviy taraqqiyoti, yuksalishini ta’minlash;
- 5) ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlaovchi o‘quv materiallari, shu jumladan ma’naviy tarbiya

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori, 2018-yil 14-avgust.

sohasigan oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar bilan ta’minlash.

Shu munosabat bilan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya”ni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ma’navy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyatshunoslik fanining yana bir asosiy vazifalardan biri, mustaqil O‘zbekistonning barkamol avlodini tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘shishdir. Bu mazkur fanning pedagogika va pedagogik psixologiya fanlari bilan aloqa bo‘lishini taqozo etadi. Yuqoridagi mulohazalardan ma’naviyatshunoslikka gumanitar fanlar tizimida o‘z predmetiga ega mustaqil fan sifatida qarash lozimligi hamda uning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati ayon bo‘ladi.

1.3. Ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘lmaganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanishi mumkin emas. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilingan Murojaatnomasida “...Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar Ulug’beklar, Navoiy va Boburlani tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda eng avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qror toptirish, ilm-fan va inovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.”¹. deya xalqimizni, shuningdek, tarbiya borasida katta tajribaga ega bo‘lgan katta avlodni ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishga, buyuk kelajak yo‘lida hissa qo‘shishga chaqiradilar.

Hozirda ma’naviy tiklanishdan – ma’aviy yuksalish jarayoni ketar ekan, buning uchun davlat siyosati darajasida yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yoshlar o‘rtasida bunyodkorlik, mehr-oqibat, saxovat va bag‘rikenglik muhitini yanada kuchaytirishga, ma’naviy-axloqiy muhitni yanada barqarorlashtirishga e’tibor qaratilishi talab

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси, 2021.

etiladi. Ma’naviy imkoniyatlar hamda milliy qadriyatlarimizdan samarali foydalanishda katta avlod tajribasi va imkoniyatlari beqiyos tarbiya manbai hisoblanadi. Katta avlod ibrati yoshlar muhitini barqarorlashtirish jarayonida jamiyatda yuzaga kelayotgan muayyan ijtimoiy xavflarning oldini oladi, ayrim hollarda mavjud ijtimoiy muammolarga barham beradi.

Manaviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, yani har bir narsa va hodisalarga baho berishda, tasir ko‘rsatishda insoniylik meyorlaridan kelib chiqib yondashishidir. Ushbu ma’noda ma’naviyat, eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e’tiqod va qadriyatlariga aylangan g‘oyalari, me’yorlari, ideallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishi hamda ezgu niyatlarning, yuksak maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir.¹

Ma’naviyat keng ma’noda shaxsning, jamiyatning aqliy va sobit hissiy dunyosi, ularning har bir avlod tomonidan o‘zlashtirilishi va takomillashtirilishidir. Mustaqillik yillari jamiyatimizda yuz bergen o‘zgarishlar milliy o‘zligimizni anglashni, milliy g‘ururimizning o‘sishini yangi bosqichga ko‘tardi. Eng avvalo, xalqimiz o‘z milliy manfaatlarini chuqurroq va kengroq tushunaboshladи. Ushbu omillar ma’naviyat masalalarini o‘rganishning, barkamol avlodni tarbiyalashning sifatiga yangi yuksak talablar qo‘ymoqda.

Xalqimizning ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, tarbiyaviy ishlarni, xususan, siyosiy, huquqiy, axloqiy va estetik tarbiyani milliy negizlar bilan yanada mahkamroq bog‘lash uchun ma’naviyatni alohida o‘rganuvchi predmetlarga, ya’ni ma’naviyatshunoslik faniga ehtiyoj tug‘iladi.

Bozor munosabatlari va jamiyat a’zolarining ijtimoiy tabaqalanishi ular o‘rtasida o‘zaro begonalashishni yoxud sinfiy adovatni emas, balki ijtimoiy sheriklikni vujudga keltirish uchun insonparvarlik, halollik, hamkorlik, insof,adolat me’yorlari, qonun ustuvorligi hayotimizning asosiy qadriyatlariga va xulq-atvorimizning, faoliyatimizning amaliy mo‘ljaliga aylanmog‘i zarur.

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini turmushga joriy qilish, turmush tarzimizni hozirgi zamon tamadduniga moslashtirish xalqimizni milliy qiyofasidan, madaniyatimizning o‘ziga xosligidan judo qilmasligi kerak.

¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. –Тошкент, 2018. 1-kitob, 9-бет.

Yuqorida e'tirof etilgan va boshqa ko'plab muammolar bizdan milliy ma'naviyatga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Ma'naviyatning mustaqil taraqqiyotdagi, yangi jamiyat qurishdagi ahamiyati shunchalik ulkan va bebahoki, uni alohida ilm, o'quv predmeti sifatida o'rganish, yosh avlodga o'qitish hayotiy zarurat kasb etmoqda.

Ma'naviyat insonning o'zligini anglashning qudratli kuchidir. Yoshlar (nafaqat yoshlar, balki kattalarda ham) o/'zligini anglash bilan bog'liq masalalarda chalkashliklar, ziddiyatlar yo'q emas. O'zlikni anglash, avvalo, insonning tabiat va jamiyat tizimidagi o'z o'rmini bilishi, o'z borlig'ini tasavvur qila olishidir. O'zlikni anglash faqat individual ong hodisasi emas. U sotsiumning yuqori darajalariga, umummiliy darajaga ham xos bo'lishi mumkin, o'zlikni anglash xalqning tarixini bilish, milliy qadriyatlar bilan faxrlanish qatorida milliy manfaatlarni, zamonaviy taraqqiyot talablarini to'g'ri tushunish demakdir. U taraqqiyot talablari va yutuqlarga tanqidiy munosabatda bo'lishni, ular bilan cheklanib qolmaslikni, mavjud kamchiliklarni xolis tahlil etib, bartaraf etishni, tarixdan saboq olishni talab qiladi. Bu esa ma'naviyatni milliy g'oya bilan bog'lashni va uning negizida rivojlantirishni taqozo etadi. O'zligini, o'z manfaatlarini anglash, milliy g'urur, hayotiy orzu havaslar aslida milliy g'oya o'rnni bosgan. Ammo bunday hollarda xalqning ma'naviy hayoti juda ziddiyatli rivojlanadi. Aniq va mujassam ifodalangan, milliy g'oya bilan boyitilgan ma'naviyat jamiyat taraqqiyotiga yanada barakali ta'sir ko'rsatadi, uning xalqqa o'zligini anglatish, milliy ongni, madaniyatni turli adashishlar va tashqi xurujlardan himoya qilish imkoniyatlari ortadi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviyat yuksalish uchun yangi imkoniyatlarni tug'iladi."¹ Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai sanaladi. Ma'naviyatsiz hech qachon jamiyatda odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmaydi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish

¹ И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. -Б. 28-29.

mumkin. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘paruvchilik, o‘z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ma’naviy – ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 martdagi qarori, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ 1059-son qarori – ayni muddao bo‘lib, ma’naviy sohani rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

1.4. “Ma’naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatida

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informatsion inqilob, glaballashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta’sir o‘tkazish maqsadida bo‘lib olishga intilish tobora kuchayib borayotgan sharoitda Islom Karimov aytganidek: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz”.¹

Ana shu o‘ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy g‘oyani chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida biz qo‘lga kiritgan istiqlolning ma’no va mazmuni, milliy o‘zligimizni to‘la anglashimizga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimizni mustahkamashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimizning ma’sulligimizni tushunib yetishimizga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz uchun Islom Karimov ma’naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo‘ygan vazifalarni belgilab berdi. Zero, ular ta’kidlaganidek, “Jamiyatni ma’naviy

¹ И.А.Каримов. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. -Б. 74-75.

yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat”¹. Bu ulkan vazifalarni ma’naviyatimizni milliy istiqlol g‘oyalari bilan boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi va unda belgilangan masalalar davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda ushbu vazifalarni amalga oshirish zaruriyati yanada ortib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”² - deb ta’kidlaydi.

Shu ma’noda ham ma’naviyatni talaba-yoshlarimizga o‘rgatishga ehtiyoj o‘sib bormoqda va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, mukammal o‘quv qo‘llanmalarni va ular asosida darsliklarni yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu vazifaning murakkabligi shundaki, “Ma’naviyat asoslari” mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo‘ldi. Mustaqilligimizgacha, bu tushuncha mustaqil ravishda o‘zining aniq tasnifiga ega bo‘lmagan, aynan unga bag‘ishlangan ilmiy asarlar ham yaratilmagan. Bu kurs mamlakatimizning tubdan yangilash va mustaqil taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi ma’naviyatni shakllantirishning ehtiyoji sifatida paydo bo‘ldi.

Ma’naviyat sobiq sho‘rolar hukumronligi sharoitida mustaqil mavzu yoki masala sifatida o‘rganilmasdan kelinayotgan edi. Unga madaniyat bilan bir xil ma’noni anglatuvchi, mustaqil yo‘nalishga ega bo‘lmagan tushuncha sifatida qarab kelingan. Hatto, ayrim adabiyotlarda

¹ И.А.Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000. –Б. 23-24.

² Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б-27.

har ikkala tushunchani bir xil mazmunni anglatuvchi so‘z ma’nosida qo‘llanilib kelingan. Bunday «e’tiborsizlik» natijasida barcha lug‘atlarda ham «ma’naviyat» tushunchasiga aniq va mustaqil ta’rif uchramaydi. Buning asosiy sababi, sho‘rolarning jamiyat a’zolari ongi va qalbini insoniyat aql zakovati bilan yaratilgan ma’naviy boyliklardan bebahra qilish, ularni tuzumning manfaatlariga xizmat qiluvchi g‘oya va mafkuralar bilan qurollantirishga qaratilgan g‘ayriilmiy, g‘ayriinsoniy siyosati bo‘lgan edi. Bunday siyosatdan maqsad, jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni ana shu g‘oya va mafkuralar vositasida mazkur tuzumga itoatkor, uning jirkanch manfaatlarini hech ikkilanmasdan bajaradigan va dunyoqarashi mu’telik ruhiyati bilan to‘ldirilgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tarbiyanuvchilarining ichki ruhiy dunyosini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Xuddi ana shu vazifa «ma’naviyat»ni mustaqil fan sifatida o‘rganishni ham kun tartibiga qo‘ydi.

Lekin bu fan sifatida boshqa ijtimoiy fanlar tarkibida tarixan shakllanib , rivojlanib keldi. Masalan, adabiyot, san’atshunoslik, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, tasavvuf, umuman falsafiy fanlarning asosiy tamal toshi bo‘lib xizmat qilib keldi, ularning asosiy mezoni bo‘ldi.

1.5. “Ma’naviyatshunoslik” fanining metodologik asosi

Ma’naviyatshunoslik mustaqil fan sifatida mustaqillik yillarda oliy va o‘rta maxsus ta’lim dargohlariga “Ma’naviyat asoslari” kursi sifatida o‘tila boshladi. Darhaqiaqat, mazkur fanning mustaqillikka bo‘lgan davr mobaydida uning tarmoqlari jijtimoiy gumanitar fanlar negizida, xususan falsafa tarkibida yashab keldi. Bugungi kunda ma’naviyat alohida soha, atama, tushunchalar negizida uning metodologik mohiyati o‘rganilib borilmoqda. Fan sifatida takomillashuviga ehtiyoj ortib bormoqda. Insonlar ma’naviy hayoti, mamlakat ma’naviy taraqqiyoti ilmiy-falsafiy o‘rganilib borilishiga zarurat oshib bormoqda. Shunga

ko‘ra “Ma’naviyatshunoslik” fani mustaqil fan sifatida metodologik asosini aniqlab olish kerak bo‘ladi va uning ahamiyati shu bilan yanada obyektivlashadi. Ushbu fannig metodologik asosini insoniylik nuqtayi nazardan yondashish, insonga barcha narsalarning o‘lchovi sifatida qarash talab etiladi. Avvalo Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ma’naviyat sohasini rivoshlantirishga qaratilgan nutqlari, asarlari, qarorlari tashkil etadi, shuningdek muhtaram I.A.Karimovning ma’naviyat sohasini shakllantirishga qaratilgan va shu soha doirasidagi fundamental asarlari, nutqlari, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho, noyob asarlari, ma’naviy merosi, shu sohadagi ta’limotlari, g‘oya va qarashlarida ilgari surilgan ma’naviyat sohasidagi yutuqlar ushbi fanninh metodoligik asosini tashkil etadi. Chunki milliy ma’naviy merosimiz axloqiy ta’limotlarga oid, hadishunoslikka oid, Kalom ilmi, Fiqh ilmi, tawhid ilmiga oid manbalar yetarli darajada jahon ilm ma’rifatiga xizmat qila olgan, insoniyat ma’naviy olamini boyitgan va nodir ma’naviy boyliklar hisoblanadi.

Xususan, 2018-yil 14-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori¹ bu boradagi vazfalarni aniq belgilab olishga yo‘naltirildi. Vatanga sadoqat, burch va ma’suliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanayabti. Buning oqibatda ularning ushbu fazilatlar haqidagi so’zlari bilan amallari orasida tafovut namoyn bo’lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o’z o’rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzga keltirmoqda. Ana shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy ta’lim konsepsiysi” to‘g‘risidagi qabul

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жихатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. Тошкент шаҳри., 2018 йил 14 август.

qilingan qaror ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi¹.

“Ma’naviyatshunoslik” fani erkin, mustaqil fan sifatida dogmatizmdan yiroq va u jamiyat va millatning ijtimoiy taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan taraqqiyparvar g‘oyalar bilan hamohang takomillashib boradi, ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligida inson ma’naviy olamini boyitib ezgulikka yo‘naltiradi. Shu nuqtayi nazardan bu sohadagi insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy merosni umumqadriyat darajasida amal qilinishida mavjud manbalar uning metodologik asosini tashkil etadi. Jumladan Yunon faylasuflari Suqrot, Arastudan tortib, mintaqamizda yetishib chiqqan Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlari, g‘oyalari va ta’limotlari bashariyat ma’naviy olami uchun bebaho ne’matdir.


Ushbu fan mavzularini o‘qitishda o‘zining o‘rganish metod va tamoyillariga ega. Ma’naviyatshunoslik fanining metodlari ma’naviyatning rivojlanish qonuniyatlari, hozirgi ahvoli va mohiyati haqida bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar birligidan iborat.

Jahonda yuz berayotgan barcha jarayonlar ”Inson mezoni” oqrali baholanadi. Ushbi fanning metodologik asoslarini insoniylik nuqtayi nazardan yondashish, insonga barcha narsalarning o‘lchovi sifatida qarash talab etiladi. Ma’naviyatshunoslik fani metodlari ma’naviyatni o‘rganish usullari tashkil etadi, har qanday fan kabi ushbu fanni o‘rganishda ham turli yondashuvlar, har xil qarashlar mavjud. Mazkur fanning metodlari fanning mohiyati, turli jihatlari va xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari, prinsiplarini o‘rganisga imkon beradi.

Ma’naviyatshunoslik fanining metodlari xilma-xil bo‘lib, ularni quyidagi uch guruh tashkil etadi: 1) eng umumiyl falsafiy metodlar – ular metofizika va dialektika metodlari; 2) umumy metodlar – analiz va sintez, funksional va sistemali yondashish metodlari; 3) xususiy metodlari – sotsiologik, statistik, kibernetik, qiyosiy va boshqa metodlar kiradi. Umuman quyidagi tamoyillar va metodlarni tashkil etadi (1-sxema):

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy ta’lim konsepsiyası” to‘g‘risidagi 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori.

1-sxema. «Ma’naviyatshunoslik» kursini o‘rganish metodlari



Mavzu bo‘yicha xulosa

Manaviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, yani har bir narsa va hodisalarga baho berishda, tasir ko‘rsatishda insoniylik meyorlaridan kelib chiqib yondashishidir. Ushbu ma’noda ma’naviyat, eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e’tiqod va qadriyatlariga aylangan g‘oyalari, me’yorlari, ideallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishi hamda ezgu niyatlarning, yuksak maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir.¹

¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. –Тошкент, 2018., 1-қисм, – 9-бет.

Ma’naviyat keng ma’noda shaxsning, jamiyatning aqliy va sobit hissiy dunyosi, ularning har bir avlod tomonidan o’zlashtirilishi va takomillashtirilishidir. Mustaqillik yillari jamiyatimizda yuz bergan o’zgarishlar milliy o’zligimizni anglashni, milliy g’ururimizning o’sishini yangi bosqichga ko’tardi. Eng avvalo, xalqimiz o’z milliy manfaatlarini chuqurroq va kengroq tushuna boshladi. Ushbu omillar ma’naviyat masalalarini o’rganishning, barkamol avlodni tarbiyalashning sifatiga yangi yuksak talablar qo’ymoqda.

Xalqimizning ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, tarbiyaviy ishlarni, xususan, siyosiy, huquqiy, axloqiy va estetik tarbiyani milliy negizlar bilan yanada mahkamroq bog’lash uchun ma’naviyatni alohida o’rganuvchi predmetlarga, ya’ni ma’naviyatshunoslik faniga ehtiyoj tug‘iladi

Demak, ma’naviyatshunoslik fanini o’rganish obyektini butun insoniyatga tegishli ma’naviy boyliklar, milliy va umuminsoniy ma’naviy merosimiz, moddiy va ma’naviy boyliklarimiz, buyuk allomalarimiz hayoti va ijodi, ular yaratgan ta’limotlar, ma’naviy merosi, oila ma’naviyati, xalqimizning ma’naviy hayoti, I.A.Karimov, shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bu sohadagi qarorlari, nutqlari, asarlari kabilar tashkil etadi. Bundan tashqari mustaqil O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy va axloqiy negizlari, ma’naviytni rivojlanish qonuniyatlari, uning metodologik asoslarini o’rganish hisoblanadi. Shuningdek, fanning obyekti juda keng va serqirra bo’lganligi uchun insonning ichki aqliy va hissiy dunyosiga, erkinligiga, irodasiga, jamiyatda tutgan o’rniga, ijtimoiy munosabatlarga, yaratuvchilik faoliyatiga, haqiqat va ezgulik, go’zallik va ijodga intilishi, bu intilishlarning natijalariga oid barcha hodisalar, inson ongiga ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy munosabatlar, muhit, jamiyat hayotining turli sohalari ham tashkil etadi.

Barcha fanlarda bo’lganidek, ma’naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma’naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iyomon etiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish va jamiyat ma’naviy salohiyatini rivojlantirish, kuchliadolatparvar va fuqarolik jamiyatini barpo etishning usul va vositalaridir. Ma’naviyatshunoslik o’z predmetiga taalluqli boshqa fanlar tadqiqotlarini, axborotlarini umumlashtiruvchi va uyg’unlashtiruvchi vazifani bajaradi. Shu bois uning predmeti yuqorida zikr etilgan fanlar predmetiga nisbatan o’ziga xosligi, ularning aksariyatiga nisbatan kengligi va ko’pqirraligi bilan ajralib turadi.

Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko‘rinib turibdiki, inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko‘tarilishi ma’naviyatni rivojlantirishga bog‘liq bo‘ladi. Ma’naviyat bir butun sistema sifatida ijtimoiy hayotda, uning taraqqiyotida muayyan qonuniyatlar tamoyillar asosida amal qilishini aniqlab beradi.

Mavzuga doir topshiriq va savollar.

1. Ma’naviyatshunoslik faning obyekti va predmetini yoriting.
2. Ma’naviyatshunoslik fanining maqsad va vazifalarini aniqlang
3. “Ma’naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatidagi mohiyatini izohlang.
4. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qachon qabul qilindi va uning asosiy maqsadi nima?
5. Ma’naviyatning ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqasini “Klaster” usulida ifodalang va tahlil qiling.
6. “Ma’naviyatshunoslik” fanining metodologik asosini nima tashkil etadi?
7. Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim dargohlariga “Ma’naviyat asoslari” kursi qachon o‘tila boshladi. Milliy taraqqiyot tushunchasining mohiyati nimada va unga ta’rif bering.
8. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”¹. Ushbu fikr kimga tegishli? Uni tahlil eting.
9. Ma’naviyatga qaratilgan g‘ayriilmiy, g‘ayriinsoniy siyosati haqida FSMU texnologiyasida o‘z fikringizni bayon qiling.

¹ Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б-27.

2-mavzu: MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIYAT MASALALARINING DAVLAT SIYOSATI DARAJASIGA KO‘TARILISHI VA UNING SABABLARI

Reja:

2.1. *Mamlakatimizda ma’naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyat masalalariga alohida e’tibori.*

2.2. *I.A.Karimovning milliy ma’naviy tiklanish konsepsiysi tadrijiy xarakteri va uning ahamiyati.*

2.3. *Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi. Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi va buning sabablari.*

2.4. *Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati.*

2.5. *Ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotida o‘rnining oshib borishi. Islohotlar va ularning ma’naviy mezoni.*

2.6. *Mustaqillik-ma’naviy merosi va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi. Ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi.*

2.1. Mamlakatimizda ma’naviyat masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu yutuqlarga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish Konsepsiysi nazariy asos bo‘lib xizmat qilib keldi. Bu konsepsiya millatimizning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari va mentaliteti hamda mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat’iy hisobga olish bilan “O‘zbek modeli”ni o‘zida aks ettirgan.

O‘zbekiston sobiq sho‘rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo‘yish juda murakkab masala edi. Chunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o‘zining ta’sirini o‘tkazgan edi. Shuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning “o‘zbek modeli”da

jamiyatni tubdan o‘zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma’naviyat va dunyoqarashni shakllantirish belgilandi.

Islom Karimov 1992-yildayoq, “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deganlar haq bo‘lmasalar kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir u yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lamaydi”¹, - deb ta’kidlagan edi.

Ana shu ko‘rsatmaga muvofiq ma’naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, Islom Karimovning 1994-yil 23-aprelda Respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risida”, 1996-yil 9- sentyabrda esa “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”, 1999-yil 3-sentabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari va 1998-yil 24-iyuldagagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” maxsus qarori qabul qilindi. Bu hujjatlarga binoan respublika oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi 1997- yildan boshlab barcha oliy o‘quv yurtlarida “Ma’naviyat va ma’rifat asoslari” maxsus kursini o‘qitish to‘g‘risidagi qaror qabul qildi va uning dastlabki o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

O‘tgan davr ichida ma’lum bir tajribalar to‘plandi, kursda foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy va ommabop maqolalar hamda risolalar chop etildi. Chunki, xalqimizning, jamiyatning ma’naviyatini ko‘tarish va rivojlantirish bugun ham, ertaga ham muhim vazifa sifatida qolishi muqarrardir. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma’ruzasida O‘zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berar ekan, “Ikkinchi ustuvor yo‘nalish – jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat”¹ligini ta’kidlab o‘tdi.

Mustaqilligimizni mustahkamlashda bugungi kunda, xususan, yoshlarning ruhan baquvvat bo‘lishiga, o‘z Vatani va xalqi manfaatlarining fidoiylari bo‘lib yetishlarida va yot mafkuralarga qarshi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.72- 73.

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: Ўзбекистон, 2000. -Б. 23.

kurashlarida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Islom Karimov “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” konsepsiyasiga yozgan so‘zboshisida: “Oldimizga qo‘ygan oljanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda”.¹ Haqiqatan ham ma’naviyat qanchalik yuksak bo‘lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, imon, ma’suliyat va boshqa bir qator ijobjiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o‘rin olib boraveradi.

Necha mingyillik tarix davomida ne-ne xoqonlar-u xonlar, amirlar-u shohlar o‘tdi. Ularning birlari millat dovrug‘ini dunyoga tarqatgan bo‘lsalar, boshqalari yurtni abgor qilganligi ham sir emas. Oxirgi yuz yil davomida yurtimizning yetakchi o‘g‘lonlari foje taqdirga ro‘baro‘ keldilar. Amir Olimxonning siyosatidan norizo bo‘lgan Fayzullaxo‘ja xalqim deya qon yutdi, ammo aldandi, orzusi ushalmadi. Usmon Yusupov umrini O‘zbekiston xalqi uchun tikdi, ammo xalq asoratda qolaverdi. Sharof Rashidov xalq og‘irini yengil qilaman deb ko‘p urindi, ammo oxiri borib xalqni ham, uning o‘zini ham yomonotliq qilish boshlandi. Qaramlik kasofatidan bu fojealar yanada 90-yillarga kelib avj oldi. Yangi davrda o‘zbek xalqining boshiga rahbar etib Islom Karimov tayinlangach milliy mustaqillik uchun yangicha kurash boshlandi.

Biz Islom Karimovning mustaqil milliy siyosat, Ota yurt mavqeyini olam uzra yuksaklarga ko‘tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minalash, demokratik huquqiy davlat tizimini shakllantirish, ijtimoiy kafolatlarni mukammallashtirish yo‘lidagi va boshqa qator xizmatlariga alohida to‘xtalmaymiz. Zotan, bularning har biri alohida mavzu.

Sobiq SSSRning xomashyo bazasi bo‘lmish markaz manfaatlariga qat’iy bo‘ysunuvchi yagona tizim zanjiriga qo‘l-oyog‘i, har bir hujayrasi bilan chambarchas bog‘lab tashlangan respublikaning asli nochor

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: Ўзбекистон, 2000 .-Б. 5.

iqtisodiy ishlab chiqarish binosi, sobiq SSSR parchalangach, butkul xarobaga aylangan edi. Islom Karimov bozor iqtisodiga o‘tish yo‘lidagi islohotlarni shunday murakkab sharoitda, shunday nosoz poydevorga tayanib amalga oshira boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonning ahvoli Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida barqarorligi va ijobiyligini siljishlari bilan ajralib turibdi. Ammo biz iqtisodiy masalalarga ham batafsil to‘xtalmoqchi emasmiz.

Bugungi kunda aytish mumkinki, O‘zbekiston jahon miqyosida o‘ziga xos barqaror siyosiy mavqe kasb etib turibdi. Jahonning eng ilg‘or davlatchilik an‘analarini o‘zbekning milliy tabiatini bilan, o‘z qadim udumlari bilan uyg‘unlashtira olgan Konstitutsiyamiz – mustaqil mamlakatning asosiy qonuni har bir sohada batafsil ishlab chiqilayotgan qonun va kodekslar bilan amalda qo‘llanib, mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiga o‘tish, mamlakatning ichki iqtisodiy tizimini uyg‘unlashtirish, ilg‘or texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tadbiq etish borasida o‘tgan yillar ichida ulug‘ ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ijtimoiy uyg‘unlik, barqaror osoyishtalik, xalq birdamligi fikrlar, qarashlar xilma-xilligi bilan bahamjihat rivojlanmoqda. Turli siyosiy partiyalar o‘z mustaqil yo‘nalishlarini shakllantirib, siyosiy raqobatning madaniyatli usullarini, demokratik tamoyillarini o‘zlashtirib bormoqdalar. Vatan manfaatini, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, qalbida o‘ti va erk tuyg‘usi bor, g‘ayrat- shijoatli, ayniqsa, bugungi kun millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh va qobiliyatli avlod asta-sekin maydonga kirmoqda. Eng muhimi, xalq, millat o‘zligini anglab bormoqda. Milliy boyliklari va qadriyatlarini o‘rganish va tiklashga ehtiyoj yuzaga keldi.

Ammo, bu yetarli emas. Chunki milliy yuksalish sari intilar ekanmiz, bu borada mustaqil davlatimizni jahon taraqqiyotiga qushiluvi va erishuvi uchun o‘z yechimini kutayotgan muammolar ko‘p. Jumladan, kishilarimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi borasida qiyinchiliklar ko‘ngildagidek bartaraf etildi, deyish qiyin. Insonlar ongingin eski aqidalar asoratidan poklanishi oson savdo emas. Ayniqsa, yurtning yetakchilari bo‘lishi lozim bo‘lgan ziyorilarimiz ruhiga singib ketgan ko‘nikmalarni yengib o‘tish mashaqqati har qadamda sezilib qolyapti. Agar katta-kichik rahbarlar ham odatan ayni shu ziyorilar toifasi ichidan yetishib chiqishini inobatga olsak, vaziyatning jiddiyligi yanada oydinlashadi. Ularning har biri jamiyatda o‘zi egallab turgan mavqe va maqomini butun mas’uliyati bilan, ko‘lami va zalvori bilan his etyaptimi, o‘tmish va kelajak oldida, xalq va Alloh

oldida o‘zining har bir qadami uchun javob berishga hozirmi? O‘ziga ishonib topshirilgan vazifani eplab, ko‘ngildagidek uddalay olishga qudrati, bilim va iqtidori, iroda va saboti yetadimi? Nega jamoani boshqarish iqtidori, amalga oshirgan ezgu ishlari tufayli xalq e’tiborini qozongan, yaxshi nom orttirgan odamlar ba’zan kattaroq lavozimlarga munosib topilsa, ikki-uch yil o‘tmay tabiatida o‘zgarish paydo bo‘lib qolyapti?

Iqtisodiy va siyosiy islohotlar xalq ongiga teran yetib borishi, amalda jadal o‘zgarishlar hosil qilishi uchun insonlar ongida tub o‘zgarishlar yuz berishi zarur. Insonlar ongida tub o‘zgarishlar yuz bermas ekan, O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurish orzusi shirin xayolligicha qola beradi. Ma’naviyat va mafkuraga alohida e’tibor qaratilishining bosh sababi ham shunda.

Inson ma’naviy dunyosi nozik soha. Undagi vaziyatni osonlikcha, muayyan farmon yoki qaror qabul qilish bilan tuzatib bo‘lmaydi. Uni o‘nglash uchun yillar davomida muntazam va sabr-toqat bilan mafkuraviy, tarbiyaviy, ma’rifiy ish olib borish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o‘zgarishlar joriy etish taqozo qilinadi. Milliy ma’naviyat millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini qamraydi, ularni yaxlit tizimda tutib turadi. O‘tmish ajdodlarimiz merosi bugungi jahon darajasi bilan uyg‘unlashtirilsa, mamlakatimizdagi voqe ahvolga tatbiq etilsa, undan kelajak kurtaklari unib chiqadi, kelajak siymosi shakllanadi.

Shu sababli ham I.A.Karimov O‘zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangan dastlabki kunlardan xalq ma’naviyatini yuksaltirishga bиринчи darajali e’tibor qaratdi. «*Xalqni ma’naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va ma’naviy yuksaltirish*» masalasi davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta’kidlab o‘tildi¹. Ma’naviyat degan so‘zni yuqori doiralarda ishlatish mutlaqo urf bo‘lмаган о‘sha zamonlarda bu mutlaqo yangicha yondashuv, o‘sha paytlar respublika rahbari uchun katta jasorat edi.

Milliy mustaqilligimizning ikkinchi yilida I.A.Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» risolasini e’lon qildi. Ushbu kitobning alohida bobи “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari” deb nomlandi va unda ilk bor xalq ma’naviyatini rivojlantirish masalalari batafsil tahlil etildi².

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавия. -Т.: Ўзбекистон, 1994. -Б.65.

² Каимов И.А. Асарлар: 1-жилд.-Б 76-85.

Jamiyat taraqqiyotini, kelajagini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Shunday ekan, davlat tuzumini, jamiyat hayotini demokratlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish barobarida ma’naviyatga ham doimo alohida e’tibor qaratish talab etilishi voqeiy zaruratdir. Umuman qayd etish joizki, I.Karimovning deyarli har bir nutqida ma’naviyat masalasiga e’tibor qaratiladi, har bir kitobida alohida bob ajratiladi. Ular birinchi marta alohida yig‘ilib, 1994-yilda «Istiqlol va ma’naviyat” nomli kitob bo‘lib chiqqan bo‘lsa, 1997-1998-yillarda yanada to‘ldirilib, ”Ma’naviy yuksalish yo‘lida” (“На пути духовного возрождения”) nomi bilan o‘zbek va rus tillarida mukammal shaklda nashr etildi. Aynilsa, uning ”Ma’naviy meros qudrati”, ”Xalqni Vatan manfaatlari birlashtiradi” (Yozuvchilar bilan suhbat), ”Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so‘zlangan nutqi), ”Vatan – hamma narsadan mo‘tabar” (Mustaqillikning besh yilligidagi bayram tabrige), ”Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi” (“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida), ”Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin” (“Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga javoblar), ”Tarixiy xotirasiz keljak yo‘q” (Tarixchi olimlar bilan suhbat), ”Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir” (“Fidokor” gazetasi muxbiri bilan suhbat), ”Egali yurt – erkini bermas” (2000-yil avgust Oliy majlis sessiyasida so‘zlangan nutqi), ”Alloh qalbimizda, yuragimizda” kabi qator asarlarida ma’naviyat masalalariga oid muhim fikrlar, yangicha g‘oyalar olg‘a surilgan.

I.A.Karimovning milliy ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan fikr va mulohazalari alohida yirik jiddiy tadqiqot mavzusidir. Ammo mazkur tadqiqot yakunlarini kutmay turib ham, I. Karimov asarlarini shu yo‘nalishda e’tibor bilan o‘rganib chiqqan odam uning qarashlari milliy ma’naviyat nazariyasini shakllantirish yo‘lida o‘q tomirlarni aniq va muayyan ko‘rsatib berishga qodirligiga amin bo‘ladi.

2.2. I.A.Karimovning milliy ma’naviy tiklanish konsepsiysi tadrijiy xarakteri va uning ahamiyati

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz yorug‘ keljak taraqqiyotini ta’minlashning

asosiy omili sifatida milliy-ma'naviy tiklanishi ustuvor o'rinni egalladi. Bu albatta bejiz emas. Chunki ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o'z qalbidan o'tkazgan Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma'naviy tiklanish bilan uyg'un holatda bo'lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o'zining hajmi jihatdan kichik bo'lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo'lgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida mustaqillikdan keyin O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman bu asar O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi hisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g'oyalar o'tgan davrda o'zining amaliy isbotini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning *ma'naviy-axloqiy negizlarini belgilab beradi*:


-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; -xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

-insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; -vatanparvarlik.¹ (2- sxema)

¹Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1993.-Б.74.

2-sxema

O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning asosiy negizlari



Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahl-qo‘sni chilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir”.¹

Muallif xalqimizning ma’naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta’kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masalaga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, muhtaram Islom Karimov keyingi asarlarida ham ma’naviy merosimizni qayta tiklash g‘oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma’naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo‘nalishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to‘xtalib insonparvarlikning o‘zbeklarga xos qirralarini ko‘rsatib berishga e’tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy

¹ Ўша жойда. 74-бет.

ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yotdir».

Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini yoshlarga yetkazish tarbiyaviy ishimizning diqqat markazida bo‘lishi zarur. Chunki milliy ma’naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma’naviyatning xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: “Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiylarini navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan yetilgan”.¹

Ma’naviyatning milliy taraqqiyotidagi o‘rni va uni o‘zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ushbu ilgari surilgan ana shu konseptual g‘oyalar bugungi kunda milliy ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilanishga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu asarda mamlakatimizda milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa ekanligiga e’tiborni qaratib quyidagi konseptual g‘oyani ilgari suriladi. U shunday yozadi: “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak deydiganlar haq bo‘lmasa kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi”. Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g‘oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki:

birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho‘rolar davrida ma’naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy inqirozining sabablarini ham ko‘rsatib beradi;

ikkinchidan, ma’naviyatni rivojlantirmsandan, shaxsning ma’naviy ruhiyatini o‘zgartirmsandan turib jamiyatda ko‘zlagan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi.

¹ Ўша асар . -Б.78.

Islom Karimovning yana bir muhim konseptual g‘oyasi ma’naviyat shaxs barkamolligining eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir. Milliy-ma’naviy tiklanishga bag‘ishlangan konsepsiyada vatanparvarlik shaxs ma’naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o‘rinni egallaydi. Haqiqatan ham o‘z Vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas’ulligini his etmagan har bir inson ma’naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Shu o‘rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa “Milliy taraqqiyot” va “Milliy tiklanish” tushunchalarining mohiyati, mazmuni va mezoni masalalaridir. Aslida ular bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha, merosi, tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o‘zaro uyg‘un holatigina milliy taraqqiyotini ta’minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o‘lchamlari (mezonlari) jihatdan ular bir birlaridan farq qiladi.

Milliy taraqqiyot – evalyutsion xarakterga ega, u quyidan yuqoriga tomon ko‘tarilishidan iborat bo‘lgan jarayonidir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma’lum bir bosqichida ma’lum obyektiv va suybektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, milliy tiklanish u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros urf-odatlar, an'analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o‘zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida milliy rivojlanishi borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilgan umummilliyl faoliyat hisoblanadi.

Islom Karimovning asarlaridagi milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasining mazmunini zo‘ravonlik yillarida toptalgan merosimizni o‘zlashtirish, urf-odatlarimizni, an'analarimizni rivojlantirish, qadriyatlarimizni mustahkamlash borasida boy berilgan imkoniyatlardan

bugungi taraqqiyotimizga yo‘naltirish, o‘zimizning milliy zaminlarimiz imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni umummilliy dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylantirish borasida har birimizning tinmay fidoyilik ko‘rsatishimiz zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Haqiqatan, ham millat qachonki milliy zaminlarga tayansagina taraqqiyotga erishishi mumkin. U hech qachon o‘zgalarning ma’naviy yordami bilan millat darajasiga ko‘tarila olmaydi hamda ma’naviy rivojlanishga erisha olmaydi.

Shuning uchun ham Islom Karimov dastlabki yozgan asardagi milliy-ma’naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag‘ishlangan konsepsiyanlarini o‘zining boshqa asarlarida ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo‘nalishlarini belgilab bergan. Xususan, ular «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin», «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz («Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar)», «Alloh qalbimizda, yuragimizda («Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar)», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», “Milliy mafkura – kelajak poydevori”, “Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman” («Fidokor»gazetasi muxbiri savollariga javoblar), “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kabi asarlari, nutqlari va muxbirlar savollariga javoblarida o‘z ifodasini topgan.

Islom Karimovning yuqorida asarlarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- *birinchidan*, ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqr o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- *ikkinchidan*, mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- *uchunchi*, ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash, sog‘lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- *to ‘rtinchidan*, milliy-ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo‘shish;

- *beshinchidan*, yoshlar ma’naviyatini milliy g‘oyamiz bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- *oltinchidan*, insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy-ma’naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Mamlakatimiz bugungi kunda yangi bosqichga qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish, yana boz ustiga zo‘ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma’rifatli, inson manfatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o‘tish oson kechmaydi, Chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O‘z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko‘rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma’lum vaqtini, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat tafakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko‘tariladi.

Mamlakatimizda ana shu yuksak muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilar bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham Islom Karimov og‘ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab bergen edi hamda uni izchillik bilan amalga oshirishga rahbarlik qildi. U mazkur dasturning ahamiyati haqida to‘xtalib: «Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘yan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob

beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»,¹-deb ta’kidlagan edi.

Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi *yana bir konseptual g‘oyasi sog‘lom avlodni, komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish zaruriyatini* ilmiy asoslanganligidir. Uning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo‘lishi, yuksak bilim, ma’naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo‘lishi kabi talablarga javob beradigan avlod nazarda tutiladi. Shuning uchun ham «farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi» – degan g‘oyani ilgari suradi.

Milliy-ma’naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirishlari katta omil ekanligi Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko‘rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo‘sadigan hissalari shunchalik samarali bo‘ladi, ma’naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Islom Karimov ishlab chiqqan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri bergen savollariga bergen javoblarida dunyo xalqlari ma’naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o‘zbek tilida yoshlarimizga etib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta’kidlaydi: «Dunyo tan olgan ko‘p ulug‘ faylasuflarning asarlari hanuz-gacha o‘zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyorilar, xususan, yoshlarimiz ularning g‘oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nitsshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib,

¹ Баркамол авлод орзуси. –Т.: Шарқ, 1999. -Б. 9.

izoh va sharhlar bilan o‘zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo‘lmasa?».¹

Ko‘rinib turibdiki, Islom Karimov milliy-ma’naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilg‘or ma’naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg‘un ravishda rivojlantirish vazifasini o‘z vaqtida kun tartibiga qo‘ydi. Chunki, o‘z qobig‘idan chiqolmagan, jahon xalqlari erishgan yutuqlaridan foydalanishga intilmagan millat taraqqiy qila olmaydi. Bundan tashqari milliy taraqqiyot uchun yana bir qonuniyat ham borki, jahonda erishilgan yutuqlardan va tajribalaridan foydalanishga harakat qilmagan millatning o‘zi ham umumjahon sivilizatsiyasiga o‘zining hissasini ham qo‘sha olmaydi.

Shu ma’noda ham Islom Karimov milliy-ma’naviy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida jahon xalqlarining ma’naviy taraqqiyotda erishgan yutuqlaridan keng foydalanishimiz, ularni keng o‘zlashtirishimiz zarurligini ilmiy asoslab bergen.

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan *milliy-ma’naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasining amaliy ahamiyati* shundaki, g‘oyada milliylik va umuminsoniy ma’naviyati uyg‘un holda asoslangan. Shuning uchun ham mustaqillik yillarda milliy-ma’naviy tiklanishimiz jamiyatning barqaror taraqqiyotini va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishga xizma qiladi.

Shuningdek, uning ishlab chiqilishi milliy-ma’naviy tiklanish va ma’naviy yangilanish hamda rivojlanish konsepsiysi sifatida juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim. *Fikrimizcha ularning ahamiyati quydagilardan iborat:*

birinchidan, bu konsepsiya sobiq sho‘rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma’naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

ikkinchidan, sobiq sho‘rolarning o‘tkazgan zo‘ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan, milliy-ma’naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo‘lganligi uchun bu zo‘ravonliklarga bardosh berib, o‘z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qolonganligini tushunib yetishga, xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimiz uchun manba bo‘layotganligini tushunib yetishga;

¹Каримов И.А Миллий истиқлол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. –Т.: Ўзбекистон, 2000. –Б.27.

uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi, yoki kattami undan qat’iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun havo va suvdek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatning milliy-ma’naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga yetkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug‘ne’matni saqlab qolishi va yanada mustahkamlashi uchun fidoiylik ko‘rsatishi ma’naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon berishiga;

to ‘rtinchidan, milliy-ma’naviy tiklanishning mohiyatini, «ma’naviyat» tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o‘zlashtirish, tinmay izlanish, marifat, fan-texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o‘zlashtirish hamda I.A.Karimovning bugungi taraqqiyotimizni ta’minlaydigan «Kuch – bilim va tafakkurda»- degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual g‘oyasiga izchillik bilan amal qilishimizga;

beshinchidan, milliy mustaqilligimizni asrash va mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma’naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko‘lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummiliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylik ko‘rsatish zarurlagini anglashimizga;

oltinchidan, mamlakatimiz yoshlarining milliy-ma’naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, ularda milliy g‘urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish - mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetishimizga;

yettinchidan, milliy istiqlol g‘oyasi ma’no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma’naviy yangilanishimiz va rivojlanishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo‘nalishlarini va ko‘lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylik ko‘rsatishimizning ahamiyatini tushunib yetishimiz zarurligi va boshqalar.

Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati faqat yuqorida ko‘rsatilganlar bilan cheklanmaydi. Uning xalqaro ahamiyati ham nihoyatda kattadir. Unda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda tatalitarizmdan qutulib demokratik jamiyatni qurish tomon borayotgan bir qator mamlakatlarda ham milliy-ma’naviy tiklanish uchun katta amaliy ahamiyatga molikdir.

Zero, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi A.N.Yakovlev ta'kidlagandek, «Islom Karimov o'tmishni kelajak bilan bog'lash asosida mamlakatni modernizatsiya qilish – zamonaviy tarzda taraqqiy ettirish yo'lini tanladi. Bu maqsadga xizmat qiladigan tizim va tarmoqlar faoliyatining samaradorligini avvalo muayyan davlatning mavjud shartsharoiti, muayyan xalqning vorislik xususiyatlariga tayanadigan, ayni paytda kelajakka yo'naltirilgan ijtimoiy-madaniy an'analarga bog'liq ekanini u chuqur angladi». ¹ Xuddi ana shuning uchun ham O'zbekistonning milliy-ma'naviy tiklanish borasidagi yutuqlari xalqaro ahamiyatni ham kasb etmoqda. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiysi izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

2.3. Ma'naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning sabablari

Ma'lumki, o'zbek xalqi 130 yilcha mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma'naviy merosi paymol etildi, tarixi soxtalashtirildi, ilmiy, madaniy, binobarin ma'naviy merosga niglistik qarash hukm surib ularni o'rganish cheklab qo'yildi. Xalqimizning ongi sal bo'lmasa ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviyatsizlik, nopoliklik va yovuzlikka qarshilik ko'rsatolmay yuvvosh yashayverishga ko'nikib qolayozgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z tarixiy-ma'naviy merosidan to'laqonli, erkin-emin foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lib keldi.

Ma'naviyatimizga nisbatan yuritilgan bundayadolatsiz siyosatning salbiy oqibatlari va uni bartaraf etish vazifalari haqida Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday deb yozadi: "Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblash-maslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak"²ligini ta'kidlash bilan birga, bu boradagi

¹ Қайтадан кашф этилган мамлакат. – Халқ сўзи, 2001 йил, 9 феврал.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. -Б.78.

ishlarimiz nimalardan iborat bo‘lishligi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan: “Birinchi navbatda milliy ma’naviyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish”¹dan iborat.

Faqat mustaqillikni qo‘lga olishimiz sharofati tufayligina ma’naviy merosi-mizni, ko‘hna va navqiron tariximizni o‘rganish, jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo‘ldik. Bunday imkoniyatlarni qo‘lga kiritishimizda xalqimizning sevimli farzandi, ulkan davlat va siyosat arbobi, yetuk olim, vatanparvar va millatparvar inson Islom Karimovning yetakchilik va rahbarlik qobiliyati asosiy rol o‘ynadi.

Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida o‘rnatalishiga ana shu omillar e’tiborga olindi. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Shuning bilan bir qatorda ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi borasida ko‘lami jihatidan juda katta vazifalar amalga oshirilishi ko‘zda tutildi. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ldi. Zero, Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz».² Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi borasida erishilgan yutuqlarni xalqimiz adolatli ravishda Islom Karimov nomi bilan bog‘laydi.

Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi borasida I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy konsepsiya yaratganligida namoyon bo‘ldi. Ular:

a) milliy-ma’naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma’naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab bergenligida;

b) milliy-ma’naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatda o‘tish sharoitidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab bergenligida va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma’naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy

¹ Ўша жойда.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. –Б.18.

tafakkur taraqqiyotida yangi yo‘nalish boshlab berganligida ham namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ham u ishlab chiqqan konseptual g‘oyalarini chuqur o‘zlashtirish va uni real hayotimizga tatbiq qilishda fidoyilik ko‘rsatish mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta’minlashda katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ma’naviyatning jamiyatimiz taraqqiyoti va komil insonni tarbiyamashdagi o‘rni haqida Islom Karimovning «Barchamiz oddiy bir xaqiqatni yana bir bor chuqur anglab yetishimiz shart – ma’naviyat sohasida bo‘shliq bo‘lmaydi»¹, - degan ko‘rsatmasidan kelib chiqadigan bo‘lsak ma’naviyatga katta e’tibor bilan qarashimiz zaruriyati kelib chiqadi. Ma’naviyatni yuksaltirish yo‘li bilan oldimizga qo‘ygan komil insonni tarbiyalash vazifasini ado etishimiz mumkin bo‘ladi. «Biz, – deb ta’kidlaydi Islom Karimov, – farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo‘lgan ta’sirlardan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon-atrofda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon-e’tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim»².

Bir so‘z bilan aytganda xalqning xohish irodasi qonuniy yo‘l bilan islohatlar yo‘li bilan qondirilishiga erishilmoqda. Ulkan ezgu ishlar amalga oshirilib borilar ekan, shu bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavflar, tahdidlar ham kuchayib bormoqda. Yuqorida keltirilgan ijtimoiy xavflarga misol sifatida ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan ushbu misolni keltirishimiz mumkin. Jumladan, “2017-yilning 8 oy holatiga ko‘ra O‘zbekistondan 577933 nafar yoshlar chet elga ish qidirib chiqib ketgan. Ularning 2,5 foizi voyaga yetmaganlar, 97,5 foizi yoshlarni tashkil etadi”. Bu borada Andijonda 70 mingdan ortiq, Farg‘onada 65 ming va Buxoroda 64 mingdan ziyod yoshlar chet ellarda ishlamoqda. Bu haqda Yoshlar ittifoqining markaziy kengash yig‘ilishida ma’lum qilingan. Yoshlar ittifoqi kengashida yoshlar ish qidirib chet elga chiqib ketayotganligining sabablarini o‘rganib, yechim izlash kimning vazifasi ekanligi so‘roq ostiga olingan”³. Bugungi kunda ham ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator islohotlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan davlatimiz

¹ Каримов И.А. Инсон манфаатлари устворлигин таъминлаш барча ислоҳат ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидур – Халқ сўзи, 2008, 9февраль.

² Ўша жойда.

³ Каранг:<http://dia.uz/uz/yangiliklar/ozbekiston/2017/11/27/ozbekiston-yoshlari-qayerga-ketmoqda>.

rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlari muammolari, ularning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo‘yildi. Bunday vazifani amalga oshirish yana ma’naviyat omiliga borib taqaladi. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qaror, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzlucksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarori qabul qilindiki, ularning asosiy maqsadi yoshlarni ma’naviy barkamol inson etib tarbiyalashdir.

2.4. Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati

Har bir inson o‘z huquqi va mas’uliyati me’yorlarini muayyan o‘lchovlarda saqlab borishga odat hosil qilgan. Afsuski, sobiq totalitar tuzum davrida ayni shu me’yorlarning asos tomirlari qirqib tashlandi, tub ma’naviy negizlariga jiddiy rahna solindi. Kommunistik aqidaparastlar diktaturasi 70 yil davomida, izchil sur’atda million-million xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosatini olib bordi. Bu tuzum turli millat, turli o‘lkalarni majburiy ravishda bir partiya tizmiga bo‘ysundirgan qurama mamlakat aholisini millatsiz, ma’naviyatsiz, mustaqil o‘y-fiksiz “kommunizm quruvchilari” atalmish qiyofasiz mavjudotlarga, dunyoga hukmdorlik orzusida bo‘lgan kichik bir guruhning irodasini qulqoq qoqmay ijro etuvchi ulkan mexanizmning “parrak” va “vintcha”lariga aylantirish niyatida edi. Va darhaqiqat, o‘z manfur niyatlarini ancha-muncha amalga oshirib ulgurdi.

XX asrning 70-yillariga kelib, aytish mumkinki, «Sovet Ittifoqi» atalmish ulkan bir hududda voqeal «manqurtlar sultanati» shakllandi. Keyinchaliklik O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining bиринчи yig‘ilishida I.A.Karimov bu haqda shunday fikr bildiradi: “Bu tuzum o‘z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o‘z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”. Ular yo‘q emas edi, hayotimizda mavjud edi. Xalq ongini, uning barcha faoliyatini markaz izmiga bo‘ysundirish asosan o‘shalarga ishonib topshirilgan edi.

Bizning xalqimiz aksariyati ushbu makr domiga to‘liq tushib qolmadidi. Chunki tuzum olg‘a surgan marksistik mafkura bizning necha

mingyllik ma'naviy merosimiz, milliy an'analarimiz, xalqimiz ruhi uchun mutlaqo begona bo'lib, faqat siyosiy va iqtisodiy qaramlik sharoitida chetdan zo'ravonlik yo'li bilan kiritilgan va shafqatsiz usullar bilan ongimizga singdirishga urinilgan edi. Ammo, taassuf bilan qayd etish lozimki, totalitar tuzumining urinishlari bari bir muayyan "natija" larga erishdi. Yozuvchi Chingiz Aytmatov juda yorqin gavdalantirib bergen «manqurtlik kasali» odamlarimiz ongida ancha-muncha tomir otib ulgurdi. 70-yillik istibdod mobaynida bolshevistik mafkuraning yakka hukmronligi, ayniqsa, 1937-1938-yillar qatag'onlaridan keyingi avlodni o'z milliy qadriyatlaridan, ma'naviy merosi-dan jiddiy begonalashuviga sabab bo'ldi. Ana shu majburiy yuqtirilgan illat ba'zi insonlar ruhiyatida hanuz qaramlik asorati sifatida namoyon bo'lmoqda. "*O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz, - deb yozgan edi I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, - bu gul bilan qoplangan yo'l emas, totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir*"¹.

Bugungi kunda ham ushbu poklanish jarayoni davom etmoqda. Yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Mustaqillik mas'uliyati ayni shu vazifalarni mukammal hal etishni taqozo qilib turibdi.

2.5. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnining oshib borishi. Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni

Ma'naviyatsiz buyuk kelajak yo'q, yuksak ma'naviyat insonlarni qudratli bo'lishga chorlaydi. Insonlar ongi, tafakkuri qanday bo'lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqyosda muomalaga kirgan sari, hosil unumliroq bo'la beradi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi yuksala beradi, o'zbeklar o'z ajdodlariga munosib ulug'vorlik kasb eta beradi.

Ma'naviyatshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanib va takomillashib borishi uning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi rolini oshirmoqda. Ma'naviyat – davlat siyosatida ustivor sohaga ko'tarildi va u o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladи.

¹ Каримов И.А. Асарлар. 1-жилд. -Б. 359.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisning birinchi sesiyasida qilingan ma’ruzasida ham ma’naviyat masalasi XXI asr bo‘sag‘asida ikkinchi ustivor yo‘nalish deb qaraldi. Hozirda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etildi. Boshqacha aytganda, o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalashimiz kerak ekanligi uqtirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bevosita ma’naviyat bilan uzviyligi oshib bormoqda, shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida belgilangan vazifalar bir qator yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olgan holda quyidagi ustivor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda “yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash; yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash; pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish” kabi vazifalarni bajarish kun tartibiga qo‘yildi¹.

Aslini olganda, hozirgi kunda ma’naviyatning ustivor sohaga ko‘tarilishining bir qator sabablari bor. Ular quydagilardan iborat:

birinchidan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi qay darajada o‘sishi bilan bog‘liqdir. Ularning ongi va tafakkurini amalga oshirmoqchi bo‘lgan vazifalar mohiyati va manfaati yo‘nalishidan kelib

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жихатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. Тошкент шахри, 2018 йил, 14 август.

chiqqan holda o‘zgartirmasdan turib ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ana shu ma’noda ham ma’naviyat jamiyat hayotini o‘zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va har qanday davlat o‘z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustivorlik bilan qaraydi.

ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq sovet mafkurasidan voz kechish bayrog‘i ostida umuman har qanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu o‘z navbatida odamlarning ma’naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkaza boshladи. Ayniqsa, matbuotlarda ba’zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish zarur, ma’naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yuzaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruhiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida yetakchi o‘rinni egallay boshladи. Bu o‘z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida qanchalik gapirmaylik, u o‘zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlarga ustivorlik berishga xizmat qila boshladи. Bunday salbiy jarayonning yuzaga kelishi yangi jamiyat qurish uchun xatarli.

uchinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoldi, ko‘pchilik hollarda yoshlarning ta’lim olish, kasb o‘rganish, san’at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko‘ra bozorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yuzaga keltirdi. To‘g‘ri, pul topish, o‘z hayotining iqtisodiy imkoniyatini mustahkamlash har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo‘lmasligi, ularning ma’naviy qashshoqlashib ketishiga xizmat qilmasligi lozim. Ana shu yuzaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

to‘rtinchidan, sobiq ittifoq sharoitida fan, texnika, maorif, oliy ta’lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltirish va rivojlantirishda ko‘pgina yutuqlar qo‘lga kiritilgan edi. Ammo, ular markaz va qolaversa «katta og‘a» manfaatlariga xizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq ittifoqdosh respublikalarga turli bahonalar bilan rus millati vakillarini yuborish, ularni mahalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, xarakterini singdirish hisobiga mamlakatda rus millati ma’naviyati ustivorligiga tayanuvchi yagona til, ma’naviyat va turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo‘ravonlik siyosati oqibatida millatlarning

o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishiga katta zarb berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yuzaga keltirdi.

Bu inqiroz millatning «yo‘q» bo‘lib ketishi xavfini vujudga keltiradi. Bunday salbiy jarayonning oldi olinmasdan, millatning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. Uni bartaraf etish faqat milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

beshinchidan, ma’naviyatning davlat siyosatida ustivor bo‘lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat’iy nazar, uning real subyekt, ma’lum moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste’molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o‘zining mustaqil o‘rniga ega bo‘lishi kabi omillarni, ya’ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

oltinchidan, o‘zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘sghan xalqdir. Uning ma’naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Ammo sho‘rolar tuzumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o‘zbek xalqining ongi va qalbidan «chiqarish» borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa uni qayta tiklash, jahon sivilizatsiyasidagi munosib vaadolatli o‘rnini tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma’naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

yettinchidan, ma’naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma’lum maqsadlar sari davlat atrofiga uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, yorqin kelajakka ishontiruvchi, inson zotini ulug‘lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan «mexanizm» hamdir. Xuddi ana shu muhim «mexanizm»dan mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish, millatimizning qaddini ko‘tarishda foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj davlatimiz, eng avvalo muhtaram Islom Karimov tomonidan o‘z vaqtida anglab olindi.

Ana shu sabablar va ehtiyojlar mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin ma’naviyatni rivojlantirish va milliy merosni qayta tiklashni davlatimiz hayotida ustivor siyosat darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi.

1998-yilning 24-iyulida Vazirlar mahkamasi «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Yuqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga

oshirishda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligiga xalqimiz e’tibori qaratildi.

Ana shu muhum hujjatlar mamlakatimizda ma’naviyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma’naviyatni rivojlantirishdagi davlat siyosati Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – kelajak poydevori”; “Kuch – bilim va tafakkurda”; “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” degan konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlariga monand ravishda amalga oshirilgan bo’lsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev tomonidan esa “Milliy tiklanishdan- Milliy yuksalish sari” konsepsiysi asosida davom ettirilmoqda.

Ma’naviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko‘tarilmoqda. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilangina bog‘liq bo‘libgina qolmasdan, balki uning barqaror rivojlanishga tahdid solishga urinayotgan tashqi turli oqimlarning mavjudligi bilan ham bog‘liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi turaoladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy vatanparvarlarni tarbiyalash ma’naviyatni yuksak darajada rivojlantirishini taqozo qilmoqda.

Agar ana shu vazifalardan kelib chiqiladigan bo‘lsa bugun ma’naviyatni rivojlantirishni quydagi yo‘nalishlarda olib borish talab etiladi:

birinchidan, sobiq sovet totalitar tuzumining zo‘ravonlik va tobelik tafakkuri qoldiqlaridan qutilish. Buning uchun har bir insoning ichki ruhiy salohiyatini yuzaga chiqarish, fikr erkinligini ta’minalash, har bir shaxsning o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratish imkoniyatini hamda ruhiyatini shakllantirish;

ikkinchidan, har bir shaxsda mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, o‘zbek millatiga mansubligidan faxrlanish, avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni egallash va ularni mamlakat va milliy taraqqiyotiga keng jalb qilishda fidoiylik ko‘rsatish zarurligini anglash ruhiyatini mustahkamlash;

uchinchidan, har bir shaxsda milliy o‘zligini anglash jarayonini rivojlantirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishi, mamlakat va milliy taraqqiyotga, siyosiy, ijtimoiy hamda millatlararo barqarorlikka, diniy bag‘ri- kenglikka putur yetkazuvchi har qanday

harakatlarga qarshi ma’naviy-siyosiy va fuqarolik salohiyatiga ega bo‘lishiga erishish;

to ‘rtinchidan, har bir shaxsning bilim olishga intilishiga, mamlakatimiz va jahonda fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan yutuqlardan bahramand bo‘lishiga sharoitlar yaratish, O‘zbekistonning jahonda nufuzining mustahkamlanib borishidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-ruhiy salohiyatiga erishish kabi yo‘nalishlarda.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarimizda ana shunday salohiyatlarni shakllantirishimiz umumma’naviy yuksalish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o’zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g’oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda»¹.

Bunday ijobiy ko‘rsatkichlarga mamlakatimizda ma’naviy yuksalishga qaratilgan siyosatning olib borilayotganligi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2.6. Mustaqillik ma’naviy merosi va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi. Ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o‘tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Islom Karimov «Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona-yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”,²- deb ta’kidlaydi. Uning «O‘zlikni anglash tarixni

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. –Т., 2021.

² Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.-Б. 30.

bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish hayotdan judo bo‘lish demakdir»¹ - degan g‘oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy merosimizni chuqur o‘rga-nish zarurligi milliy-ma’naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir

Mustaqillik tufayli bizning ma’naviy qadriyatlarimiz, o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o‘zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, “progressiv-reaksion” atalmish zo‘raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur’oni karim, hadisi shariflar birinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi, Nosiriddin Rabg‘uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa “soviet davrida” hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo‘liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari – Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg‘ularini uyg‘otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug‘vor monumenti o‘rnatalishi o‘zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixon hislaridan o‘chmas yog‘du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma’rifat,adolat, hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o‘rin ola boshladi. “Bosmachi” deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o‘z qadrlariga loyiq baholandilar.

Mustaqillik yillarida ma’naviy merosimiz rahnamolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi va etilmoqda. Chunonchi, Bahouddin Naqshbandning 675; Najimiddin Kubroning 850; Imom al-Buxoriy hazratlarining 1225; Ahmad al-Farg‘oniyning 1200; Jaloliddin Manguberdining 800; Amir Temurning 660; Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik tavallud kunlari; “Alpomish” dostoni va Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilliklari nishonlandi.

Mustaqillik yillari Quroni karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib ko‘p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to‘rt jildlik hadislari; Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to‘plami; ko‘plab Qur’oni karim sharhlariga oid kitoblar chop etilganligini va ulardan xalqimiz bahramand bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

¹ Каримов И. А .Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т: Шарқ, 1998.-Б. 5-10.

Mustaqillik yillari Ramazon va Qurbon Hayit kunlari diniy qadriyatlarimiz bayram sifatida nishonlanmoqda. Navro‘z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotida mustahkam o‘rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko‘plab masjid va madrasalar ta’mirlandi, yangilari barpo etildi.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz qurbonlari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlandi. Qatag‘on yillarda Vatanimiz mustaqilligini ta’minalash yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrida Shahidlar hiyoboni barpo etildi.

Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma’naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500; Qarshi shahrining 2700; Marg‘ilonning 2000; Toshkent shahrining 2200 yilliklari katta tantanalar bilan nishonlandi.

1991-yil – *Alisher Navoiy yili* deb e’lon qilindi va o‘sha yil to‘kin kuzning birinchi oyida o‘zbek milliy ma’naviyatining quyoshiga bag‘ishlanadigan asosiy tantana va tadbirlarni o‘tkazish belgilandi.

Mustaqillik yillarida o‘tgan ulug‘ shoir va adiblarimizning yubileyalarini o‘tkazish ham qutlug‘ an'anaga aylanib bordi. 1993-yili atoqli shoir G‘afur G‘ulomning 90 yilligi va shoh-shoir va ulug‘ adib Zahiriddin Muhammad Boburning 510 yilligi tantanalari o‘tkazildi va Andijonda “Bog‘i Bobur” barpo qilindi. 1994-yilda Sho‘rolar zamonida faqat hukmdor bo‘lgani tufayli nomi qoralangan ma’rifatparvar shoh va iste’dodli shoir Muhammad Rahimxon Feruzning 150 yillik yubileyi nishonlandi. 1997-yili noyabrda Abdulhamid Cho‘lponning 100 yilligi, 1999-yili buyuk tasavvuf shoiri Pahlavon Mahmudning 750 yilligi va ulug‘ shoir va tarjimon Ogahiyning 190 yilligi keng ko‘lamda bayram qilindi. 2003-yili G‘afur G‘ulomning 100 yilligi munosabati bilan shahar markazidagi shinam madaniyat va istirohat bog‘i uning nomiga qo‘yildi va shu bog‘da unga ulug‘vor haykal o‘rnatildi. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniylarini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisidir. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmog‘i zarur.

Bizning o‘tmish madaniyatimiz butun insoniyatni o‘ziga rom etib kelayotgan markaz bo‘lib kelayotganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san’at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyyaratgohga aylangan. Mustaqillik davrida o‘zbek olimlarining kuchg‘ayratlari bilan tariximizning ko‘pdan-ko‘p g‘oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri - XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi.

Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir, Chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola o‘z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so‘zida ifodalananadi. O‘z xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin emas. Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi – yosh va mustaqil O‘zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o‘zgartirish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishda yordam beradi.

Mavzu bo‘yicha xulosa

Milliy-ma’naviy tiklanishning mohiyatini, «ma’naviyat» tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o‘zlashtirish, timmay izlanish, marifat, fan-texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o‘zlashtirish hamda I.Karimovning bugungi taraqqiyotimizni ta’minlaydigan «Kuch – bilim va tafakkurda» degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual g‘oyasiga izchillik bilan amal qilishimizga; milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati faqat yuqorida ko‘rsatilganlar bilan cheklanmaydi. Uning xalqaro ahamiyati ham nihoyatda kattadir. Unda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda totalitarizmdan qutulib demokratik jamiyatni qurish tomon borayotgan bir qator mamlakatlarda ham milliy-ma’naviy tiklanish uchun katta amaliy ahamiyatga molikdir. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Milliy-ma’naviy tiklanish borasida erishgan yutuqlarni xalqimizadolatlari ravishda Birinchi Prezidentimiz nomi bilan bog‘laydi.

Bu borada ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy konsepsiya yaratganligida namoyon bo‘ldi. Ular:

a) milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berilganligida;

b) milliy-ma'naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatda o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab bergenligida va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab bergenligida ham namoyon bo'ladi.

Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan milliy-ma'naviy sohadagi barcha ishlar xalqimizning milliy tiklanishida, yuksalishida, o'zligini anglashga va mamlakatimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, millatimiz abadiyligini mustahkamamoqda.

Shuning uchun ham u ishlab chiqqan konseptual g'oyalarini chuqur o'zlashtirish va uni real hayotimizga tadbiq qilishda fidoyilik ko'rsatish mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashda katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga doir topshiriq va takrorlash uchun savollar.

1. Mamlakatimizda ma'naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishining asosiy sabab va omillarini izohlang va tahlil qiling.

2. Milliy ma'naviy tiklanish konsepsiyasining mazmun va mohiyati nimada?

3. Milliy ma'naviy tiklanish konsepsiyasini ro'yobga chiqarishdagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?

4. Milliy ma'naviy tiklanish konsepsiyasining amaliy ahamiyatini "Konseptual jadval"da izohlang?

5. Milliy taraqqiyot tushunchasining mohiyatini izohlang va unga ta'rif bering.

6. Milliy tiklanish tushunchasining mohiyati nimada va unga ta'rif bering.

7. Milliy - ma'naviy tiklanish omillarini "Klaster" usulida aks ettiring.

8. Milliy tiklanish va ma'naviy tiklanish tushunchalarini "Venn" diagrammasida tahlil qiling.

9. Mustaqillik ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarimizning tiklanishini "Intellektual jadval"da izohlang.

10. Mustaqillik yillarda ajdodlarimiz ma'naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi haqida "Esse" yozing.

3-mavzu: MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, ASOSIY KATEGORIYALARI, TUZILMASI, NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

3.1. Ma’naviyat tushunchasining mohiyati, mazmuni.

3.2. Ma’naviyatning turli ta’riflari. Ularning bir-biriga muvofiqligi.

3.3. I.A.Karimov asarlarida ma’naviyatga berilgan ta’riflar va ularning metodologik mohiyati.

3.4. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari: o’zlikni anglash, insoniylik, axloqiylik, ezgulik, oila, fuqarolik burchi, diyonat, iymon va b., tuzilmasi, namoyon bo‘lish shakllari.

3.5. Shaxs ma’naviyati va milliy ma’naviyat. Umuminsoniy ma’naviyat.

3.6. Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari. Milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari.

3.1. Ma’naviyat tushunchasining mohiyati, mazmuni

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. “Ma’naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda “Ma’naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir.¹

Avvalo ma’naviyat tushunchasining mazmun mohiyatini yoritish orqali inson, shaxs, millat jamiyat hayotidagi rolini, xalq tafakkurini boyitish borasidagi ahamiyatini antologik, gnoseologik jihatdan o‘rganib ijtimoiy vazifalarini, imkoniyatlari va salohiyatini ochib berishni talab etadi.

Ma’naviyat tushunchasining o‘zagini “ma’no” so‘zi tashkil etib, hozirgi zamон arab tilida ma’naviyat nafaqat “ma’no”ga oid

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. –Б.18-20.

mazmunda, shuningdek, “axloq”, “ruh”, shaxsning huquqiy maqomi mazmunlarida ham ishlatilib kelinmoqda.. Arabcha-ruscha va ruscha-arabcha lug‘atlarida “ma’naviyya” – mazmunga oid, mavhum, “духовный”, “моральный”, yuridik huquqga ega bo‘lgan jismoniy shaxs, “ma’naviyya”-(qo‘shining) – ruhiy holati – kabi mazmunlarda berilgan.¹

Lekin ma’naviyat juda keng mazmunga ega bo‘lib, u uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Uning atama sifatida shakllanishiga islom falsafasi, ilohiyot fani - kalom, tasavvuf ta’limotlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning kelib chiqishiga ko‘ra ikki o‘zakka borib taqalishi mumkin. Birinchi faraz – bu tuhuncha arabcha “ma’na” (ma’no, ma’ni) negizidan hosil bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi farazga ko‘ra, o‘zak “ma’no” ham, qadimgi Hind falsafasining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lmish “ma’nas” tushunchasiga borib taqalishi mumkin, ya’ni arab tilidagi “ma’no” uning ta’sirida mazmunini kengaytirgan bo‘lishi mumkin.

Ruslarda “duxovenstvo” (ruhoniylar, din peshvolari) va “duxovnost” tushunchalarining bir o‘zakdan yasalgani va u tarjima qillinganda ruxoniyat so‘zini tashkil etganini ko‘ramiz. G‘arb tillarida ham bu tushunchani ifodalaydigan atama “ruh” o‘zagidan yasalgan. Ushbu tushuncha xristianlik diniy an’analari mazmuniga borib taqaladiki, bu alohida o‘rganiladigan mavzudir.²

Faylasuf A.Erkayev tomonidan ma’naviyatga inson faoliyatining o‘ziga xos jihatni sifatida quyidagicha ta’rif beriladi: “*Ma’naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e’tiqod, din, diniy amaliyot, milliy goya, milliy mafkura, inson odobi, axloqiy fazilatlari, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlari, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma’nodagi orzu-havaslari va rejaları daxldordir. Manaviyat shaxsning va jamiyatning insoniyashish darjası, yani har bir narsa va hodisalarga baho berishda, ta’sir ko‘rsatishda insoniylik meyorlaridan kelib chiqib yondashishidir.* Ushbu ma’noda ma’naviyat, eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e’tiqod va qadriyatlariga aylangan g‘oyalari, me’yorlari, ideallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishi hamda ezgu niyatlarning, yuksak

¹ Русско-арабский словарь. – М. 1967, с 551; Арабско-русский словарь. – М, 1984, с 545 – 546.

² А.Эркаев. Миллий ғоя ва маънавият. – Т., 2002. – 35 – 40 betlar.

maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir”¹.

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda faylasuf Imomnazarov ta’kidlaganidek, “ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladi”, “bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi”, deya sufiyona izohlaydi faylasuf olim². Shunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi. Unga ta’rif berishda Islom Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy-ma’naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o‘zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. Uning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan bog‘liq bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutishligini uqtirib: «*Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odam-ning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir*»³ deb ta’rif bergan edilar. Bu ta’rifda inson faoliyatining barcha ma’naviy qirralari qamrab olingan bo‘lib, biz bundan buyon ma’naviyat haqida so‘z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Bir qator olimlarimiz o‘z ma’ruzalarida «ma’naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta’sir qiluvchi tizim yoki ma’naviyat- insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig‘indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir», deb ta’rif berib kelmoqdalar. Faylasuf A.Erkaevning fikricha, «*Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofaillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish,*

Ma’naviyat –	jamiatning,	millat
	ning yoki	ayrim
	birkishining	ichki
	hayoti,	ruhiy
	kechinmalari,	aqliy
	qobiliyati,	idrokini
	mujassamlashtiruvchi	
	tushuncha.	

A.IBROHIMOV,
X.SULTONOV,
N.JO‘RAYEV

¹ А.Эркаев. Маънавиятшунослик. – Т., 2018. 1- қисм. – 11-bet

² Иномназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. –Т.: Шарқ, 1996, -Б. 6.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.19.

*yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».¹ Ba’zi mualliflar ma’naviyatning mohiyatini ilohiy deb biladilar va talqin qiladilar. M.Imomnazarov dastlab «*Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur»,² – deb yozgan bo‘lsa, keyinchaliklik «*Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuriidir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi»,³ – deb yozadi.***

Olim E.Yusupov insonda mavjud bo‘ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiliyalariga ma’naviyat bo‘la olishini ko‘rsatib: «*Ma’naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir – biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir»,⁴ – deb ta’riflaydi.*

Faylasuf T.Mahmudov «*Ma’naviyat – insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, ahloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir»,⁵ -degan ta’rifni beradi.*

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida hamma ma’naviyatning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan va mualliflar o‘zlarining nuqtayi nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini o‘stirish masalasi e’tibordan chetda qolganligi ko‘rinadi. Hali yana ko‘plab olimlarimiz ma’naviyat tushunchasiga o‘z munosabat- larini bildiradilar va ana shu bildirilgan turli fikrlar asosida umumiyluk mukammal ta’rif shakllanadi.

Bugunga qadar ma’naviyat tushunchasiga mukammal ta’rif shakllanma-ganligiga sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtda «sodda» tushuncha ekanligida. Ma’naviyat ko‘proq insonning

Ma’naviyat – inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo‘lib, kishilar uning vositasida o‘zlarini anglaysilar, jamiyatni, tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti xususiyat- larini o‘rganadilar, qonunlarini kashf etadilar va ularga tayanib, o‘z turmush sharoitlari, amaliy faoliyatlari muammola rini hal etadilar.

A.JALOLOV

¹ Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. -Т.: Маънавият, 1997. -Б. 27.

² Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. –Т.: Шарқ, 1996, -Б. 6.

³ Имомназаров М . Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. –Т.: Шарқ, 1999, -Б.14.

⁴ Э.Юсупов. Инсон камолотининг маънавий асослари. –Т.: Университет, 1998.-Б.34.

⁵ Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. -Т: Шарқ, 2001. -Б. 9.

ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishidir. Inson ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to‘la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz va o‘zini rang-barang tarzda namoyon etadi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turli-tumanlik bilan toblanib, o‘zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma’naviyat tushunchasiga mukammal, har taraflama to‘liq ta’rif berish mushkulroq. Ammo respublikamiz olimlari tomonidan «Ma’naviyat» tushunchasiga berilayotgan ta’riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risida ilgari surilayotgan g‘oyalarini umumlashtirgan holatda ma’lum bir umumlashgan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib ma’naviyat – insonning ruhiyatini, uning o‘z-o‘zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, – deb ta’rif berish o‘rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta’rifni eng oxirgi, qiyomiga yetgan, mukammal deb, aytishdan yiroqmiz.

3.2. Ma’naviyatning turli ta’riflari. Ularning bir-biriga muvofiqligi

Ma’naviyat tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Ma’naviyat tushunchasiga bugungi kunda faylasuf olimlar o‘z nuqtayı nazaridan kelib chiqib turli yondashuv, qarashlarni ilgari surmoqdalar va talqin qilmoqdalar. Ma’naviyat nima, degan savolga ilmiy, siyosiy, publitsistik adabiyotlarda turlicha yondashuvlar asosida har xil fikrlar bildiriladi. G‘arbda ma’naviyat tushunchasi alohida o‘rga-nilmaydi va ilmiy tushuncha sifatida mavjud emas. Lekin biz ma’naviyat deb ataydigan hodisa, yaxlit holda bo‘lmasa-da, falsafa, etika, sotsiologiya, psixologiya, semiotika, kulturologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san’atshunoslik kabi fanlar doirasida har xil ilmiy usullar yordamida tadqiq etiladi. Ma’naviyat tushunchasi o‘rniga ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, intellektual madaniyat, axloq va boshqa shu kabi har xil atamalarning asosida qo‘llaniladi. Ma’naviy madaniyat deganda, G‘arbda ko‘proq diniy madaniyat, cherkov faoliyati tushuniladi. Uni zarur hollarda, axloqiy va intellektual madaniyat deb o‘girish urf

bo‘lgan. Ma’naviyat atamasi, to‘liq ishonch bilan aytish joizki, islom mamlakatlarida, yana aniqrog‘i, ko‘proq O‘zbekistonda tarqalgan atama. Hatto bizga qo‘shni Tojikistonda ma’naviyat atamasiga nisbatan uning boshqa sinonimi - «ruhoniyat» ko‘proq qo‘llaniladi.

Ma’naviyat – arabcha ma’ni (ma’no) so‘zidan, u esa «a’no» o‘zagidan yasalgan deb hisoblanadi. A’no - birlamchi, tub mohiyat mazmunini anglatadi. «Ma’naviya» arab tilida juda ko‘p mazmunga ega tushuncha. Lug‘atlarda uning 8-10 tagacha mazmuni qayd etilgan. Uning arabchadan kelib chiqqaniga, arabcha o‘zakdan yasalganiga shubha yo‘q. Lekin atamaning bugungi mazmuni shakllanishiga juda ko‘p ijtimoiy-madaniy va lisoniy omillar ta’sir ko‘rsatgan.

Jumladan, boshqa tillar va madaniyatlar faraz qilish mumkinki, ma’naviyat atamasi shakllanishiga «ma’ni» bilan bir qatorda sanskrit tilida mavjud bo‘lgan «ma’nas» tushunchasi ham ta’sir ko‘rsatgan. Atamaning ushbu shaklda tarqalishiga tasavvuf ilmi, xususan, Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy ma’naviy» asari katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda ma’naviyatga nisbatan mavjud qarashlarni tahlil qilsak yoki nazariyalar, ta’limotlarning umumiyligi ilmiy usulidan kelib chiqib, qanday bo‘lishi mumkinligini faraz qilsak, juda qiziqarli va o‘ta rang-barang, ayrim hollarda bir-birini to‘liq inkor qiluvchi mulohazalarni ko‘ramiz. Ularning ba’zilari falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyot va san’at ma’lumotlariga, xulosalariga tayangan va izchil ratsionalistik bo‘lsa, ba’zilarida noilmiy va irratsional unsurlar, dalillar, farazlar, vulgar talqinlar uchrab qoladi. Bunga misol qilib freydizmni, umuman, psixoanalizni ko‘rsatish mumkin. Ayrim olimlar ma’naviyatga diniy-mistik nuqtayi-nazardan yondashadilar. U inson mutlaqo tushuntirishdan ojiz, ilohiy inoyat, «qalb ko‘zi» bilan ko‘rilgan haqiqat, g‘oyibdan insonga ko‘rsatilgan hidoyat, yo‘l, ishora, ko‘ngilga solingan ijod va faoliyat, botiniy ilmlar, nozik va ilohiy his-tuyg‘ular va h.k. deb tushuntiriladi.

An’anaviy diniy-mistik qarashlar zamon ta’sirida o‘zgarib, yangi ko‘rinishlar kasb etmoqda. Bugun har xil ezoterik qarashlar, kosmos (koinot) yuborayotgan kodlashtirilgan belgilar, timsollar, ramzlar, salbiy va ijobiy energetika va shunga o‘xhash qarashlar ham jamiyatning ma’naviyat, ma’naviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlari va qarashlarida aks etmoqda.

Bugugi kundagi globallashuv jarayonlarining omillari jamiyat ma’naviy hayotini, odamlar dunyoqarashini ancha o‘zgartirib yubordi.

Inson hozirgi jamiyatda juda ziddiyatli, chalkash ta'sirlar ostida qoldi. Shu sababdan ma'naviyatga insonning asl tabiatidan kelib chiqib yondashish, ya'ni ekzistensialistik yondashuv dolzarblik kasb etmoqda. Ammo bir narsani nazarda tutish kerakki, ekzistensializmning ontologik qarashlari, bilish nazariyasi, jamiyat va inson to'g'risidagi fikrlari, xulosalari yaxlit va izchil ta'limot emas. Ekzistensializmdagi eng yaxshi jihatlarni olib, boshqa falsafiy va ilmiy usullar bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

Ayrim mualliflar, yuqorida aytilganidek, ma'naviyatning mohiyatini ilohiy deb talqin qilmoqdalar. Ular to'liq diniy-mistik nuqtayi nazarga o'tib ketmasa-da, diniy yondashuv tarafdiridir. Ma'naviyatni ular ongning to'liq tushuntirib berish mumkin bo'lмаган sirli jihatlari, insonning ruhiy kuchi, undagi tug'ma diyonat, vijdon, iymon, xudo insonning ko'ngliga solgan ijtimoiy va ijodiy moyillik, intilish, deb talqin qiladilar. Bu qarashlarga muvofiq ma'naviyat ilohiy yoki tabiiylikdan ustun hodisadir.

Ilohiy hodisalar, abadul abad o'zgarishsiz, mutlaq bo'ladi, faqat ularni tushunish, idrok etishgina o'zgarishi mumkin. Ma'naviyat haqida gapirganda esa, biz uning yuksalishi, aksariyat qadriyatlarning yangilanishi yoki, aksincha, tanazzuli, qashshoqlanishini, o'zgarishini, nisbiyligini ta'kidlaymiz. Shubhasiz, zardushtiylik negizida shakllangan uzoq ajdodlarimiz ma'naviyatidan islom negizida vujudga kelgan otabobolarimiz ma'naviyati keskin farq qiladi. Xalqimizning bugungi kundagi ma'naviyati zamonaviy qadriyatlар va mustaqillik ta'sirida nafaqat o'rta asrlardagi, hatto, sotsializm davridagi ma'naviyatidan ajralib turadi. Zero, I.Karimov ta'kidlaganidek: «Ma'naviyat uzlusiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi».¹ Fanda masala ilohiy hodisa sifatida qo'yilishi mumkin emas. Chunki fanning vazifasi tadqiq etadigan hodisalarni tekshirish, tahlil qilish, umumlashtirish va mazmun-mohiyatini, nazariyasi va amaliy qo'llanishini, rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iborat. Ilohiy hodisalar fanning emas, dinning, ilohiyot ilmining obyekti bo'lishi mumkin. Fanning obyektini esa tabiiy, ijtimoiy va ruhiy-intellektual hodisalar tashkil etadi. Fan o'rganayotgan hodisaga his-hayajondan, xayoliy orzu-istiklardan, subyektiv xohishdan kelib

¹ Ислом Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-китоб. - Т.: «Ўзбекистон», 1999. – 302-б.

chiqib emas, balki xolis va ratsional, aniq ilmiy dalillarga tayangan holda yondashadi.

Chop etilayotgan ba'zi kitoblarda ma'naviyat ba'zan ongning, ba'zan axloq va e'tiqodning, ko'pincha ma'naviy madaniyatning sinonimi, ma'nodoshi, ba'zan hatto ularning hammasini ifodalaydigan yig'ma tushuncha sifatida ishlataladi. «Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan madaniyatning insoniyat, shaxs ongida ifodalanishidir. Madaniyat mazmun jihatdan nihoyatda keng bo'lib, har bir tarixiy davrdagi ma'naviyat uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi»¹, - deb hisoblaydi E.Yusupov. Ko'rinish turibdiki, ma'naviyat bu yerda ongning madaniyatni aks ettirishiga ko'ra, mazmun jihatdan nisbatan ajralib turadigan bir bo'lagi, ideal hodisa deb to'g'ri, ammo biroz torroq talqin qilinmoqda.

Sovet davrida bitilgan falsafiy va kulturologik asarlarda doimo «ma'naviy hayot» va «ma'naviy dunyo» haqida so'z yuritilgan. Ammo bu tushunchalar doirasida «ma'naviyat» alohida tahlil etilmagan. Rus olimlari haligacha bu an'anani davom ettirib kelmoqdalar.

Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning ezgulik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan tizimidir hamda ularni yaratish jarayonidir. Ushbu xislat va fazilatlar hayvonot uchun xos emas. Ammo ularning muqobilari – axloqsizlik, g'araz, hasad va hokazolar ham hayvonlarda uchramaydi. Keyingilar ma'naviyatga emas, balki ma'naviyatsizlikka aloqador. Demak, ma'naviyat bu shunchaki insonga xos belgilari yig'indisi emas, balki ijobjiy xislatlar, fazilatlar majmuidir. «Inson ongli faoliyatining; tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobjiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarga ma'naviyat deb ataladi».²

Ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan birga, «ma'naviy madaniyat» deb atalmish dunyoviy ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot – ibodat, taqvo, diniy marosimlar va hokazo, diniy

¹ Э.Юсупов. Ҳадисларда дунёвий ва диний ғояларнинг боғлиқлиги. - «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар» журнали, 1994, 5-сон.

² Э.Юсупов, Ў.Юсупов. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти. - Хўжанд: 1996, 29-б.

adabiyot, diniy san’at kabi boshqa ko‘plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarni qamrab oladi. Insonning hayotga munosabati rivojlanishi jarayonida uning ongi, ayniqsa, ilmiy, falsafiy, diniy tasavvurlari boyib boradi, o‘zgaradi. Shu boisdan turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning qarashlari, ijtimoiy baholari va mo‘ljallari, qadriyatlari o‘zaro farq qiladi.

Shubhasiz, zardushtiylik negizida shakllangan uzoq ajdodlarimiz ma’naviyatidan islam ta’sirida boyigan ota-bobolarimiz ma’naviyati keskin farq qiladi. Keyinchalik “ma’naviyat” so‘fiycha ta’limotni emas, balki insonning olamga munosabati, ijodkorlik qobiliyatini, ilmiy, falsafiy, axloqiy, badiiy, diniy qarashlarini – umuman keng ma’nodagi aqliy va hissiy dunyosini, irodasini ifodalay boshlaydi.

3.3. I.A.Karimov asarlarida ma’naviyatga berilgan ta’riflar va ular-ning metodologik ahamiyati

Ma’naviyat tushunchasi, uning mohiyati haqida turli adabiyotlarda bildirilayotgan fikrlar haqida oldingi mavzuda to‘xtalib, ularning metodologik asosi sifatida Islom Karimov tomonidan berilgan ta’rifni ko‘rsatib o‘tgan edik. Uning ma’naviyat tushunchasiga berilayotgan ta’riflar, uning jamiyat va shaxs kamolatga o‘rnini ko‘rsatib berishda metodologik asos bo‘lishining ikki sababi bor:

birinchidan, Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin nafaqat mamlakatimizda, shuningdek, butun MDH mamlakatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo‘lib, «Ma’naviyat» tushunchasini ilmiy iste’molga kiritdi, uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rnini ilmiy asosladi hamda uni amaliyotga tatbiq etib kelmoqda.

ikkinchidan, u mamlakatda olib boriladigan islohotlarni ma’naviy sohada olib boradigan islohotlar bilan uzviy ravishda olib borish zarurligini ilmiy asosladi va unga o‘zi rahbarlik qildi. Islom Karimov ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi rolini ayrim davlatlar rahbarlari va olimlaridan oldin ko‘ra bildi. Bu endi taraqqiyot yo‘liga kirayotgan mamlakat uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bularning hammasini jamlaganda aytish mumkinki, Islom Karimov tomonidan «Ma’naviyat»ga berilgan ta’rif to‘la qonli ilmiy-falsafiy ta’rif bo‘lib, uning barcha funksional qirralarini o‘zida qamrab olgan. U «Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat,

iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.»¹ - deb ta'kidlaydi. Mazkur ta'rif o'zining mazmuni va mohiyati bilan «Ma'naviyat»ning barcha qirralarini o'ziga qamrab olgan. Unda insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi barcha komponentlar o'z ifodasini topgan va uning inson barkamolligini ta'minlaydigan katta kuch ekanligi belgilab berilgan. Islom Karimov «Ma'naviyat»ga ta'rif berishda, uning jamiyat taraqqiyotiga o'tkazadigan ta'sirini ham hisobga oladi va uni rivojlantirish zaruriyatini o'z asarlarida har doim ta'kidlab kelgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'naviyatni shaxs, millat davlat va jamiyatning qudratlil kuchi sifatida hamda shaklan va mazmunan uyg'un holatda o'rganish faqat mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingina boshlandi. Ma'naviyatni bu shaklda o'rganish esa hech mubolag'asiz aytish mumkinki, mustaqillik sharoitidagi milliy tafakkur taraqqiyotimizda *yangi yo'nalishdir*. Bu yo'nalishning paydo bo'lishi va uning konseptual g'oyalalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish Islom Karimov nomi bilan bog'liqdir. Uning asarlari, risolalari, ma'ruzalarida ma'naviyat tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Bu ma'naviyatni mustaqil omil sifatida o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki har qanday ilgari surilayotgan g'oyalarning mohiyati ochib berilmas ekan, uning jamiyat taraqqiyotida millat va shaxs kamolotidagi rolini belgilash mumkin bo'lmaydi

Islom Karimov milliy taraqqiyotimizning dasturi darajasiga aylangan birinchi asari «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» dayoq ma'naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib berib, shunday yozgan edi: «Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchilik bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi». ²

Islom Karimov ma'naviyat tushunchasi mazmunini ochib berar ekan: «Yer, oila, ota-on, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar,

Ma'naviyat –
insonning ruhiyatini, uning
o'z-o'zini anglashi, didi,
farosati,adolat bilan
razilllikni, yaxshilik bilan
yomonlikni, go'zallik bilan
xunuklikni, vazminlik bilan
johillikni ajrata bilish
qobiliyatini, aql-zakovatini,
yuksak maqsad va
g'oyalarni qo'ya bilish,
ularni amalga oshirish uchun
harakat qilish va intilish
salohiyatidir.

I.KARIMOV

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.-Б. 19.

² Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. -Т.: Ўзбекистон, 1993.-Б.78.

xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng»¹ - deb ta’kidlaydi.

Ma’naviyat o‘z-o‘zidan shakllanadigan narsa emas, u avvalo har bir insonning ichki ma’naviy salohiyatini shakllantirish yo‘lida barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida halol, fidoyilik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi. Shu ma’noda ham Islom Karimov «Ma’naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak»²ligini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, Islom Karimov ma’naviyatni «tayyor» holatda qaramaydi. Uni shakllantirish va rivojlantirish, millatning chinakkam mulkiga, taraqqiyot omiliga aylantirish uchun fidoyilik ko‘rsatish zarurligini ta’kidlamoqda.

Islom Karimov asarlarini qunt bilan o‘rganib borar ekanmiz, ularda oldingi asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar keyingilarida ijodiy rivojlantirilganligi, mazmunan va mohiyatan boyitilganligini ko‘ramiz. Eng asosiysi shundaki, ana shu boyitish jarayonida jamiyat va millatimiz taraqqiyotida sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda yuzaga kelgan yangi muammolarni hal etishning nazariy asoslari o‘z ifodasini topgan. Shu munosabat bilan ma’naviyatning jamiyatni rivojlanishidagi roli haqida Islom Karimov tomonidan keltirilgan quyidagi fikrlarning mohiyatini tushunib olib, uni bevosita har birimiz o‘zimizning kundalik vazifamizga aylanti-rishimiz millatimiz va mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minalash uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir. «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analaramizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir».

Haqiqatan ham ma’naviy qashshoqlik bilan hech qachon millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma’naviyat har qanday taraqqiyot uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ma’naviyat qancha yuksak bo‘lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo‘ladi.

¹ Ўша асар.-Б. 78.

² Ўша асар.-Б. 79.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi o‘tgan davr ichida Islom Karimov asarlari va ma’ruzalarida «Ma’naviyat»ning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotida va inson kamolotida tutgan o‘rni haqidagi g‘oyalari yana ham rivojlantirilib kelindi. Islom Karimov «Ma’naviyat»ga jamiyat barcha sohalarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarning manbai sifatida qarab keladi. Shuning bilan birga ma’naviyatni mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan turli xurujlar hamda yovuz kuchlardan himoya qilishda qudratli kuch ekanligiga e’tiborni qaratadi. U «Bunday balo-qazolarga» qarshi kurashda, farzandlarimizning ma’naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur? Avvalo to‘g‘ri tarbiya, sog‘lom turmush g‘oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e’tiqod hisobidan bunga erishish mumkin»,¹ deb ta’kidlaydi. Bunday vazifani amalga oshirishning asosiy imkoniyati yoshlarimiz ongi va qalbiga ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas boyliklarni yetkazish hisoblanadi. «Ma’naviyat» tushunchasiga tarif berishda, uning jamiyat va inson kamolotida o‘rnini belgilab berishda Islom Karimovning ana shu konseptual g‘oyalari muhim ahamiyatga ega.

3.4. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari: o‘zlikni anglash, insoniylik, axloqiylik, ezgulik, oila, fuqarolik burchi, diyonat, iymon va b., tuzilmasi, namoyon bo‘lish shakllari

«Ma’naviyatshunoslik»ning kategoriyalari falsafa, estetika, etika, dinshunoslik va boshqa fanlarning tushunchalari bilan ham uyg‘unlashib ketgan. Zero, ma’naviyatshunoslik fani etika, estetika, kulturologiya, dinshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, mantiq ilmlari singari falsafiy fanlar tizimiga mansubdir. Shu sababdan u, birinchi galda, boshqa falsafiy fanlarning tushunchalaridan, kategoriyalaridan foydalanadi, ular yordamida o‘z ilmiy apparatipini shakllantiradi. Lekin boshqa fanlardan qabul qilingan tushunchalarni o‘z predmetidan kelib chiqib talqin qiladi. Ayni paytda uning faqat o‘ziga xos bo‘lgan asosiy tushunchalari va kategoriyalari bor. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari fan mazmunini yoritishda, uning metodologiyasini asoslashda muhim ahamiyatga egadir, lekin ayni paytda mazkur kategoriyalar shaxsning ma’naviy qiyofasini ochib beruvchi asosiy mezon ham hisoblanadi. Shunday ekan, ma’naviyat kategoriyasi faqatgina shaxs

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1994. -Б. 29.

ma’naviy qiyofasini yoritish uchungina xizmat qilmaydi, balki inson, millat, ijtimoiy guruh va turli elatlarning ijtimoiy, axloqiy, madaniy, iqtisodiy, ilmiy, badiiy-estetik qarashlari, faoliyatlar, ishlab chiqarishdagi xatti-harakatlari, dunyoqarashi, ijodi va yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlaridagi faoliyatlarining mezoni hamdir. Xususan, Vatanparvarlik shaxsning millat vakili sifatida o’zligini anglaganlik, mas’ullik fazilatlari shakllanishi negizida yuzaga keladi, ayni paytda Vatan oldidagi har qanday insonning majburiyati oliv fazilat sifatida qadrlanadi va shuning uchun ham shaxsning ma’naviy fazilatining asosiyalaridan biridir. Ma’naviy mezon sifatida tan olinadi.

Mazkur kategoriyalarning mazmuni juda keng qamrovli va bu mavzu doirasi bilan cheklanib bo’lmaydi, uning keyingi shaxs ma’naviy qiyofasini yoritishga qaratilgan alohida mavzularda aks ettirishga harakat qilamiz. Ma’naviyat kategoriyalarining faqat shaxs faoliyatini emas, balki mazkur fan doirasini, predmetini, tadqiqot mavzularini o’rganishning asosiy atamalari sifatida qo’llaniladi, fanning mazmun-mohiyatini o’rganish, tahlil qilish, ilmiy, falsafiy tahlil etish uchun metodologik asos vazifasini o’taydi. Har bir tushuncha falsafiy, axloqiy mohiyatga egadir va u inson manfatlari, faoliyatlar, fazilatlari o’lchovi va mezonidir. Zero ma’naviyat kategoriyalarini ularning uyg‘unligisiz tassavvur ham qilib bo’lmaydi. *Uning kategoriyalariga inson, millat va jamiyat hayoti, munosabatlari bilan bog’liq bo’lgan quyidagi tushunchalar kiradi:*

-*shaxsning o’z-o’zini anglashi maqomida*: bilimdonlik, qalbitozalik, saxiylik, samimiylilik, hayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo’ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar.

-*shaxsning millat vakili sifati maqomida*: milliy o’z-o’zini anglash, milliy g‘urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas’uliyatni, milliy manfaat ustivorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san’at, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o’z kasbining mohir ustasi bo’lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo’lish va uni qo’llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida faollik va boshqalar bo’lsa;

-*shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida*: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi mas’ullik, jahon sivilizatsiyasi ilm-fan yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy

muammolariga befarq bo‘lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligini anglash, inson tabiatining bir bo‘lagi ekanligi, uni asrashda mas’ullik va boshqalar. (3- sxemaga qarang).

3-sxema.



Ma'naviyatshunoslik fani birinchi galda «ma'naviyat», «ma'naviy ong», «ma'naviy madaniyat», «ma'naviy muhit», «ma'naviy qadriyatlar», «ma'naviy ehtiyojlar», «shaxs ma'naviyati», «jamiyat ma'naviyati», «ma'naviy yuksalish», «ma'naviy erkinlik», «tafakkur erkinligi», «milliy g‘oya», «tolerantlik», «bag‘rikenglik». «o‘zlikni anglash», «ma'naviy asoslar» va ularning muqobil ko‘rinishlarini ifodalovchi «ma'naviyatsizlik» va h.k. tushunchalardan foydalanadi. Avvalgi mavzularda ma'naviyat, ma'naviy ong, ma'naviy madaniyat, e’tiqod, iroda, ma'naviy muhit kabi kategoriyalar va tushunchalar to‘g‘risida ancha mulohazalar yuritildi. Ularning mazmun-mohiyati va voqelik shakllarini o‘chib berishga harakat qilindi. Ularning mazmuni esa boshqa mavzularni o‘rganish jarayonida to‘laroq ochiladi.

Ma'naviyatning asosiy kategoriyalaridan biri – o‘zlikni anglashdir. Uning boshqacha sinonimi identlik (ayniyat) deyiladi. Uzlikni anglash – insonning xos, mohiyatli belgisi. Shaxs o‘zining individual identligini, ijtimoiy guruhiy, korporativ, tabaqaviy – sinfiy va

milliy identligini turli darajada anglashi mumkin: qisman, nisbatan to‘laroq, ziddiyatli, ikkilanishlar bilan, o‘z imkoniyatlariga ishonmasdan yoki o‘z imkoniyatlarini ortiqcha baholab (xudbinlik, manmanlik) va nihoyat, adyekvat (o‘z salohiyati va qobiliyatiga mos). Shunday qilib, o‘zlikni, o‘z identligini anglash, turli darajada va mazmunan har xil kechadi. «Identlik», o‘zlikni anglashni ifodalaydigan tushuncha o‘laroq, fanda keng qo‘llaniladi.

Identlik, avvalo, insonning olamdagi o‘z o‘rmini, tabiatdagi eng ulug‘ va yagona aqli, yaratuvchi jonzot ekanini bilishdir. Inson nega dunyoga keldi, uning yashashdan maqsad-muddaosi nimada, hayotining ma’ nisi ne? O‘zlikni anglash ushbu savollarga javob izlash va topishdir. Inson o‘zligini anglashi jarayonida tabiatdan, hayvonot olamidan ajralib chiqdi, ma’naviy mavjudotga aylana boshladi. O‘zlikni anglash yangi bilimlarga, yuqori ko‘rinishlarda esa haqiqatga, oliy idealga intilishdir. Shu sababdan dinda «o‘zini anglagan Rabbini (Olloohni) ham anglaydi», degan tasdiq mavjud.

Tabiatning insondan tashqari biror jonzoti o‘zligini anglay olmaydi, Chunki uning ongi, shuuri yo‘q. O‘zini tabiatdan ajrata olmaydi, o‘z oldiga reja - maqsad qo‘yib, o‘z borlig‘ini, yashash sharoitini takomillashtira olmaydi. U faqat mavjud ekotizimda muayyan pog‘onani egallaydi, uning muhim zaruriy bo‘g‘inini tashkil qiladi, xolos. Hayvonotning mavjud ekotizimdagi o‘rni, vazifalari, hayoti tabiat tomonidan avvaldan belgilangan. Inson esa aqli va mehnati orqali o‘z tabiiy yashash shart-sharoitini ham, ijtimoiy muhitini ham o‘zgartirish qobiliyatiga ega. Buning uchun u, avvalo, o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, unga yetishish uchun bilimini va mehnat. ko‘nikmasini o‘stiradi. Ishlab chiqarish qurollari yaratadi, ularni takomillashtiradi, tabiat jismlarining xossalari o‘rganadi va yangi-yangi mahsulotlar yetishtirib, muhitini, yashash sharoitini yaxshilaydi. Ongi, bilimlari o‘sgani sayin oldiga qo‘ygan maqsadlari ham o‘sса boshlaydi, yuksaladi. Demak, o‘zlikni anglash yangi bilimlarga, yangi mehnat ko‘nikmalariga yoki umumiyligilaydi, yaratuvchilikka intilish va irodasini namoyon etib, uni kuchaytirishdir.

Ontologik jihatdan maqsad va intilish yo‘q joyda o‘zligini anglash, binobarin, ma’naviyat ham yo‘q. Inson kundalik hayotiy maqsadlariga erishib, nisbatan to‘q va xavfsiz hayotini ta’minlab, bilimi va yaratuvchilagini rivojlantirish jarayonida yuksak haqiqat haqida o‘ylay boshlaydi, uni hayotining oliy maqsadiga – idealiga aylantiradi. Dastlab bu yuksak haqiqatni tabiatdan ustun turuvchi g‘ayritabiyy kuchlarda,

ruhlarda va h.k.da ko‘radi. Ularga e’tiqod qiladi. E’tiqod o‘zlikni anglashning muhim shakllaridan biridir.

Inson ijtimoiy mavjudot o‘larоq o‘zligini anglashda, bиринчи galda, o‘zini ma’lum tarixiy, etnik, lisoniy, madaniy, e’tiqodiy, siyosiy birlikning a’zosi sifatida anglaydi. O‘zini ular bilan kelib chiqishiga ko‘ra umumiylar, to‘la o‘xshash, mos - ident, deb hisoblaydi. Rivojlanmagan jamiyatlarda bu borada katta va murakkab muammolar deyarli uchramaydi. Urug‘-jamoada, qabilada qon-qardoshlik asosidagi etnik, lisoniy, madaniy-e’tiqodiy birlik o‘zaro mos keladi. Ular o‘z identligini (ayniyatini) avvalo quyidagi omillar – etnik (genetik), til, umumiylar, urf-odatlar, umumiylar, sig‘inish predmetlari va marosimlari asosida aniqlaydilar.

Biroq dunyo dinlari paydo bo‘lganidan keyin masala biroz qiyinlashdi. Chunki etnik ong (qon-qardoshlik ayniyati) va diniy ong o‘rtasida farq vujudga keldi: «Biz turkiylar musulmonmiz, ular esa musulmon bo‘lsa-da, eroniylardir yoki arablardir» qabilida. E’tiqodiy mazhablar paydo bo‘lishi diniy ayniyatni ham chigallashtirdi. «Ular shia, biz sunnigmiz», degan o‘zlikni anglashning diniy shakllari paydo bo‘ldi. Bir xalq turli tarixiy sabablarga ko‘ra, ikki, hatto uch dinga e’tiqod qilib qolgan. Masalan, bengallarning bir qismi musulmon (Bangladesh), ikkinchi qismi hinduizmga e’tiqod qiladi (G‘arbiy Bengaliya). Albatta, turli diniy e’tiqod ularning mentalitetiga, madaniyatiga, urf-odatlariga, o‘zaro aloqalariga, milliy identligiga ziddiyatli ta’sir ko‘rsatdi.

Zamonaviy jamiyatda milliy identlik masalasi ancha o‘zgardi. Endi diniy, hatto etnik identlik ba’zi hollarda birlamchi, asosiy belgilardan hisoblanmaydi. Masalan, turli xalqlarning o‘zaro aloqalari rivojlanishi, yirik shaharlarda, rivojlangan mamlakatlarda aholi tarkibining etnik xilma-xillik kasb etishi, aralash nikohlar, ular farzandlarining etnik mansubligi masalasi, odamlarning erkin harakatlanishi va yashashi va sh.k.lar keng tarqalgan bizning zamonda identlik ko‘proq qaysi tildan va madaniyatdan foydalanishga qarab yoki fuqaroning o‘z istagiga ko‘ra yoxud qaysi davlat fuqarosiligiga qarab belgilanmoqda. O‘zini rossiyalikman yoki amerikalikman deydigan, rus yozuvchisiman yoki amerikalik rejissyorman deydigan, ammo etnik jihatdan nemis, lotin, amerikalik, ukrain, belorus, yahudiy, armani, chuvash, mardvin yoki boshqa xalqqa mansub kishilar ko‘p. Bunday kishilar har doim, barcha zamonlarda bo‘lgan. AQSH, Kanada, Braziliya, umuman Lotin

Amerikasi, Yevropa mamlakatlarida milliy identlik fuqarolik bilan bir xil tushuniladi.

Fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandalari orasida etnik turkiylar salmoqli o‘rin egallaydi: Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Bedil, Mirzo G‘olib va boshqalar. Atoqli shoir O‘ljas Sulaymonovni qozoq shoiri deyish kerakmi yo rus shoiri? Tiliga ko‘ra (rus tilida ijod qiladi), u rus she’riyati vakili, ammo milliy o‘zligini anglashiga, milliy identlik tuyg‘usiga, adabiyot uchun yana bir muhim omil - obrazlar tizimiga ko‘ra, asl qozoq milliy shoiridir. Oydinlashmoqdaki, milliy identlik masalasi bugungi kunda ancha murakkab, ammo rivojlangan G‘arb mamlakatlarida dolzarbligini yo‘qotgan masaladir. Milliy identlik etnik identlikdan kengroq tushuncha. Milliy identlik, avvalo, o‘zini qaysi xalqning vakili deya hisoblashi, qaysi xalq bilan uning taqdiri birligini, ajralmasligini his qilishidadir.

Tarixan turli sabablar bilan bizning tuproqqa kelib qolgan, g‘uj yashaydigan arablar bor. Ular o‘zbek jamiyatiga to‘la integratsiyalashgan. Orasidan olimlar, yozuvchi-shoirlar, san’atkorlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Ularning etnik arabligi ongida qisman saqlanib qolgan. Lekin til, madaniyat, urf-odatlar va boshqa ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy va fuqarolik ongi bo‘yicha ular o‘zbeklar bilan ident. Ulardan birortasi «Men arab shoiriman, arab olimiman yoki arab davlati arbobiman» demaydi. Ushbu ma’noda ular milliy identlik jihatidan o‘zbek, ammo ongida etnik identlik masalasida farq qisman mavjud.

O‘zlikni anglash, albatta, millatning tarixiy xotirasi, nasl-nasabi, ajdod-larining buyuk ishlarini, yutuqlarii bilishni, ular bilan faxrlanishni, milliy g‘ururni ham o‘z ichiga oladi. Ammo o‘zlikni anglash nafaqat o‘tmish yutuqlarini, shuningdek, yo‘qotishlarini, mag‘lubiyatlarini, ularning sabablarini ham bilishni, tarixdan xulosalar chiqarib, kelgusida ularni takrorlamaslikka intilishni ham bildiradi. Bundan tashqari, o‘zlikni anglash millatning bugungi ahvolini, imkoniyatlarini, shu jumladan, kamchiliklarini to‘g‘ri tahlil qila olishni, oldiga yuksak, ammo real maqsadlar qo‘ya olishni, ularga erishish uchun milliy irodani safarbar eta olishni bildiradi. Milliy identlik – bu milliy manfaatlarni to‘g‘ri anglashdir, bu milliy jipslik, ahillikdir, mahalliychilik, guruhiy-korporativ xudbinlikdan ustun tura olishdir.

O‘zlikni anglash ma’naviy borlig’ini anglab yetishdir, kelajak rejalar, millat istiqboli haqida qayg‘urishdir. Individual darajada o‘zlikni anglash, o‘z shaxsiy manfaatlarini oila, jamoa, davlat va butun

jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga intilishdir. Shunday qilib, o‘zlikni anglash insonni hayvonot olamidan ajratuvchi, o‘z oldiga maqsad qo‘yib, ba’zan ulug‘vor maqsad qo‘yib, yaratuvchilik va ijod bilan shug‘ullanuvchi, aql-zakovati, irodasini maqsadga erishishga safarbar eta oluvchi, o‘z ijtimoiy muhitini muttasil takomillashtiruvchi mavjudotligini ifodalovchi muhim ma’naviy kategoriyyadir.

Ma’naviyat kategoriyalari orasida «tolerantlik» (bag‘rikenglik) alohida ajralib turadi. Tolerantlik ma’naviyatiing bus-butunlik, yaxlit tizim sifatidagi kategoriyyasidir. Chunki uning barcha qismlariga taalluqli. Axloqda har bir kishi axloqiy toleraitlikka muhtoj odamlar uning samimiyligini, beg‘arazligini, halolligini, niyati va bildirgan fikrlari to‘g‘riligini tushunishlarini istaydi. Ortiqcha shubhakorlik, ishonmaslik odamlarni bir-biridan sovutadi, uzoqlashtiradi. Odamlar siyosatda, siyosiy qarashlarda esa siyosiy tolerantlikka, siyosiy plyuralizmga, ko‘ppartiyaviylikka ehtiyoj sezadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tolerantlik odamlarni jipslashtiradi, o‘zaro ishonchini mustahkamlab, ma’naviy muhitni yaxshilaydi. Bu esa jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tolerantlik inson huquqlarini yuzaga chiqarishning muhim shartlaridan biridir. Aks holda odamlarni jinsiga, tiliga, millatiga, diniga, ijtimoiy kelib chiqishi va ahvoliga qarab bir-biridan ajratish, kimlarnidir kamsitish, cheklash, xo‘rlash kabi illatlar yashab qolaveradi.

Tolerantlik, yuqorida ta’kidlanganidek, ma’naviyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. Chunki u ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi qatorida, odamlarning, elatlarning, ijtimoiy qatlam vakillarining, dirlarning, madaniyatlarning bir-biriga qiziqishini uyg‘otadi. Natijada, ularning bir-biridan o‘rganishlari, o‘zaro boyishlari, rivojlanishi tezlashishi uchun imkoniyat ko‘payadi. Tolerantlik millatlarning, milliy madaniyatlarning o‘zaro aloqa qilishi, bir-biridan o‘rganib, o‘zaro boyishining birinchi shartidir. O‘zga millatga, tilga, dinga toqat qilolmaydigan kishi (xalq) boshqa xalq vakillari bilan aloqa qilmaslikka, milliy mahdudlikka intiladi. Boshqalar yutuqlarini, begona xalqniki bo‘lgani uchungina, inkor qiladi. Ularning ahamiyatini, foydalilagini tahlil qilib o‘tirmaydi.

Tolerantlik tufayli insonda ezgulik, gumanizm, sabrlilik, vijdonlilik, saxovat, mehr-oqibat, o‘zgalarga hamdardlik fazilatlari rivojlanadi. Tolerantlik konkret-tarixiy ma’naviy hodisadir. U yovuzlikni, zulmni, zo‘ravonlikni inkor qiladi.

Ma’naviyat tuzilmasi va namoyon bo‘lish shakllari. Ma’naviyatning mohiyatini o‘rganishda uning miqyosiyligini hisobga olish kerak bo‘ladi. Uni bir butun hodisa sifatida o‘rganish mumkin, lekin uning ichki tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish orqali to‘liqroq va aniq funksional jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ma’naviyatni o‘z tuzulmasiga ega bo‘lib, uning ana shu ichki xususiyatlarini, mohiyatini o‘rganishmumkin. Shunday qilib, ma’naviyat to‘rt o‘zaro uzviy bog‘liq tuzilmadan iborat:

a) *ongning, dunyoqarashning olamga faol munosabat* ko‘rinishidagi funksional jihatni (ijtimoiy ong shakllariga muvofiq – falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, huquqiy tuyg‘ular, tushunchalar, baholar, qarashlar, nazariyalar);

b) *ma’naviy madaniyat yutuqlari* (xalq og‘zaki ijodi asarlari: qo‘sishlar, dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq amaliy san’ati asarlari, adabiyot, arxitektura, dizayn, tasviriy san’at, teatr, kino, musiqa, estrada asarlari va sh.k.; fan, ommaviy axborot va tashviqot, ta’lim-tarbiya tizimi, istirohat va sport, urf-odatlar, diniy amaliyot va h.k.);

v) *iroda* (erkin tanlash, qat’iyat, fidoyilik, or-nomus, milliy g‘urur, ijtimoiy qo‘rquvni engish va h.k.);

g) jamiyatda qaror topgan *ma’naviy muhit*. Ma’naviyat shaxsning tabiat va jamiyat bilan mushtaraklashib, o‘zaro munosabatini uyg‘unlashtirishni bildiradi. Ya’ni ma’naviyat tushunchasi:

1) shaxs va jamiyat tomonidan ijtimoiy borliqni o‘z faoliyati asosi va obyekti sifatida anglab olinishini (shu boisdan ham ma’naviyat dunyoqarashning funksional jihatni bo‘ladi);

2) shaxsning, millatning muayyan xulq-atvori va yaratuvchilik faoliyati, borliqqa munosabati, borliqni qayta yaratish yoki o‘zgartirish bo‘yicha ijodiy rejalarini;

3) bu rejalarни amalga oshirish uchun, birinchidan, shaxs va jamiyatdagi qat’iyat, erk va irodani hamda, ikkinchidan, jamiyatda mavjud bo‘lgan mafkuraviy shart-sharoitni bildiradi.


Demak, ma’naviyat orqali inson tabiat va jamiyat bilan bir butunlikni tashkil qiladi, uyg‘unlashadi, olamning haqiqiy javhariga, gultojiga aylanadi. Ma’naviyat-siz inson tabiatning shunchaki bir jonzoti bo‘lib qolaverar, o‘zligini, olamdagи o‘z o‘rnini anglamas, «ikkinchi tabiat»ni yaratolmasdi.

Ma’naviyat miqyosiyligi jihatidan keng bo‘lganligi uchun uni hajm jihatdan bo‘lib o‘rganish o‘rinlidir. *Ma’naviyat tushunchasini namoyon bo‘lish shakllarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: birinshisi* – shaxs

ma'naviyati, *ikkinshisi* – milliy ma'naviyat, *uchinchisi* – mintaqaviy ma'naviyat, *to'rtinchisi* – umuminsoniy ma'naviyat. (4-sxema.)

4-sxema.

3.5. Shaxs ma'naviyati va milliy ma'naviyat. Umuminsoniy ma'naviyat



Shaxs ma'naviyati – har bir individ, Insonning o'ziga xos tarbiya negizida shakllangan, jamiyatda kamol topgan va namoyon bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlari, bilimi, dunyoqrashi, bunyodkorligi, o'zligini anglaganligidir.

Biz uchun eng muhimi, tadqiq va tahlil uchun eng qulayi – shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati. Chunki, birinchidan, ma'naviyatning asosiy namoyon bo'lishi shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati shaklidadir. Qolaversa, ijtimoiy guruh va toifalar millatning uzviy tarkibiga kirgani sababli, millat ma'naviyatini yaxshi tasavvur qilmay turib, undagi turli toifalarning alohida ma'naviy qiyofalarini gavdalantirishga urinish ishonchli xulosalar berishi mushkul.

Ma'naviyat Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik der ekanmiz, bu bilan bir narsa aniq bo'ladiki, ushbu hodisaning yuz berish makoni va voqe'an mavjud bo'ladigan yagona zamini inson ruhiyati ekan. Shu sababli masalaga yuzakiroq qaragan moddiyunchilar ba'zan ma'naviyatni ruhiyat bilan adashtiradilar. Buning sababi har ikkisi ham g'ayri moddiy bo'lganligidan hodisani uning sodir bo'lish makoni bilan farq qilmaslikdan kelib chiqadi. Inson ma'naviy kamolot imkoniga ega

bo‘lgan biz bilgan yagona moddiy mavjudot. Shaxs o‘zidagi ma’naviy kamolot imkonini yuzaga chiqara boshlagan inson. Demak, Shaxs ma’naviyati ushbu sohani o‘rganishda asosiy obyekt ekanligi o‘z-o‘zidan ravshanlashadi.

Shaxs va millat ma’naviyatining asosiy jihatlari. Shaxs ma’naviyatini o‘rganish ikki yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Birinchisi, muayyan shaxs ma’naviyatini o‘rganish, ikkinchisi, ushbu hodisaning umumiyligi jihatlarini tasnif va tadqiq etish. Imkon nuqtayi nazaridan, birinchi yo‘nalishda faqat ayrim hodisalarni, masalan, o‘tmish va bugunning umummiliy ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk shaxslari ma’naviy dunyosini o‘rganish mumkin bo‘lib, mohiyatan bu ish millat ma’naviyatining tarkibiy qismlarini o‘rganish demakdir. Chunki Millat ma’naviyati, tor ma’noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyatining majmuyidan iborat.

Har bir shaxs, o‘zi buni chuqur idrok qiladimi, yo‘qmi – qat’iy nazar, biror elat yo millatga mansub bo‘lmay iloji yo‘q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Har bir inson «o‘zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi. Buning ma’nosи, shaxs ma’naviyati voqelikda millat ma’naviyatidan ayri, undan tashqarida bo‘lmaydi. Shunday ekan, mavjud ahvolni to‘g‘ri idrok etadigan bo‘lsak, millat ma’naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lmay turib, alohida shaxs ma’naviyatini ham o‘rganish imkondan tashqari.

Bilim cheksiz. Chunki voqelik cheksiz. Inson ruhiyati cheksiz jilolarga ega, Borliq haqiqati asli behudud. Demakki, har bir shaxs ma’naviyati ikki karra bepoyon va cheksizdir (agarchi mantiqiy jihatdan cheksizlikning karrasi bo‘lmasa ham). Millat ma’naviyati ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador o‘tmishda yashab o‘tgan, bugun yashab turgan va kelajakda yashaydigan hududsiz bir miqdordagi shaxslar ma’naviyatining majmuyi bo‘lgani sababidan 3 karra cheksizlik darajasidagi hodisa sifatida tasavvur etiladi.

Ammo, har bir shaxs ma’naviyati ona allasi, mehri, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, tarixiy xotira va axloqiy qadriyatlar bilan milliy makonda shakllanadi. Uning nechog‘lik yuksaklik darjasini oila, mahalla, o‘quv muassasi, u ulg‘ayotga jamiyatdagi muhitga bog‘liq bo‘ladi.

Zero, har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari

birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi.

Agar ota-onasi, katta o‘g‘il-qizlar o‘zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomila qiladigan bo‘lsa, bu holat bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vaqtini soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odat sifatida namoyon bo‘ladi. Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga etishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimi o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.

Farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin farzandlarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Farzand tarbiyasiga e’tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Muhtaram I.A.Karimovning asarlaridagi milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasi-ning mazmunini zo‘ravonlik yillarida toptalgan merosimizni o‘zlashtirish, urf-odatlarimizni, an‘analarimizni rivojlantirish, qadriyatlarimizni mustahkamlash borasida boy berilgan imkoniyatlardan bugungi taraqqiyotimizga yo‘naltirish, o‘zimizning milliy zaminlarimiz imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni umum-milliy dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylantirish borasida har birimizning tinmay fidoyilik ko‘rsatishimiz zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Haqiqatan, ham millat qachonki milliy zaminlarga tayansagina taraqqiyotga erishishi mumkin. U hech qachon o‘zgalarning ma’naviy yordami bilan millat darajasiga ko‘tarila olmaydi hamda ma’naviy

rivojlanishga erisha olmaydi. Milliy ma'naviyat «Millat» tushunchasi bilan bog'liq. "Millat" so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi: birinchi – din, mazhab; ikkinchi – ummat ; uchinchi -xalq, qavm. Millat so'zi Qur'oni karimda ham qo'llanilgan. Qur'oni karimda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, o'z millati, qavmining e'tiqodidan kechib, boshqa millat e'tiqodiga o'tib olishi esa gunoh deb ta'riflangan. Yevropo adabiyotida qo'llaniladigan "natsiya" so'zi esa qabila, xalq degan ma'noni bildiradi.

Binobarin, bu ikki tushuncha asosida ham asosan muayyan etnik birliklarining o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi. Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ma'naviy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi.

Milliy ma'naviyat tor va keng ma'nolarda ishlataladigan tushunchadir. Tor ma'noda milliy ma'naviyat – muayyan bir elatning, millatning umumiy ruhiyati, ma'naviy merosi, qiziqishlari, manfaatlari, urf-odatlari, an'ana va marosimlarini mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlar yig'indisi va mazmunini ifodalaydi. Keng ma'noda esa, muayyan bir mamlakatda yashovchi barcha elat va millat vakillari uchun xos umumiy ruhiyat, ularning ma'naviy meroslari, qiziqishlari, manfaatlari hamda ularning urf-odatlari, an'analarini va marosimlarini mujassam-lashtirgan, ular tomonidan e'zozlanadigan ma'naviy munosabatlar yig'indisini bildiradi.

Milliy ma'naviyat – boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat ko'rinishlari boshqa xalqlarda muayyan tarzda mavjuddir. Ammo milliy ma'naviyatda boshqa xalq-larning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Shunday bo'lganda edi milliy ma'naviyat bo'lmas edi. Milliy ma'naviyat – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan ruhiy boyligi, uning urf-odatlari, an'analarini mujassam-lashtirgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Umuminsoniy ma'naviyat. Mintaqaviy ma'naviyat – bu bir hududda asrlar davomida istiqomat qilib kelayotgan millat va elatlarning bir biriga o'xhash, mos, uyg'un qadriyatlar, marosimlari, odatlari, dunyoqarshi, mentalitetining o'ziga xosligi jihatidan kelib chiqqan ma'naviy ongi, boyliklar tizimidir. Masalan, Sharq xalqlar, Osiyo xalqlari, Yaqin Sharq xalqlari, Yevropa xalqlari ma'naviyati kabi.

Mintaqaviy (regional) ma'naviyat – muayyan jug'rofiy mintaqalarga millatlariga xos, ular ushun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlarining yoki slavyan xalqlarining

ma’naviyatidagi yoki yanada kengroq doirada oladigan bo‘lsak, Sharq va G‘arb ma’naviyatidagi mushtaraklik, o‘xshashlikni olishimiz mumkin. Mintaqaviy ma’naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy ma’naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy boyliklardir. Har bir millat va elat, katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, o‘ziga xos milliy madaniyati va ma’naviyatiga ega. Ko‘p asrlar davomida shakllangan millat va elatlarning ruhiy boyligini, uning urf-odatlari, an’analari, axloq-odob me’yorlarini o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat ayni vaqtda umuminsoniy ma’naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barsha xalqlarning ma’naviy boyligi ham bo‘lib hisoblanadi. Yuksak milliy ma’naviyat hamma vaqt xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvshi vosita bo‘lib kelgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda.

Umuminsoniy ma’naviyat milliy ma’naviyatdan mazmun jihatdan shuqur va keng bo‘lib, milliy ma’naviyatni ham o‘z ishiga oladi. Demak, umuminsoniy ma’naviyat kurrai zaminimizdagi barsha elatlar, etnik guruhlar va millatlarning ruhiyati, maqsad va intilishlari, manfaatlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydigan ma’naviy boyliklar majmuidir. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklari o‘zining ko‘pmingyillik tarixiy taraqqiyot bosqishiga ega bo‘lib, ular hayotda sinalgan, millat va jamiyat taraqqiyotida ahamiyatli ijtimoiy hodisadir. *Umuminsoniy ma’naviyat uzoq va yaqin o‘tmishda yaratilgan hozirda esa ma’naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o‘chmas iz goldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, extiyoji ushun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka va taraqqiyotga yo‘llaydigan ma’naviy boyliklardir.* Umuminsoniy ma’naviy boyliklarga esa ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san’at asarlari, kashfiyot va ixtiolar, moddiy-ma’naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy tamoyil hamda me’yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobjiy ahamiyatini hesh qashon yo‘qotmaydi. Oltin zanglamas, qo‘yosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham doim qadimiy va navqiron bo‘lib turaveradi. Ular umumbashariy ma’naviyat deb yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalananish imkoniyatlari va u haqda

g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy ma’suliyat o‘z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo‘sniqchilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezbilik, yaxshilik qilish, tinchlik, do‘stlik, halollik, vijdonlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma’naviyat sanalib, ular har bir xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. O‘zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan shiqarmaslik kerak. Vijdon, bursh, baynalmilalshilik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgандир.

Globallashuv davrida ko‘p millatli davlatlar ushun milliy siyosatni to‘g‘ri, aniq ko‘zlangan maqsad asosida olib borish juda muhimdir. Bu esa taraqqiyotning jadallahuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi ko‘p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-axloqiy boyishi ushun yaxshi manba bo‘lib xizmat qilib kelgan.

O‘zlarining tarixiy vatanlaridan tashqarida yashovshi millatlar ushun hamma joyda, hamma vaqt milliy ehtiyojlarni qondira olishlari uchun zarur sharoit yaratilishini taqozo etadi. Bu talab birinchi galda milliy hududiy tuzilmalari bo‘lmagan xalqlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar, milliy siyosatga sobiq ittifoq doirasida bir yoqlama qaralar edi. U hech bir ittifoqdosh respublikada hal etilmagan edi. Milliy masala borasida sobiq markaz tomonidan bir yoqlama yo‘l tutib kelindi. Sobiq SSSRda milliy nizolar hal etilmay, yetti qulf ortiga yashirilar, ko‘zga ko‘rinmas holda tobora yig‘ila borar va chuqurlashardi. Garshi sobiq SSSR Konstitutsiyasida milliy ravnaq, milliy madaniyatlar rivoji xususida fikrlar bayon qilingan bo‘lsa-da, amalda “ulug‘ og‘a”chilik, ruslashtirish siyosati hukmron edi. Kommunistik partiya dasturida barsha millatlar va elatlarni o‘zaro yaqinlashtirish asosida milliy xususiyatlarni yo‘qotish va yagona, “madaniyatsiz”, yasama xalqni vujudga keltirish tendensiyasi davlat va hukmron partiya siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Bunga milliy maktablar sonining kamayib borishi, ish yuritishning hamma joylarda rus tilida olib borilganligi, ba’zi bir milliy urf-odat, rasm-rusm va an’analalar o‘tkazilishining man’ etilganligi kabi millatlararo munosabatlarda mavjud bo‘lgan salbiy jihatlar misol bo‘la oladi.

Millatlar o‘rtasidagi turli munosabatlarni uyg‘unlashtirish sobiq Sovet Ittifoqi hududida yangi mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala ziyraklik va noziklik bilan yondashishni talab qiladigan dolzarb masaladir. Ko‘p millatli davlatlarda milliy masalani barcha millat va xalqlar manfaatlari va ehtiyojlarini birday hisobga olmasdan hal etishga urinish yomon, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, ko‘p millatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O‘zbekiston Respublikasi ushun ham millatlararo munosabat juda muhimdir. Bu hududda asosiy millat – o‘zbeklar bilan bir qatorda o‘z madaniyati, an’analari va ma’naviyatiga ega bo‘lgan bir yuz o‘ttizdan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Bozor munosabatlariga o‘tish davrining hozirgi bosqishida demokratik va siyosiy islohotlarning borishini umumiy baholab, aytish mumkinki, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar masalasiga alohida, ehtiyotkorlik bilan yondashilmoqda.

3.6. Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari. Milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug‘ an’ana – ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o‘z muqaddas mulki deb tan olgan ma’naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala milliy ma’naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va birinchi navbatda, yosh avlod e’tiborini jalb etish maqsadini ko‘zda tutadi.

Xalq ma’naviyatini, millat ma’naviyatini sun’iy ravishda, qandaydir o‘ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o‘zgartirib ham bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa’ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi.

Islom Karimov xalq ma’naviyatini yuksaltirishda inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, “xazinalarga to‘la milliy-tarixiy an’analar bilan, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik” yaqin o‘tmishimizda jamiyatga qanchalar zarar keltirganligini qayd etib, yangicha vazifalarni olg‘a surgan edi: “Birinchi

navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘chimizdek asrash va yanada boyitish, so‘zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e’tiqodining erkinligini ta’minlashimiz kerak”¹.

1991-yil “Alisher Navoiy” yili deb e’lon qilindi va o’sha yil to‘kin kuzning birinchi oyida o‘zbek milliy ma’naviyatining quyoshiga bag‘ishlanadigan asosiy tantana va tadbirlarni o‘tkazish belgilandi. Ollohning inoyatini qarangki, xuddi ushbu tantanalar boshlanishi oldidan mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritdi va sentyabrning birinchi kuni Mustaqillik bayramiga aylandi. Islom Mir Alisher Navoiyning qutlug‘ to‘yi, shunday qilib, O‘zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi, yurtimiz, elimiz tarixida qutlug‘ keldi, unutilmas sana bo‘lib qoldi.

Sobiq totalitar mafkura ta’sirida yaqin-yaqinlargacha bizdagi ijtimoiy fanlar sohasida adabiyotshunoslikka, filolog olimlarga ma’lum darajada mensimay qarash mavjud edi. Bunga, albatta, yaqin o‘tmishdagi adabiyotshunosligmizning qusurlari ham ancha-muncha sabab borganligi sir emas. Chunki marksizm mafkurasi hukmron bo‘lgan sovet zamonida adabiyotshunoslarmizning aksariyati milliy ma’naviyatimizga butkul yot bo‘lgan va hatto dunyo sivilizatsiyasi ham mohiyatan inkor etgan «sotsialistik realizm» deb nomlanuvchi soxta «nazariya» domiga tushib, XX asrda yaratilgan barcha adabiy merosni ushbu qolipga moslashtirish yo‘lidan bordilar. Bu haqda jild-jild «ilmiy tadqiqotlar» yaratildi, odamlar doktor, professor, hatto akademiklik-gacha daraja va unvonlarga sazovor bo‘lishdi. Mumtoz adabiyotimiz bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda bu illat bevosita va ochiq namoyon bo‘lma-sa-da, marksistik mafkura ta’siriga berilish bu sohada ham sezilarli edi. Agar xolis yondashilsa, ilmiy adabiyotlarga nisbatan badiiy adabiyotda Borliq haqiqatini uyg‘un his etish tamoyili ustun turadi. Ayniqsa, bu holat Navoiy she’riyati darajasidagi falsafiy teranlikda ham badiiyat namunalari yaqqol o‘zini namoyon etishi sir emas. Shu sababli ham Alisher Navoiy badiiy olami millatimiz ma’naviyati uchun doimo yo’lchi yulduz vazifasini bajarib kelgan va kelgusida ham shunday bo‘lib qoladi.

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият.-Т.: Ўзбекистон, 1994.-Б. 65-66.

Parijda, YUNESKO ijroiya kengashida so‘zlagan nutqida Islom Karimov: «Vatanimiz asrlar mobaynida jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblangan»¹, deb ta’kidlagan edi. Ammo yurtimizda 70 yil hukmronlik qilgan sobiq totalitar tuzum makkorlik bilan o‘z asoratiga olgan xalqlarning buyuk o‘tmishini avlodlar xotirasidan o‘chirmay turib manfur maqsadlariga yeta olmasligini yaxshi bilar edi. Shu sababli tinimsiz kurash g‘oyasini hayot ma’nosи deb e’lon qilgan «dohiyalar»ning sodiq shogird va izdoshlari nafaqat tirik «dushmanlar» bilan kurashdilar, balki millatlarning o‘tmish ma’naviy merosi bilan ham tinimsiz “jang” qildilar.

Mustaqillik tufayli bizning ma’naviy qadriyatlarimiz, o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o‘zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, «progressiv-reaksion» atalmish zo‘raki qoliplarga tiqishtirilmamasdan tiklana boshladi. Qur’oni karim, Hadisi shariflar birinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Nosiriddin Rabg‘uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa sovet davrida, hatto, nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo‘liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari – Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileyлari millatimizning ruhida poklanish tuyg‘ularini uyg‘otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug‘vor haykali o‘rnatalishi o‘zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o‘chmas yog‘du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma’rifat, adolat, hurriyat sari etaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o‘rin ola boshladi. «Bosmachi» deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o‘z qadrlariga loyiq baholandilar.

Sobiq tuzum davrida ajdodlarimiz merosini o‘rganish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholashda unutmaslik lozimki, buyuk allomalarimizning qarashlari ularda asl holidek aks etgan emas, balki begona qoliplar, yot andozalarga moslab sun’iy talqin etib kelingan. Tan olish kerak, sobiq tuzum davrida olimlarimiz, tadqiqotchi-larimiz shaxsan qanchalik pok, samimi bo‘lishmasin, ajdodlar merosiga xolis yondashuv imkoniga ega bo‘lgan emaslar. Ular ba’zan o‘zlari to‘g‘ri deb o‘ylagan holda, ba’zan majburiyatdan yo‘jni bor, borni yo‘q qilib

¹ Каримов И.А. Асарлар. 4-жилд.-Б.332.

ko'rsatganlar, ajdodlarimiz so'zini xolis, mintaqa ma'naviyatining amaliy va nazariy takomili mantiqiga muvofiq tarzda emas, marksistik mafkura talablariga mos yo'nalishda talqin etganlar. Natijada o'tmish merosimiz namunalari bilan asl qo'lyozmalardan, to'liq matnlardan emas, ommaviy nashrlar asosida tanish bo'lgan ko'pchilik oliv ma'lumotli mutaxassislar ham yagona hukmron ideologiya ruxsat bergen «haqiqat-lar»dan o'zga haqiqatlar mavjud ekanligidan deyarli bexabar tarbiya topganlar. Bugun ziyolilarimizning ko'pchiligi ma'naviy merosni to'g'ri idrok qilishga qiynalayotganliklarining sabablaridan biri ham shunda. Demak, o'tgan 70 yillik davrda ma'naviy merosni o'rganish bo'yicha qilingan ishlarning amaliy tomonlari nashrlar, ma'lumotlar bugun uchun xizmat qilishga yaroqli bo'lsa ham, g'oyaviy-nazariy yo'nalishlar, talqin va xulosalar, andaza va tushunchalar barchasi jiddiy va diqqat bilan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi va bu milliy ma'naviyatimiz nazariyasini to'g'ri, asliga muvofiq shakllantirishda o'ta muhim muammolardan biridir.

Mavzu bo'yicha xulosa:

Ma'naviyat – insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razilikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rifni eng oxirgi, qiyomiga yetgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas. Uning mohiyati bir qator kategoriyalarda namoyon bo'ladi. Ma'naviyat kategoriyalarning mazmuni juda keng qamrovlidir. Ma'naviyat kategoriylarining faqat shaxs faoliyatini emas, balki mazkur fan doirasini, predmetini, tadqiqot mavzularini o'rganishning asosiy atamalari sifatida qo'llaniladi, fanning mazmun-mohiyatini o'rganish, tahlil qilish, ilmiy, falsafiy tahlil etish uchun metodologik asos vazifasini o'taydi. Zero ma'naviyat kategoriylarini ularning uyg'unligisiz tessavvur ham qilib bo'lmaydi. Uning kategoriylariga inson, millat va jamiyat hayoti, munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi tushunchalar kiradi:

-shaxsning o'z-o'zini anglashi maqomida: bilimdonlik, qalbitozalik, saxiylik, samimiylilik, xayrihohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar.

-shaxsnинг millat vakili sifati maqomida: milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma’suliyatni, milliy manfaat ustivorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san’at, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo‘lish va uni qo‘llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida faollik va boshqalar;

-shaxsnинг jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi ma’sullik, jahon sivilizatsiyasi ilm-fan yutuqlarini egallah, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolariga befarq bo‘lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligini anglash, insonning tabiatining bir bo‘lagi ekanligi, uni asrashda ma’sullik va boshqalar.

Mavzuga doir topshiriq va takrorlash uchun savollar.

1. Ma’naviyat tushunchasining mazmun mohiyati yoriting
2. Ma’naviyat tushunchasiga berilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qiling.
3. Ma’naviyat kategoriyalarni konseptual jadvalda aks ettiring va izohlang.
4. Ma’naviyatning tuzulmasi va uning namyon bo‘lish shakllarini Klaster usulida aks ettring va izohlang?
5. Shaxsnинг o‘z-o‘zini anglashi maqomini qaysi fazilatlar tashkil etadi?
6. Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari izohab bering va misollarda yoriting.
7. Milliy ma’naviyatimizning teran tomirlarini nimalar tashkil etadi va uni Klaster usulida aks ettiring.
8. Sobiq Ittifoq tuzumi davrida ajdodlarimiz merosini o‘rganishga qanday munosabat bo‘lgan?
9. Sobiq tuzum davrida ajdodlarimiz merosini o‘rganish ahvolini mustqillik davri bilan qiyosiy tahlil qiling va “T-sxema”da yoriting.

4-mavzu: MA’NAVIYATNING VUJUDGA KELISHI (GENEZISI) VA DASTLABKI RIVOJLANISH DAVRI

4.1. Ma’naviyat ijtimoiy hodisa.

4.2. Insonning ijtimoiylashuvi va ma’naviyat. Insonning bioijtimoiy xususiyatlari, ibtidoiy sinkretizm.

4.3. Ma’naviyatning vujudga kelishiga oid turlicha qarashlar. Mehnat nazariyasi, ong, tafakkur, nutq, til, e’tiqod, o’zlikni anglash.

4.4. Moddiy va ma’naviy ehtiyoj birligi.

4.1. Ma’naviyat ijtimoiy hodisa

Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy taraqqiyot davri jarayonida kechib, insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va ijtimoiy-lashuvi, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvi, nutq, mehnat, ong va tafakkurning shakllanishi hamda o‘zini anglashi natijasida yuzaga keldi. Inson ongi-shuuri orqali tabiatni borliqni, inson va jamiyatni anglaydi, lekin uning ongi, qalbi va tafakkurisiz anglanmagan hodisa ma’naviyat bo‘la olmaydi.

Ma’naviyat faqat insonga, jamiyatga xos hodisa. Lekin u ilohiy yoki g‘ayri-tabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. U inson faoliyati bilan bog‘liq. Inson ma’naviy omillarga ehtiyoj sezib yashaydi, undan oziqlanadi, ruhan qoniqadi, zuhrlanish, qiziqish, izlanuvchan va ijodkorlik ma’naviyat sarchashmalarini yaratishga turtki bo‘ladi. Tabiatda ma’naviyat yo‘q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilariga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo‘y yoki kufr botqog‘iga botgan va h.k. deya olmaymiz. Masalan, odobli, vijdonli yoki tarbiya ko‘rmagan, vijdonsiz bo‘ri, degan ibora mutlaqo ma’nisiz (ba’zan ramziy yoki hajviy mazmunda ishlatilishi mumkin). Tabiat uyg‘unlikka asoslangan bo‘lsa-da, u ma’naviyatning subyekti emas. Ammo, tabiat ma’naviyatning obyektlaridan biridir. Tabiatdagi mavjud go‘zallik, uyg‘unlik san’at asarida aks etishi (rassom, bastakor, shoir, yozuvchi asarlari, foto, tele, kinotasvirlarda va h.k.), alohida kishining yoki ekskursiyachi guruhning zavq-shavq olish manbaiga aylanishi mumkin.

Inson ongi-shuuridan o‘tmagan, inson va jamiyat tomonidan anglab olinmagan hodisa ma’naviyat bo‘lolmaydi. Shu sababdan ijtimoiy hodisa sifatida ma’naviyat, birinchi galda, moddiy emas, balki

ideal hodisadir. U barqaror insoniy tuyg‘ular, tushunchalar, baholar, me’yorlar va ideallar – qadriyatlar tizimidir. Lekin inson va jamiyat hayotida moddiy va ideal hodisalar bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, ular qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi. Moddiy hodisalar anglab olinishi jarayonida ideallashadi, subyektivlashadi, ya’ni inson (jamiyat) ongingin bir bo‘lagiga aylanadi. Aksincha, inson ongi, bilimlari uning xulqida, faoliyatida, mehnatida moddiylashadi, obyektivlashadi. Ma’naviyat obyektivlik va subyektivlik birligidir.

Inson ma’naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi, deyish juda o‘rinlidir. Agar moddiy ishlab chiqarishda va moddiy ne’matlarni iste’mol qilishda insonning ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi mohiyati namoyon bo‘lsa, ma’naviyatda (ma’naviy ne’matlarni yaratishda va ulardan foydalanishda, ma’naviy faoliyatda) insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati ro‘yobga chiqadi.¹

Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning e兹gulik, mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan tizimidir hamda ularni yaratish jarayonidir. Ushbu xislat va fazilatlar hayvonot uchun xos emas. Ammo ularning muqobillari – axloqsizlik, g‘araz, hasad va hokazolar ham hayvonlarda uchramaydi. Keyingilar ma’naviyatga emas, balki ma’naviyatsizlikka aloqador. Demak, ma’naviyat bu shunchaki insonga xos belgilar yig‘indisi emas, balki ijobjiy xislatlar, fazilatlar majmuidir. «Inson ongli faoliyatining; tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma’naviyat bo‘la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobjiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarga ma’naviyat deb ataladi».²

Insoniy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli. Kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni anglash, ularni baholash, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish yoki, aksincha, qoralash, cheklash, bartaraf etishga intilish zarurati turli axloqiy (keyinchalik huquqiy ham), estetik, diniy va boshqa

¹ А.Эркаев. Маънавиятшунослик. – Т., 2018., 29-бет.

² Эркин Юсупов, Ўткир Юсупов. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти. - Хўжанд: 1996, 29-б.

me'yirlarni, urf-odat va marosimlarni yuzaga keltiradi. Ular qadriyat darajasiga ko'tariladi. Qadriyat insonga, jamiyatga foyda keltiradigan, ularni yuksaltiradigan ijtimoiy baholar, me'yorlar va ideallarning umumiyligi atamasi va obyektivlashgan vogeligi hamda badiiy, ilmiy asar, obidalar yoxud udum, marosim, axloq va h.k. Qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida kishida insoniy fazilatlar qaror topadi. Insoniy fazilatlar, shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarning (shu jumladan, tabiatga munosabatning) inson ongi va faoliyatida o'zlashtirilgan qadriyat sifatida zohir bo'lishidir. Boshqacha aytganda, insoniy fazilatlar va ularning majmui - ma'naviyat ijtimoiy qadriyatlarning mushtaraklashgan ifodasidir. Qadriyatlarni o'zlashtirish insonning qay darajada ma'naviy shaxsga aylanganini ko'rsatadi, unga ichki kuch, iroda, e'tiqod, ijtimoiy ideal bag'ishlaydi.

Shunday qilib, ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy taraqqiyot davri jarayonida kechib, insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va ijtimoiylashuvi, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvi, nutq, mehnat, ong va tafakkurning shakllanishi hamda o'zini anglash darajasida(Homo Sapiens) yuzaga keldi.

4.2. Insonning ijtimoiylashuvi va ma'naviyat. Insonning bioijtimoiy xususiyatlari

Insonning ijtimoiylashuvi – ma'naviyat vujudga kelishining asosiy sababi. Inson doimo izlanishda. Eng avvalo, u o'zining kimligini bilgisi, insoniy tabiat bilan uyg'unlikda yashagisi keladi. Insonning o'zini anglashi ibtidosida va asosida ma'naviyat turadi. Ma'naviyatning o'zi esa insonning poda bo'lib yashash-dan ongli urug'-jamoa bo'lib yashashga o'tishi jarayonida, ya'ni ijtimoiylashuvi jarayonida shakllana boshlagan. Neandertal odam o'zini tabiatdan, hayvonot olamidan ajratib anglashi va ilk urug' jamoada munosabatlarini tartibga solishi jarayonida ma'naviyatning ilk kurtaklarini vujudga keltirdi. Bu haqda biz ularning marosimiy unsurlari yaqqol ko'rinish turgan dafn qoldiqlari orqali bilamiz. Antropologiya fanining so'nggi tadqiqotlari hozirgi zamон odami (kromanon odami) neandertallarning bevosita avlodni emasligini, neandertal genlari zamona viy insonda faqat besh foizni tashkil etishini

ко‘rsatmoqda. Neandertal odam Nomo Sariens (aqlli odam) deyiladi¹. Kromanon odami (zamonaviy insonlarning ilk ajodolari) esa Nomo Sariens- Sariens (aqlli-aqlli odam yoki ikki karra aqlli odam) deyiladi. Kromanon neandertallarni va saqlanib qolgan boshqa qadimgi odam xillarini asta-sekin siqib chiqargan, qisman assimilyatsiyalashtirgan. Kromanon odamida ma’naviyat unsurlari neandartallarga nisbatan yanada ko‘proq bo‘lgan, deb faraz qilish mumkin.²

Taxmin qilish mumkinki, kromanon odam yaratgan madaniyat bevosita neandertal odam madaniyati emas, lekin undan ancha-muncha unsurlarni olgan. Chunki neandertal odam Yevropaning sovuq iqlimida, og‘ir sharoitda yashagan va turmush tarzida, ko‘nikmalarida, madaniyatida mazkur sharoitda foydali bo‘lgan unsurlarni yaratgan. Rus qadimshunosi P.I.Boriskovskiy “Insoniyatning eng qadimgi o‘tmishi”³ kitobida marosimlar 400 ming yil ilgari paydo bo‘lgan deydi. G‘arb olimlaridan J. Klark marosimlar yoshini neandertal va «rodeziyalik» odam bilan bog‘laydi va 200-150 ming yilga tenglashtiradi.⁴

Ushbu qarashlardan inson o‘z biologik, hayvoniy tabiatidan asl insoniy tabiatiga o‘tish jarayonida ma’naviylik unsurlarini o‘zlashtira boshlagani va oqibatda, yangi tosh davrida nisbatan muvozanatga keltirilgan murakkab tizimga ega ma’naviyatni yaratgan, deb aytish mumkin.

Dadil aytish mumkinki, neandertal odamlarda diniy-ma’naviy hayot unsurlari faqat dafn marosimlari bilangina cheklanmagan. Ular hattoki falakiyot hodisalariga, yulduzlar turkumlariga, alohida yulduzlarga nom bergenlar. Isbot uchun shunday misol keltirish o‘rinlidir: ko‘p millatlar tarixiy tajribasida yillar va oylarning hayvonlar bilan nomlanishi yoki yulduzlarga nom berilishi, o‘zbeklarda Yetti og‘ayni, Yetti qaroqchi deb nomlaydigan yulduzlar turkumi borligi. Yevropaning ko‘p xalqlari ularni Katta ona ayiq, Kichik ayiq deb atashadi. Jahonning boshqa ayrim xalqlari ham ularga nisbatan «ayiq» nomini qo‘llaydi. Vaholanki, ularning hozirgi ko‘rinishi ayiqni mutlaqo eslatmaydi. Demak, bu turkumlarga nomni shimoliy yarimsharda yashagan qadimgi odam, balki neandertal odam bergen. Neandertal

¹ Қулайлик учун неандерталлардан ташқари Осиё ва Африкада сакланиб қолган қадимги одамнинг барча хилларини шартли равища умумийлаштириб неандерталлар деб аталади.

² А.Эркаев. Маънавиятшунослик. –Т., 2018. 1-қисм, 46- бет.

³ П.И. Борисковский. Древнейшее прошлое человечества. 2 изд. -М, 1980.

⁴ Дж. Кларк. Доисторическая Африка. - М.: 1977. В-44.

odamda falakiyot asotirlari yoki shunga o‘xshash tasavvurlar bo‘lgan. Falakiyot to‘g‘risida qarashlar vujudga kelgan joyda, albatta, undan oldin kundalik maishiy turmush, jonsiz tabiat va uni bevosita o‘rab turgan hayvonot va o‘simliklar dunyosiga nisbatan qarashlarini ifodalovchi rivoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar shakllanadi. Bular hammasi ma’naviyat unsurlaridir.

Odamlar yovvoyilikdan ongli turmush kechirishga o‘tishi, podani urug‘-jamoaga aylanib, jamiyat paydo bo‘lishi jarayonida o‘z munosabatlarini asta-sekin tartibga sola boshlaganlar. Dastlab onalar va bolalar, otalar va qizlar, akalar va singillar o‘rtasidagi jinsiy aloqalar taqiqlangan, so‘ng boshqa taqiqlar va majburiyatlar paydo bo‘lib, yaxlit sinkretik ong doirasidagi axloqiy, diniy qarashlarda va urf-odatlarda tizimlashgan. Tabiatga munosabat ham tizimlashib borgan. Natijada, ilk ibridoiy xulq-atvor me’yorlari, marosimlar, ilk diniy tasavvurlar vujudga kelgan. Ular avloddan-avlodga o‘tib, boyib, takomillashib, murakkablashib borgan. “Olam, borliq nima?”, “U qayerdan paydo bo‘ldi, qayerga boradi?”, “Olamning ibtidosi nima, intihosi nima?” kabi savollarga javob izlaydi. Bular uning aqliy, ijodiy faoliyati natijalarida aks etadi: asotirlarda, dinda, falsafada, odob-axloqida, san’atda va h.k.

Ibtidoiy sinkretizm. Lekin ibridoiy odamning tabiat va inson haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qarashlari to urug‘-qabila munosabatlari parchalanib, bronza va temir davrida ilk shaharlar va davlat paydo bo‘lgunga qadar ancha qashshoq edi. Uning ongi va ma’naviy faoliyati chegaralangan, alohida sohalarga, yo‘nalishlarga, mustaqil shakllarga bo‘linmagan edi. Bunday holat fanda ibridoiy sinkretizm (yaxlitlik, mushtaraklik) deyiladi. Ibtidoiy sinkretizm, bu – odamlar ongida axloqning, ilm-fanning, sanatning, dinning va ma’naviy faoliyatning boshqa shakllarining kurtak otib rivojlnana boshlagan, ammo hali bir-biridan ajralmagan holatidir. Bu falsafada mifologik dunyoqarash mahsuli deyiladi. Mifologik tasavvur va qarashlarning negizida shakllangan va kurtak ochgan ibridoiy odamning ijodi san’at asarlarining boshlang‘ich ibtidosi – ilk ma’naviyat sarchashmalar edi. Ibtidoiy sinkretizm unsurlari bizgacha yetib kelgan qadimgi ertaklar, asotirlar, afsonalar, rivoyatlar qoldiqlarida ancha o‘zgargan ko‘rinishda saqlanib qolgan.¹ Ibtidoiy odamning ilk zoologik kuzatishlari, bilimlari, nima yaxshi-yu nima yomon, e’tiqodi ular yaratgan xalq og‘zaki ijodda aks etgan.

¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. – Т., 2018. – 47- бет.

4.3. Ma’naviyatning vujudga kelishiga oid turlicha qarashlar. Mehnat nazariyasi, ong, tafakkur, nutq, til, e’tiqod, o’zlikni anglash

Ma’naviyatning vujudga kelishi to‘g‘risida turli nazariyalar mavjud. Ular asosan inson ongi, tafakkuri, e’tiqodi, kelib chiqishi bilan bog‘liq nazariyalardir. Biz ularni ma’naviyatga nisbatan qo‘llaymiz. Ulardan keng tarqalganlardan biri mehnat nazariyasidir. Unga muvofiq, odamlar ishlab chiqarishning yangi turlarini, yangi mehnat qurollarini va usullarini kashf etishi jarayonida bilimlari, ko‘nikmalari rivojlangan, mahsulotlar almashuvi va boshqa moddiy, ijtimoiy aloqalari xilma-xillashgan va murakkablashgan. Bular, o‘z navbatida. yangi tartib-qoidalar, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy va shaxslararo me’yorlarga ehtiyoj tug‘dirgan.

Ma’naviyatning kelib chiqishi haqida diniy qarashlar ham mavjud bo‘lib, unga muvofiq ma’naviyatning yuzaga kelishi bevosita Yaratganning irodasi bilan bog‘lanadi. Olloh go‘yoki insonni ongi, axloqi va sh.k. qarashlari, imon-e’tiqodi bilan yaratgan. U ba’zan adashib, gunoh ishlarga qo‘l ursa-da, Yaratgan uning qalbiga aslida to‘g‘ri imon-e’tiqodni solgan yoki to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish uchun payg‘ambar jo‘natgan. Inson o‘z qalbiga, ko‘ngliga qulqoq tutishi lozim. Sufiyona (tasavvufiy) qarashlarda butun moddiy va ma’naviy olam Ollohning tajallisi (emanatsiyasi), o‘zgacha shakldagi in’ikosidir. Binobarin, asl ma’naviyat ilohiy mazmunga ega, u Parvardigor irodasiga mos keladi.

Ma’naviyatning kelib chiqishini boshqa turli-tuman falsafiy-ilmiy nazariyalar nuqtayi nazaridan ham o‘rganish mumkin. Masalan, pozitivizm (neopozitivizm) ma’naviyatni odamlarning o‘zaro kelishuvi bilan bog‘laydi, konvensional hodisa, deb hisoblaydi. Pozitivistlar qarashlarini quyidagicha ifodalash mumkin: biror qoida yoki me’yor ko‘pchilikka ma’qul kelsagina, odamlar unga rioya etish to‘g‘risida kelishsagina, shakllanadi, yashab qoladi va rivojlanadi. Barcha me’yorlar, baholar, qonunlar, qoidalar asosida odamlarning o‘zaro kelishuvi yotadi. Agar odamlar bu qoida va me’yorlarga rioya etmasalar, ulardan hech qanday foyda bo‘lmaydi.

Yana bir boshqa nazariyalarga ko‘ra XIX asrning zabardast olimlaridan biri amerikalik L.Morgan insoniyat tarixini uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga bo‘lib, ma’naviyatning shaakllansh jarayonini shu tarzda izohlaydi. Aslida bunday uchga bo‘lish g‘oyasi shotlandiyalik faylasuf Adam Fergyussonga borib

taqaladi. Fergyusson 1768-yilda olg'a surgan tasnifda jamyatning xo'jalik yuritish usuli va mulkiy munosabatlar rivojlanish darajasini qo'ygan. Uning qarashlari fransuz ma'rifatparvarlari, ayniqsa, Antuan Kondorse tomonidan rivojlantiriladi. 1836-yilda daniyalik olim Kristian Yurgensen arxeologik materiallar asosida insoniyat tarixida uch asrni – tosh asri, bronza asri va temir asrni ajratish g'oyasini o'rtaga tashladi. Albatta, ushbu «asrlar»ning xronologik davomi shartli edi.

Inson yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya davrlarini boshdan kechirganligi to'g'risidagi konsepsiya ko'plab olimlar tomonidan qabul qilinadi va rivojlantiriladi. Ular orasida birinchi galda ingliz etnografi E.B.Taylor nomini eslash joiz. Ammo amerikalik olim Luis Morgan mazkur konsepsiyanı har tomonlama rivojlantirdi va ilmiy dalilladi. Shu sababdan konsepsiya ko'proq uning nomi bilan bog'lanadi.

Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» asarida bu uch davrning har birini alohida bosqichlarga bo'ladi. Har bir davrni moddiy ishlab chiqarish rivojlanishi, alohida yirik ixtiolar tarixi bilan bog'lab tahlil etadi. U ibridoiy oila rivojlanishi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi.¹ Morgan fikrlariga, ayrim xulosalariga keyinchalik fan ancha aniqliklar kiritdi. Ba'zilarini qayta ko'rib chiqdi. Lekin uning asari konkret dalillarga, materialarga boyligi uchun bugungi kungacha ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yovvoyilik davrida inson poda bo'lib yashagan, o'zaro munosabatlarini biologik qoidalar asosida ongsiz, stixiyali qurban. Varvarlik davrida urug', jamoa-urug', qabilalarga uyushgan, turmushi ancha ongli kechgan, ma'naviyati shakllanib, sezilarli rivojlangan, o'zaro munosabatlar qat'iy qoidalar, urf-odatlar orqali tartibga solingan. Va, nihoyat, sivilizatsiya davrida aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqan va maxsus ma'naviy faoliyatga aylangan. Axloq, din hamda davlat bilan birga tug'ilgan huquq me'yorlari (qonunlar) odamlarning o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy hayotini qattiq tartibga solgan, nazorat qilgan.

Ta'kidlash joizki, bu uch davr o'rtasida aniq chiziq o'tkazish mumkin emas. Ayniqsa, yovvoyilik qachon tugab, inson qachon varvarlikka o'tgani, hatto inson qachon gapira boshlaganini uzil-kesil falon vaqtida yuz berdi, deyish qiyin. Lekin yovvoyilik bir necha million yil davom etganini, varvarlik 250-300 ming yildan kam bo'limganini, sivilizatsiya boshlanganiga bor-yo'g'i 6 ming yildan sal oshganini aytish

¹ Л. Морган. Древнее общество. - Л., 1934.

mumkin. Albatta, Morgan tasnifi shartli va taxminiy. Neandertal odamni biz Nomo Sariens - aqlii inson toifasiga kiritamiz. Ammo varvarlik deganda ko‘z oldimizga neandertal odam emas, kromanon odam, ya’ni qiyofasi zamonaviy bo‘lgan, bizdan farq qilmaydigan, kuchli qabilalarga uyushgan, ko‘chmanchi, yarimo‘troq va o‘troq hayot kechiradigan, ammo hali o‘z davlatini tuzmagan yangi tosh asri odami keladi. Bu, balki, bizning o‘tmishni psixologik qabul qilishimizning, neandertal odamlar jamoasi ichidagi va turli jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni, turmushning tashkil etilishini, o‘sha paytdagi voqealarni, jamiyat tarixini aniq bilmasligimizning natijasidir. Shu bois ma’naviyat shakllanishini hammaga ma’qul tarixiy davrlarga bo‘lish qiyin. Ammo yozma adabiyot, ilm-fan vujudga kelib, ma’naviyat sivilizatsiya doirasida rivojiana boshlagandan keyingi jarayonni ancha bat afsil yoritish mumkin.

Ibtidoiy odamlarning tabiat bergen tayyor mahsulotlarni yig‘ib iste’mol qilishdan ularni o‘zлari ishlab chiqarishga o‘tishi, o‘rta yuqori paleolitdan boshlab yangi tosh asri (neolit)ga qarab rivojlanishi davomida ayrim hayvonlarni xonakilash-tirishi, ba’zi o‘simliklarni ekib, o‘stira boshlashi ularning bilimi, tafakkuri, ongi rivojlanishini tezlashtirgan. Ularda chorvachilik va dehqonchilikka oid ilk bilimlar, yangi mehnat qurollari paydo bo‘lgan, eskilari takomillashgan. Toshni shunchaki qo‘pol yo‘nish o‘rniga, unga sayqal berish usullari topilgan. Ijtimoiy turmush rivojlanishi tezlasha boshlagan. Nihoyat, yangi tosh asri davrida mehnatning birinchi tarixiy taqsimoti yuz bergen: dehqonchilik va chorvachilik bir-biridan ajralib chiqqan.

Mehnatning tarixiy taqsimotlari va ma’naviyat rivojlanishi. Mazkur hodissa insoniyat hayotida, ma’naviyat rivojlanishida juda katta tarixiy ahamiyatga ega. Chunki u, birinchidan, insonning ijobiy bilimlari doirasini nihoyatda kengaytirib yubordi, ikkinchidan, ijodkorligini, izlanishlarini keskin rag‘batlantirdi, uchinchidan, tabiat va jamiyat bilan hamda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mazmuni va shaklini boyitdi. Bular, o‘z navbatida, ibridoiy diniy, axloqiy va boshqa ijtimoiy g‘oyalarni rivojlantirdi. Qisqasi, mehnatning birinchi tarixiy taqsimoti ma’naviyatni yangi unsurlar bilan boyitdi, uzil-kesil bir tizimga kelishini tezlash-tirdi. Mehnatning ikkinchi taqsimoti – hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi ibridoiy jamiyat ma’naviyatini yangi bosqichga ko‘tardi, yangi bilimlar va me’yorlar, qoidalar paydo bo‘lishini tezlashtirdi.

Ibtidoiy ong rivojlanishi jarayonida animizm – tabiatni jonlan tirish natijasida rivojlanib, rang-baranglashib, ierarxiyalashgan. Urug‘-jamo ma’naviyati tilsim (magiya), fetish, tabu, animizmga asoslangan. Astasekin har bir tabiat hodisasiga oid alohida ruxlar, g‘ayritabiyy kuchlar tizimi vujudga kelgan. Oxir-oqibatda bu politeistik (ko‘pxudochilik) qarashlar va dinlar vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Mifologiya (asotirlar) ibtidoiy insonning sinkretik psixologiyasi va konkret-obrazli tafakkurining mahsuli va negizidir. Dastlab inson tevarak-atrofini o‘rab turadigan, u har kuni duch keladigan narsa va hodisalar to‘g‘risida turli asotirlar to‘qigan. Bunday asotirlar quyi yoki tuban asotirlar deyiladi. Koinot, olam (osmon, yulduzlar va h.k.) haqidagilar esa yuksak yoki falakiyat asotirlari deyiladi. Urug‘-jamoalar qabilalarga birlashuvi, qabilalar o‘zaro uyushib, birlasha boshlashi ibtidoiy ma’naviyat rivojlanishini yana yangi bosqichga ko‘tardi. Ajdodlar ruhiga sig‘inish, ularning ba’zi mashhurlari xotirasini muqaddaslashtirish, ilohiyashtirish hollari yuz berdi. Animizm asosida, yuqorida aytilganidek, asta-sekin politeistik dinlar paydo bo‘ldi. Asotirlar mavzusi va janrlari xilma-xillik kasb etdi. Aynan ushbu davrda falakiyat asotirlari rivojlanishi avj oldi. Qabilalar va qabilalar birlashmalari o‘rtasida yaylovlar, serunum yerlar, daryolar, ko‘llar uchun o‘zaro kurash, to‘qnashuvlar, urushlar bo‘lib turgan. Bu qahramonlik eposlari (dostonlari) vujudga kelishi uchun zamin yaratgan.

Ajdodlarimizning buyuk merosi «Avesto»da chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq ko‘plab ilk ma’naviy-axloqiy me’yorlar biroz o‘zgargan holda saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan. Faraz qilish mumkinki, «Avesto» yaratilganiga salkam 3 ming yil bo‘lgan bo‘lsa-da, unga 10-12 ming yil ilgari vujudga kelgan ba’zi bir unsurlar va tabiat hodisalari (masalan, muz davrining oxiridagi iqlimi o‘zgarishlar) ham kirib qolgan. Ushbu ma’noda qadimgi asotirlar, jumladan, «Avesto» asotirlari ma’naviyat vujudga kelishi va rivojlanishi to‘g‘risida ancha boy material beradi. Chorvachilik bilan shug‘ullanadigan urug‘-jamoalarda mollarni boqish, ularning mahsulotlari – sut, qatiq, yog‘, go‘sht, jun, teri kabilarni qayta ishlash, oziq-ovqatga, iste’mol buyumiga aylantirish, mollarni urchitish, ko‘paytirish, turli xavf-xatarlardan, kasalliklardan, yirtqich hayvonlardan asrashga oid bilimlar va tajriba uzluksiz boyigan. Shunday qilib, ilk astronomik kuzatishlarni, bilimlarni, falsafiy-axloqiy me’yorlarni aks ettiruvchi falakiyat asotirlari paydo bo‘ldi.

Dehqonchilik esa insonlarni o'simliklar turlarini, ularning xususiyatlarini, o'sish, gulga kirish, pishish davrlarini, har bir o'simlik uchun ma'qul va noma'qul iqlim, suv va tuproq sharoitini, o'simlikka ishlov berish, begona o'tlarga qarshi kurashish, almashlab ekish, yerni o'lhash, tekislash, ariq chiqarish kabi tadbirlar bajarishga ehtiyojni shakllantirdi. Bularning hech biri instinctiv qilinadigan ishlar emas, ular ongli va tizimli bilimlarni, uquv va tajribani talab qiladi.

Kasblarning xilma-xillashuvi har bir kasbga oid ixtisoslashgan ijobjiy, oqilona bilimlar va umuman odamlarning tabiat to'g'risidagi tasavvurlari kengayishi qatorida axloqiy, estetik, diniy, falsafiy qarashlar o'sishiga va marosimchilik rivojlanishiga ham xizmat qildi. Har bir kasb vakillari o'zlariga homiylik qiladigan ma'budlarni, xudolarni, ruhlarni, pirlarni va boshqa g'ayritabiiy ma'naviy kuchlarni o'ylab topdilar, ularga sig'inib, sharaflariga turli marosimlar uyushtirdilar. Ibtidoiy jamiyat rivojlanishi jarayonida biz diniy e'tiqodning o'zgarib borganini ko'ramiz. Fetishizm (alohida buyumlarga sig'inish), animizm (tabiatni jonlantirish va hayvonlarga sig'inish), politeizm (ko'pxudochilik, ularning ramzi bo'lmish sanamlarga sig'inish) ibtidoiy-diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari va taraqqiyot bosqichlaridir.

Ma'naviyatning kelib chiqishi, dunyoqarashning rivojlanishi faqat birgina «mehnat nazariyasi»ga bog'lanmaydi. San'atning, ma'naviyatning ba'zi shakllari kelib chiqishi va rivojlanishida mehnat muhim rolni o'ynagan bo'lsa-da, u yagona omil emas. Ong va mehnat birgalikda shakllangan. Ongning vujudga kelishiga va rivojlanishiga mehnat qanchalik hissa qo'shgan bo'lsa, mehnatning vujudga kelishi va rivojlanishiga ham ong shunchalik hissa qo'shgan. Chunki mehnatning o'zi shunchaki ish emas, balki biror narsani qayta ishslashga qaratilgan ongli, maqsadga muvofiq harakatdir. Ong yo'q joyda mehnatning o'zi yo'q. Ongning ma'naviyatning negizi va tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutsak, ma'naviyat bir vaqtning o'zida nafaqat mehnatning, shuningdek, ongning, tafakkurning asosida rivojlanganini payqaymiz.

Ong va nutq, til va tafakkur mushtarak hodisalardir. Ongsiz nutq, nutqsiz ong shakllanishi mumkin emas. Lekin ilm-fanda qaror topgan qarashlarga muvofiq, odamlarning dastlabki o'zaro muloqotlari, fonetik nutq asosida emas, balki turli uzun-qisqa baqiriq-chaqiriqlar jo'rлигидаги имо-ишоралар yordamida amalga oshiril-gan. Ov qilish, hayvonlarga pistirma uyushtirib, ularni pistirma tomon haydash, o'zini xavf-xatardan, dushmanidan himoya qilish maqsadida hali «tilsiz», biologik evolyutsiyasi davom etayotgan, lekin ongsiz hayvondan keskin farq

qiladigan qadimgi odamlar (avstralopitekdan neandertal odami paydo bo‘lgunga qadar) pantomima (imo-ishoralar), raqs yordamida, ya’ni san’at unsurlari yordamida «so‘zlashganlar», jamoaviy xatti-harakatlarini muvofiqlashtirganlar. Etnograf olimlar ibtidoiy qabilalarda raqs yordamida ovdan qaytayotgan erkaklar butun ov jarayonini urug‘doshlariga «so‘zlab» bergenini yoki ov oldidan bir necha erkaklar ovda kim qanday harakat qilishini kelishib olishlarini batafsil yozib qoldirganlar.

Ibtidoiy raqlar asosan plastik tasvir unsurlaridan iborat. Ularda ov (ishlab chiqarish), mehnat jarayoni, jangovar xatti-harakatlar, o‘zini himoya qilish, ovga (dushmanga) hamla qilish, yakkama-yakka olishish va sh.k.lar pantomima orqali tasvirlanadi. Olimlar raqs yosh avlodga ov va mehnat qilishni, jang qilishni o‘rgatishning ilk shakli, deb hisoblaydilar. Shu sababdan G‘arb ilm-fanida ma’naviy madaniyat vujudga kelishiing nafaqat «mehnat nazariyasi», shuningdek, «o‘yin nazariyasi» (Y. Xeyzinga, X. Ortega-i-Gasset, E. Fink) mavjud. To‘g‘ri, e’tirof etish lozimki, G‘arb ilm-fanida so‘z asosan ma’naviyatning vujudga kelishi haqida emas, balki madaniyatning kelib chiqishi, inson ongi va psixologiyasining rivojlanishi haqida boradi. Y.Xeyzinga «O‘ynayotgan odam» asarida yozgan: «Madaniyat, tirik jon onasi tanasidan ajralib chiqishiga o‘xshab, o‘yindan ajralib chiqmaydi, u o‘yin ichida va o‘yin sifatida rivojlanadi. Butun madaniy ijodkorlik o‘yindir: she’riyat ham, musiqa ham, inson fikri ham, axloq ham va madaniyatning boshqa mumkin bo‘lgan shakllari ham».

Ulardan tashqari turli biopsixologik, biologik (yashash uchun kurash, boshqa jins vakilini o‘ziga jalb qilish, unga «yoqish», nasl qoldirish, ko‘payish istagi, mayli va h.k.) – bixevoirizm, sotsial-darvinizm bilan, turli diniy ta’limotlar bilan bog‘liq nazariyalar bor. Ularda ba’zan juda jiddiy, teran va qiziq kuzatishlar, misollar, dalillar, fikrlar, mulohazalar uchrasa-da, mohiyatan ular vulgar materialistik, noilmiy qarashlardir. Ba’zi bir yirik olimlarning jamiyat to‘g‘risida o‘ziga xos nazariyalari bor. Ular asarlarida ma’naviyatning vujudga kelishi haqida maxsus to‘xtalmasa-da, masalani ular yaratgan konsepsiylar nuqtayi nazaridan talqin qilish mumkin. Bir-biridan keskin farq qiladigan turli qarashlarning ko‘pligi ma’naviyat-ning vujudga kelishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab masala ekanligini ko‘rsatadi.

Hozircha shunday xulosa qilish mumkin: ma’naviyat vujudga kelishi juda uzoq davom etgan tarixiy uzluksiz jarayondir. Unga ko‘plab

tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan. Manaviyatning vujudga kelish va dastlabki rivojlanish bosqichlari ibtidoiy odamning ijtimoiylashuvi, olamni bilish, o'zligini anglash, ishlab chiqarishda erishgan yutuqlari bilan uzviy bogliq.

4.5. Moddiy va ma'naviy ehtiyoj birligi

Insoniyatning ibtidoiy davrdan yangi sermahsul qurollarga o'tishi mehnatning yangi tarixiy taqsimotini keltirib chiqardi va ibtidoiy sinkretizmni parchalab yubordi. Aynan shu davrda ilk shaharlar, davlatlar vujudga keldi. Tosh qurollaridan bronza va temir qurollariga o'tish, shahar-davlatlarning paydo bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnatning bir-biridan ajralishi ijtimoiy ongning nisbatan mustaqil shakllarini va ular bilan bog'liq manaviy ishlab chiqarish amaliyotini, yozuv va imloni vujudga keltirdi. Axloq, huquq, din, falsafa, ilm-fan, badiiy adabiyot va san'at (uning alohida turlari) va o'qituvchilar, tabiblar, huquqshunoslar, ruhoniylar, faylasuflar, olimlar, san'atkorlar (shoirlar, me'morlar, haykaltaroshlar, musavvirlar, zargarlar, bastakorlar, xonandalar, raqqoslar va h.k.), davlat amaldorlari, sudyalar va jismoniy mehnat bilan shug'ullanmaydigan, bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan band bo'limgan boshqa kasblar paydo bo'ldi. Ular va turli-tuman hunarmandlar asosan shaharlarda istiqomat qildilar.

Shaharlar moddiy va ma'naviy madaniyat rivojlanishining muhim manbaiga va omiliga aylandi. O'zbek tilidagi madaniyat tushunchasi arabcha «madinat» – shahar tushunchasidan yasalgan. Bu shaharlarning madaniyat yuksalishidagi ahamiyatiga ota-bobolarimiz qanday katta baho bergenidan dalolatdir (arablarning o'zlarida boshqa atama qo'llaniladi). Shaharlar va davlatlar qaror topishidan boshlab insoniyat sivilizatsiyaga qadam qo'ydi. Bu davrdan boshlab ma'naviyatning o'ziga xos mafkuraviy va dunyoqarash asosini diniy e'tiqodlar, muayyan diniy va falsafiy ta'limotlar tashkil qilgan, kapitalizm (industrial jamiyat) qaror topgunga qadar shunday bo'lib qolgan.

Mahsulotlar hajmi ortishi uni kimlar tomonidandir ko'proq o'zlashtirish, boylik to'plash imkonini ham tug'dirdi. Asta-sekin jamiyatda xususiy mulk va ijtimoiy tengsizlik paydo bo'ldi. Ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, tabaqalar, sinflar vujudga keldi. Endi urushlar va to'qnashuvlar paytida asir olingan kishilar qullarga aylantirila boshladи. Turli sabablarga ko'ra qashshoqlanib, to'q oilalarga qaram bo'lib qolgan

kishilar qarzi evaziga farzandlaridan birini doimiy ishlash uchun ularga berishga majbur bo‘ldi.

Shunday qilib, zimdan asrlar davomida quldorchilik tuzumi yuzaga keldi. Jamiatning ijtimoiy tuzilmasi qarama-qarshi sinflarga bo‘linib ketdi. Jamiatda yangidan vujudga kelgan sinflarning va ijtimoiy tabaqalarning manfaatlari o‘zaro mos kelmay qoldi. Ularni ifodalovchi qarashlar, fikrlar, mafkuralar shakllandi. Endi bir yaxlit sinkretik ongda, e’tiqod va dunyoqarashda qarama-qarshi manfaatlarni ifodalashning iloji qolmadi. Buning ustiga, turlicha sharoitda yashaydigan, moddiy ta’minoti, tarbiya olish, o‘qish, o‘rganish imkoniyatlari har xil tabaqalar, sinflar va ijtimoiy guruhlarning turmush tarzida, madaniyati va dididagi farqlar kuchayib ketgani ham ibtidoiy sinkretizmning istiqbolini yo‘qqa chiqardi. Mavjud tuzumni oqlaydigan axloqiy, himoya qiladigan siyosiy va huquqiy qarashlar hamda ularni amalga oshiradigan siyosiy tashkilot – davlat qaror topdi. Ma’naviyat tizimi mazmunan va shaklan xilmashashib, murakkablashib ketdi.

Jamiatni moddiy-iqtisodiy, texnologik va ilmiy-intellektual taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, ibtidoiy jamiatga, quldorlik va feodalizmga (agrар yoki sanoatlashishga qadar bo‘lgan jamiatga), industrial, postindustrial va zamonaviy postmodern jamiyatlariga bo‘lish va ularning ma’naviyatini bir-biridan farqlash mumkin. Jamiatning moddiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma’naviy hayoti o‘zaro chambarchasdir. Ushbu birlik jamiat hayotining negizini tashkil qiladi. Mehnatsiz, ishlab chiqarishsiz jamiat bo‘lmaganidek, e’tiqodsiz, dunyoqarashsiz, hech qanday bilimlarsiz, qoida-tartiblarsiz, me’yorlarsiz, muayyan maqsad va orzu-havaslarsiz inson, binobarin, jamiat yo‘q.

Iqtisodiyot va ma’naviyat uyg‘un rivojlanadigan jamiat barqaror va inson-parvar bo‘ladi. Iqtisodiyot olg‘a ketib, ma’naviyat ortda qolsa, jamiatda iste’molchilik psixologiyasi ustunlik qilib, tarbiya izdan chiqadi, inson qadr-qimmatiga putur yetadi. Va, aksincha, iqtisodiyot unutilib, faqat tarbiyaga zo‘r berilsa, jamiatda turg‘unlik, safsatabozlik, mafkuraviy mutaassiblik, dogmatizm kuchayadi.

Mavzu bo‘yicha xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma’naviyatning kelib chiqishi va rivojlanishi quyidagi omillar: birinchidan, insonning aqli va ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi, tabiatni qayta ishlab, o‘zgartirib kishilik jamiatini yaratishi bilan; ikkinchidan, mehnat qilishi, o‘zaro aloqalarga kirishishi, bu aloqalarni tartibga solish uchun turli me’yorlar, qoidalar tizimini yaratib, o‘z turmushiga joriy qilishi bilan; uchinchidan, uzluksiz

o'sadigan ehtiyojlarini qondirish uchun yangiliklarga intilishi, ijod qilishi bilan; to'rtinchidan, o'zi atrof-muhiti, tabiat, koinot, kelajak to'g'risida mulohaza yuritishi, mohiyatga, haqiqatga intilishi bilan; beshinchidan, o'zligini, o'z qobiliyatlari va salohiyatini yuzaga chiqarishga urinishi bilan bog'liq.

Insonning ijtimoiylashuvi – ma'naviyat vujudga kelishining asosiy sababi. Inson doimo izlanishda. Eng avvalo, u o'zining kimligini bilgisi, insoniy tabiatini bilan uyg'unlikda yashagisi keladi. Insonning o'zini anglashi ibtidosida va asosida ma'naviyat turadi. Ma'naviyatning o'zi esa insonning poda bo'lib yashashdan ongli urug'-jamoa bo'lib yashashga o'tishi jarayonida, ya'ni ijtimoiylashuvi jarayonida shakllana boshlagan.

Iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'un rivojlanadigan jamiyat barqaror va inson-parvar bo'ladi. Iqtisodiyot olg'a ketib, ma'naviyat ortda qolsa, jamiyatda iste'molchilik psixologiyasi ustunlik qilib, tarbiya izdan chiqadi, inson qadr-qimmatiga putur yetadi. Va, aksincha, iqtisodiyot unutilib, faqat tarbiyaga zo'r berilsa, jamiyatda turg'unlik, safsatabozlik, mafkuraviy mutaassiblik, dogmatizm kuchayadi.

Mavzuga doir topshiriq va takrorlash uchun savollar.

1. Ma'naviyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati nimada?
2. Insonning ijtimoiylashuvi - ma'naviyat vujudga kelishida qanday rol uynagan?
3. Insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini yoriting va "Klaster" usulida yoriting.
4. Ma'naviyatning vujudga kelishi haqida qanday nazariyalar bor?
5. Ma'naviyatning vujudga kelishi haqida diniy qarashlarni izohlang?
6. Ma'naviyatning vujudga kelishi haqidagi nazariyalarni "Konseptual jadval"da izohlang.
7. Ma'naviyatning inson hayotida vujudga kelishida Mehnat nazariyasining mohiyati nima
8. Ma'naviyatning vujudga kelishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlarni Venn diagrammasida qiyosiy tahlil qiling.
9. Moddiy va ma'naviy ehtiyoj birligining ma'naviyat vujudga kelishidagi sababini izohlang.
10. Ma'naviyatning vujudga kelish genezisi haqida o'ziningni fikringizni "Esse" yozib izohlang

5-mavzu: MA’NAVIYATNING ME’YORIYLIGI, IJTIMOIY FUNKSIYALARI VA UNING RIVOJLANISH QONUNLARI

5.1 Ma’naviyatning me’yoriyligi.

5.2. Insonning asl xislatlari, fazilatlari, o’zini anglashi, hayvonot olamidan ajralib turishi, turmush me’yorlari, qoidalari.

5.3. Ma’naviyatning ijtimoiy funksiyalari.

5.4. Ma’naviyatning rivojlanish qonunlari (vorisiylik, davomiylik, o’zaro ta’sir va aks ta’sir, insonning ma’naviyatga bo’lgan ehtiyojning shaklsiz o’sib borishi.)

5.1. Ma’naviyatning me’yoriyligi

Manaviyat millat ichki dunyosining, qarashlarining va qadriyatlariniig voqeligi bo‘libgina qolmasdan, ularning yashovchanlik darajasi, o‘z-o‘zini muhofaza qila olish va rivojlanish kuchining namoyon bo‘lishi hamdir. Ma’naviyatga tahdid insonga va millatga tahdid ekanligi uning insonni, millatni muhofaza etishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi, ma’naviy-ruhiy kuch berishi, yuksalishi, insoniyatning o‘zligini anglashi bilan belgilanadi. Ma’naviyat milliy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan o‘zga xalqlarning yutuqlarini, tajribasini o‘zlashtirishga, almashishga, o‘zaro boyishga undaydi. Milliy turmush tarzini muhofaza qilishga va rivojlantirishga kuchi yetmasa, inqirozga uchraydi.

Shu boisdan ma’naviyat madaniy merosga, tarixiy an’analarga, diniy va dunyoviy urf-odatlarga nihoyatda g‘amxo‘rlik bilan yondashadi, ularning unutilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Moddiy foydalilik yuksak ma’naviyat uchun birinchi darajali emas. Ushbu ma’noda ma’naviyat hayotga, turmushga, ijtimoiy munosa-batlarga va muammolarga, o’tmish va kelajakka oid hodisalarga keng miqyosda ijtimoiy-madaniy mo‘ljallar, ideallar nuqtayi nazaridan baho beradi hamda bu baholarning mezonlari va me’yorlarini belgilaydi.

Ma’naviyat, shunday qilib, me’yoriy (normativ) xossaga egaki,unga mos ravishda jamiyatda narsa va hodisalarga, ijtimoiy aloqalarga nisbatan muayyan munosabat shakllanadi. Bu me’yorlarga mos keladigan hodisalarga, xatti-harakatlarga biz ijobjiy munosabatda bo‘lamiz, ularni ma’qullaymiz, imkon topilsa, amalda qo‘llab-quvvatlaymiz. Va, aksincha, ma’naviyatimizga mos kelmaydigan hodisalarni, xatti-harakatlarni qoralaymiz va h.k.

Ma’naviyatning me’yoriy xarakteri bizning u yoki bu hayotiy pozitsiyani egallashimizni anglatadi. Ma’naviyat qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning me’yoriylik xossalari shunchalik erkin, boy bo‘ladi, tolerantlik va rang-baranglik kasb etadi. Boy ma’naviyat turlicha fikrlarni, qarashlarni, yondashuvlarni taqozo etadi, ammo ulardagi farqlardan qat’iy nazar, albatta, ijtimoiy faollikni bildiradi. Ma’naviyat qancha qashshoq bo‘lsa, u shunchalik mutaassiblikka (fanatizmga) moyil, o‘zgacha qarashlarga va yondashuvlarga murosasiz, dogmatizm va birxillikni qaror toptirishga harakat qiladi.

Millatning ma’naviyati hech bir shaxs, hech bir ijtimoiy guruh tomonidan to‘laligicha o‘zlashtirilmaydi. Kishilarning va guruhlarning amaliy faoliyatida ma’naviyatning faqat o‘zlashtirilgan qismigina ro‘yobga chiqadi. O‘zlashtirilmagan ma’naviyat, tabiiyki, o‘zining me’yoriy va boshqa xislatlarini yuzaga chiqara olmaydi. Shu boisdan jamiyatda ayrim shaxslar va guruhlar aksilijtimoiy xatti-harakatlarga qo‘1 uradilar. Biz haqqoniy ravishda ba’zi kishilarning ma’naviy qashshoqligi hamda ularga o‘zlarini tiyish uchun iroda yetishmasligi to‘g‘risida bezovtalaniq gapiramiz.

Ma’naviyatning me’yoriy xarakteri xatti-harakatlarni cheklash, ularni mavjud axloq va qonun doirasida saqlab qolish bilan belgilanmaydi. Yuksak manaviyatning me’yoriy xarakteri, birinchi navbatda, cheklashda emas, balki muayyan faoliyatga undashda, ya’ni ijodkorlikka, yaratuvchilikka undashda, rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Ma’naviyati boy xalqning ruhiyati, ijtimoiy mo‘ljallari, ideali o‘zini tiyishga, kamsuqum bo‘lib turg‘unlikka intilishga emas, balki ijodkorlikka, turmushni yangilashga, yanada ilg‘or yutuqlarni qo‘lga kiritishga, yuksalishga qaratilgandir. Boshqacha qilib aytganda, har tomonlama yuksalishga, kamolotga, ijtimoiy taraqqiyotga rag‘bat asl ma’naviyatning me’yordir, ijtimoiy mo‘ljalidir.

5.2. Insonning asl xislatlari, fazilatlari, o‘zini anglashi, hayvonot olamidan ajralib turishi, turmush me’yorlari, qoidalari

Biz avvalgi boblarda ma’naviyat insonning mohiyatini tashkil etuvchi belgilaridan biri ekanligi, insoniyat hayvonotdan, jamiyat tabiatdan ma’naviyati bilan ajralib turishi haqida gapirgan edik. Haqiqatan, ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida insonning asl tabiat, ichki insoniy tuyg‘ulari, ruhiy-emotsional va aqliy-intellektual dunyosi shakllanadi, o‘zligini anglaydi. Ma’naviyat insonda asl insoniy

xislatlar, fazilatlarni shakllantiradi. Unga o‘zini anglashga, hayvonot olamidan, tabiatdan o‘zini ajratib, borliqdagi o‘z o‘rmini aniqlashga yordam beradi. Asotirlar, rivoyatlar, adabiyot, san’at, din, axloq, ilm-fan, urf-odatlar, marosimlar, madaniy meros va ma’naviyatning boshqa mavjudlik shakllari insonga tabiat va koinot bilan, boshqa o‘ziga o‘xshagan odamlar bilan, tabiat va jamiyatni «boshqaruvchi», ularga «jon bag‘ishlovchi», ularni o‘zgartiruvchi noma’lum kuchlar bilan «aloqa o‘rnatishga» ko‘maklashadi. Ma’naviyatsiz inson biologik mavjudot darajasida qolib ketar, kishilik jamiyati vujudga kelmas edi. Ma’naviyat tufayli inson o‘z biologik tabiatiga ijtimoiylik bag‘ishlab, bioijtimoiy mavjudotga aylanadi. Ijtimoiylashish – bu ongli ravishda o‘zaro birlashish, birgalikda uyushib yashash va mehnat qilish, ishlab chiqarish bilan shug‘ullanish, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratish, ma’lum me’yorlarga, qoidalarga, cheklovlar, taqiqlarga yoki majburiyatlarga rioya qilish, boshqalar bilan ular asosida munosabatlarini tartibga solish demakdir. Guruh bo‘lib yashaydigan hayvonlar o‘rtasida munosabatlar faqat yashash uchun kurash, ya’ni oziq-ovqat topish, xavf-xatardan, dushmanlardan guruhni himoya qilish, ko‘payish va sog‘lom nasl qoldirish instinctlari asosida ongsiz quriladi. Inson ongi tafakkuri takomillashishi, axloqiy hissiyot va ongning shakllanshi, ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishga ehtiyoj yuzaga kelishi natijasida ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opasingillar o‘rtasida, keyinchalik yaqin qarindoshlar o‘rtasida jinsiy aloqalar taqiqlandi. Boshqa yana shu kabi har xil taqiqlar o‘rnatildi. Taqiq va majburiyat – bu yashash va faoliyat yuritish me’yorlaridir. Shunday qilib, ma’naviyat unsurlari shakllanishi ijtimoiy me’yorlarning vujudga kelishi bilan bog‘liqdir.

Insonning ijtimoiylashuv darajasi, ma’naviyatining o‘sishi urug‘-jamoani mustahkamladi, uning a’zolari o‘zaro munosabatlarini yanada takomillashtirdi va tartibliroq kechishiga yordam berdi. Insonning yaratuvchilik, mehnat qurollarini takomillashtirish ehtiyojlarini rag‘batlantirdi. Inson va uning hayotining, tobora ijtimoiy ahamiyat kasb etib borishi, o‘zligini anglay borishi, tafakkur va dunyoqarashini shakllanishi turli moddiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, diniy-e’tiqodiy, estetik va boshqa turmush me’yorlari, qoidalari, urf-odatlarning boyib borishiga olib keldi. Shu sababdan ma’naviyat inson ijtimoiylashuvining oqibati va ayni paytda omili, vositasi deyish mumkin. Ma’naviyatning ijtimoiy funksiyalari ushbu holatdan, jamiyat va insonning taraqqiy etish zaruratidan kelib chiqadi.

Bundan tashqari, o‘zligini anglashning tobora takomillashishi, shaxs, inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi urf-odatlarga, diniy e’tiqod talablariga rioya etish, totemlarga, sanamlarga, ma’budlariga sig‘inish, ularga qurbanliklar keltirish va shu kabi ma’naviy majburiyatlari paydo bo‘lgan. Birgalikda g‘uj bo‘lib yashash, qishloqlar va shaharlar rivojlanishi tufayli turli yuqumli kasalliklar va infeksiyalardan saqlanish uchun belgilangan gigiyenik va tozalik me’yorlariga, qoidalariga rioya etish, suv ichadigan hovuz, quduq, ariqni bulg‘amaslik majburiyatlari qaror topgan. Boshqacha aytganda, ko‘plab taqiqlovchi va undovchi, majburlovchi axloqiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy me’yorlar vujudga kelgan. Ularni o‘zlashtirish jarayonida insonning o‘zi ijtimoiy mavjudot, ma’naviy shaxs sifatida yuksalgan. Ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot almashuv mezonlari moddiy-iqtisodiy munosabatlarga mansub bo‘lsa-da, ular asosida yotadigan ongli xulq-atvor, harakat, to‘g‘rilik, adolat, halollik tamoyillari ma’naviyatga daxldordir. Davlat paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda huquqiy va siyosiy me’yorlar ham qaror topgan. Keyinchalik esa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq shakllangan.

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, barcha me’yorlar cheklovchi va undovchi mazmunga ega. Cheklash va undash orqali ular odamlarning xulqini, xatti-harakatini belgilaydi, o‘zaro munosabatlarini, shu jumladan, inson va jamoa, jamiyat, inson va tabiat o‘rtasidagi aloqalarni tartibga soladi. Avvalgi boblarda e’tirof etilganidek, axloq, din, falsafa, adabiyot va san’at, ilm-fan va ularga tegishli tushunchalar, g‘oyalar, baholar, me’yorlar, qoidalar, qonunlar, ta’limotlar, qadriyatlar tizimini – ma’naviyatni tashkil qiladi. Ularni o‘zlashtirish jarayonida insonning ongi, tafakkuri rivojlanadi, bilimlari, qarashlari, imoni, e’tiqodi shakllanadi.

5.3. Ma’naviyatning ijtimoiy funksiyalari. Muhofaza qilish, baholash, vorisiylik, o‘zlikni anglash, mezon, tarbiya

Ma’naviyat ko‘pqirrali hodisa va ko‘pmiqyosiydir, chunki u inson va jamiyat hayotida ko‘pfuksionallik vazifasini o‘taydi. U nafaqat axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ijodkorlikka, bunyodkorlikka, teran aql va idrokka, balki butun bir insoniyatni yuksaklik va taraqqiyotga chorlaydi. Ma’naviyat o‘zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me’yoriy xossalardan kelib chiqib, har qanday alohida olingan qadriyatlarning, shu jumladan, chetdan qabul qilingan

yutuqlarning ham muayyan tarzda faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi va jamiyat a'zolarining ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi.

Ma'naviyat o'zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me'yoriy xossalardan kelib chiqib jamiyatda konkret-ijtimoiy vazifalarini bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) millatni muhofaza qilish; o'zligini anglashni, identlagini ta'minlash;
- b) avlodlar o'rtasida vorisiylikni va davomiylikni ta'minlash;
- v) o'tmishga, bugunga va kelajakka oid hodisalarga baho berish, bu baholarning mezonlari va me'yorlarini belgilash (aksiologik vazifa);
- g) jamiyatni va alohida shaxslarni muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga undash; insonni jamiyat talablariga moslashtirish (adapsion vazifa);
- d) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishga rag'batlantirish;
- e) insonning o'z shaxsiyati bilan ayniyatda yashashini, uning asl insoniy tabiatni rivojlanishini, takomillashishini ta'minlash;
- j) kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish (axloqiy va huquqiy me'yorlar orqali), ya'ni regulyativ vazifa;
- z) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash.

Ma'naviyat mohiyatini va ijtimoiy vazifalarini qanday tushunish muhim ahamiyatga ega. Zero, amaliy faoliyatimizni, ayniqsa, fan, adabiyot va san'atni, xalq ta'limi va madaniyatning boshqa sohalarini rivojlanirish, hozirgi zamon mafkuraviy tahdidlariga qarshi tura olish ko'p jihatdan ma'naviyat haqidagi ilmiy tasavvurlarga bog'liq.

Ma'naviyatga nisbatan irratsional qarashlar ustunlik qilsa, unda yana asta-sekin ilm-fanda, adabiyot va san'atda, texnologiyalar va ishlab chiqarishida turg'unlik va inqiroz boshlanadi.

Umuman, islom olamining XVI asrdan boshlab ilmiy-madaniy inqirozga uchrashi buni isbotlab turibdi (Ulug'bek fojiasi islom olamida olti asrdan ko'proq davom etgan, G'azzoliy davridan boshlab keskin kuchaygan ilmiy ratsionalizm va diniy mistika o'rtasidagi kurashda ilmiy ratsionalizm mag'lubiyatining ko'rinishlaridan biridir. Bu asta-sekin dunyoviy fanlarning islom olamida yemirilishiga, jo'n bir holatga tushib qolishiga olib keldi).

Ma'naviyatga faqat ratsionalizm nuqtayi nazaridan yondashish ham bir yoqlamalik bo'ladi. Uni har tomonlama va teran tushunish imkonini bermaydi. Texnokratik qarashlar, odamlarning o'zaro begonalashishi, hamma narsaga faqat maqsadga muvofiqlik, amaliy

foyda ko‘rish nuqtayi nazaridan yondashish kuchayadi. Ayniqsa, vulgar materialistik yondashuv ma’naviyatning nisbatan mustaqilligini va murakkabligini hisobga olmaydi, uning jonli mazmunini inkor qiladi, o‘lik sxematik andozalarga tiqishtiradi, ma’naviyatga iqtisodiy munosabatlarning ikkilamchi hosilasi, deb qaraydi. Bu, pirovardida, mehr-oqibat, inson-parvarlik, axloqiylik kabi tushunchalarni ko‘zga ilmaslikka, jamiyatda degumaniza-tsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi.

Hozirgi bozor munosabatlari rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot raqobatga asoslanayotgan bir paytda ma’naviyatni ko‘zga ilmaslik og‘ir ahvolga olib kelishi mumkin. Hattoki raqobat to‘la inkor etilgan sovet davrida ham ma’naviyatga vulgar materialistik yondashish xalqning ijtimoiy-tarixiy xotirasidan, asriy madaniy merosidan, eng qadrli urf-odatlari va yaxshi an'analaridan ancha-muncha uzoqlashtirdi, kishilar o‘rtasidagi mehr-oqibatni sovutib yubordi, befarqlikni, xudbinlikni kuchaytirdi. G‘arb mamlakatlaridagi ma’naviy inqiroz to‘g‘risida ham bizga ko‘p narsa ma’lum. Islom Karimov haqli ravishda «Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma’naviyat negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin»¹, deydi.

Ma’naviyatga vulgar antropotsentrizm va abstrakt (mavhum) inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashuv ham uni inqirozga mahkum etadi. Aynan shunday formal yondashuv tufayli inson huquqlari, gender tengligi, axborot erkinligi va shu kabilar ayrim G‘arb mamlakatlarida bir jinsli nikohlar qonuniylashishiga, geyparadlar va noan’ anaviy shahvoniy mo‘ljaldagi kimsalar va harakatlarning jamiyatga ochiqcha tazyiqi kuchayishiga, mumtoz qadriyatlarning «qadrsizlanishi»ga sabab bo‘layotir. Har bir hodisa va jarayonda me’yor buzilsa, u o‘zini dialektik inkoriga, teskarisiga aylanadi. Formal tushuniladigan inson huquqlari bilan shunday hol yuz bermoqda. Birjinsli nikohlarning qonuniy tan olinishi bunday oilalarga bola saqlab olish huquqini berdi. Lekin demokratik, huquqiy G‘arb jamiyati yuvenal huquq (bolalarning huquqi) buzilayotganini payqamay qoldi. Axir turli sabablarga ko‘ra yetim qolgan bola normal, ham otasi, ham onasi bor oilada o‘sish imkoniyatidan, huquqidan mahrum bo‘lmoqda-ku! Ma’naviyat insonni, shu jumladan, yosh bolalarni ham muhofaza qilishi kerak.

¹ Ислом Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. З-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996.275-6.

Jamiyatda tub o'zgarishlar yuz berayotgan sharoitda esa ma'naviyatni vulgar materialistik, vulgar antropotsentristik, abstrakt xususiy nuqtayi nazardan yoki diniy-mistik tushunish faqat zarar keltiradi. Biz ma'naviyatga ilmiy xolislik bilan yondashib, uning mohiyatini, mazmunini, tuzilish strukturasini, namoyon bo'lish shakllarini, rivojlanish qonuniyatlarini, ijtimoiy vazifalarini, ularning turli tarixiy davrlar va vaziyatlarda o'zgarib turishini aniq tasavvur etishimiz lozim.

Ma'naviyat tushunchasi va vazifalari birgina falsafa fani darajasida gnoseo-logik, ontologik, umumsotsiologik, aksiologik nuqtayi nazarlardan tarixiy va mantiqiy, strukturaviy va funksional usullar yordamida tahlil qilinishi lozim. Ma'naviyat tushunchasini va vazifalarini boshqa fanlar, xususan, madaniyat nazariyasi, estetika, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya kabilar maxsus o'rganib, uning mazmunini to'la aniqlashga yordamlashgandagina ma'naviyatni kategoriya darajasida chuqurroq anglab olamiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'naviyat o'zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me'yoriy xossalardan kelib chiqib, har qanday alohida olingan qadriyatlarning, shu jumladan, chetdan qabul qilingan yutuqlarning ham muayyan tarzda faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi va jamiyat a'zolarining ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi.

5.4. Ma'naviyatning rivojlanishi ham ma'lum qonuniyatları

Ma'naviyatning rivojlanishi ham ma'lum qonuniyatlarga tayanadi. Ma'naviyatshunoslik, boshqa fanlar singari, insonga yangi bilim beradi, dunyoqarashini kengaytiradi va o'rganayotgan sohasiga muayyan munosabatni tarbiyalaydi. U ma'naviy tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtiradi, ularni har bir jamiyatiing o'ziga xos talablari bilan bog'laydi. Inson tarbiyasi oilada bolaga kundalik, oddiy bilimlar berishdan boshlab, bog'cha, maktab, texnikum, oliy o'quv yurti, mehnat jamoasi saboqlarigacha hamda uning ongiga OAV va jamiyat instituti ta'siri ko'rinishida butun umr bo'yi davom etadi. Har qaysi tuzilma va institut, har bir fan va predmet o'zining tarbiyaviy usullari va vositalariga ega. Ma'naviyatshunoslik fani ulardan birortasining o'rniga kelmaydi, balki ularga umumiyo yo'nalish, yo'l ko'rsatadi. «Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati»da «Ma'naviyat qonunları»

maqolasida uch qonun: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonuni; Ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi qonuni; Ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonuni qayd etilgan va qisqacha izohlangan. Qonunlarning o'ziga kelsak, ularning birinchi va ikkinchisi umumijtimoiy, ya'ni jamiyat qonunlaridir. Birinchi qonunda bu yaqqol ko'rinish turibdi. Ikkinchi qonunda «ma'naviyat» o'rniga istagan ijtimoiy hodisani qo'ying, mantiq buzilmaydi. Masalan, «Iqtisodiyotning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi qonuni». Iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish, moddiy iste'mol, har holda, ma'naviyatdan farq qiladi, lekin ular ham ma'naviyat kabi ijtimoiy hodisalardir. Har qanday ijtimoiy hodisa ma'naviyat bo'lavermaydi. Lug'atda keltirilgan qonun umumijtimoiy qonun bo'lib, iqtisodiyotga ham, ma'naviyatga ham, siyosatga ham, maishiy turmushga ham birday taalluqli.

Jamiyatning umumiyligi qonunlaridan tashqari, ma'naviyatning o'ziga oid qonunlar bor, ya'ni rivojlanish qonunlari. Ular tabiat va jamiyat qonunlari kabi obyektiv xarakterga ega, hech kimning xohish-irodasiga bo'ysunmaydi. Biroq, tabiat qonunlaridan farqli, jamiyatning barcha qonunlari kabi ma'naviyat qonunlari odamlarning ongli faoliyati tufayli yuzaga chiqadi, garchi ularga bo'ysunmasa-da. Shunga ko'ra u o'zining rivojlanish qonuniyatlariga egadir.

Ma'naviy yuksalishga jamiyat rivojlanishining umumiyligi qonunlari ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyatda ular o'ziga xos tarzda voqe bo'ladi. Biz ma'naviy yuksalish xususiyatlarini hisobga olib, garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo'naliш va jarayonlarni o'z ichiga olsa ham, ularni asosan to'rt yirik guruhga ajratidik:

1) shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog'liq bo'lgan qonuniyati va vorisiylik tamoyiliga amal qilishi;

2) shaxslar va millatlarning o'zaro munosabatlari jarayonida sodir bo'ladigan «o'zaro ta'sir» va «o'zaro boyitish» orqali bo'ladigan jarayon yoki ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni;

3) jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviy ehtiyojlarning muttasil o'sib borish qonuni;

4) ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong shakllari rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni yoki ma'naviyatning shaklsiz o'sib borishi.

1. Birinchi guruhga *shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog'liq bo'lgan qonun* kiradi. Agar ichki salohiyat nochor bo'lsa, shaxs barkamollik darajasiga, millatning o'z bir butunligini saqlashga va

ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog‘onasiga erishishiga salbiy ta’sir qiladi. Yana ham aniqroq qilib aytildigan bo‘lsa, ichki salohiyat tayanch va obyektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg‘un holatda bo‘lishini taqozo etadi.

Ichki salohiyatning mustahkam bo‘lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo‘lmisin, bari-bir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan payitda shaxs ma’naviy kamoloti va millatning yuksalishini ta’minalashga xizmat qilaveradi. Taraqqiyotning dialektik qonunlaridan tashqari boshqa universal qonunlari ham bor. Narsa, predmet, hodisa va jarayonlarning oddiylikdan (soddalikdan) murakkablikka qarab rivojlanishi, vorisiylik qonuni va h.k. Ular ham o‘ziga xos tarzda jamiyat va ma’naviyat rivojlanishida yuzaga chiqadi. Masalan, ibridoiy jamiyat ma’naviyati quldorlik jamiyati ma’naviyatiga nisbatan ancha qashshoq, oddiy, sodda va jo‘n. O‘z navbatida quldorlik jamiyati ma’naviyati feodal jamiyat ma’naviyatiga nisbatan xuddi shunday. Jamiyat rivojlangani sayin uning tuzilmalari, institutlari, madaniyati, ma’naviyati rang-baranglashib, murakkablashib, boyib borgan.

Vorisiylik qonuni umumtaraqqiyot qonunidir. Aslida uni yuqorida qayd etilgan dialektika qonunlarining o‘ziga xos tarzdagi ko‘rinishidir, deya talqin qilish mumkin. Jonli organizmlarda irsiyat belgilarining saqlanishi, materiya va energiyaning yo‘q bo‘lib ketmasdan, bir turdan (shakldan) ikkinchi turga aylanishi tabiatdagi vorisiylik bo‘lsa, avlodlarning bir-biridan o‘rganishi, har bir avlodning insoniyat shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarni tayyor holda qabul qilib olishi, qaytadan g‘ildirakni kashf etmasligi, mavjud yutuqlarni boyitishga o‘z hissasini qo‘sishi vorisiylik qonunining jamiyat hayotida va ma’naviyatida yuzaga chiqishidir¹

2. Ikkinci guruh qonuniyatlariga *shaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladigan «o‘zaro ta’sir» va «o‘zaro boyitish» jarayoni yoki ma’naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog‘liqlik qonuni* kiradi. Ya’ni shaxs ma’naviy kamoloti onadan tug‘ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek millat ham tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida shakllanadi. Hech qachon shaxs, inson o‘zgalarsiz yashay olmaganidek,

¹ А.Эркаев. Маънавиятшунослик. – Т. 293- бет.

millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa munosabatlarsiz taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof» millat borligiga hech kim guvohlik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi.

Ma'naviyat ana shu o'zaro munosabatlar va «ta'sir»lar asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. Shunday qilib, ma'naviyat rivojlanishida «ta'sir» va «aks ta'sir» qonuniyati mavjud bo'lib, u ma'naviyatshunoslikning rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviy hayotning mazmunini, shaklini va o'ziga xosligini ko'pincha jamiyat umumiyligi taraqqiyotining erishilgan darajasi belgilaydi. Ushbu qonun ma'naviyatni jamiyatning moddiy hayotidan ajratmasdan, uni Yaratganning sir-asroriga deb emas, balki rivojlanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida tushunishda katta ahamiyatga ega. Agrar jamiyatda yashagan kishining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, hayotga munosabati, ma'naviyatining eng yuksak ko'rinishi o'rta asrlar taraqqiyot darajasiga mos. Uni sanoat, texnika, transport va aloqa tizimi taraqqiy etgan, radio, televideniye, kompyuter, internet zamonida yashaydigan zamonaviy kishilarniki bilan taqqoslash mumkin emas. Agrar jamiyatda aholining aksariyati, ayniqsa, jismoniy mehnat kishilari savodsiz bo'lган. Belkurak, ketmon, omoch, o'roq, bolta, eshak, ho'kiz, ot-arava yordamida xo'jalik yuritgan. Dehqondan, qo'shchi va aravakashdan, oddiy kosib-hunarmanddan savodli bo'lishni ishlab chiqarish texnologiyalari talab qilmagan. Industrial jamiyatda esa ishlab chiqarish zavod-fabrika ishchisidan, xizmatchi va boshqaruvchidan, qishloq xo'jaligi dehqondan yoki traktorchidan, transport tizimi shofyordan, hech bo'limganda, boshlang'ich ma'lumotli bo'lishni talab qiladi. Texnologiyalarning uzluksiz murakkablashuvi bu talablarni yanada kuchaytiradi. Jamiyatning savodxonligi yangi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni tug'diribdondirilish usullarini xilma-xillashtirdi. Agar savodsiz omi kishi baxshilarni, qissaxonlarni (xalq kitoblari va manoqiblarni, rivoyat va afsonalarni so'zlab beruvchilarni) to'y va sayillarda tinglab, ma'naviy ehtiyojlarini qondirsa, savodli kishi buni ko'proq yozma adabiyotni, mumtoz mutafakkirlar asarlarini o'qib amalga oshiradi.

Mehnat vositalari va texnologiyasi nafaqat ishlab chiqarish usuli, munosabat-lari pirovardida qanday bo'lishini, yetishtirilgan moddiy va madaniy mahsulotlar, ta'lim olish, ilmiy va badiiy axborotlardan foydalanish qanday tamoyillar asosida taqsimlanishini, shuningdek,

qanday vositalar va usullar yordamida tarqatilishini belgilaydi. Ular muayyan jamiyatdagi iste'mol va ehtiyojlar mazmunini, shaxsning o'zligini yuzaga chiqarish imkoniyatini aniqlaydi. Ushbu qonuniyat industrial jamiyatda umumiy, o'rta maxsus va oliv ta'lim, nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlar, sog'liqni saqlash tizimi, OAV iqtisodiyotning zaruriy tuzilmasiga aylanganida yaqqol ko'rindi.

Ma'naviyat yuksalishining umumtamadduniy taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni adabiyot va san'at misolida yaqqol ko'rindi. Qabilalar uyushmasi va ilk davlatchilik davrida qahramonlik eposlari vujudga keldi. «Go'ro'g'li» turkumi, «Alpomish», «Rustamxon» va boshqa dostonlar xalqimizga o'sha davrdan va ilk o'rta asrlardan meros (to'g'ri, ularga keyingi jamiyatlar ancha ta'sir ko'rsatgan). Ko'chmanchi, yarimko'chmanchi turmush tarzi, yaylovlar, vodiylar uchun kurash, yangi hududlarning o'zlashtirilishi, etnoslarning tartibsiz yirik migratsiyasi qurolli to'qnashuvlarni, o'zaro babs-kurashlarni tug'dirgan. Har bir qabila (qabilalar uyushmasi), yosh davlat o'z ideal qahramoni obrazini yaratishga, yosh avlodni ular timsolida tarbiyalashga harakat qilgan. Shu tariqa qahramonlik eposlari vujudga kelgan. O'rta asrlarda agrar jamiyat ancha barqarorlashdi. Islom asosida yangi sivilizatsiya qaror topib, uning axloqiy, siyosiy-huquqiy, e'tiqodiy ideallari shakllandi. Adabiyot va san'at, diniy va siyosiy mafkura yangi sivilizatsiya zaruratini, ehtiyojlarini ifodalay boshladi. Islom sivilizatsiyasining tarixiy talablarini, ziddiyatlarini, bu sivilizatsiyaga integratsiya bo'layotgan turkiy xalq-larining ehtiyojlarini asarlarida aks ettirdilar. Yusuf Xos Hojib zamonida islomda zohidlik, tarkidunyochilik g'oyalari ancha yoyilgan edi. Shu sababdan daho bobomiz, uzlatga chekinishdan, tarkidunyochilikdan beklarni, xonlarni tiyadi. Xalq to'g'risida g'amxo'rlik qilish rahbarga Olloh tomonidan yuklatilgan burch, deya uqtiradi asarida.

Mahmud Koshg'ariy turk tilining umumiy me'yorlarini belgilash, saqlash qatorida alohida elatlarga bo'linib borayotgan turkiy qabilalarni Qoraxoniyalar davlati tevarigida birlashtirish g'oyasini bilvosita olg'a surgan. Ko'rini turibdiki, sivilizatsiya ehtiyojlari va talablari jamiyat badiiy fikrini muayyan yo'nalishda rivojlanishini taqozo etadi. Keltirilgan misollar, dalillar hammasi turkiy (eski o'zbek) adabiyoti namunalariga oid bo'lib qoldi. Aslida bunday misollarni, dalillarni istagan xalq adabiyotidan keltirish mumkin.

Umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darjasini odamlarning dunyo-qarashini, tafakkurini, mavjud jamiyatga beradigan bahosini,

munosabatini, jamiyatning ilm-fanini, adabiyotini, madaniy saviyasini belgilaydi. Ular asosida qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar qaror topadi. Bu jamiyat faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishing umumiy qonuni – moddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi, o'zaro chambarchasligi qonunining voqe bo'lishidir.

3. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviy ehtiyojlarning muttasil o'sib borish qonuni – ehtiyojlar yuksalishi va ma'naviyat rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liq. Ehtiyojlar yuksalsa, ma'naviyat rivojlanadi, rivojlangan ma'naviyat esa yuksak ehtiyojlarni taqozo etadi. Rivojlangan ma'naviyat bu qondirilgan soglom ehtiyojlarning yuzaga chiqishidir va ayni paytda nisbatan yuksakroq yangi ehtiyojlarning tug'ilishidir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviyat va ehtiyojlar o'sishi o'rtasidagi, o'z navbatida, ma'naviy ehtiyojlar o'sishi va ma'naviyat yuksalishi o'rtasidagi aloqalar ikkinchi darajali, yuzaki, tasodifiy va muvaqqat emas, balki eng muhim, mohiyatli, zaruriy, takrorlanuvchan va doimiy aloqalardir. Shu sababdan bu aloqalar ma'naviyat yuksalishi qonunidir. Lekin ehtiyojlarning o'zi bevosita ma'naviyat tarkibiga kirmaydi, balki uning rivojlanish sababi va oqibatini, shart-sharoitini, harakatlantiruvchi kuchini tashkil qiladi. Ehtiyojlarning yuksalishi inson tabiatiga, asl mavjudligiga (ekzistensiyasiga) mos. Ushbu ma'noda insonni «ehtiyojlari yuksaladigan mavjudot» deyish o'rnlidir. Ehtiyojlarning mohiyatiga ko'ra turli shakkarda namoyon bo'ladi: moddiy va ma'naviy ehtiyojlar. Ma'naviy ehtiyojlar o'z navbatida: axloqiy, estetik, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shu kabi turlarda namoyon bo'ladi. Ma'naviyatning rivojlanish qonuni ana shu ikkinchi guruh ehtiyojlarida amal qiladi

Ma'naviy ehtiyojlarni mazmuniga, vazifalariga, ahamiyatiga, muayyan ijtimoiy ong shakliga mansubligiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumma'naviy ehtiyojlar, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

2. Ma'naviyatning nisbatan alohida mustaqil tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy ong shakllari taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar. Birinchi guruhga mansub ehtiyojlar quyidagilardan iborat:

a) inson o'z tabiatini (mohiyatini) takomillashtirish ehtiyojlar;

b) insonning o'z ijtimoiy yaratuvchilik imkoniyatlarini (salohiyatini) o'stirish ehtiyojlar;

v) insonning shaxs sifatida o'z qobiliyatlarini, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ehtiyojlar;

g) insonning o‘z erkinlik darajasini orttirib borish ehtiyojlari.

Ularning har biri ko‘plab talablar, me’yorlar, mezonlar, ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Masalan, insonning o‘z tabiatini (insoniy mohiyatini) takomillash-tirish ehtiyojlarini oladigan bo‘lsak, u, avvalo, insonning aqli, ongli bioijtimoiy mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Demak, umumma’naviy ehtiyojlar, birinchi navbatda, insonning aqli, tafakkuri, bilimlari, tuyg‘ulari, ijtimoiy faolligi va aloqalari boyishiga bog‘liq. Inson biologik tabiatiga ko‘ra sog‘lom bo‘lishi (jamiyat miqyosida bu sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiyot fanlari rivojlanishini taqozo etadi) lozim. Ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, jamoaviylik tuyg‘usi mustahkam, ijtimoiy aloqalari va muloqot maydoni muttasil kengayib borishi, jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalarni, me’yorlarni yaxshi bilishi, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan bo‘lishi kerak.

Inson o‘z oldiga ongli maqsad qo‘yib, mehnat qiladigan, tabiatni, jamiyatni va o‘z-o‘zini qayta yaratadigan mavjudot. Inson yaratuvchilik faoliyatini takomillashtirish uchun muttasil amaliy va nazariy bilimlarini, mehnat va ijod ko‘nikma-larini, hayotiy tajribasini o‘stirib borishi talab etiladi. Bular jamiyatda ta’lim-tarbiya tizimi vujudga kelishini va jamiyat bilan birga rivojlanib borishini taqozo etgan. Ota-onada bolasiga yoshlikdan mehnat qilishni, yashash qoidalarini, aka-ukalari, qo‘ni-qo‘shnilari, tengdoshlari, do‘stlari, tanish-bilishlari bilan ahil bo‘lishni, bir-birini qo‘llab-quvvatlashni, oilada, mahallada, jamoatchilik joylarida intizomni saqlashni, xushmuomalalikni, urf-odat, an’analar uchun mas’ul bo‘lishni, ularga itoat etishni o‘rgatadi. Bolada jamoaviylik tuyg‘ulari, mas’uliyat, muloqot, boshqalar bilan birga yashash va mehnat qilish me’yorlari asta-sekin qaror topadi. Bu uning ijtimoiy-lashuvidir.

Jamiyat tashkil qilgan ta’lim-tarbiya tizimida inson asosan obyektdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash tizimida esa inson bir vaqtida tarbiya obyekti va subyekti hisoblanadi. Mehnatsevarlik, faollik, izlanish, mahoratga, o‘z sohasida komillikka intilib, o‘z ustida ishslash insonning shaxs sifatida o‘zligini namoyon etishning, o‘z salohiyatini, qobiliyatini yuzaga chiqarishning zarur shartlaridir. Shartlar orasida yana biri bor – bu insonning erkinlik darajasidir. Erkinlik yetishmaydigan inson na hayotda, na ijoddha o‘z imkoniyatlarini to‘la yuzaga chiqara oladi. Insonda erkinlik ehtiyojlarining o‘sib borishi jamiyat taraqqiyoti bilan, ijtimoiy qadriyatlar tizimining insonparvarligi, tafakkur erkinligi,

tolerantlik qaror topishi, ma’naviy muhit mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

Ikkinci guruhga ijtimoiy ongning alohidalashgan shakllariga oid ehtiyojlar tizimi kiradi:

a) e’tiqodiy, ya’ni ilmiy-falsafiy va diniy ehtiyojlar – narsa va hodisalarining, jamiyat va insonning, abadiyat va foniylikning mohiyatini anglashga intilish, hayotning ma’nisini, yashashdan maqsadni bilish;

b) axloqiy ehtiyojlar – ezgulikka, insonparvarlikka, vatanparvarlikka intilish, vijdon talablariga mos yashash; baxtli turmush kechirish (gedonizm);

v) estetik ehtiyojlar – go‘zallikka intilish, hayotni, tabiat va jamiyatni go‘zallashtirish («go‘zallik qonunlari bo‘yicha» qayta yaratish), go‘zallikdan zavq-shavq tuyish, huzur-halovat olish (evdemonizm), nozik didli, nozik ta’bli inson bo‘lish, ijod qilish;

g) huquqiy ehtiyojlar: adolatni qaror toptirish, insonni, jamiyatni har xil adolatsizlik, zo‘ravonlik va ekstremistik tajovuzlardan himoya qilish, inson huquqlarini, qonun ustuvorligi va barchaga birdayligini har tomonlama ta’minalash;

d) siyosiy ehtiyojlar – huquqiy-demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurish, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish va uzliksiz takomillashtirib borish, davlat va fuqaro, jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg‘unlashtiradigan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirib borish;

e) boshqa ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar. Ular oilani mustahkamlash, urf-odatlar, marosim, an’analarni takomillashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, axborot olish, xordiq chiqarish, bo‘sh vaqt ni mazmunli o‘tkazish va ko‘plab shu kabilardan iborat.

Ehtiyojlar tug‘ilishi (paydo bo‘lishi), o‘sishi, qondirilishi, yanada yuksakroq ehtiyojlarning vujudga kelishi, bu jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar, ehtiyojlar yuksalishi bilan bog‘liq boshqa ko‘plab masalalar alohida, mustaqil va batafsil tadqiq etishni taqozo etadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar muttasil o‘sib borishi ma’naviyat yuksalishi qonunlaridan biridir. Ehtiyojlar yuksalmasa, inson hayvonot olamidan, jamiyat tabiatdan ajralib chiqa olmas edi. Jamiyatning gurkirab rivojlanishi bevosita yoki bilvosita sog‘lom ehtiyojlar yuksalishiga,

turg'unlikka tushib qolishi, inqirozga uchrashi, xato g'oyalar tomon og'ib ketishi (siyosiy va diniy ekstremizm ta'sirida), o'smay qolishi nosog'lom ehtiyojlar ustunlik qilib ketishiga bog'liq. Ehtiyojlar yuksalishi va jamiyat rivojlanishi dialektik birlikni tashkil etadi.

Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlар rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni to'g'risida shuni aytish mumkinki, ma'naviyatga e'tiqod (mifologiya, din, falsafa), axloq, adabiyot va san'at, ilm-fan, huquq, siyosat hamda ta'lim-tarbiya tizimi ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyatga ta'siri va munosabatlari qismlarning bir-butunlikka, tizim tarkiblarining yaxlit tizimga ta'siri va munosabati kabidir. Butunlikning qismlari, tizimning tarkibiy tuzilmalari takomillashsa, butunlik, tizim rivojlanadi va, aksincha. Masalan, viloyatlari, shahar, qishloqlari boy mamlakat kambag'al, qoloq bo'lmaydi. Boy va rivojlangan mamlakatlarning viloyatlari, shahar, qishloqlari qashshoqlikka, qoloqlikka yuz tutmaydi.

Ma'naviyat yaxlit tizimdir. Ijtimoiy ong shakllari esa uning tarkibiy qismlari, tuzilmalaridir. To'g'ri, butunlikning barcha qismlari, tizimning barcha tarkibiy tuzilmalari birdek, bir tekis rivojlanmaydi. Ayrimplari ortda qoladi, ayrimlari ilgarilab ketadi. Ammo ular o'rtasida o'ziga xos dinamik muvozanat qaror topadi. Lekin qismlar, tarkibiy tuzilmalar rivojlanishda bir-biridan tamomila uzilib qolmaydi. Har qanday qonun, aloqa, zarurat namoyon bo'lishi negizida me'yor turadi. Me'yor buzilsa, qonun ishlamaydi, hodisa o'z teskarisiga aylanadi. Ijtimoiy ong muayyan shaklining ma'naviyat tizimidagi o'rnini, ahamiyatini aniqlashda me'yorga rioya qilish nihoyatda muhim. Ma'naviyat yaxlit tizim sifatida rivojlanishi uchun uning tarkibiy qismlari rivojlanishi kerak. Har bir tarkibiy qism rivojlanishi ma'naviyatning yaxlit tizim sifatida rivojlanishiga ham, bu tizimga kiruvchi boshqa qismlar rivojiga ham (biriga ozroq, biriga ko'proq) yordam beradi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

E'tiqod, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya tizimi, madaniyat, bo'sh vaqt va dam olish, bir tomondan, jamiyat taraqqiyoti mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatni taraqqiy ettiruvchi omillardir. Ilm-fan, birinchi galda, tabiatshunoslik va texnika fanlari bevosita tabiat boyliklaridan foydalanish, ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish, texnologiyalarni yuksaltirish uchun kerakli bilimlar beradi. Ijtimoiygumanitar fanlar insonning o'ziga, jamiyat, insoniy munosabatlarga, ularni takomillashtirishga oid bilimlar beradi. Ilm-fanning yana bir buyuk vazifasi – u odamlarning dunyoqarashini tarbiyalaydi va turli

irim-sirimlardan, xurofotdan, xato, g'ayriilmiy qarashlardan xalos bo'lishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, fan dunyoqarashning, e'tiqodning, yanada kengroq qarasak, butun ma'naviyatning ilmiy-intellektual negizini tashkil etadi.

Ilm-fan rivojlanmasa, olamning va insonning ko'p sirlari ochilmasdan qolar edi. Kundalik ong, oddiy hayotiy tajriba negizida vujudga kelgan mehnat ko'nikmalari va mahorati ibtidoiy va agrar jamiyatning ilk bosqichidan yuqoriroqqa ko'tarilish imkonini bermas, inson iqtisodiy muhtojlikdan, oddiy kasallikdan ko'p azob chekar edi. Bunday sharoitda insonning o'zligini anglash darajasi pastligicha qolib, o'z oldiga bir amallab kun ko'rishdan boshqa maqsadlarni qo'ya olmas edi.

Ilm-fanning vujudga kelishi va rivojlanishi uning tabiat kuchlaridan (suv, havo, olov, yoqilg'i sh.k. lar), tabiat ashylaridan foydalanish imkoniyatlarini keskin oshirdi. Asta-sekin murakkab mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari, mexanizmlar yasash usullari paydo bo'ldi. Inson ilm-fan yordamida yangi ashylar, o'simliklarning yangi serhosil navlarini, hayvonlarning mahsuldor zotlarini yaratdi, turli kasalliklarni davolashni o'rgandi. Turmush farovonligi va o'rtacha umr ko'rish yoshi muttasil o'sdi, ongi, ma'naviyati yuksaldi.

Inson ijobiy bilimlari boyishi va chuqurlashishi tufayli sabab-oqibat bog'lanishlarini kashf etdi. Hech bir narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Hamma narsa, voqealar, jarayonlar asosida muayyan sabablar yotadi. Sababning oqibati o'zidan keyin keladigan narsa, hodisalar uchun sabab bo'ladi. Bu zanjir to'xtovsiz, uzlusiz davom etadi. Demak, olamning, insonning boshlanishida qandaydir bosh, ilk sabab bor degan xulosaga kelishi mumkin. Natijada, insonning e'tiqodiy qarashlari o'zgardi. U ibtidoiy fetishizm, magiya, ajdodlar ruhiga sig'inish, animizmdan asta-sekin olamning yagona yaratuvchisi va boshqaruvchisi - ilk sabab mavjudligi to'g'risidagi monoteistik qarashlarga keldi. Monoteistik dinlar vujudga kelishida ilm-fan bilvosita omil bo'lgan. Monoteistik dinlarda Xudo olamning birlamchi sababi hisoblanadi. Bu dinklar monodeterministik bo'lib, yaratuvchi irodasini - bosh, ilk sababni tan oluvchi dinlardir. Politeistik (ko'pxudolik) qarashlar ibtidoiy e'tiqodlar va monoteizm o'rtasidagi bir bosqichdir.

Fan va din o'rtasida asrlar mobaynida davom etgan bahs, odamlar ongi, dunyoqarashi uchun kechgan kurash ma'naviyat rivojlanishi ziddiyatli bo'lishiga olib kelgan. Ba'zan unda me'yor buzilib, fanga bepisand qaralsa, din ustunlik qilsa, mutaassiblik unsurlari, xurofot va

bid'at ko'paygan. Bu turg'unlikka sabab bo'lган. Ba'zan ilm-fan yutuqlari oldida dinning keskin qarashlari yumshagan, mo'tadillik kasb etgan. Ma'naviyat bunday paytlarda gurkirab o'sgan. Ijodkorlik, erkinlik yuksalgan. Ammo fan ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan ajralib qolsa yoki ularga qarshi qo'yilsa (me'yor buzilsa), ilmiy qarashlar birdan-bir ustuvor e'tiqod hisoblansa, ma'naviyat uchun yana xavf tug'iladi. Yuqoridagilardan ilm-fanning ijtimoiy ong shakli sifatida ma'naviyatga ta'siri oydinlashadi.

Ko'rinib turibdiki, «Ma'naviyatshunoslik»ning ham boshqa ijtimoiy - gumanitar fanlar kabi rivojlanish qonuniyatları mavjud. Ularni o'rganishni takomillashtirib borish yo'li bilan ma'naviyatshunoslikning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi imkoniyatlardan yana ham kengroq foydalanish mumkin bo'ladi.

Mavzu bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'naviyat o'zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me'yoriy xossalardan kelib chiqib, har qanday alohida olingan qadriyatlarning, shu jumladan, chetdan qabul qilingan yutuqlarning ham muayyan tarzda faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi va jamiyat a'zolarining ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi. Ma'naviy yuksalishga jamiyat rivojlanishining umumiyligi qonunlari ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyatda ular o'ziga xos tarzda voqe bo'ladi. Ijtimoiy ong muayyan shaklining ma'naviyat tizimidagi o'rnini, ahamiyatini aniqlashda me'yorga rioya qilish nihoyatda muhim. Ma'naviyat yaxlit tizim sifatida rivojlanishi uchun uning tarkibiy qismlari rivojlanishi kerak. Har bir tarkibiy qism rivojlanishi ma'naviyatning yaxlit tizim sifatida rivojlanishiga ham, bu tizimga kiruvchi boshqa qismlar rivojiga ham (biriga ozroq, biriga ko'proq) yordam beradi. «Ma'naviyatshunoslik»ning ham boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi rivojlanish qonuniyatları mavjud. Ularni o'rganishni takomillashtirib borish yo'li bilan ma'naviyatshunoslikning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi imkoniyatlardan yana ham kengroq foydalanish mumkin bo'ladi. Ularni asosan to'rt yirik guruhga ajratish mumkin:

1) shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog'liq bo'lган qonuniyati va vorisiylik tamoyiliga amal qilishi;

2) shaxslar va millatlarning o'zaro munosabatlari jarayonida sodir bo'ladigan «o'zaro ta'sir» va «o'zaro boyitish» orqali bo'ladigan jarayon

yoki ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni;

3) jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviy ehtiyojlarning muttasil o'sib borish qonuni;

4) ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong shakllari rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni yoki ma'naviyatning shaklsiz o'sib borishi.

Mavzuga doir topshiriq va takrorlash uchun savollar.

1. Ma'naviyatning me'yoriyligini qanday izohlaysiz va uning mohiyati nimada?

2. Insonning asl xislatlari, fazilatlari ma'naviyatning me'yoriylik tizimida qanday amal qiladi?

3. Ma'naviyatning me'yoriylik xususiyatlari va "Klaster» usulida yoriting.

4. Ma'naviyatning ijtimoiy funksiyalarini hayotiy misollarda aks ettiring.

5. Ma'naviyatning rivojlanish qonunlarini ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi qanday omillarga bog'liq deb o'ylaysiz?

6. Ma'naviyatning rivojlanish qonunlarini "Konseptual jadval"da izohlang.

7. Vorisiylik, o'zaro ta'sir va aks ta'sir qonunlarining FSMU texnologiyasida asoslab bering.

8. Ma'naviyat o'zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me'yoriy xossalardan kelib chiqib jamiyatda qanday konkret-ijtimoiy vazifalarini bajaradi?

9. Ma'naviyatning muhofaza qilish, tanlash me'yoriy xossalarni FSMU texnologiyasida izohlang

10. Ma'naviyatning cheklash, baholash, undash me'yoriy xossalarni haqida esse yozing.

6-mavzu. MA'NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI


- 6.1. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari: qadriyatlar, urf odatlar, ma'naviy meros, madaniyat, mafkura, ma'rifat. Ma'naviyat va madaniyat, ularning o'zaro munosabati.
- 6.2. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati.
- 6.3. Ma'naviy meros - ma'naviyat rivojlanishining asosi.
- 6.4. Ma'naviyat va ma'rifat. Ma'rifatning tor va keng ma'nolari. Ma'rifat inson qalbiga sayqal berish jarayoni sifatida. Ma'rifat yo'llari.
- 6.5. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat, inson hayotida tutgan o'rni va roli.
- 6.6. Iqtisod, siyosat, ma'naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o'zaro uyg'unligi zarurati.

6.1. Ma'naviyatning tarkibiy qismalari: qadriyatlar, urf odatlar, ma'naviy meros, madaniyat, mafkura, ma'rifat.

Ma'naviyat va madaniyat, ularning o'zaro munosabati

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa sifatida o'zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Ular madaniyat, madaniy meros, mafkura, ma'rifat, qadriyatlardir. Aslini olganda, ma'naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushuncha-lardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to'ldirib turadi.

Madaniy va ma'naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. Shu sababdan avvalo madaniyat va uning turlarini tahlil etishdan boshlamoq maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, madaniyatni, xususan ma'naviy madaniyatni bilmasdan, o'rganmasdan turib, ma'naviy meros to'g'risida gapirish ancha mushkul, garchi ma'naviy meros ma'naviy madaniyat doirasiga kiradi. (5-sxema)



5- sxema

Shunday ekan madaniyat nima? Madaniyat tushunchasini izohlashga bag‘ishlangan ko‘p ilmiy adabiyotlar mavjud. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta’riflar soni 260 tadan oshib ketgan. Mualliflar bu tushunchaga har biri o‘z nuqtayi-nazaridan yondashadilar. Bunga sabab, madaniyatning ko‘p qirrali, murakkab, ma’naviy-ijtimoiy hodisa ekanligi, uning inson va jamiyat hayotining barcha qirralarni qamrab olganligidir. Madaniyatga berilgan ta’riflarda mualliflarning fikrlarini umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Shu jumladan, ularni umumlash-tiradigan bo‘lsak, madaniyat – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayoti sohasida yaratgan, o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma’naviy boyliklar tizimini bildiradi. Ko‘rinadiki, madaniyat insonning moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish va o‘zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U inson aql-idroki, iste’dodi va mehnati mahsulidir. Yuqorida aytilganidek, madaniyat juda murakkab ko‘p qirrali ma’naviy-ijtimoiy hodisa bo‘lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarni, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o‘zida qamrab oladi. Sirasini aytganda, xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy-ma’naviy boyliklar madaniyatga kiradi.


Madaniyat deyilganda, mehnat quollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko‘nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo‘lga qo‘yish, aholi o‘rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma’lumot, umumiylar, umumiylar majburiy va oliy ta’limni amalga oshirish, adabiyot va san’at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy qoyalar va shu kabilar nazarda tutiladi. Ko‘rinadiki, madaniyat odamzod aql-idrokining eng yuksak cho‘qqilarigacha bo‘lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe’ bo‘ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatları, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o‘zaro munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishining ikki amaliy turi – moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ham yirik ikki turga moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat deganda mehnat quollarini, mehnat ko‘nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayat uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklarni anglaymiz. Moddiy

madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chiqarish vositalari: ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshootlar, ijtimoiy mehnatni uyushtirish shakli, qurilish va dehqonchilikni yo'nga qo'yish va boshqalar kiradi.

Madaniyatning ikkinchi turi – bu ma'naviy madaniyatdir. Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ijodkorligi faoliyatları natijalari – tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at sohalari, axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqarishdan hosil bo'ladi. Ma'naviy madaniyatga insonning aqli va ma'nani yaratuvchanlik faoliyatları va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma'rifat va hokazolar yiqindisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma'naviyati, ruhiyati olamidir. Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumдорligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatları taraqqiy etadi.

6- sxema



Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o‘zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma’naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma’naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aql-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma’naviyat yotadi. har qanday moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma’naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasidir.

Madaniyatni moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari, oila, maktab, oliygoh, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o‘zaro munosabatlari ham kiradi.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qoidalaridan biri uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi bilan madaniyat ham sifat jihatidan o‘zgaradi. Bu degan so‘z, jamiyatning taraqqiy etishi madani-yatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o‘z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko‘taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma’naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi.

Xuddi shuningdek, ma’naviy madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo‘ladi. Milliy ma’naviyat, madaniyat tarixiy hodisa sifatida bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviy va madaniyat tarixining ibtidosi asrlar qa‘riga singib ketgan bo‘lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun anchayin murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim sultanatlar ahli qabila-qabila bo‘lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-u fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani, ilmiy akademiyalar

tashkil etilib, mag'rib-u mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'o'rurlansak arziyi.

O'tmishda xalqimiz ma'naviy madaniyatning uzviy qismi bo'lgan dini islomni rivojlantirishga ham o'zining munosib hissasini qo'shgan. Dunyoda eng mashhur hadisshunoslar oltita bo'lsa, shulardan to'rttasi bizning diyorimizdan chiqqan. 1998-yilda esa Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi bizning yurtda va butun islom dunyosida keng nishonlangan bo'lsa, 2000 yilda imom al-Moturudiy tavalludining 1130 yilligi, Burxoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi.

Shunday qilib, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiyalar yutug'i jamiyat va inson ma'naviyatining rivojlanishida, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'tmishda toptalgan ma'naviy merosimizni tiklashga qat'yan kirishildi.

6.2. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati

Qadriyatlar ham ma'naviyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo'ladi. Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo'rindir. Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlarini, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim.¹ Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi – kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma'naviy-ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo'llaydi.

¹ Тулянов Ж., Қодиров Б.,Фофуров З. Маънавий юксалиш сари. –Т.: Мехнат, 2000. -Б.103.

Insoniy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli. Kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni anglash, ularni baholash, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish yoki, aksincha, qoralash, cheklash, bartaraf etishga intilish zarurati turli axloqiy (keyinchalik huquqiy ham), estetik, diniy va boshqa me’yorlarni, urf-odat va marosimlarni yuzaga keltiradi. Ular qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Qadriyat insonga, jamiyatga foyda keltiradigan, ularni yuksaltiradigan ijtimoiy baholar, me’yorlar va ideallarning umumiy atamasi va obyektivlashgan voqeligi¹. hamda badiiy, ilmiy asar, obidalar yoxud udum, marosim, axloq va h.k.

Qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida kishida insoniy fazilatlar qaror topadi. Insoniy fazilatlar, shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarning (shu jumladan, tabiatga munosabatning) inson ongi va faoliyatida o‘zlashtirilgan qadriyat sifatida zohir bo‘lishidir. Boshqacha aytganda, insoniy fazilatlar va ularning majmui – ma’naviyat ijtimoiy qadriyatlarning mushtaraklashgan ifodasidir. Qadriyatlarni o‘zlashtirish insonning qay darajada ma’naviy shaxsga aylanganini ko‘rsatadi, unga ichki kuch, iroda, e’tiqod, ijtimoiy ideal bag‘ishlaydi.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to‘xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko‘rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o‘z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha turlariga va shakliy ko‘rinishlarga bo‘linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliv qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr-qimmati, ahamiyati haqida so‘zlash bema’nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o‘zining qadriyatilik ahamiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etib kelmoqda. Jahonda e’tirof etilgan taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning asosiy tamoyillaridan biri ham bozor iqtisodiyotiga o‘tishda aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilganligida chuqur insonparvarlik mohiyati mavjuddir.

Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy boyliklar – yer, suv, havo, quyosh, turli madanlar, o‘simgiliklar, hayvonat dunyosi va

¹ Эркин Юсупов, Ўткир Юсупов. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти. - Хўжанд: 1996, 29-6.

boshqalar, shuningdek, inson mehnati, xatti – harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish, transport vositalari, asbob-uskunalar, hozirgi zamon axborat texnologiyalari, turar joy, mol-mulk, noz-ne'matlar va boshqalar tabiiy va moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Bularsiz insoniyat yashay olmaydi. Tabiat va uning boyliklari biz uchun moddiy ne'matlarning bosh manbai hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga har birimiz ma'naviy va amaliy jihatdan mas'ulmiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonat dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»¹, - deb yozilganki, ularni asrab-avaylash, saqlash, kelgusi avlodlarga sof holda qoldirishimizda har birimizga javobgarlik mas'uliyatini yuklaydi.

Muayyan jamiyat, davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari, shaxs erkinligi va huquqlari, adolat, ozodlik, tenglik, tinchlik, birodarlik kabilar ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insonning erkinligi, uning qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Bu haqda asosiy qomusimizda shunday so'zlar yozilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».²

Istiqlol tufayli mamlakatimizda barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qaror topdi. «Ko'p millatli jamiyatimizda, - deydi I.Karimov, - ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanayotganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi»³. Yuqorida qayd etgan qadriyatlar yangidan barpo etilayotgan davlatchiligmizning poydevoridir.

Xalqimiz va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy qarashlar, tarixiy, badiiy san'at asarlari va diniy amollar; urf-odatlar,

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. -Б. 5.

² Ўша жойда, -Б.5.

³ Каримов И.А.Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида. -Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б.262-263.

an'analar, bayramlar, marosimlar; insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yaxshilik, burch, vijdon, to'g'rilik, halollik kabi axloqiy me'yorlar insonni ma'naviy kamolotga eltuvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sanaladi.

O'zbek xalqining mehnatsevarlik, yerga cheksiz muhabbat, mehmondo'stlik, katta yoshdagilarni hurmat qilish, nonni, suvni e'zozlash bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p qadimiy ma'naviy qadriyatlar chuqur hayotiy mazmunga ega bo'lib bugungi kunda ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni, diniy axloq mezonlarini yoshlарimiz ongiga singdirish, ularning amaliy faoliyatlariga aylantirish muhim ahamiyatga egadir. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlarda yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy bilimlar va islom ilmi va madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish yoshlарimizda ma'naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri milliy g'urur va milliy o'zlikni anglab yetishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda mustaqillik yillari ma'naviy meros va qadriyatlarning ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi muhim o'rniga ahamiyat berib, o'tmishda toptalgan ma'naviy qadriyatlарimizni tiklashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Diniy qadriyatlарimiz ham inson ma'naviy kamolotining muhim omillaridan biridir. Asrlar mobaynida xalqimizning ma'naviyati, insonparvarlik,adolatpar-varlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom diniy ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgani hozirgi kunda hammamizga ayon. Vazifa esa xalqimizni, xususan yoshlарimizni ma'naviy kamolot cho'qqilariga yetkazishda islomiy qadriyatlardan ham bekam-u ko'st foydalanishdan iborat.

Muhtaram Islom Karimov doimo qayta-qayta ta'kidlaganidek: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz. Dinga hurmat va e'tiqod biz uchun o'lmas qadriyatdir»¹.

Diniy qadriyatlарimiz inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik,adolat, insonparvarlik, halollik, diyonatlilik, insoflilik, mehr-shafqatlilik kabi ko'plab insoniy fazilatlarni inson qalbi va

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. -Т.: «Ўзбекистон», 2000. -Б. 20-21.

ruhiyatida qaror toptirishga yo‘g‘rilgan. Ularning har biri inson qalbida chuqur tomir otgan, ruhiyatini harakatga keltiradigan ma’naviyatdir.

Sharq xalqlarining, xususan o‘zbek xalqining qadimiy bayramlaridan biri “Navro‘z” asrlar silsilasidan o‘tib kelib, bugungi mustaqillik kunlarida yangicha mazmun kashf etgan holda xalqimiz ma’naviyatini boyitishda, yoshlарimizning ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. U xalqimiz tomonidan uyg‘onish va yasharish, go‘zallik va nafosat, muruvvat va saxovat ramzi sifatida yuksak qadrlanadi. Navro‘z bayrami kunlari yosh-u qari, har qaysi inson o‘zini mo‘jizakor tabiatining uzviy bir qismi ekanini chuqur anglaydi, tabiiy muhitni asrab-avaylab, u bilan ham ohang bo‘lib, mustaqilligimizning har bir osuda kunining qadriga yetib yashash kerakligini yana bir bor idrok etib qalbidan o‘tkazadi. Navro‘z ayyomi arafasida mahallalar, ko‘chalar, aholi turar joylari obodonlashtiriladi, ariq-zovurlar tozalanadi, ziyoratgoh, qabriston hamda tabarruk qadamjolar tartibga keltiriladi, mevali, manzarali daraxtlar, gul ko‘chatlari o‘tqaziladi. Bayram kunlari esa yetim-yesir, beva-bechora, xasta va muxtoj kishilarga mehr-muruvvat, sahovat ko‘rsatiladi, qariyatlarimizning duosi olinadi. Bunday insoniy qadriyatlar yoshlарimizning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

6.3. Ma’naviy meros – ma’naviyat rivojlanishining asosi

Ma’naviy meros va uning ma’naviyat rivojlanishidagi o‘rni va rolini o‘rganishda uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga e’ibor qaratamiz. Ma’naviy merosni izohlashdan oldin umuman sivilizatsiya, meros, xususan, madaniy meros, ma’naviy meros tushunchalarining nisbati, xususiyatlari, farqlarini bilib olishimiz lozim bo‘ladi. Chunki ma’naviy meros umuman merosning, xususan madaniy merosning tarkibiy qismi sanaladi. Madaniy merosni tushunmasdan ma’naviy merosni ham tushunish qiyin. Bu tushunchalarda umumiylilik bo‘lsa ham, ular birday emas, o‘zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Ma’ruzaning oldingi masalasida ko‘rga-nimizdek har bir jamiyat va davr o‘z madaniyat tipiga ega bo‘ladi. Jamiyat, davr o‘zgarishi bilan uning madaniyat tipi va ma’naviyatida o‘zgarish, yangilanish bo‘ladi, ammo madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat, sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. Meros – insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va

ma’naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O’tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo‘lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta’sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lgan tomonlar hisobga olinadi.

O’tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo‘lavermaydi. Masalan, Sho‘rolar davrida yaratilib, uning siyosati, mafku-rasini targ‘ib etgan, endilikda o‘z umrini yashab o‘tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo‘q. To‘qri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo‘yish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros deb, o’tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o‘tgan, saralan-gan, insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boylik-larni meros sifatida qabul qilib oladi. Tarixiy vorislik – jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir. Ming afsuslar bo‘lsinkim, sho‘rolar davrida madaniy merosga to‘qri munosabatda bo‘linmadi. «Bo-yu zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o’tmish madaniyatining bizga keragi yo‘q, yangi proletar (yo‘qsil) madaniyatni yaratamiz» degan shior ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy madaniyatiga qiron keltirildi, saroylar, masjid va madrasalar buzib tashlandi, qarovsiz xaroba holiga keltirildi, nodir asarlar yondirildi. Bu siyosat tufayli madaniy meros toptaldi.

Madaniy va ma’naviy meros o‘zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularning o‘rtasiga o‘tib bo‘lmas «Xitoy» devorini qo‘yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma’naviyat – ya’ni insonning ma’naviy - ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste’dodi, aqli, empirik va nazariy bilim tajribalari, mehnat malakasi kabi boshqa ma’naviy faoliyatları yotadi. Madaniy va ma’naviy meros o‘rtasida umumiylilik ham, farqli tomonlar ham mavjud. Ayni paytda ular o‘rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog’liqlik, o‘zaro munosabat, ta’sir bor. Shuningdek, madaniy meros o‘z ko‘lami jihatidan ma’naviy meros tushunchasidan kengroq.

Madaniy merosda ko‘proq umumiylit ustunlik qilsa, ma’naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olsa, ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyat deyiladi. Ana endi asta-sekin ma’naviy meros tushunchasiga yaqinlashmoqdamiz. Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan qoyat qimmatli, o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytildi. Ma’naviy meros ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, unga ilm-fan, jumladan falsafa, adabiyot, san’at, axloq, dindagi real, dunyoviy ta’limotlar, hurfikrlilik va boshqalar kiradi.

Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyqusiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezgulik sari yetaklaydi.

Ma’naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so‘ng umuminsoniyatning ma’naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o‘tmish avlodlari qoldirgan ma’naviy meros bunga misol bo‘la oladi. Ma’naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o‘rinlardan birini egallaymiz. Bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, ximiya, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin. Bularning hammasi Turon zaminida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidirkim, endi bu nodir ma’naviy merosimizni jiddiy o‘rganish, xalqimizga yetkazish davri keldi.

Buning uchun barcha imkoniyatlar mustaqil davlatimiz tomonidan, bevosita yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatlarni ruyobga chiqarish uchun tarixchi, olim, adabiyotchi, san’atkorlarmizdan, qo‘yingki milliy

ma’naviyatimiz jonkuyarlaridan qayrat-shijoat, qunt bilan ishlash, izlanish talab etiladi. Xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi katta bir xazina. Bu xazinadan mustaqilligimizni mustahkamlashda oqilona foydalanishimiz lozim. Qadimiyo yozuvlar, bitiklar, xalq oqzaki ijodi namunalari, ulug‘ shoir va mutafakkirlarimiz yaratgan dunyoviy va badiiy asarlar, hadislar, Yassaviy va Boqirg‘oniylar yaratgan diniy-axloqiy ruhdagi asarlar, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojiblar yaratgan axloqiy, pand-nasihat tipidagi asarlar, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy yaratgan, inson ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta’limotlar, Navoiyning o‘lmas badiiy ijod xazinasi va boshqalar bizning boy ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ular inson ichki dunyosini, ruhiyatini, ma’naviyatni sayqal topishiga qaratilgan. Ularda insonlar ma’rifatga, ilm-bilim olishga, yuksak axloq-odobga, oljanob fazilatlarga, yaxshilikka da’vat etiladi, yomonlik, yovuzlik qoralanib undan saqlanishga chaqiradigan pand-nasihatlar, o‘gitlar juda ko‘p. Ular kishilarni ma’nan tarbiyalaydi.

Ma’naviyatsizlik, ma’naviyatdan mahrum bo‘lish insonni o‘g‘irlik, yulg‘ichlik, poraxo‘rlik kabi illatlar sari yo‘llaydi. Madaniyat, ma’naviy va madaniy meros, ma’naviyat rivoji insoniyat sivilizatsiyasi bilan bog‘lanib ketadi. Ammo ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish ham to‘qri bo‘lmaydi. Sivilizatsiyaning o‘zi insoniyatning madaniyati va ma’naviyati taraqqiyoti bosqichlarida ro‘y beruvchi sifat jihatidan yangi bosqichi bo‘lib, kishilik jamiyatni tarixida chuqr iz qoldiradi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq diniy ma’naviy-madaniy merosimizga bo‘lgan bunday salbiy munosabatga chek qo‘yildi, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma’naviy va madaniy merosga voris xalq ekanligimizni anglash va bu bilan faxrlanish yo‘lida qator tadbirlar amalga oshirildi. Ulug‘ ajdodlarimiz yaratgan beba ho ilmlar, jahon fani va madaniyatiga beqiyos katta hissa bo‘lib qo‘shilgan asarlarni teranroq o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. Yurtdosh-larimiz Imom at-Termizi, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqsh-bandiy, Mahmud Zamashshariy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturudiy va boshqa islom olamining allomalari hayoti va ijodi o‘rganilib, ularning o‘lmas asarlari xalqimiz ma’naviy xazinasiga qaytarildi. Mazkur ulug‘ zotlar mangu qo‘nim topgan joylar obodonlashtirilib xalqimizning ziyoratgohlariga aylantirildi. Zotan bu buyuk siymolar odamlar ongiga poklik, halollik, diyonat,adolat, insonparvarlik kabi umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni singdirishib,

kishilik jamiyatining ezgulik yo‘lidan taraqqiy topishiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti bo‘lmish AYSESKO tomonidan Toshkent shahriga 2007-yilda «Islom madaniyati poytaxti» degan yuksak nom berilishi yurtimizda yetishib chiqqan ilm-u ulamolarning Islom madaniyati va ma’rifati rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini islom dunyosida e’tirof etilishidir.

Avlod-ajdodlarimizdan qoldirilgan ana shu moddiy va ma’naviy meros mustaqillik sharoitida ma’naviy tiklanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy rivojlanishimiz uchun asosiy manba bo‘lib kelayotganligi, ruhiyatimizni boyitib borayotganligi madaniyat va ma’naviyatning har doim uyg‘un rivojlanishini tasdiqlovchi yorqin misol bo‘la oladi. Ular har doim bir-birlariga ijobiy ta’sir o‘tkazib o‘zaro bir-birlarini boyitib kelgan. Ularning uzviyligi umummiliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

6.4. Ma’naviyat va ma’rifat. Ma’rifatning tor va keng ma’nolari. Ma’rifat inson qalbiga sayqal berish jarayoni sifatida. Ma’rifat yo‘llari

Jamiyat taraqqiyotini ma’rifatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. «Ma’rifat» arab tilidan olingan bo‘lib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi ma’nolarni bildiradi. Bu so‘z qadim zamonlardan tortib, to XX asr boshlarigacha asosan bilim va ilm, uni egallash borasida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni ma’nosida qo‘llab kelingan.

Yevropa adabiyotida bu tushuncha XVII asr oxiri – XVIII asr boshidan beri qo‘llanila boshladi. Bu tushunchani G‘arb falsafiy faniga bирнчи bo‘lib Volter va Gerder kabi ma’rifatparvar olimlar olib kirgan.

Nemis mumtoz falsafasining asoschilaridan biri Kant mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U o‘zining «Ma’rifat nima? degan savolga javob» nomli maqolasida bayon qilishicha, ma’rifat inson shaxsini tarbiyalash, uning aqli, axloqi imkoniyatlaridan jamiyatning ilgarilama, ya’ni Yuksaklik tomon taraqqiyoti manfaatlari yo‘lida foydalanishdir.

Ma’naviyat va ma’rifat. XX asr boshlarida taniqli rus sharqshunosi Oldenburg Yevropaning ma’naviyat sohasida shu kungacha qo‘lga kiritgan yutuqlari o‘tmishda Sharq ma’naviyati ko‘tarilgan kamolot cho‘qqilariga nisbatan go‘dak bolaning «chug‘ur-chug‘uri» darajasidadir, degan edi. Nega endi? Mening nazarimda, bu xulosa

Sharqda ko‘p asrlik ma’naviy takomil jarayonida ongli ravishda ishlab chiqilgan mukammal ma’rifat yo‘llari, ma’naviy tarbiya vosita va usullaridan hayrat zaminida shakllangan bo‘lishi kerak¹.

Ma’rifat – bilim va ilm, uni egallah ma’nosida u yoki bu insoning tabiat, jamiyat, inson mohiyati haqidagi bilim va ilmlarni egallaganlik darajasi va unga aloqador bo‘lgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir.

Ma’rifatni kishilar ongiga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif ma’rifatni xalq orasida yoyish quroli va vositasidir. U o‘z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kabi o‘quv yurtlarini qamrab oladi. Ma’rifatni talaba yoshlar o‘rtasida yoyishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlari ham muhim o‘rin tutadi.

Ma’rifat qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf qiladi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat ato etadi. Bizning o‘lkamiz xalqlari azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. Shuning uchun ham bu o‘lkadan umuminsoniyat ilm rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlar, ilm-u ulamolar yetishib chiqqan. Ular Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobi, Ibn Sino, Ulug‘bek, Buxoriy, Termizi, Marg‘inoniy, Motrudiy, Zamaxshariy va boshqalar nafaqat ilm cho‘qqilarini egallabgina qolmay, uni – ya’ni ma’rifatni keng targ‘ib etganlar, o‘rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Ashurali Zohiri, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar.

Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy inson ma’naviy yuksalishida bilim va ilmning ahamiyati ustida to‘xtab shunday yozgan edi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroiki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur»².

Ingliz faylasufi F.Bekon ta’kidlashicha «Bilim kuch, kuch esa bilimdadir», Rudakiy esa «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon» deb

¹ Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. Ўқув қўлланма./ -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. -Б. 217.

² Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: “Ўқитувчи”, 1992.-Б 22.

bilimning inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini izohlaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Kuch – bilim va tafakkurda» degan konseptual g‘oyani ilgari surib, bilimning inson ma’naviyatini butun qiladigan, har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishda, yovuz va begona g‘oyalarga qarshi kurashda unga madad beradigan kuch ekanligini ta’kidlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi haqidagi qarashlarini umumlashtirib: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir,” - deb ta’kidlagan edi I.A.Karimov.¹

Inson shaxsini shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyatga ega bo‘ladi. U ta’lim berish jarayonini, barcha ma’rifiy tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga, ma’naviy barkamol, komil insonni voyaga yetkazishga zamin bo‘ladi.

Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabatlari. Ma’naviyat, ma’naviylik va ma’rifat, ma’rifatlilikning o‘zaro munosabati va nisbati masalasini to‘g‘ri aniqlab olish ma’naviyat barkamol, komil insonlarni tarbiyalashda, jamiyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Har qanday jamiyatning o‘ziga xos ma’naviy ehtiyojlari mavjud bo‘lib, ular orasida bilimga bo‘lgan ehtiyoj yetakchi o‘rinni egallaydi. Chunki jismoniy va ma’naviy sog‘lom odam tinmay bilim olishga intiladi.

Qur’oni karim va Hadisi shariflarda bilim egallah – jamiyatga va o‘ziga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishida muhim omil ekanligi qayd etilgan. Bilim olish farz ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Bilimsizlik jamiyatda jaholat, razolat, buzg‘unchilik avj olishiga va oxir oqibat halokatga olib kelishligi bayon etilgan. Hadislarda «Olim bo‘l yoki bilim o‘rgatuvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yo bo‘lmasa bilimga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lasan»,²- deyilgan.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg‘unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.-Б. 62.

² Мухаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. –Т.: «Камалак», 1991.,-Б.61.

G'azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo'lgach, amalga hojat yo'q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o'zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e'tiqodi bo'lib, ular uchun ilm hosil bo'lsa-yu, amal bo'lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo'qligini bilishmaydi. Holbuki o'qib o'rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kuni dagi azobi ikki hissadir».¹

Insoning bilim va ilmni egallab kundalik amaliy faoliyatda ularga amal qilishi insof, iymon, vijdon, ixlos kabi ko'plab ma'naviy fazilatlarning yanada mustahkamlanishga olib keladi.

Ma'naviyati va ma'rifati yuksak kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, o'zgalarga himmat – muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'1 ko'rsatishni o'zlar uchun baxt deb biladi. Yuksak ma'naviyat va marifat sohibi bo'lgan kishilar boshiga mushkul ish, qayg'u tushgan kishining mushkilini oson qiladi, qayg'usiga sherik bo'ladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Bunday fazilat egasi bo'lgan kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ular o'z millati, el-ulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi, Vatan mustaqilligiga xavf tug'ilsa, uning himoyasi yo'lida mol-dunyosini, jonini ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalarini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib faqat ma'rifatli kishilargina yuksak ma'naviyat sohibi bo'lar ekan degan xulosaga kelish ham unchalik to'g'ri emas. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ma'naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma'rifatli bo'lavermaganlar. Shu bilan birga ilmli, ma'rifatli kishilarning ham hammasi yuksak ma'naviyatli bo'limganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday kishilarga qarata xalqimiz haqli ravishda o'zida chuqur ma'no-mazmunni ifoda etgan «Olim bo'libti-yu ammo odam bo'lmabdi», – degan hikmatli iborani ishlatib kelgan. Boshqacha aytganda insonlar borki, olim emas. Olim bo'lmasa bo'lmas, ammo ma'naviyati yuksak. Olimlar borki ular inson zotiga loyiq emas. Bunisi og'ir. Ulardan elga, yurtga foyda yo'q. Bunday insonlarga nisbatan kishilar nafrat bilan qaragan. Aksincha, ma'naviyat va ma'rifatni o'zida uyg'un mujassam etgan ilm ahllaridan ibrat olganlar, o'z farzandlarini shunday insonlar bo'lib kamol topishini orzu qilganlar. Yuqoridagi ibora bilan birga xalqimiz «Olim bo'lma, odam bo'l» iborasini ham ishlatib kelgan. Bunday holat ma'naviyat va

¹ Абу Ҳамид Муҳаммад Газзолий, «Охиратнома». – Бухоро, 1992. -Б.12.

ma'rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Aksincha, ma'naviyat va ma'rifat o'zaro hamohang, bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan, bir-birini ta'qozo etuvchi, inson va jamiyatni kamolotga eltuvchi omildir. Ular bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi.

6.5. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat, inson hayotida tutgan o'rni va roli

Ma'naviyat va mafkura bir-biri bilan mustahkam boqlangandir. Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zini-o'zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo'lsa, mafkura – ma'lum bir davlat, jamiyat, millat, sinf va ijtimoiy guruhlar huquqiy, falsafiy, badiiy, diniy qoya, nazariya va qarashlar tizimi hisoblanadi.

Mafkuraning ma'naviyatda tutgan o'rni shundaki, u inson, jamiyat, yoxud millat yoki guruhlarning intilishlari, ruhiyatlar va kayfiyatlarini o'zida mujassam-lashtiradi. Ma'naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. Muhtaram Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan». Mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi; ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir qoya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat qoyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib etadi; to'rtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiradi; beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi; oltinchidan, mafkura jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday roliga qaramay, mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda umuman mafkuraga uning mohiyatini tushunganlar

ham, tushunmaganlar ham qarshi kurash boshlab yuborgan edilar. Ya'ni hech qanday mafkuraga ega bo'lman, mafkuraviy bo'shliq-qa asoslangan, o'z qoyasiga ega bo'lman jamiyat qurish kabi qarashlarni ilgari sura boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri va «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida milliy qoya, milliy mafkuraning O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi tutgan o'rni, ahamiyati bayon qilib bergenligini alohida ta'kidlash joiz: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmonlik qilishi tayin». Buni har bir inson, O'zbekiston fuqarosi chuqur anglashi, mag'zimag'zigach yetib olishi kerak. Negaki, jamiyatning, jamiyat a'zolarining mustahkam va ravshan mafkurasi, g'oyasi, maqsadi bo'lmasa, inqirozga yuz tutadi. Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo'libdiki, ularga egizak holda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Boisi – mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisol hech bir maqsad-rejasiz, tavakkal qilib yo'lga chiqqan odamga o'xshaydi. Yo'lga chiqdingmi – manzil, maqsad aniq bo'lmoqi kerak.

Shuning uchun ham muhtaram Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab mafkura muammosiga alohida e'tibor qaratib kelgan. «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida mafkurani milliy qoya xalqni-xalq, millatni-millat qiladigan, uning istiqbol yo'llarini yuksak maqsad va e'tiqod nurlari bilan yoritadigan qudratli ma'naviy omil, deb ta'rifladilar. «Turkiston» va «Fidokor» gazetalari muxbirlari savollariga javoblarida bu qoyalar yanada rivojlantirildi, mafkura muammosi kun tartibiga muhtaram Islom Karimov tomonidan yanada jiddiy qo'yildi. Bunga sabab «... hozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzlusiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Mana shuning uchun ham Islom Karimov muntazam ravishda mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligiga, shunday holat yuz bergen taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishimizga mutlaqo yot qoyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz ekanligiga hammamizning diqqatimizni takror-takror qaratib kelayotganliklari bejiz emas».

Islom Karimov mafkura – umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g‘oya bo‘lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da‘vat etuvchi kuch ekanligini ta‘kidladilar. Shuningdek milliy istiqlol mafkuramiz, avvalo xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyqularini ongimizga singdirishi lozim, deb hisoblaydilar. Inson, uning qadr-qimmati, farovonligi, Vatanimizning yorqin kelajagi bizning milliy qoyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bu mafkura xalqimizda, o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o‘laroq munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak.

Milliy g‘oya, milliy mafkura nimalarni o‘zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini hamda dasturiy ahamiyatga molikligini hisobga olib quyidagilarni belgilash mumkin:

birinchidan, milliy mafkura, avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an'analari-mizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oly maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xilma-xil fikrlar va g‘oya-lar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat‘iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini umumsafarbarlikka da‘vat etuvchi kuch ekanligini ta‘kidladilar;

uchinchidan, milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oljanob ishlarida madadkor bo‘lishi zarur;

to‘rtinchidan, u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga o‘zimizni uluq ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilishi, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da‘vat qiladigan qoya bo‘lishi kerak.

Mustaqillik bizni porloq rivojlanish imkoniyatlariga ega qildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati oldimizda turgan nurafshon manzildir.

Ammo bu manzillar o‘z-o‘zidan dunyoga kelmaydi, uni o‘z-o‘zidan mashaqqatsiz, izlanishlarsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. Yangi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongi, ma’naviy kamolotni yanada baland bosqichga ko‘tarilishini taqozo etadi. Ilg‘or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy mustaqillik mafkuramiz ana shu yangi ma’naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ma’naviyat mafkurasiz rivojlana olmasligini ko‘ramiz. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, *mafcura - umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g‘oyalar birligidir. Ammo uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, aql-idroki va tafakkurida. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.*

6.6. Iqtisod, siyosat, ma’naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o‘zaro uyg‘unligi zarurati

Inson va jamiyat hayotining uch sohasi: iqtisodiyot (Insonning moddiy voqelik (atrof-tabiat) bilan amaliy munosabati), siyosat (Har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlari), ma’naviyat (Insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati) inson va jamiyat hayotida ular o‘zaro uyg‘undir. Ushbu sohalar insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlariga oid bo‘lib, ulardan har birining manbayi ham, maqsadi ham alohidadir.

“Biz, - deydi I.Karimov, - iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o‘nglanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un bo‘lishini istaymiz”¹ Chunki xalq ma’naviyati o‘nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

Moddiyunchilar jamiyatni birinchi o‘ringa qo‘yishlariga yana bir sabab bor. ma’lumki, inson jamoa bo‘lib yashaydi, shu bilan birga har bir inson moddiy vujud sifatida nafaqat atrofidagi o‘zi singari

¹ Каримов И.А. Асарлар. З-жилд. -Б.35.

mavjudotlar bilan, balki tabiat, aniqrog‘i moddiy borliq bilan ham doimo amaliy munosabatda bo‘lishga majbur. Shundan kelib chiqib, moddiyunchilar insonning mohiyatini iqtisodiy va ijtimoiy (jumladan, siyosiy) munosabatlar doirasida belgilashga harakat qilishadi. Ular dinni ham, madaniyatni ham faqat ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar majmuyidan keltirib chiqarmoqchi bo‘lishadi. Bunday yondashuvda inson moddiy, biologik mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo uning boshqa biologik mavjudotlardan mohiyatan farq qiluvchi maxsus munosabatlar doirasi mavjudligi va bu munosabatlar o‘zicha mustaqil sohani tashkil etishi tan olinmay, soyada qolib ketadi. Bu soha insonning Haq bilan, Borliqning mohiyati bilan munosabatiga oiddir.

Sobiq SSSR davrida hukmron komfirqa va davlatning barcha qarorlarida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalarga katta ahamiyat berilgan holda madani-yatga eng oxirida g‘aribgina bir joy ajratilar, «ma’naviyat» tushunchasi esa o‘sha paytlarda yuqori doiralarda umuman ishlatilmas edi. Alovida qayd etib o‘tish joizki, milliy ma’naviyat nazariyasining shakllanishiga O‘zbekiston Birinchi Prezidentining qo‘shgan eng muhim hissasi ma’naviyatning iqtisod va siyosat bilan bir qatorda inson va jamiyat hayotidagi alohida mustaqil o‘rni va ahamiyatini ajratib ko‘rsatish bo‘ldi. Busiz nafaqat ma’naviyat nazariyasi, balki insonning mustaqil mohiyati haqidagi g‘oya ham o‘z mukammal izohini topmay qolib kelayotgan edi. Doimo iqtisod, siyosat va ma’naviyatning uyg‘un rivojlanishi zarurligini ta’kidlab keldi: “Davlat qurilish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma’naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan to‘la uyg‘un bo‘lmog‘i kerak”¹.

Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi — mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Agar siyosiy mustaqillik bo‘lmasa, millat asta-sekin o‘zligini yo‘qota boradi, iqtisodiy mustaqillik bo‘lmasa, siyosiy mustaqillikning zамини mo‘rt bo‘ladi. Ammo ma’naviy mustaqillik bo‘lmasa, millatning o‘zi bo‘lmaydi. Faqat ularning o‘zaro uyg‘un rivoji ta’min etilsagina, O‘zbekiston ulug‘ yurt sifatida jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

Inson hayotida ma’naviyat sohasining mustaqil ahamiyati alohida ta’kidlanishi, qolgan sohalarning o‘zaro chegaralarini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Ulardan, shartli ravishda, iqtisod yo‘nalishi deb nomlash mumkin bo‘lgan birinchisi inson bilan atrof tabiat orasidagi

1 Каримов И.А. Асарлар.-Т.: Ўзбекистон, 3-жилд.-Б.354.

amaliy munosabatlardan iborat. Buning asosida insonning moddiyiligi yotadi. U moddiy vujud sifatida tabiat bilan doimiy modda almashuv holatida bo‘ladi. Buning uchun inson o‘zgalar bilan ham murakkab munosabatlarga kirishadi. Ammo bu yo‘nalish doirasida insonlarning bir-biri bilan munosabati bevosita ular orasidagi nisbatga qaratilgan emas, balki tabiat bilan modda almashuv munosabatlarini tashkil etishga yo‘nalgandir.

Insonlarning bevosita bir-biri bilan munosabati ham o‘z mustaqil asosiga ega. Har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlariga oid bo‘lmish bu yo‘nalishni, yana shartli ravishda, siyosat deb atash ma’qul ko‘rindi. Bu munosa-batlar nimada ko‘rinadi? Iqtisodiy, ya’ni moddiy ta’midot bilan bog‘liq muomalalar bevosita siyosatga aloqasi yo‘q, buni yuqorida ham eslatdik. Sof siyosat doirasida insonlararo munosabatlar oxir natijada mavqe va maqom masalasiga borib taqaladi. Agar insonlar faqat «qorin to‘ydirish» tashvishi bilan yashaganda, ularning hayvonlardan umuman farqi bo‘lmas edi. Va iqtisodiy munosabatlar ham o‘zga jonzotlardagi kabi anchayin ibtidoiy bosqichda qolib ketish ehtimoli bo‘lardi. Ayni mavqe va maqom doirasidagi bahs xolis siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Makiavelli kabi mashhur g‘arb allomalarining qarashlarida ushbu sof holda olingan siyosat o‘z aksini topgan deyish mumkin.

Ammo inson nafaqat tabiat va o‘zga insonlar bilan munosabatga kirishadi, balki u o‘zining Haqqa, Borliqning mohiyatiga nisbatini ham bilmoqchi bo‘ladi. Inson uchun bu yo‘nalish ham o‘ta muhim. Avvalo, inson biror narsaga ishonmay yashay olmaydi. Imon-e’tiqodsiz hayot – bema’ni umrguzaronlik, xolos. Qolaversa, inson ilmga, ya’ni Borliqni anglab yetishga o‘zida juda kuchli ehtiyoj sezadi. Inson Borliqning mohiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilmay yashay olmaydi. Yana inson doimo oldiga kattami-kichikmi bir maqsad qo‘yib, shunga intilib, shu yo‘lda qandaydir faoliyat ko‘rsatib yashaydi. Aytish mumkinki, hayvon nuqtayi nazaridan qaraganda, inson o‘zini ko‘pincha bekordanbekorga qiynaydi. Masalan, Tohirning Zuhroga ishqisi, bu yo‘ldagi fidoiyliklari fiziologik ehtiyojlar nuqtayi nazaridan uncha tushunarli emas. Abu Ali ibn Sinoning umrini ilmga baxsh etishi, Alisher Navoiyning «Xamsa» yozishi ham moddiyuncha «jaydari» falsafa nuqtayi nazaridan anchayin ortiqcha o‘zni qiynashdir. Ammo inson ma’naviyatida riyozat, ya’ni muayyan maqsad yo‘lida barcha qiyinchiliklarni bo‘yinga olish nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Yana insonda mehrga ehtiyoj bor. O‘zgaga mehr ko‘rgazish va o‘zgadan mehr

ko‘rish ehtiyoji. Bu tuyg‘uni ham faqat g‘arazli maqsadlarga bog‘lash yetarli bo‘lmaydi. Albatta, moddiyunchilar aytib o‘tilgan har qaysi ma’naviy ehtiyojga o‘zlaricha moddiy zamin topib berishga harakat qiladilar. Hozircha, bu masalalar yuzasidan jiddiy bahs boshlamay turib, faqat bir narsani qayd etib o‘tish joizki, inson hayotidagi uchinchi yo‘nalish, ya’ni insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo‘lgan munosabatini tan olmaslik insonning o‘zga maxluqotlardan asliy farqini yo‘qqa chiqaradi va oxir natijada inson hayotini ma’nosizlantiradi. Chunki inson mohiyatan ma’naviy kamolot imkoniga ega bo‘lgan yagona moddiy mavjudotdir.

Albatta, ta’riflab o‘tilgan uch soha manfaatlari voqelikda nihoyatda chatishib ketgan, har qanday hodisada har uch soha unsurlari uchraydi. Bundan tashqari umuman mavjud uch sohadan birining muayyan muddat o‘zgalaridan orqada qolishi, oqsashi qolganlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni orqaga torta boshlashi ham tabiiy qonuniyat. Biroq tarix ibrati va mantiq xulosasi shundan dalolat beradiki, iqtisod, siyosat, ma’naviyat yo‘nalishlarini bir-biriga bo‘ysundirishga, birini-biridan keltirib chiqarishga urinish ham yaxshi natijalarga olib kelmasligi aniq.

Mavzu bo‘yicha xulosa:

Ma’naviyat ijtimoiy hodisa sifatida o‘zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Ular madaniyat, madaniy meros, mafkura, ma’rifat, qadriyatlardir. Aslini olganda, ma’naviyat, qadriyat, ma’naviy meros va madaniyat bir-biriga yaqin tushuncha-lardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to‘ldirib turadi.

Inson va jamiyat hayotining uch sohasi: Iqtisodiyot (Insonning moddiy voqelik (atrof-tabiat) bilan amaliy munosabati), siyosat (Har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlari), Ma’naviyat (Insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati) inson va jamiyat hayotida ular o‘zaro uyg‘undir. Ushbu sohalar insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlariga oid bo‘lib, ulardan har birining manbayi ham, maqsadi ham alohidadir. Umuman mavjud uch sohadan birining muayyan muddat o‘zgalaridan orqada qolishi, oqsashi qolganlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni orqaga torta boshlashi ham tabiiy qonuniyat. Biroq tarix ibrati va mantiq xulosasi shundan dalolat beradiki, iqtisod, siyosat, ma’naviyat yo‘nalishlarini bir-biriga bo‘ysundirishga, birini-biridan keltirib chiqarishga urinish ham yaxshi natijalarga olib kelmaydi.

Binobarin jamiyat ma’naviy hayoti ushu sohalarning ma’naviyat mezonlari bilan hamohang bo‘lishini taqozo etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ma’naviy qadriyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering? Uni “intellektual xarita”da izohlang.
 2. Ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
 3. Madaniyat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
 4. Madaniy va ma’naviy meros nima? Ularning farqi.
 5. O‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi haqida nimalarni bilasiz?
 6. Mafkura va ma’naviyat munosabatlarini qanday tushunasiz?
 7. Ma’naviyat va ma’rifatning uyg‘unligi nimada?
 8. Nima uchun madaniyat umuminsoniy hodisa sanaladi?
 9. Ma’naviyatshunoslikning milliy g‘oya, mafkura bilan o‘zaro aloqadorligini izohlang?
 10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nima uchun yakka mafkura hukmronligi taqiqlangan?
- 11.** I.A.Karimov asarlarida milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga oid qanday masalalar kun tartibiga qo‘yilgan?

7-mavzu: MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASINI SHAKLLANTIRISHNING UMUMMETODOLOGIK ASOSLARI

1. *Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.*
2. *Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatmizning uyg‘unligi.*
3. *Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat nisbati.*
4. *Milliy ma’naviyatimizning umuminsoniy mohiyati.*
5. *Ijtimoiy fanlar metodologiyasi va milliy ma’naviy merosni o‘rganish va rivojlantirish.*

7.1. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari

Ma’naviyat juda murakkab, serqirra, shu bilan birga xalq diliiga nihoyatda yaqin, tushunarli hodisa. Uni, bir tomondan, soxta «ilmiy» murakkab ta’riflar bilan mavhumlashtirmay, shu bilan bir paytda siyqa, odmi «targ‘ibot»ga aylantirmay, xalq ongiga tiniq yetkazmoq, yosh avlod ruhiga esh qilmoq lozim. Bunda qanday me’yorlarga rioya etish zarurligini 1992-yildayoq I.A.Karimov aniq tavsiflab bergen edi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹.

Mustaqillik ma’naviyatining asosini tashkil etuvchi bu to‘rt negiz o‘zaro chuqur ichki uyg‘unlikka ega. Shu bilan birga bugungi kun uchun dolzarbligi jihatidan alohida inson shaxsining o‘z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi masalasi birinchi o‘ringa chiqib turibdi. “Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir”², deb ta’kidladi I.Karimov 1999-yili 14-apreldagi ma’ruzasida. Shu sababli biz ham ushbu masalaga oldingi mavzu doirasida batafsil to‘xtalib o‘tdik. Davlatimiz va rahbariyatning milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga e’tibori, aslida va birinchi navbatda, har bir insonning haqiqiy erkinligini ta’minlashga bo‘lgan asosli e’tiborini ko‘rsatadi. Chunki o‘zligini anglamagan odam, unga qancha imkon va sharoit yaratib bermang, voqe'an hur va ozod bo‘la olmaydi. Ammo o‘zligini anglash degani, o‘zining Vatanga, millatga,

¹ Каримов И.А. Асарлар. 1-жилд. –Б.76.

² Каримов И.А. Асарлар. 7-жилд. –Б.381.

bashariyatga, Borliq haqiqatiga nisbatini to‘g‘ri belgilay bilish degani, bunga erishish osonlik bilan bo‘lmaydi. “Ma’naviyatshunoslik” fani ayni shu yo‘nalishda bilim berishga qaratilgan.

Millat ma’naviyati ushbu millatga aloqador barcha shaxslar ma’naviyatining majmuyidan iboratdir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros milliy ma’naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo‘yibdi, faqat uni xolis nazar bilan astoydil o‘rganish va tarjimalar qilib yosh avlod va butun dunyo xalqlari bahramand bo‘lishga shart sharoitlar yaratishi-miz kerak.

7- sxema.



Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug‘ an’ana – ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoat-chiligi allaqachon o‘z muqaddas mulki deb tan olgan ma’naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala milliy ma’naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va birinchi navbatda, yosh avlod e’tiborini jalb etish maqsadini ko‘zda tutadi.

Xalq ma’naviyatini, millat ma’naviyatini sun’iy ravishda, qandaydir o‘ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o‘zgartirib ham bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa’ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi.

Islom Karimov xalq ma’naviyatini yuksaltirishda inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, “xazinalarga to‘la milliy-tarixiy an’analar bilan, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik” yaqin o’tmishimizda jamiyatga qanchalar zarar keltirganligini qayd etib, yangicha vazifalarni olg‘a surgan edi:

Sobiq totalitar mafkura ta’sirida yaqin-yaqinlargacha bizdagi ijtimoiy fanlar sohasida adabiyotshunoslikka, filolog olimlarga ma’lum darajada mensimay qarash mavjud edi. Bunga, albatta, yaqin o’tmishdagi adabiyotshunosligimizning qusurlari ham ancha-muncha sabab bo‘lganligi sir emas. Chunki marksizm mafkurasi hukmron bo‘lgan sovet zamonida adabiyotshunoslarimizning aksariyati milliy ma’naviyatimizga butkul yot bo‘lgan va hatto dunyo sivilizatsiyasi ham mohiyatan inkor etgan “sotsialistik realism” deb nomlanuvchi soxta “nazariya” domiga tushib, XX asrda yaratilgan barcha adabiy merosni ushbu qolipga moslashtirish yo‘lidan bordilar. Bu haqda jild-jild “ilmiy tadqiqotlar” yaratildi, odamlar doktor, professor, hatto akademiklikgacha daraja va unvonlarga sazovor bo‘lishdi. Mumtoz adabiyotimiz bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda bu illat bevosita va ochiq namoyon bo‘lmasa-da, marksistik mafkura ta’siriga berilish bu sohada ham sezilarli edi. Agar xolis yondashilsa, ilmiy adabiyotlarga nisbatan badiiy adabiyotda Borliq haqiqatini uyg‘un his etish tamoyili ustun turadi. Shu sababli ham Alisher Navoiy badiiy olami millatimiz ma’naviyati uchun doimo yo‘lchi yulduz toshi vazifasini bajarib kelgan va kelgusida ham shunday bo‘lib qoladi.

Hech bir xalq dunyoda yakka yashamaydi, yolg‘izlikda rivojlanmaydi ham. Elat va millatlar doimo o‘zaro turlicha munosabatda bo‘ladilar va tarix davomida bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, o‘zlarini ham, o‘zgalarni ham ma’naviy boyitib boradilar. Ammo hech qachon, hech bir xalq o‘zligidan butkul kechib, boshqa xalq ma’naviyati hisobidan o‘zini boyita olgan emas. Yakka bir shaxs butkul o‘zga bir ma’naviy muhitda tarbiya topib, unga to‘liq moslashishi mumkin. Bu inson tabiatiga xos narsa. Ammo bir xalq to‘lig‘icha o‘zligidan kechib, o‘zga xalq ma’naviy dunyosini qabul qilsa, demak, unday xalq yo‘q bo‘ladi, o‘z ma’naviy qiyofasini yo‘qotgan millat yo‘qolgan millatdir. Shu sababli ham milliy mustaqillik poydevorini ma’naviy mustaqillik tashkil etadi, deymiz. Milliy ma’naviyatning takomili esa o‘scha millatga mansub har bir shaxsning ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi.

7.2. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatmizning uyg‘unligi

Har bir millat va elat, katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, o‘ziga xos milliy madaniyati va ma’naviyatiga ega. Ko‘p asrlar davomida shakllangan millat va elatlarning ruhiy boyligini, uning urf-odatlari, an’analari, axloq-odob me’yorlarini o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat ayni vaqtida umuminsoniy ma’naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barcha xalqlarning ma’naviy boyligi ham bo‘lib hisoblanadi. Yuksak milliy ma’naviyat hamma vaqt xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita bo‘lib kelgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. Birlamchi umuminsoniy talablardan tashqari insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida anglab etgan, qo‘llay boshlagan ancha murakkab yuksak ma’naviy qadriyatlar: g‘oyalar, me’yorlar, tamoyillar, ideallar bor. Masalan, ezgulik, adolat, insonpar-varlik, inson hayoti va shaxsining daxlsizligi, inson huquqlarining davlat huquqidan, xalqaro huquqning milliy huquqdan ustunlik tamoyili, demokratiya va huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati g‘oyalari va sh.k.lar yuksak qadriyatlar tizimini tashkil etadi.

Lekin ular ham milliy mentalitet tomonidan o‘ziga xos tushuniladi va mahalliy sharoitga, xalqning tarixiy tajribasiga moslashtiriladi. Masalan, demokratiya, huquqiy davlat tamoyillari hayotga tatbiq etilishga ko‘ra AQSHda Buyuk Britaniyadan, Buyuk Britaniyada Fransiyadan, Fransiyada Germaniyadan farq qiladi. Rang-baranglik jahon xalqlari madaniyati va mentalitetini bir-biridan farqlantirsada, qarama-qarshi qo‘ymaydi, ularni bir-biridan o‘rganib, o‘zaro boyishini belgilaydi.

Jahon xalqlari ma’naviy boyliklari ijtimoiy hayoti va mentaliteti rang-barangliklar mushtarakligidir. Shunga ko‘ra ular tomonidan yaratilgan qadriyatlar –ilm-fan yutuqlari, san’at asarlari, yuksak axloqiy, estetik, falsafiy, ilmiy, siyosiy va hokazo qarashlar negizida yuzaga kelgan boyliklar butun insoniyat tomonidan tan olinib umumehtiyojga aylanadi. Bir mintaqa, muayyan xalq taraqqiyotida uzilishlar yuz berganda, boshqa bir mintaqada, boshqa xalqlarda yuksalish davom etadi. Taraqqiyot to‘xtab qolmaydi. Masalan, Qadimgi Misr, Bobil, Xitoy, Hindistonda, keyinchalik yunonlarda, Karfagen va Rimda buyuk yuksalishlar uzoq yillar davom etgan inqiroz va qoloqlik bilan almashdi. O‘rta Osiyo, xususan, bizning xalqimiz tarixida ham bunday manzara bir necha bor takrorlangan. Misol sifatida Temur va temuriylar, ayniqsa,

Ulug‘bek, Shohruh va Husayn Boyqaro davridagi yuksalish asta-sekin keyingi davrlarda tanazzul bilan almashganini keltirish mumkin.

Bir mintaqa, muayyan xalq taraqqiyotida uzilishlar yuz berganda, boshqa bir mintaqada, boshqa xalqlarda yuksalish davom etadi. Taraqqiyot to‘xtab qolmaydi. To‘g‘ri, qadimgi xalqlar qo‘lga kiritgan ba’zi ishlab chiqarish sirlari, texnologiyalar unutilsa-da, aksariyatini boshqa xalqlar o‘zlashtirib, rivojlantirgan. Qadimgi Mesopotamiya (Bobil) va Misr sivilizatsiyasi yutuqlarini eroniy, suryoniy, ibroniy va yunon xalqlari voris sifatida rivojlantirdilar. Qadimgi antik davrdagi xitoyliklar, hindlar, yunonlar ilmiy merosini musulmon xalqlari, arablar saqlab qoldi va yangi slom sivilizatsiyasini yaratdi. O‘z navbatida yevropaliklar XI asrdan, ayniqsa, Uyg‘onish davridan boshlab arab tilida yaratilgan ilm-fanni, hatto faqat arabcha tarjimada saqlanib qolgan antik davr yunon olimlari asarlarini lotin tiliga ag‘darib, o‘zlashtirib oldilar va yangi g‘oyalar bilan boyitib, asta-sekin zamonaviy ilm-fanga asos soldilar. Kishilik jamiyati miqyosida vorisiylik va rivojlanishning oddiylikdan murakkablikka, quyidan yuqoriga, yuksalishga qarab kechishi ijtimoiy taraqqiyot qonunidir. Lekin ayni paytda milliy-ma’naviy boyliklarning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida esa milliy va umuminsoniy ma’naviyatning ana shu dialektik bog‘liqligini hisobga olishimiz davr talabi. Shu bilan birga milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umum-bashariy qadriyatları, ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’analaridan ajralib qolishi mumkin emas”,¹- deb ta’kidlagan edi. Mustaqillikni mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma’naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish negiziga qurmog‘imiz lozim. Bu esa taraqqiyotning jadallahuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi ko‘p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-axloqiy boyishi uchun yaxshi manba bo‘lib xizmat qilib kelgan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Тошкент, Ўзбекистон, 1998. -62-бет.

7.3. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat nisbati

Umuminsoniy qadriyatlar turli millat vakillarining milliy ma’naviy boyliklari, g‘oyalari, qadriyatları, madaniyati mahsuli bo‘lib, uning negizida shakllanadi. Uning asosiy g‘oyalari barcha millatlar manfaaatlariga mosdir. “Milliy ma’naviyat desak, milliy biqqlikka yo‘l qo‘yamiz, umuminsoniy ma’naviyat haqida fikr yuritish kerak”, degan gapni na ma’naviyat nimaligini, na milliylik va umuminsoniylik orasidagi nisbat qanday boyishini to‘g‘ri tasavvur eta olmaydigan, ilmiy savodi chala odamlargina aytishi mumkin. Inson o‘z milliy ma’naviyatini umri oxirigacha ham tugal anglab yetolmaydi.

Umr bo‘yi milliy ma’naviyatini, uzoq asrlar davomida o‘z millati mansub bo‘lgan mintaqasi madaniyati vakillari ijodini asl manbalardan o‘rganib kelgan odam ham milliy ma’naviyatimizni mukammal anglab yetdim, deb da’vo qilishga xijolat bo‘ladi. Bu ish aslida ko‘pchilikning ishi. Millat ma’naviyati uchun butun millat qayg‘urishi kerak.

Ma’lumki, har bir millat, har bir xalq o‘z hayot tarzini, kelajagini ajdodlari-ning tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy yeta olmaydi. «Odamzod birovning bo‘yiga qarab o‘ziga to‘n bichmaydi,» deydi I.A.Karimov¹. Har bir xonadonning o‘z tartib-qoidalari bo‘lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o‘z andoza o‘lchovlari, qonun-qoidalari bo‘ladi. Ular o‘sha yurtning tabiiy-jug‘rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog‘liq tarzda shakllanadi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o‘zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo‘lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati, janubiy-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqasi madaniyati, Hindiston yarim oroli va unga qo‘shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati – bularning har biri o‘zgasidan farq qiluvchi qator diniy e’tiqod, falsafiy maktablar, san’at va adabiyot, urf-odat va an’analarning o‘ziga xos uyg‘un bir tizimlarini vujudga keltirganki, ahli basharning bunday beba ho mulkini, ma’naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

¹ Каримов И.А. Асарлар.1-жилд.-Б.12.

Hech qachon bir inson haqiqatning tagiga yetgan emas. Chunki Borliq haqiqati cheksiz. Uni anglab yetish uchun, birinchidan, shu kungacha insoniyat erishgan barcha yutuqlarni o'zlashtirish lozim bo'ladi. Ammo butun insoniyat yaratib qoldirgan ilmiy merosni mukammal o'zlashtirish bir kishi uchungina emas, hatto kattaroq ilmiy jamoalar uchun ham og'irlik qiladi. Ikkinchidan, barcha insoniyatning yetishgan bilimlari ham Borliq haqiqati oldida ummondan tomchidek emas. Shunday ekan, voqe dunyo haqidagi tasavvurlarimizni qanday shakllan-tirganimizni anglab yetish maqsadga muvofiqroq.

Umuminsoniy qadriyatlar har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo'ladi. Chunki milliy ma'naviyat tarixiy hodisa, o'zbekning ma'naviy takomili nemis yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy madaniy makon va zamonda yuz bergen. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shakl-u shamoyilda ifoda etishining siri shu yerda. Zohirbinlar ayni shu tashqi farqlarga e'tibor qaratib g'avg'o ko'taradilar, ahli dillar botiniy uyg'unlikni muhim hisoblashadi.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat elatlarni zidlashtirmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib, boyitib, to'ldirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiyy jihatlarni tadrijiy anglab boradi. Bu esa bugungi kunga kelib umuminsoniy qadriyatlarni bo'lmish – inson omili, qadr qimmati, sha'ni, uning huquqlari erkinligi, ezgulik, insonparvarlik, bag'rikenglik-tolerantlik, tinchlik, demokratiya, qonun ustuvorligi g'oyalari qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bu qadriyatlarni barcha sohada barcha qatlama vakillari amal qilishi talab etiladi.

7.4. Milliy ma'naviyatimizning umuminsoniy mohiyati

O'z milliy ma'naviyatimizni tiklashga astoydil kirishganimiz aslo o'zgaga g'ayirlik ma'nosini bildirmaydi, balki umumbashariy muvozanatni, uyg'unlikni, demakki, adolatni tiklashga urinishdir. Zotan, uyg'unlik buzilsa, bashar ma'naviyati ham to'kis bo'lmaydi. Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim.

Dushmanlik, g‘ayr ko‘zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug‘ haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o‘zgani tushunish uchun, o‘zgaga mehr ko‘zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o‘zligini anglab yetmog‘i kerak. O‘zligini anglamagan zot hech qachon o‘zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma’naviyatimizga bugungi ayricha e’tibor ham ushbu o‘zligimizni anglab yetishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Ma’naviyat doimo milliy bo‘ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo‘lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma’naviy dunyosi, ma’naviy qiyofasi bir paytning o‘zida ichki mohiyatiga, o‘zak tomirlariga ko‘ra, o‘zga xalqlar ma’naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo‘ladi. Ma’naviyatning yuqorida eslab o‘tilgan ta’rifini millat ma’naviyatiga tatbiq etadigan bo‘lsak, uni bemalol millat ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik, deb atash joizdir. Shunday ekan, ayni millatimizni o‘zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma’naviyat zamirini tashkil etadi. Faqat buni jo‘n tushunish ham, jo‘nlashtirib talqin etish ham – xato. Ma’naviyatimizdagi eng umuminsoniy g‘oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o‘zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma’naviyati unsurlaridan nusxa ko‘chirish shaklida namoyon bo‘lmaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo‘lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtayi nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuyini yaxlit uyg‘unlikda olib qaramog‘imiz talab etiladi. Agar shu uyg‘unlikka mohiyatan muvofiq bo‘lsa yoxud loaqlal unga zid bo‘lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug‘dirsa, nifoq solsa, yoki o‘zga shaxs erkini bo‘g‘sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo‘lsa, demak, maqbul emas. Ammo bir narsani esdan chiqarmaylik: biz milliy ma’navi-yatimizni qadrlasak, uni rivojlantirishga urinsak, qaysidir o‘zga xalqlar, siyosiy kuchlar, bizdan gumondor bo‘lishi mumkin, bizning tilimiz, dinimiz, kiygan kiyimiz yoki urf-odatlarimiz ularning didiga o‘tirishmasligi, tanlagan mustaqil yo‘limiz ular nazarda tutgan qoliplarga mos kelmay qolishi mumkin deb, ortiqcha «andisha»larga berilsak, demak, bu hanuz ongimizdagi qaramlik asoratidir. Ko‘nglimizda Haq nuri bilan bir ishga jazm qilar ekanmiz, o‘zgalarning noo‘rin shubha-gumonlari bilan hisoblashish, chumchuqdan qo‘rqib tariq ekmaslik bilan barobar.

Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda o‘z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, ajdodlari qoldirgan merosga mos qilib, ilmiy andoza va o‘lchovlar yaratganlar, ta’rif va tizimlar shakllantirganlar. Agar ular yaratgan meros ta’sirida, unga ergashib boshqa bir xalq madaniy boylik hosil qilgan bo‘lsa (masalan, sovet davrida SSSR xalqlari vakillari yaratgan ko‘pchilik asarlarni olaylik), albatta, Evropa madaniyati andoza va o‘lchovlarini unga tatbiq etsa bo‘lar. Ammo o‘zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo‘lmanidek, bugun endi ijtimoiy mavzularida ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo‘raki joylashtirilgan sun’iy qoliplardan o‘ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o‘rinli emas.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy qadriyat, umuminsoniy ma’naviyat hayotda asli mavjud emas, jahon madaniyati turli o‘lka va mintaqalarning o‘ziga xos madaniyatları, qadriyatları majmuyidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo‘lmasin, bari-bir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o‘z qiyofasi, o‘z fe’l-atvori, fikr andishalari, o‘z hayot yo‘li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan maxluqotning bir toifasi – bani odamga mansub bo‘lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiyo bo‘lgan muayyan qadriyatlar majmuyi mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ko‘rko‘rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo‘lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko‘p marta isbotlangan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan deb bo‘lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma’naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo‘ldi. Hatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Masalan, eng asosiy umuminsoniy qadriyat – har bir dunyo yuziga kelgan insonning yashash huquqini olaylik. Barcha ilohiy kitoblar insonning yashash huquqini himoya qiladi, o‘zgalarga nohaq ozor yetkazmaslikka, insonni nobud etmaslikka chaqiradi. Ammo insonlar doimo ushbu da’vatga rioya etib kelmoqdam? Qaytaga, o‘sha kitoblar qatidan o‘zlariga maqbul bo‘lman o‘zga insonlarni yo‘q qilish uchun fatvolar izlaydilar, o‘zlarini “musulmon”, o‘zgalarni “kofir” deb e’lon qiladilar. Holbuki, insonlar e’tiqodi haqida hukm chiqarish faqat Allohga tegishlidir. Alloh hatto o‘z payg‘ambarlariga ham o‘zgalar ustidan hukm chiqarish huquqini bergen emas, Allohnинг rasullari faqat

uning hidoyatini bandalariga yetkazishga mas’ul etilgan, ya’ni payg‘om (xabar) eltuvchidirlar. «Hukm qilish faqat Allohning o‘ziga xosdir», deyiladi Qur’oni karimning «An’om» surasi 57-oyatida. Atrof-muhit, tabiatga behuda ziyon yetkazmaslik, yana bir umuminsoniy qadriyat bo‘lib, afsuski, bu ham hanuzgacha ko‘pchilik insonlar tomonidan amalda rioya etilayotgan qoidaga aylangani yo‘q. Insonlar, odatda, arzimas hoyu havaslari yo‘lida o‘z kelajaklari ildiziga ayovsiz bolta uradilar. Yana bir umuminsoniy qadriyat adolat tuyg‘usi bo‘lib, o‘zbek xalqining “pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa, birovga”, degan o‘tkir ramziy maqoli bu qadriyatni kuchli bir tarzda ifodalaydi. Inson kofirga ham, muslimonga ham, do‘sriga ham, dushmaniga ham adolat yuzasidan muomala qilishi zarurligi ilohiy kitoblarda ham ochiq-oydin bayon etilgan. Alloh taolonning “Rahmon” ism sifatida uning Oliy adolati yorqin ifodasini topgan va bu ham insonga tabarruk ibrat bo‘lmog‘i kerak. Ammo adolat tarozisi pallalarini doimo teng tutish juda kam odamlarga nasib etib kelmoqda. Yaratuvchilik mehnati bilan shug‘ullanib, o‘z moddiy ehtiyojlarini ta’min etish ham umuminsoniy qadriyat va tabiiy zaruratdir. Bu qadriyatni tan olgisi kelmay, aylanib o‘tishga, o‘zgalar mehnati hisobidan o‘z baxtini qurishga uringan kimsalar ham hanuz keragidan oshiq uchraydi. 130 yillik asoratdan so‘ng yangidan mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini egallahsga intilar ekan, avval boshdan o‘z baxtini o‘zgalar hisobiga qurishga umid bog‘lamasdan, barcha xalqlar bilan teng, adolatl, do‘stona va samimiyyun munosabatlar o‘rnatishtga tarafdar bo‘lib chiqmoqda, bashariyatning kelajagi uchun o‘zini ham boshqalar qatori mas’ul his etmoqda. Bunday yondashuv o‘zbek xalqining mingyillik ma’naviy tajribasiga ko‘p jihatdan muvofiq keladi.

7.5. Ijtimoiy fanlar metodologiyasi va ma’naviy merosni o‘rganish va rivojlantirish

Inson ilmi hech qachon Borliq haqiqatining oxiriga yeta olmaydi. Shunday ekan, har qanday ilm biror bir aniq maqsad sari yo‘nalmasa, cheksiz-chegarasiz, ibrido-intihosiz bo‘lib qolib, biror samaraga muyassar bo‘lishi qiyin. “Metodo-logiya” tushunchasi voqelikni ilmiy idrok etishning ayni shu muayyan maqsadga qaratilgan mantiqiy tizimini anglatadi. Ma’lumki, ajdodlarimiz – buyuk tasavvuf pirlari – Haqqa yetishishning irfoniy yo‘llarini ishlab chiqqanlar va ularni “tariqat” yoki

“suluk” deb ataganlar. “Metod” atamasi ham aslida yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, “yo‘l”, “haqiqatni anglab yetish yo‘li” ma’nolarini ifodalaydi. Arab tilida bu so‘zning muqobili “tariq” yoki “tariqa” bo‘ladi. “Tariqat” atamasining kelib chiqishi shundan. Alisher Navoiy XV asrda ayni shu anaga tayangan holda adabiyotda “badiiy metod” muammosini hal qilib berdi va “haqiqat tariqi”, “majoz tariqi” tushunchalarini ilmiy iste’molga kiritdi.

Marksizm-leninizm ta’limotiga so‘nggi haqiqat deb qaragan paytlarda ijtimoiy fanlar sohasi juda jo‘nlashib ketgan edi. Chunki mutlaq haqiqatlar allaqachon aniqlangan, endi nisbiy, ikkinchi darajali masalalarni hal qilish qolgandek tasavvur hukmron edi. Hozir ham yaqin o‘tmishda marksistik falsafani yaxshi o‘zlashtirib olganlar uchun eski andaza va qoliplardan kechish qiyin bo‘lmoqda. Ammo bugun, ko‘zimizni kattaroq ochib qarasak, birgina Yevropa mintaqasida shuncha ko‘p bir-biridan keskin farq qiluvchi falsafiy tizimlar yaratilgan ekanki, ularning har birini jiddiy anglab yetish uchun bir insonning umri yo yetadi, yoki yetmaydi. Shunday sharoitda sobiq sovet davrida kimki marksistik dialektikaning taig‘iboti bilan ilmiy darajalarga erishgan bo‘lsa, bugun ham kechagi bilimlarini «ilmiy falsafiy ta’limot» sifatida talabalarga taqdim qilishga urinishi, yumshoq qilib aytganda, insofdan emas, qolaversa, bunday “o‘jarlik”ning oqibatini ham o‘ylash kerak. Kechagi biz boshdan kechirgan “savdolar”dan bexabar yoshlarimiz bunday mas’uyatsizgimiz tufayli yana yolg‘on haqiqatlarni chin deb o‘zlashtiradimi? Bunday metodologik chalkashliklar faqat falsafa emas, boshqa qator ijtimoiy fanlarga ham oid bo‘lib, 70-yillik marksistik mafkura asorati ularning barchasiga o‘z «tamg‘a»sini bosib ketganligi biz katta avlodga sir emas.

Muhtaram I.A.Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida bu haqda shunday deydi: “Ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psihologiya yoki iqtisod bo‘ladimi – ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega. Lekin bugun o‘rta va oliv o‘quv dargohlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan darsliklar, dastur-qo‘llanmalar, kitoblar qanday mafkuradan oziqlangan? Ularda eski tuzum davridan qolgan g‘oyaviy qarashlardan to‘liq voz kechilganiga kim kafolat bera oladi? Bu haqda qayta-qayta gapirishga to‘g‘ri kelmoqda. Afsuski, biz mamlakatimizda ijtimoiy fanlarning rivoji

zamon talablaridan ortda qolayotganini tan olishga majburmiz. Bu boradagi xato va kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rishimiz lozim”.¹

Ijtimoiy sohada asl haqiqatni anglab yetish tabiiy va aniq (matematik) fanlarga nisbatan bir necha barobar mushkulroqdir. Chunki ijtimoiy sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o‘rganish kerak. Yevropa mamlakatlari boshidan kechirgan davlatchilik tarixini o‘rganish asosida Osiyodagi ushbu soha muammolarini anglab yetish mumkin deb o‘ylagan odam qattiq yanglishadi. Markschilar butun insoniyat tarixiy takomiliga tatbiq etmoqchi bo‘lgan formatsion nazariya ham ayni shu sababdan o‘zini oqlamadi. Rossiyadagi krepostnoylik tuzumi, O‘rta asrlar Yevropasidagi feodalizm tizimi yoki Yunonistondagi quldorlik ayni o‘sha o‘lka va mintaqalarga xos bo‘lgan betakror ijtimoiy hodisalar edi. Ularni Xitoy yoki Hindistondan qidirish hech qachon qoniqarli natija bergen emas. Shunday ekan, bugungi kunda yana muayyan zamon va makonda tug‘ilayotgan dolzarb muammolarga «jahonshumul» miqyosda javob berishga behuda urinmasdan, yaqin o‘tmishdagi ilm tarixinining achchiq saboqlarini biroz inobatga olib reja tuzsak va harakat qilsak, o‘zimizni ham, boshqalarni ham chalg‘itmay ish tutgan bo‘lur edik.

Qanday maqsadni oldiga qo‘yanligidan qat’iy nazar, holis izlanishlarga tayanmagan ilm – ilm emas. Shu nuqtayi nazardan, bir achchiq haqiqatni nihoyat tan olishimiz kerak: Sobiq SSSR sharoitidagi ijtimoiy fanlar sohasida o‘tkazilgan «tadqiqotlar»ning aksariyat qismi haqiqiy ilm emas, mafkurabozlik edi, xolos. Shunday ekan, kechagina o‘tmish mafkurasiga sodiq xizmat qilib, turli «ilmiy» daraja va unvonlarga sazovor bo‘lganlar, hech bo‘lmasa, hali ham adabiyotchi, tarixchi, va h.k. boshqa fanlar namoyandalariga bepisandlik bilan yuqorida qarashga urinmasalar, dunyo ilmining rivojiga durustroq nazar solib, ajdodlarimiz ma’naviy merosiga jiddiyroq munosabatda bo‘lishga harakat qilsalar yomon bo‘lmas edi. Ularning ko‘pi yaxshigina fikrlash qobiliyatiga ega odamlar, demak, aniq mavzular ustida binoyidek tadqiqot o‘tkazishlari mumkin.

Ijtimoiy fanlar metodologiyasini o‘rganishda ma’naviy merosimizning o‘rni va ahamiyati katta. Ma’naviy meros milliy ma’naviyatimizning poydevori bo‘lish bilan birga uning metodologik

1 Каримов И.А. Асарлар.8-жилд. -Б.504-505.

vazifasini ham o‘taydi, shunga ko‘ra ma’naviy merosimizni tiklash va o‘rganish asosiy vazifalardan biridir. Parijda, YUNESKO ijroiya kengashida so‘zlagan Muhtaram Islom Karimov aytganidek: «Vatanimiz asrlar mobaynida jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblangan»¹. Ammo yurtimizda 70 yil hukmronlik qilgan sobiq totalitar tuzum makkorlik bilan o‘z asoratiga olgan xalqlarning buyuk o‘tmishini avlodlar xotirasidan o‘chirmay turib manfur maqsadlariga yeta olmasligini yaxshi bilar edi. Shu sababli tinimsiz kurash g‘oyasini hayot ma’nosи deb e’lon qilgan “dohiyalar”ning sodiq shogird va izdoshlari nafaqat tirik “dushmanlar” bilan kurashdilar, balki millatlarning o‘tmish ma’naviy merosi bilan ham tinimsiz «jang» qildilar. Hatto uyidan eski arab yozuvida kitob topilgan odamlar davlatga qarshi jinoyatda ayblangan davrlar bo‘ldi. Bolshevikm mafkurasining itoatkor qullariga aylantirilgan “sovet intellegensiyasi”ga tirik va o‘lik “dohiyalar”ni madh etish, «kommunizmning birinchi bosqichi» deb e’lon qilingan bolshevistik diktatura tuzumining jahon tarixidagi barcha makon va zamonlardan “afzalligi”ni har qanday usul bilan isbotlab va dalillab berish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Ushbu vazifadan zarracha chekinish xalqqa va «nurli kelajak»ka xiyonat deb baholanardi.

Mustaqillik tufayli bizning ma’naviy qadriyatlarimiz, o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o‘zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, «progressiv-reaksion» atalmish zo‘raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur’oni karim, Hadisi shariflar birinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Nosiriddin Rabg‘uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa sovet davrida, hatto, nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo‘liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari — Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileyлari millatimizning ruhida poklanish tuyg‘ularini uyg‘otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug‘vor mujassamasi o‘rnatalishi o‘zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o‘chmas yog‘du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma’rifat,adolat, hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o‘rin ola boshladi. «Bosmachi»

¹ Каримов И.А. Асарлар. 4-жилд. -Б.332.

deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o‘z qadrlariga loyiq baholandilar.

Yaqin o‘tmishda, ya’ni qaramlik davrida milliy ma’naviy merosni o‘rga-nishga qanday yondashildi, degan masalada ba’zan babs tug‘ilib qoladi. Ba’zilar shunday fikrlashadi: “Axir o‘sha yillar davomida ham o‘tmish meros ozmi-ko‘p o‘rganildi-ku! Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning asarlari rus va o‘zbek tillarida bosilib chiqdi, tadqiq va targ‘ib etildi. Bu ulkan ijodiy mehnat bir necha avlod olimlarining umr mazmunini tashkil etmadimi?” Nihoyatda to‘g‘ri. Ustozlarimiz bu yo‘lda chinakam fidoiylik namunalarini ko‘rsatishdi. Bugungi milliy ma’naviyatimizni tiklash yo‘lidagi urinishlar ko‘p jihatdan o‘sha zahmatkash allomalarimiz, mutafakkiru- ustozlar yaratgan zalvorli poydevorga tayanib turibdi. Ammo ayrim insonlarning millat ma’naviyati yo‘lidagi fidoiyligi bilan hukmron tuzum va uning mafkurasi ko‘zlagan asl maqsad, bu sohada yuritgan qat’iy siyosati orasida jiddiy farq bor ekanligini ham bugun o‘zimizga ayon bo‘lib turibdi. Biz o‘tmishni yoppa inkor qilish yo‘lidan borsak, yana “bolshevikcha” ish tutgan bo‘lamiz. Yetmish yil ichida nimalar yutdik va nimalarni yutqizdik – uning sarhisobi alohida. Bu o‘rinda yaxshi anglab yetishimiz kerak bo‘lgan masala shuki, sobiq hukmron tuzum o‘tmish merosni o‘rganishda ham o‘z siyosati, yetakchi g‘oyasi, mafkurasi ildizlarini mustahkamlashni niyat qildi. O‘zbekning asl milliy ma’naviyati, ajdodlarimiz yaratgan boylik bevosita ularni hech qachon va mutlaqo qiziqtirgan emas.

Merosni o‘rganish ishiga marksizm “falsafa”sini chuqur va jiddiy o‘zlashtirgan, totalitar siyosatga sodiqligi tajribada isbot etilgan, mavjud tuzumga chin dildan tarafdar kishilar darg‘a qilib belgilanar, ularga har bir soha tadqiqotchilarining “dialektik va tarixiy materializm”, “ilmiy kommunizm” prinsiplaridan zarracha o‘ng yo so‘lga og‘ishmay borayotganligini qat’iy nazorat etish va ta’minalash ishonib topshirilgan edi. Qatag‘onlar odamlarning yuragini olib qo‘yan, ko‘plar hukmron “partiya” nima desa, “ha, shu to‘g‘ri ekanda” deb qo‘ya qoladigan bo‘lib qolishgan edi. Tan olish kerak, sobiq tuzum davrida olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz shaxsan qanchalik pok, samimiyo bo‘lishmasin, ajdodlar merosiga holis yondashuv imkoniga ega bo‘lgan emaslar. Ular ba’zan o‘zları to‘g‘ri deb o‘ylagan holda, ba’zan majburiyatdan yo‘qni bor, borni yo‘q qilib ko‘rsatganlar, ajdodlarimiz so‘zini xolis, mintaqa ma’naviyatining amaliy va nazariy takomili mantiqiga muvofiq tarzda emas, marksistik mafkura talablariga mos yo‘nalishda talqin etganlar.

Natijada o‘tmish merosimiz namunalari bilan asl qo‘lyozmalardan, to‘liq matnlardan emas, ommaviy nashrlar asosida tanish bo‘lgan ko‘pchilik oliy ma’lumotli mutaxassislar ham yagona hukmron ideologiya ruxsat bergen “haqi-qatlar”dan o‘zga haqiqatlar mavjud ekanligidan deyarli bexabar tarbiya topganlar.

Bugun ziyolilarimizning ko‘pchiligi ma’naviy merosni to‘g‘ri idrok qilishga qiynalayotganliklarining sabablaridan biri ham shunda. Demak, o‘tgan 70 yillik davrda ma’naviy merosni o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlarning amaliy tomonlari nashrlar, ma’lumotlar bugun uchun xizmat qilishga yaroqli bo‘lsa ham, g‘oyaviy-nazariy yo‘nalishlar, talqin va xulosalar, andaza va tushunchalar barchasi jiddiy va diqqat bilan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi va bu milliy ma’naviyatimiz nazariyasini to‘g‘ri, asliga muvofiq shakllantirishda o‘ta muhim muammolardan biridir.

Mavzu bo‘yicha xulosa:

Milliy taraqqiyotmiz ma’naviy-axloqiy negizlariga ega, ular – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlik Mustaqillik ma’naviyatining asosini tashkil etuvchi bu to‘rt negiz o‘zaro chuqr ichki uyg‘unlikka ega. Kishilik jamiyati miqyosida vorisiylik va rivojlanishning oddiylikdan murakkablikka, quyidan yuqoriga, yuksalishga qarab kechadi, ayni paytda milliy-ma’naviy boyliklarning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘undir. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyoti esa milliy va umuminsoniy ma’naviyatning ana shu dialektik bog‘liqligida kechadi. Ijtimoiy fanlar metodologiyasini o‘rganishda ma’naviy merosimizning o‘rni va ahamiyati katta. Ma’naviy meros milliy ma’naviyatimizning poydevori bo‘lish bilan birga uning metodologik vazifasini ham o‘taydi, shunga ko‘ra ma’naviy merosimizni tiklash va o‘rganish asosiy vazifa-lardan biridir.

Mavzuga doir topshiriq va takrorlash uchun savollar.

1. Milliy taraqqiyotmiz ma’naviy-axloqiy negizlarini nimalar tashkil etadi?
2. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatmizning uyg‘unligini Venn diagrammasida ifodalang.
3. Umuminsoniy qadriyatlarni klasterda usulida ifodalang.
4. milliy ma’naviyatimizni asosiy unsurlarini nimalar tashkil etadi?

5. Milliy ma'naviyatimizning umuminsoniy mohiyati
6. Ijtimoiy fanlar metodologiyasida milliy ma'naviy merosni o'rghanish va rivojlantirish holatini izohlang
7. Milliy ma'naviyatimizni FSMU texnologiyasida yoriting.
8. Bugungi Ozbekiston milliy ma'naviy taraqqiyoti qanday umuminsoniy qadriyatlarga sodiq holda rivojlanmoqda?
9. XX asr boshlarida millatni ma'rifat,adolat,hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq ma'naviy merosini asrab avaylashda qanday chora tadbirlarni tashkil etishgan?
10. Ijtimoiy fanlar metodologiyasini o'rghanishda ma'naviy merosimizning o'rni va ahamiyati haqida "Esse" yozing.

8-mavzu. MA’NAVIYATNI ANGLASH. MILLIY MA’NAVIYATI-MIZNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI

- 8.1 “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyati, tarkibi, nazariy va amaliy ahamiyati.
- 8.2 Ma’naviyatni anglash. Ma’naviyat mezonlari.
- 8.3 Milliy ma’naviyatimizning ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi.
- 8.4 Inson hayotida ma’naviyatning o’rni va ahamiyati.
- 8.5 Juhon ilmi va o’tmish ajodolarimiz merosida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan o’rganilishi.

8.1. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyati, tarkibi, nazariy va amaliy ahamiyati

Mamlakatimiz taraqqiyot pillapoyasidan yangi-yangi cho‘qqilar sari qadam qo‘yar ekan, biz yashayotgan zamon sur’atlari shiddat bilan tezlashib, oldimizda yana ko‘proq vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi, tabiiyki, ma’naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yorug‘ va sog‘lom kelajagini har qanday tahdid va to‘fonlardan – davr o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi va shakli o‘zgarishiga qaramasdan – bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo‘lishi darkor. Ayniqsa bugungi dunyo bo‘ylab kechayotgan globallauv jarayonida ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlarning ortib borayotganli va ularning yoshlar ongi, millatlar hayotiga ta’siri yanada xavf solayotganligini hisobga olish kerak, bu davr talabidir.

Muhtaram I.A.Karimov tomonidan 2008-yilda yozilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asari insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va ahamiyatga ega ekani, ma’naviyatni anglash ma’naviyatni shakllantirish mezonlari, ma’naviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu asar ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e’tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodimizni ma’naviy sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj mahsuli sifatida dunyoga keldi.

“Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiylar tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergen bo‘lardim”, deb ta’kidlagan edi asar muallifi I.A.Karimov.

Ushbu asar to‘rtta bobdan iborat. Ular “Ma’naviyat – insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir”, “Mustaqillik – ma’naviy tiklanish va yuksalish”, “Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid”, “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori” deb nomlanadi. Muallif ma’naviyatning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalarga to‘xtalar ekan, avvalambor, ma’naviy yuksalishga erishish – uzlusiz jarayon ekanligi e’tiborga olinadi. Xalq, millat o‘z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzlusiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi.

Bugungi kunda ma’naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo‘lgan xavf-xatarlardan albatta ko‘z yumib bo‘lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma’naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko‘rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mammuniyat bilan qayd etamiz. Chunki xalq – bamisolli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urinuvchilar, talon taroj qiluvchilar hamisha bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma’naviyat bor. Ana shu fikr va xulosalardan kelib chiqqan holda, bu asar mohiyati «Biz kimmiz?» degan savolga javob bermasdan turib, eng muhimi, ma’naviy boylikni, ma’naviyatni yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib biz o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emasligi ta’kidlanadi. Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi milliy ma’naviy taraqqiyotimizning poydevor ekanligi va u hanuzgacha ma’naviy taraqqiyotimiz uchun cheksiz

xizmat qilishi muqarrar ekanligi, yoshlarmizni bunday boy ma’naviy meros bilan qaddi baland va g’urur bilan yashash uchun intilishga chorlaydi. “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.” deb ta’kidlaydi asar muallifi.

El-yurtimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko‘rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o‘tmish, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘limiz barchamizga saboq bo‘lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lib yashashga da’vat etishi lozim. O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan.

“Ishonchim komilki, - deb ta’kidlaydi asar muallifi, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo‘lmaydi, o‘zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi”¹.

Ushbu asar ma’naviy tarbiyaning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay, balki vatanimiz, xalqimizning buyuk taraqqiyoti uchun fidoyi, vatanparvar, o‘zligini anglagan, eng asosiysi yuksak ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Asarning amaliy ahamiyati esa nafaqat bizning yoshlarmizni, balki dunyo yoshlaringning ma’naviy olamini boyitishga va insonparvar shaxs sifatida tarbiya-lashga, o‘zligini anglashga, ma’naviyatni anglashga xizmat qiladi.

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, 2008. -B-7.

8.2. Ma’naviyatni anglash. Ma’naviyatnini shakllantirish mezonlari

Endi “Ma’naviyat – insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir” deb nomlangan birinchi bobning “Ma’naviyatni anglash” bo‘limiga e’tibor qaratamiz. Ushbu bo‘limda ma’naviyat tushunchasining mazmun mohiyati, ma’naviyatni anglashning o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida keltirilganidek: “... ma’naviyat haqida, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida ko‘p gapiramiz. Lekin negadir aksariyat hollarda ko‘pchilik ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob berishga qiynaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlarda «ma’naviyat» tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o‘ziga xos ta’riflar berilayotganini kuzatish mumkin. Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, «ma’naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma’ni», «ma’no» degan so‘zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb o‘ylayman. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz.

Mening nazarimda, «ma’naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi «ma’naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin”:

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida keltirganlaridek, “ma’naviyatni anglash uchun avvalo insonni anglash kerak”, yani insonning qadr qimmatini, issiqsovug‘i haqida qayg‘urmagan, unga ezgulik va yaxshilikni ravo ko‘rmagan inson ma’naviyatni ham anglamaydi. Ma’naviyatning asosiy negizi va ma’no-mazmunini

belgilaydigan xususiyati avvalo, insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishga qaratilganligidir”¹.

Bu dunyoda halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar bilan bunday oljanob fazilatlardan butunlay uzoq bo‘lib yashaydigan, hayotning ma’no-mazmunini o‘zicha talqin qiladiganlar ham oz emas.

Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoy-u havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-onva farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash assosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi. Hayot mohiyatini anglab yetishga o‘z umri, bilim va salohiyatini bag‘ishlagan ne-ne buyuk zotlar, mutafakkir faylasuflar, alloma va aziz-avliyolar – millati, tili va dinidan qat’iy nazar – shu kabi murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yaratgan. Lekin bu savol bugungi kunda ham hanuz o‘tkir va dolzarb bo‘lib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Hammamizga ma’lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da’vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko‘pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma’naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko‘p mashaqqatlarni, og‘ir sinov va to‘sqliar, muammolarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri keladi.

Barchamizga ma’lumki, Ollohning o‘zi inson zotini vujudga keltirar ekan, uni turli qiyofada, nafaqat yuz-ko‘zi, balki fe’l-atvorini ham bir-biriga o‘xshamaydigan qilib yaratgan. Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo‘lsa, barmog‘ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil

¹ Qarang: O‘sha asar. -Б-20-28.

bo‘lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi.

Shu haqiqatning o‘zi toki bu dunyoda hayot bor ekan, turfa xil odamlar va ularning ong-u tafakkuridagi o‘zaro tafovut va ziddiyatlar saqlanib qolaverishini ko‘rsatadi. Aynan ana shunday turli dunyoqarashlar, bir-birini inkor etadigan oqim va yo‘nalishlar mavjudligini tabiiy bir hol deb qabul qilishni hayot voqeligining o‘zi talab etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, biz bu haqda gapirganda, avvalo ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo‘lgan, o‘z qarashlarining ma’no-mazmunini har tomon-lama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni nazarda tutamiz. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda, ana shunday bir-birini inkor etadigan dunyo-qarashlarni inobatga oladigan bo‘lsak, bularning o‘zi tegishli xulosalarga olib kelishi muqarrar. Ya’ni, o‘z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo‘lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo‘lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinci tomondan, bu dunyoda yengil-yelpi, har xil nopol yo‘llarga berilib, insoniy burchini unutib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so‘ngida armon va nadomatlarga botib o‘z umrini tugatadi.

Dono xalqimiz, g‘araz va hasad bilan yashaydigan, o‘z shaxsiy manfaatiga o‘zgalar hisobidan erishishni ma’qul ko‘radigan, faqat o‘zini o‘ylaydigan kimsadan o‘zi asrasin, deydi. Bag‘rikeng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g‘amu tashvishi bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko‘taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e’tibor topadi.

Inson ma’naviy olamining yuksalishi bilan bog‘liq turli holatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohnning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik vaadolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. O‘ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

Chindan ham, agar odamzot bu dunyoda ruhan pok bo‘lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg‘oq bo‘lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma’nosи qoladi? Ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

“Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak, - deb ta’kidlaydi asar muallifi, - shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o‘ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin”¹.

Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllan-tiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asarda ana shu masalaga ham katta e’tibor qaratilgan va shaxs, jamiyatimiz ma’naviyatini shakllantirishning asosiy mezonlariga to‘xtolib o‘tilgan. Jumladan, ko‘hna ma’naviy meroslarimiz, ya’ni Avesto muqaddas manbasi, Navro‘z bayrami, xalq og‘zaki ijodi manbasi bo‘lmish Alpomish dostoni, ko‘hna tarixiy yodgorliklar? Ilm-fanga hissa qo‘sghan buyuk allomalarimiz ijodiy ma’naviy merosi, islam dini va uni rivojlanishiga hissa qo‘sghan hadisshunos, tasavvuf ta’limoti namoyandalar, jadid allomalarimiz, oila, mahalla va boshqa shu kabi omillar sanab o‘tiladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. -B-20-29.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlangandan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir.

Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebafo ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz. Misol uchun, «Avesto»ning tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin

Ma'lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o'z afsonaviy qahramonlari, o'zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda, xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish»

dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik, vatanparvar va millatparvarlik qo‘shig‘idir. “Agarki xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi”- deb aytgan edi muhtaram Islom Karimov. Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o‘tkazadigan Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiylici, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, oljanob urfodatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda. Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo‘lgan Navro‘z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdod-larimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g‘oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof vaadolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an’analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq. Va xalqimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta’sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Asarda muallif ma’naviyatning muhim mezonlari sifatida islam dinining ana shu jihatlariga e’tibor qaratadi, milliy ma’naviyatimiz rivojlanishiga va boyishiga xizmat qilganligini ta’kidlab o‘tadi. Umuman olganda,

yuqoridagi omillar ma’naviyatni anglash uchun asosiy bir butun tizim bo’lib xizmat qiladi.

8.3. Milliy ma’naviyatimiz ilmiy-nazariy asoslарining shakllanishi

Milliy ma’naviyatimizning ilmiy-nazariy asoslari milliy tariximiz, ajdodlar merosida aks etadi. Bizning hududimiz, ya’niki Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganini endilikda butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan qo’lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o’n minglab asarlar Markaziy Osiyo Sharqning ilm-ma’rifat markazi bo’lib kelganligini ko’rsatuvchi va tasdiqlovchi dalil va isbotdir.

Bunda biz mintaqamizda yashab o’tgan orta asrlar ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo’shgan olim va buyuk faylasuflarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Ar Roziy, Ahmad Farg’oniy, ibn Muso Xorazmiy va boshqa allomalarimiz ma’naviy merosi milliy ma’naviy merosimizning teran tomirlari hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda ilk o’rta asrlar fanining asoschisi Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850)dir. U halifa Ma’mun (813-833-yillarda halifalik qilgan)davri va undan keyin umrining oxiriga qadar Bag’doddagi “Bayt ul-hikmat”ni boshqargan. Olimga buyuk shuhratni dastlab «Hisob al-hind» (“Hind hisobi”) nomli risolasi olib kelgan. Mazkur risolada jahon fani tarixida birinchi marta o’nlik pozitsion sistema va uning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xorazmiyning o’nlik pozitsion sistemasi insoniyatga cheksiz qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Agar mazkur sanoq sistemasi bo’lmaganida ilmiy tafakkur bu darajada takomil topishi amri mahol bo’lardi. Xorazmiy to’qqiz belgidan iborat hind raqami yordamida cheksiz miqdorlarni qayd etuvchi va uni osonlik bilan ifodalovchi sanoq sistemasini kashf etdi. Hindlarning to’qqiz belgidan iborat raqamlar tizimi mukammal sanoq tizimiga aylanishi uchun “0” kashf etilib, o’z o’rniga qo’yilishi kerak edi. Xorazmiy

tomonidan “0”(nul)ning kashf etilishi insoniyat ilmiy tafakkurining beqiyos ulkan yutuqlaridan biridir. Hozirgi zamon jahon ilmiy-texnika va texnologiyalarning erishayotgan ulkan yutuqlari asosida buyuk alloma Xorazmiy dahosi yotganligini endilikda hech kim inkor eta olmaydi. Bugungi kunda insoniyatning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz beixtiyor iftixorga to‘ladi.

Yana bir ulug‘ ajdodimiz – Ahmad Farg‘oniy insoniyat tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandası, o‘z zamonasining Fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma’na-viyatining rivojlanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Uning beba ho merosi o‘z davri olimlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma’lum. Allomaning «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari o‘n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir.

Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo‘lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O‘n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shtan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqeahodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko‘p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, ammo har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan, e’tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma’naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo‘lmish mashhur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng

nufuzli oliv o‘quv yurtlarida hozirgacha asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelinayotgani, dunyo miqyosida «Meditina», «Sog‘lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya’ni, ma’naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta’sir o‘tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor.

Shuningdek, buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatining ravnaq toptirishga qo‘sghan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhammadislar sulton» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – «Al-jome’ as-sahih» kitobi islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarining eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda. Yana bir ulug‘ vatandoshimiz — Abu Iso Muhamimad ibn Iso Termiziyning ma’naviy merosi; jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olim-u fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan insof vaadolat, insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab axloqiy-ma’naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga molikdir.

Kalom ilmini rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan alloma Imom Moturidiy bobomizning o‘rta asrlardagi g‘oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, avlodlarga ibrat bo‘ladigan ma’naviy jasorat namunasini ko‘rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgani butun musulmon olami tarixida beqiyos iz qoldirdi. Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g‘oyalari islom dinimizning asosini to‘g‘rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo‘min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

O‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go‘zal Farg‘ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandası Burhoniddin

Marg‘inoniyning tabarruk nomini butun musulmlar dunyosi yuz yillar davomida e’zozlab keladi. Bu mo“tabar allomaning Sharq olamida «Burhoniddin va milla», ya’ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgani ham buni yaqqol isbotlaydi

Shu bilan birga tasavvuf ta’limoti namoyondalari Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy kabi allomalarimizning o‘z ta’limotlari bilan xalqimiz ma’naviy olamini boyitishga katta hissa qo‘shganlar. Jumladan, butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siyimosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo‘yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta’riflab kelishida teran ma’no bor. U «Diling Ollohdha, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» degan hayotbaxsh hikmati orqali Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limotining takomil darajasiga ko‘tardi va dinimizning olijanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab berdi.

IX-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan va ma’rifat yuqori darajada rivojlangan. Ularning zamirida avlod-ajdodlarimizning yuksak darajadagi ma’naviyatga ega ekanligi turadi. Chunki ma’naviy qashshoq inson, xalq, millat hech qachon ilm, fan, ma’rifat va madaniyatni rivojlantira olmaydi, uning ulkan salohiyatidan babra ololmaydi.

Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar – Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumi; faylasuf shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkociy, Atoiy, musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, hattotlar: Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar mana shu davrda yashab ijod qildilar. Xususan, o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandas, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Bu insonning ma’naviy jasorat darajasidagi ma’naviy faoliyatini I.A.Karimov yuksak ehtirom bilan: “Agar bu ulug‘

zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” – deb bejiz ta’riflamaydi.

Mustamlakachilik va sho‘ro tuzumi davrlarida millat va vatanning tarixi va qadr-qimmatini tiklash, milliy ongini o‘sirish, ma’naviyatini yuksaltirish uchun bel bog‘lab kurashgan Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Abdulla Qodiriy, Ibrohim Mo‘minov, Habib Abdullayev, Sharof Rashidov, Yax’yo G‘ulomov kabi allomalarimiz vatanparvarlik va millatparvarlikning haqiqiy timsollaridir ularning ijodiy merosida va faoliyatida aks etgan ma’naviyat millat ma’naviy takomili uchun beqiyos xizmat qildi.

8.4. Inson hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati

Inson hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ma’naviyat atalmish ijtimoiy hodisani anglash faqat inson zotigagina berilgan. Shuning uchun inson tabiatning gultoji deb bejiz aytilmaydi

Inson nihoyatda murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p o‘lshamli mavjudot bo‘lib, uning mohiyatini anglash yuzasidan turli qarashlar ilgari surib kelinmoqda. Sharq falsafasining buyuk vakillaridan biri Forobiy nazdida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida izohlanadi. Mutafakkir insoning barsha oljanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni – baxtli bo‘lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma’rifat orqali erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Abu Homid G‘azzoliy insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko‘rsatdi. Ulug‘ mutasavvuf Abduholiq G‘ijduvoniy insonni “kishik olam” deb hisoblagan. Lekin inson ma’naviyatini yuksaltirmsandan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqishida milliy ma’naviyatni yuksaltirish yo‘lidagi ko‘zlangan maqsad to‘la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma’naviyatimiz yuksala bordi. Faqat ma’naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin.

Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina yuksak taraqqiyoga erishishi mumkin.¹

Ma'naviyat insonni barkamol shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlaydi. Uning o'zligini anglashi, bilim-salohiyatini oshishiga ma'naviy-ruhiy qudrat ba'g'ishlaydi. Ma'naviy barkamol inson sifatida vatanparvarlik va millatparvarlik fazilatlarining shakllanishiga va namoyon qilishiga yo'naltiradi. I.Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviyat ona suti, ona allasi bilan singib boradi. Ma'naviyat inson qalbiga singib borar ekan, uni axloqiy yetik qilibgina qolmay, balki ma'naviy jasorat ko'rsatishga qodir qiladi. "Yer yuzidagi barcha o'lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyat va ixtiolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahhramonlik namunalari odamzodning aql tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati mahsulidir. Shuning uchun ham bu yorig' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasoratdir, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz."²

Ma'naviyat mohiyatan inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobjiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlardan tortib, toki oilagacha, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barsha qirralarini qamrab oladi. Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinshi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson, komil inson kabi tushunshalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etdi. Shuning ushun ma'naviyat sohasida ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, o'zini chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyg'ongan va jipslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. Chunki ana shunday ma'naviy-ruhiy salohiyatga ega bo'lgan millatning har bir vakili o'z millati manfaatlarini har qanday boshqa manfaatlardan ustun qo'yishga va o'zining millat oldidagi mas'uliyatini yuksak darajada anglaydi va uning istiqboli uchun fidoyilik ko'rsatishga qodirlilik darajasiga ko'tariladi.

¹ O'sha joyda, 306-bet.

² I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008. -B-70.

Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, sharqona odob-axloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol insonlar jamiyatning asosiy kuchi, millatning tayanchi hisoblanadi. Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan ajralib turadi. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Ma’naviyatsiz insonlar, aksincha, xudbin, manqurt, befarq, axloqsiz fazilatlar egasi, vatanga sadoqatsizlik, rahm-shafqatsiz illatlar egasi bo‘lib, jamiyatni tanazzul yoqasiga boshlaydi. Bunday insonlar o‘z manfaatini ko‘zlab ish yuritadilar. Demak, ma’naviyat o‘zning funksional jihatlari bilan insonni ma’naviy barkamollikka chorlaydi. Ma’naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Ma’naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish ushun intilishdir.

Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Shu bilan birga ma’naviy-axloqiy komillik darajasini har kim o‘zicha belgilay olmaydi. Kimki “Men ma’naviy-axloqiy komillik cho‘qqisiga yetdim” desa, o‘ziga o‘zi yuksak baho bersa, u hali komil inson emas. Inson hesh qashon o‘zining ma’naviy kamolot darajasiga baho bera olmaydi. Komillik har bir shaxsning boshqalar bilan bo‘lgan munosabatida ko‘zga tashlanadi. Komil insonni ota-onasiga, jamoatshilik, ular bilan munosabat shakllantiradi. Komillikning yo‘li ma’naviyat bulan uyg‘unlashish, odamlardan faqat yaxshi fazilatlarni o‘rganish, ibrat olish, doimo yaxshilikka, ezgulikka intilishdir.

Shunga ko‘ra yoshlarni ma’naviy tarbiyalash maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda barkamol avlodni shakllatirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.¹

¹ Мирзиёев Ш. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, Тошкент шахри, 2021 йил 26 март.

8.5. Jahon ilmi va o‘tmish ajdodlarimiz merosida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan o‘rganilishi

Hozirgi zamon jahon ilmi-fanida va ijtimoiy-siyosiy harakatlarida ma’navi-yatning ba’zi sohalari va ijtimoiy shakllariga e’tibor kuchaymoqda. XIX asr oxirgi choragida Yevropa mamlakatlari ma’naviy ongida, hayotida chuqur o‘zgarishlar bo‘y ko‘rsata boshladi. Ratsionalizmga ishonch susaydi. Din va cherkovning mavqeい umuman tushib ketdi. Adabiyot va san’atda tushkunlik paydo bo‘ldi. XX asr ibtidosida avangardistik, turli xil modernistik oqimlar ko‘payib ketdi.

1914-yilda boshlangan I jahon urushi insoniyatga mislsiz qiyinchiliklar olib keldi. Avstriya-Vengriya, Usmonli turk, Rossiya imperiyalari parchalanib ketdi. Rossiyada sotsialistik inqilob g‘alaba qozondi. Italiya va Germaniyada fashizm hokimiyatni qo‘lga oldi. Vayrongarchilik, ocharchilik, ishsizlik, jinoyatchilik, nogironlar sonining urush tufayli ko‘payib ketishi, davlatga ishonchsizlik, tushkunlik va boshqa ko‘plab salbiy o‘zgarishlar – an’anaviy va mumtoz qadriyatlar deformatsiyalashuviga, ularning‘ ko‘pchiligiga odamlar ishonmay va rioya etmay qo‘yishiga olib keldi. G‘arb ijtimoiy ongida, madaniyati va axloqida yuz bergen o‘zgarishlarni anglash, tahlil qilish, sabablarini tushuntirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni jonlantirdi. O Shpengler, Karl Popper, Xose Ortega i Gasset, Kassirer hayot falsafasi, ekzistensializm¹ (Sartr, Kamyu, Xaydegger, Marel, Yaspers), personalizm, fenomenologiya (Gusserl) oqimlari paydo bo‘ldi. Lekin II-jahon urushi G‘arb ma’naviyatiga va ilmiy qarashlariga yanada katta zarba berdi. Qurbonlar, nogironlar soni 1-jahon urushiga nisbatan 5-6 baravar ko‘p bo‘ldi. Bu davr jarayonida salkam 6 mln. yahudiy o‘ldirib yuborildi. Ba’zi bir qishloqlar butun aholisi, bola-chaqalari bilan to‘liq qirib tashlandi yoki tiriklayin yoqib yuborildi. Inson hayotining qadr-qimmati tushib ketdi. Zo‘ravonlik, qotillik, talonchilik, irqchilik va ashaddiy millatchilik, doimiy xavf va ijtimoiy qo‘rquv, INSON huquqlari va erkinliklarining toptalishi, siyosiy chaqimchilik va repressyalar Germaniya, Italiya va ularning ittifoqchi mamlakatlarida, SSSRda odamlar ma’naviyatini, qadriyatlar tizimini izdan chiqardi, salbiy tomonga o‘zgartirdi. Ilmiy-texnika yutuqlari tufayli ommaviy madaniyat tez tarqaldi. XX asrning 60-70 yillaridan pragmatizm, fenomenologiya,

¹ Ekzistensializm- (lot.exsistntia-yashash, mavjudlik) – falsafadagi yo‘nalish. 20-asr boshida Rossiyada, 1-jahon urushidan keyin Germaniyada, 2-jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo‘lgan.

ekzistensializm, neopozitivizm asta-sekin ta'sirini yo'qota boshladi. Falsafiy antropologiya, frankfurt maktabi, strukturalizm, tanqidiy ratsionalizm va sh.k. yangi oqimlar ta'siri kuchaydi. Eng asosiysi – Ikkinchi jahon urushidan keyin o'n yil o'tib barcha sohalarda urush asoratlari tugatilib, keskin yuksalish yuz berdi. Mustamlakachilik tizimi yemirila boshladi. Ozodlik, tenglik, mustaqillik, inson huquqlari, ijtimoiyadolat, ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari odamlar ongida qattiq o'rnashdi. An'anaviy axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ekologik qarashlar XX asr II yarmida, ayniqsa, 70-80-yillarda sezilarli o'zgardi. Bu jamiyat hayotida ham o'z ifodasini topdi. Sharqda er-xotin, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda patriarchallikning ba'zi avtoritar qoidalari ancha yumshadi, xotin-qizlarning erkinligi, haq-huquqlari, ijtimoiy faolligi ancha-muncha o'sdi. Sharq xotin-qizlari orasidan S. Bandranayke (Shri Lanka), I.Gandi (Hindiston), B.Bxutto (Pokiston) kabi prezidentlar, bosh vazirlar yetishib chiqdi. Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Litva, Latviya, Lotin Amerikasining qator davlatlari va hukumatlarini xotin-qizlar muayyan muddat boshqardilar yoki boshqarmoqdalar. Bular gender tengligi, feministik harakat, inson huquqlari kabi masalalarda qilingan amaliy, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-nazariy ishlarning natijasidir.¹

Lekin ushbu masalalarda bugun, XXI asrda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ijtimoiy-siyosiy ishlarning kamchiliklari ham talaygina. Oila va nikoh institutini bekor qilish (feministik harakat), birjinsli nikohlarni qonuniylashtirish, gender tengligini, inson huquqlarini, so'z, e'tiqod, axborot erkinligini formal va vulgar tushunish, tabiiy instinctni ma'naviy me'yordan ustun qo'yishni xolis ilmiy o'rganish shular jumlasidandir. Axborot texnologiyalari rivojlanishi ma'naviyat, inson ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tashkil qilish masalalariga ta'sir ko'rsatish, inson ongi bilan manipulyasiya qilish imkoniyatini orttirdi. Reklama allaqachon iste'mol tovariga aylanishga ulgurgan ommaviy madaniyat mahsulotlarini va yuqori doiralarga kerakli siyosiy g'oyalarni odamlar ongiga singdirishga xizmat qilmoqda. Xullas, ma'naviyatning turli sohalarini har xil siyosiy, iqtisodiy doiralarning geopolitik manfaatlaridan kelib chiqib o'rganishga e'tibor kuchaydi. Lekin G'arbdagi tadqiqotlar ko'pincha ma'naviyat atamasi emas, boshqa atamalar, boshqa konkret muammolar bilan bog'lab olib boriladi.

¹ Эркаев А.Маънавиятшунослик. 1 китоб. .-Т., 2018. -Б- 296.

Ma’naviy madaniyat deganda, G‘arbda ko‘proq diniy, madaniyat, cherkov faoliyati tushuniladi. Bu haqda biz o‘tgan mavzularda gapirgan edik. Ma’naviyat atamasi deyarli qo‘llanilmasa-da, uni ong, tafakkur, axloq, adabiyot va san’at, huquq, siyosiy, diniy e’tiqodga, ilm-fanga oid madaniyatning alohida sohasi sifatida differensial (alohida) yoki qisman umumiylisistema sifatida fenomenologik, kulturologik, semiotik, strukturalistik, neopozitivistik, etnologik, sotsiologik, politologik, futurologik tadqiq etish kengayib borayotir.¹

E.Gusserl, Xose Ortega-i-Gasset, M.Xaydeger, K.Yaspers, S.Kyorkegor (Kierkegaard), O.SHpengler, E.Kassirer, R.Karnap, E.Fromm, K.Levi Stros ma’naviyat atamasini qo‘llamasalarda, ma’naviy madaniyat, inson ongi, ruhiyati, irodasi, tili, tafakkuri, madaniyatini, san’atdagi tasvirlash, ifodalash, in’ikos jarayonlarini, ya’ni keng mazmundagi ma’naviyatni o‘z qarashlari, olg‘a surgan g‘oyalari va konsepsiyalari nuqtayi nazaridan qisman yoki nisbatan to‘laroq tadqiq etdilar. Bugungi mavjud turlichayondashuvlarga ularning hamda XIX asrning F.Nitsshe, F.Dostoevskiy kabi mutafakkirlarining qarashlari ancha ta’sir ko‘rsatgan.

Rang-barang modernistik, postmodernistik, multi kulturalizm, sivilizatsiya-lararo to‘qnashuv va h.k. yangi konsepsiyalar olg‘a surayotgan g‘oyalari, shu jumladan, bahsli g‘oyalari, ular qo‘llagan metodologiya, bir tomondan, hozirgi zamon jamiyatni ziddiyatlariga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, yuqorida qayd etilgan va etilmagan XX asr olimlarining qarashlari, metodlari ta’siri bilan bog‘liq. Masalan, fenomepologiya Gussel asos solgan. Fenomenologiyadan ekzistensializm ko‘p g‘oyalari va uslublarni qabul qilgan. Ekzistensializm, o‘z navbatida, ommaviy madaniyat va ommaviy jamiyat tanqidchisi Ortega-i-Gasset qarashlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Ortega-i-Gassetning esa XX asr ijtimoiy fikriga, kulturologiyasi, sotsiologiyasiga ta’siri ancha sezilarlidir.

G‘arb olimlarining konkret masalalarga umumiylisidentalidagi qisman to‘xtalamiz. Ma’lumki, zamonaviy jamiyat turli ijtimoiy guruqlar, tabaqalar, qatlamlardan iborat. Ularning eng yiriklari sinflar, eng kichiklari 2-3 maslakdosh kishini birlashtiruvchi guruhi bo‘linishi mumkin. Ularning bir-biridan farq qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy manfaatlari, qiziqishlari bor. O‘z ijtimoiy-sinfiy, guruhiy manfaatlarini anglash, ularga amaliy hissiy va mafkuraviy-

¹ O‘sha asar. Б- 298.

g‘oyaviy munosabat turli ijtimoiy guruhlar tuyg‘ulariga, ijtimoiy mayllariga, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ma’naviyatiga ancha kuchli ta’sir ko‘rsatadi, bir-biridan ularni farqlaydi. Muayyan voqeа, jarayon, holat har xil ijtimoiy guruhlarda o‘zgacha munosabat, kayfiyat uyg‘otishi mumkin. Masalan, qandaydir mahsulotga bozorda talab ortishi, mahsulot narxining o‘sishi ushbu mahsulot ishlab chiqaruvchilarning kayfiyatini ko‘tarsa, uni iste’mol qiluvchilarni xursand qilmaydi. Ularning narx ko‘tarilishiga beradigan bahosi bir xil bo‘lmaydi.

Odamlar ijtimoiy-tabaqaviy belgilardan tashqari, kasblariga, bilimlariga, madaniy saviyasiga, ijtimoiy faolligiga, mehnat va hayot tajribasiga, yoshiga, jinsiga va yana ko‘plab xususiyatlariga ko‘ra ham farqlanadi va ayni paytda turli toifalarga, guruhlarga birlashadi. Bir toifaga, guruhga mansub kishilarning tuyg‘u va hissiyotida, hayotga munosabatida, baholar va qadriyatlar tizimida, qiziqishlarida, istak va intilishlarida, ideallarida o‘xshashlik, o‘ziga xos mushtaraklik bor. Ularning ko‘ngil va aql dunyosi o‘zaro ancha-muncha yaqin. Masalan, yoshlarning qiziqishlari, zamonaviy madaniyatga, iste’mol buyumlariga, zamonaviy modaga munosabati keksa yoshdagilarnikidan keskin ajralib turadi, ammo o‘zaro ancha yaqin. Ayollarning voqeа va hodisalarga beradigan baholari erkaklarnikiga o‘xshamaydi.

Turli guruhlarning qarashlari va qadriyatlar, baholar tizimida farq ba’zi masalalarda ancha kuchli, hatto, qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Masalan, hokimiyat uchun siyosiy kurash masalalarida. Elitar (yuksak) madaniyat va ommaviy (tuban) madaniyat mahsulotlarini baholashda ham ba’zi guruhlar muno-sabati o‘zaro mos kelmasligi, hatto, qarama-qarshi bo‘lishi hayotda uchrab turadi. Masalan, opera, balet, klassik musiqa janrlari zamonaviy ommaviy musiqaning jaz, rok, pop-art, rep kabi janrlarining ba’zi ishqibozlari tomonidan eskirgan, qiziq emas, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan, deya bepisandlik bilan baholanishi, aksincha, klassik musiqaning ba’zi shinavandalari yuqorida qayd etilgan ommaviy musiqani hech qanday estetik qimmatga ega bo‘lмаган ritmik shovqinsuron, deya baholashlari mumkin. Odatda, aynan shunday har xil munosabatlar keng tarqalgan.

Bir davrda, bir jamiyatda yashayotganiga qaramasdan odamlar, guruhlar o‘rtasida nega bunday har xil munosabatlar, baholar keng tarqalgan? Chunki ularning psixologiyasi har xil, ularning ijtimoiy manfaatlari, qiziqishlari, maqsadlari, intilishlari har xil. Ba’zan farq unchalik katta va keskin ko‘rinish olmaydi, ba’zan, aksincha, keskin

ko‘rinish oladi, qarama-qarshilik, konflikt darajasiga ko‘tarilishi mumkin.

O‘zbek xalqi uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga milliy ma’naviyat va uning boyliklari g‘oyat qimmatlidir. O‘rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o‘zbeklarda qadrlangan, o‘zbekona axloq, odobga oid ma’naviy fazilatlar haqida ko‘plab qimmatli fikr, ma’lumotlar mavjuddir. Zahriddin Muxammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida o‘zbeklarga xos bo‘lgan ko‘plab ma’naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e’tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe’llik, shirinso‘zlik, mardlik, odillik, hayolilik, saxiylik, odamiylik, oqko‘ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir. Milliy ma’naviyatda – milliy his, tuyg‘u, ruhiyat ham muhim o‘rin egallaydi. Yoki Alisher Navoiyning barcha asarlari nafaqat milliy ma’naviyat masalalariga balki umumjahon xalqlarining ma’naviy olamini boyitishga xizmat qildi. Uning asarlaridagi inson ma’naviy olamini boyitishga qaratilgam ezgulik, millatparvarlik, elparvarvarlik, insonparvarlik, muhabbat, ishq, sadoqat, vafo,adolat, yaxshilik goyalari badiiy, majoziy uslubda o‘rganildi.

O‘rta Osiyoga kelgan German Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi” asarida Oltin O‘rdadagi o‘zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqa og‘ir vazminligini, oqko‘ngillilik va samimiyligini, kamgapligini, sadoqatliligini, dovyurakliligini, shinavandaliligin, oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligin, andisha bilan to‘g‘ri so‘zlashishini, ota-onaga hurmati va e’tiqodi kuchliligini, birinchi bo‘lib o‘tirmaslik va birinchi bo‘lib so‘zlashmasligini, mug‘ombirlikni bilmasligini, dinga e’tiqodi kuchli bo‘lib, bu jihatdan anatoliyali turklarga o‘xshashligini ko‘rsatgan.

Milliy ma’naviyatda – milliy manfaat ham muhim rol o‘ynaydi. Sobiq sho‘rolar davrida milliy manfaat yuzasidan harakat qilgan kishilarni, rahbarlar va yozuvchilarni “millatchi” deb badnom etganlar. Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma’naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an’analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma’naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining ming yillik ma’naviy boyliklarini o‘zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofat sifatida qoralandi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tabiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. Oldingi mavzularda ta'kidlaganimizdek "Tarbiya,-degan edi Abdulla Avloniy,- bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o'nglanish, tiklanish va rivojlanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik,poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

O'zbek xalqining milliy ma'naviyati ham faqat milliy asosda emas, shu bilan birga boshqa xalqlar, millatlar ya'ni umuminsoniy ma'naviyat va madaniyatlar ta'sirida o'sdi va rivojlandi. Unga boshqa xalqlar va millatlar ma'naviyati o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar ma'naviyati va madaniyati taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Endilikda ma'naviyatimiz va madaniyatimizning buyuk namoyondalari al- Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobi, al-Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, imom Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Navoiy va boshqa allomalarning ma'naviy merosi umuminsoniyat ma'naviy merosining ajralmas qismiga aylanib qolganligini dunyo tan olmoqda. Keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ko'rishimiz mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Kohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muxtasham haykallarni eslash joiz.

Mavzu bo'yicha xulosa:

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari ma'naviy tarbiyaning asosiy vositasi bo'libgina qolmay, balki vatanimiz, xalqimizning buyuk

taraqqiyoti uchun fidoyi, vatanparvar, o'zligini anglagan, eng asosiysi yuksak ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Asarning amaliy ahamiyati esa nafaqat bizning yoshlarimizni, balki dunyo yoshlarining ma'naviy olamini boyitishga va insonparvar shaxs sifatida tarbiyalashga, o'zligini anglashga xizmat qiladi. Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan holi holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada mazkur xalqning boshqa xalq va millatlarda aynan takrorlanmaydigan ma'naviy merosi, madaniy boyliklari, ko'hna tarixiy yodgorliklari eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Milliy ma'naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlarini o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'lllik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamllilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Hozirgi kunda yoshlarimizni ma'naviy barkamol, komil inson qilib tarbiyalashda yuqorida ta'kidlangan ikki muhim jihatni hisobga olgan holda ularni o'zaro uyg'un holda qo'shib olib borish lozim. Biri xalqimizning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, o'tmishdagi istibdod davrida unitilishga mahkum etilgan

ma’naviy merosimizni tiklashimiz, zamonamizga muvofiqlardan, bizga foyda beradiganlaridan oqilona foydalanishimiz kerak. Ikkinchisi esa, boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklar va ularning yutuqlaridan milliy xususiyatlarimiz va ruhiyatimizga muvofiq keladiganlarini ijodiy o‘zlashtirishimiz lozim. Mazkur ikki xususiyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, payvand qilish natijasida yoshlarimizni ma’naviy jihatdan barkamol qilib kamolga yetkazishning zamini yaratiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ma’naviyat-botiniy qudrat ekanligini izohlang?
2. “Millat” tushunchasi o‘z ichiga qamrab oluvchi elementlarning mohiyati Klaster usulida izohlang
3. Milliy ma’naviyatning asosiy xususiyatlari nirlardan iborat?
4. Shaxs ma’naviyatni shakllanishida miliy qadriyatlarning o‘rni.
5. Ma’naviyatga birilgan ta’rif va tasniflarning xilma-xilligini boisi nimada?
6. I.A.Karimovning «ma’naviyat» tushunchasiga berilgan ta’rifi, uning metodologik mohiyati.
7. Nima uchun Islom Karimov ma’naviyatni rivojlantirishga ustivor vazifa sifatida qaramoqda?
8. O‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosini haqida nimalarni bilasiz?
9. Jahon ilmi va o‘tmish ajdodlarimiz merosida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan o‘rganilishini “Intellektual jadval” orqali tahlil qiling.

9-mavzu: MA’NAVIYATNING FALSAFIY ASOSLARI

- 9.1. *Ma’naviyatning falsafiy-ontologik mazmuni. Ma’naviy borliq mohiyati.*
- 9.2. *Ong va ma’naviyat. Ma’naviy ong.*
- 9.3. *Ma’naviyatning gnoseologik, praksiologik jihatlari.*
- 9.4. *Ma’naviyatning aksiologik, axloqiy, estetik jihatlari.*
- 9.5. *Ma’naviyatning metodologik ahamiyati.*

9.1. Ma’naviyatning falsafiy-ontologik mazmuni

Ma’naviyat ijtimoiy hodisa sifatida inson dunyoqarashi, ongi, tafakkuri, amaliy faoliyati, o’zligini anglash mahsulidir. Shu jihatdan uning o’ziga xos falsafiy-ontologik mazmuniga ega ekanligini hisobga olishimiz kerak. Ma’naviyatning falsafiy-ontologik mazmuni deganda, birinchi navbatda, ma’naviyat kategoriyasining mohiyati tushuniladi. Borliq tushunchasi falsafaning fundamental kategoriyalari qatoriga kiradi. Borliq yunoncha ontos deyiladi. Logos – so’z, ta’limot. Ontologiya borliq to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotdir. Ontologianing asosiy masalasi narsa va hodisalarning, koinot, tabiat, jamiyatning, keng ma’noda borliqning mohiyati nimada, uning birlamchi substrati (qurilish ashyosi) nimadan tashkil topgan, degan masaladir. Aynan ushbu savolga bergen javobiga qarab faylasuflar materialistlar va idealistlarga bo‘lingan.

Borliq to‘g‘risidagi falsafiy tushuncha bilan uning turli sohalarda namoyon bo‘lish shakllari, ko‘rinishlari bilan bog‘liqdir. Ma’naviy borliq, o‘z aniqlovchisi ifodalab turganidek, moddiy borliq emas. Madaniyatni ham biz bir-biriga muqobil moddiy va ma’naviy madaniyatlarga, jamiyat hayotini ham moddiy va ma’naviy hayotga bo‘lamiz. Demak, ma’naviy borliq – bu, avvalo, jamiyatning ong, tafakkur, turli g‘oyalar, qadriyatlar, orzu-niyatlar, ulug‘ maqsadlar, ideallar, e’tiqod, dunyo-qarash, ilmiy va badiiy ijod, ta’lim-tarbiya, odob-axloq, ibodat va taqvo va sh.k.lar bilan bog‘liq hayotidir.

Ijtimoiy ong shakllariga muvofiq, unda predmetlashgan, amalda asar yoki faoliyatga aylangan axloqiy, huquqiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, diniy, falsafiy madaniyatlar va h.k. mayjud. Ma’naviy borliq, shunday qilib, «sof» ma’naviyat qatorida predmetlashgan ma’naviy madaniyatni o‘z ichiga oladi. Odamlar turmush kechirish jarayonida o‘zaro rang-barang aloqalarga, munosabatlarga kirishadilar. Bu jarayonda har bir

kishi o‘z qarashlari, e’tiqodiga, olgan tarbiyasiga mos harakat qiladi. Qandaydir fikrlarni, aloqalar, munosabatlarni, takliflarni ma’qullaydi, ijobjiy baholaydi yoki ma’qullamaydi. Chuqurroq o‘ylab qaralsa, insonning o‘zini tutishi, nima deyishi, xulqi, qiladigan ishlari uning erkin ixtiyoriy tanlashining yuzaga chiqishi ekan. Bu esa irodaning yuzaga chiqishidir. Iroda insonning, millatning erkin tanlashi, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olishi va unga erishishga ichki kuch-g‘ayratini, ruhiyatini, aql-idrokini qarata olish qobiliyati o‘laroq ma’naviy borliqning ong va ma’naviy madaniyatdan biroz farq qiladigan yana bir ko‘rinishidir. Ma’naviy muhit ham ma’naviy borliqning ajralmas qismidir. Avval bu haqda ancha gapirilgan edi.

Lekin ma’naviy borliq tushunchasi ma’naviyat bilan cheklanmaydi. U yana tarbiya tizimini – bog‘chalar, maktablar, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, masjidlar, ijodiy uyushmalar, havaskorlik to‘garaklari, ilmiy tadqiqot tizimi – akademiyalar, Ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy laboratoriyalar va sh.k., urf-odatlar, umuman, odamlarning mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa munosabatlarini va ularni tartibga soluvchi, tashkillashtiruvchi davlat va jamiyat institutlarini birlashtiradi. Chunki ular bevosita yoki bilvosita ma’naviy faoliyat bilan ham shug‘ullanadi.

Jamiyat faqat odob-axloqli, qonunlarga, tartib-qoidalarga qat’iy rioya etadigan kishilardangina iborat emas. Afsuski, xoinlik, qo‘rroqlik, jinoyatchilik, o‘g‘rilik, axloqsizlik, zo‘ravonlik va boshqa salbiy holatlar, ya’ni ma’naviyatsizlik holatlari bor. Bular hammasi ma’naviy borliqning ijobjiy yoki salbiy unsurlaridir. Jamiyat ularga qarshi kurash olib boradigan, adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga soladigan tuzilmalarni yaratgan, ular faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini ishlab chiqqan. Ular ham ma’naviy-ijtimoiy borliqning bir bo‘lagidir. Sud-huquq tizimi faqat jazolovchi emas, tarbiyalovchi institut hamdir. Moddiy borliqqa kirmaydigan barcha ijobjiy va salbiy hodisalar ma’naviy borliq tushunchasini tashkil etadi.

Ma’naviy borliq ijtimoiy hodisadir. Ma’naviyat tabiatda mavjud bo‘lmaganidek, ma’naviy borliq ham tabiatda yo‘q. Mutlaq G‘oya, Mutlaq Ruh, Jahoni Aql kabi tushunchalar obyektiv idealizmga xos, aslida Xudo, ilohiy yaratuvchi degan tushunchalardan mohiyatan farq qilmaydi. Xudo bor-yo‘qligini ilmiy jihatdan tasdiqlab yoki inkor qilib bo‘lmaydi. Unga ishonish yoki ishonmaslik mumkin, xolos. Koinotda ma’naviy borliq mavjudligi yoki mavjud emasligi ma’lum emas.

Har qanday ijtimoiy hodisa kabi ma’naviyat inson aql-zakovati va faoliyatining mahsulidir. Ma’naviyatni, ma’naviy borliqni insonning aqli, hissiyoti, buniyodkorlik qobiliyati, iste’dodi yaratadi. Ijtimoiylasha boshlagan, ilk urug‘-jamoalarda yashagan inson ma’naviy borliqning ilk, jo‘n shaklini yaratgan. Unda ong, tafakkur vujudga kelgan. Shu sababdan u oldiga ongli maqsad qo‘ya olgan va maqsadiga yetishish uchun aql-zakovatini, kuch-g‘ayratini safarbar etgan, ya’ni u aqlli mavjudot bo‘lish qatorida irodali mavjudot bo‘lgan. Ma’naviy borliq asosida inson aql-zakovati va irodasi turadi, deya xulosa qilish mumkin. Bu birinchi xulosadir.

Jamiyatda asta-sekin mulkiy notenglik, u bilan birga huquq, qonun qabul qiluvchi, amalga oshiruvchi siyosiy institut – davlat paydo bo‘ldi. Jamiyat dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, odamlar o‘rtasida munosabatlar, ularni tartibga soluvchi me’yorlar tizimi o‘zgardi. Ma’naviy jarayon, ma’naviy borliq rivojlanishi asosida, shunday qilib, jamiyat bilimlari, dunyoqarashi, ongi, qadriyatlar tizimi – me’yorlar, qoidalar, ideallar o‘zgarishi, yuksalishi turadi. Ular odamlarning o‘zaro munosabatlarini, jumladan, mulkiy va iqtisodiy munosabatlarini ham belgilaydi. O‘z navbatida mulkiy va iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar ma’naviy jarayonga, ma’naviy borliqqa ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan qaysi biri birlamchi va belgilovchi degan savolga aniq javob berish qiyin. Ilmfanda ushbu masalada ham bir-birini to‘liq inkor etuvchi ikki – materialistik va idealistik qarash qaror topgan. Eng izchil va ilmiy materialist K.Marks ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni, iqtisodiy bazis mafkuraviy ustqurmani belgilaydi desa-da, inson yaratuvchiligi va mehnati asosida g‘oya, ong yotishini, inson yaratadigan har qanday mahsulotni avval miyasida loyihalashini, qanday yaratishni (ishlab chiqarishni) avval hayolan tasavvur etishini ta’kidlaydi. Uning baribir materializmga ustunlik berishi moddiy ehtiyojlarni ma’naviy ehtiyojlarga nisbatan birlamchi deb hisoblashi oqibatidir. K.Marks inson san’at, ilm-fan, siyosat va sh.k. bilan shug‘ullanishi uchun avval qorni to‘q, usti but, xavfsizligi ta’minlan-gan bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi. Ushbu ehtiyojlar esa, birinchi navbatda, moddiy ehtiyojlardir, ular iqtisodiy va moddiy kuch orqali qondiriladi. F.Engels ham inson ongi shakllanishida mehnatga, moddiy ehtiyojlar qondirilishiga birlamchilikni bersa-da, mehnatning o‘zi oldiga ongli maqsad qo‘yib, tabiatni qayta ishslash ekaniga urg‘u beradi. Inson anotomiyasining o‘zgarishi (qo‘l va miya funksiyalarining rivojlanishi va shu kabi) ham ongni mehnat faoliyati rivojlanishi, yangi-yangi ehtiyojlarning va maqsadlarning,

ijtimoiy mo‘ljallarning paydo bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Marks va Engels izdoshlari ulardek nozik, dialektik fikr yuritolmas edilar. Natijada, ular salaflarining qarashlarini biroz soxtalashtirdilar, ba’zi hollarda vulgarashtirdilar. Ushbu masalada dialektik yondashuv xatoning oldini olishda qo‘l keladi. Bizning o‘rta asrlarda yashagan buyuk mutafakkirlarimiz bu masalada, asosan, dualistik qarashlar tarafdoi bo‘lganlar.

Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi oqibatida davlat, huquq qatorida din, cherkov, adabiyot, san’at, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat jamiyatning alohida, nisbatan mustaqil institutiga aylangan. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida moddiy ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot va san’at rivojlanish bosqichlari, davrlari, siyosiy boshqaruv va hokimiyatning tarixiy takomillashuvi, shakl va vositalarning o‘zgarishi ma’naviyatning retrospektiv iqtisodiy, siyosiy, inellektual, e’tiqodiy asoslarini tashkil etadi.

9.2. Ong va ma’naviyat. Ma’naviy ong mohiyati

Ontologik jihatdan o‘zlikni anglash yo‘q joyda ma’naviyat ham yo‘q. Insonning o‘zligini anglashi ma’naviyatning asosiy unsurlaridan biridir, garchi o‘zlikni anglash inson ongingin takomillashgan jarayoni mahsuli. Demak, o‘zlikni anglash inson ma’naviy ongi ma’sulidir.

Ong to‘laligicha ma’naviyatga kirmaydi, Chunki unda o‘zgaruvchan, muvaqqat, tasodifiy holatlar ko‘p uchraydi. Ma’naviyat esa bir zumda o‘zgarib qolmaydi. U chuqur tarixiy, madaniy ildizlarga ega. To‘g‘ri, unga ham sobit, barqaror tuyg‘ular, or-nomus, milliy g‘urur va iftixorga oid his-hayajon va ehtiroslar ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ular o‘tkinchi emas. Ongning yuqori darajasi tafakkurga oid unsurlarning ham vaqt sinovidan o‘tgan ko‘pchilik tomonidan tan olingan barqaror, sobitlari (to‘g‘ri yoki xatoligidan qat’iy nazar) ma’naviyatni tashkil etadi. Demak, ma’naviyat ongning mohiyatli mazmuni yoki ongdagi mohiyatlilikdir. Ushbu jihatdan ma’naviyat ong kabi ideal hodisadir, ammo ilohiy hodisa emas.

Ideal hodisa sifatida ma’naviyatda, eng avvalo, insoniy histuyg‘ular, kechinmalar, aniq obrazli tasavvurlar ajralib turadi. Uyat, ibo, hayo, halollik kabi oddiy tuyg‘ulardan to ezgulik, go‘zallik,adolat, vijdon azobi va amri, zavq-shavq, vatanparvarlik, fidoyilik kabi murakkab tuyg‘ulargacha inson ma’naviy ongingin birlamchi darajasini tashkil etadi. Ma’naviy ongning ikkinchi – yuqori darajasiga

tushunchalar, g‘oyalar, baholar, did, qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar, ideal kiradi. Ular tuyg‘ular kabi axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy qarashlarni ifodalaydi. Faqat tuyg‘ulardan farqli, insonning hissiy munosabatlarini emas, balki aqliy-intellektual munosabatini ifodalaydi. Ular jamiyatning qadriyatlar tizimini tashkil etadi.

Inson o‘z his-tuyg‘ulari to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritib, uni anglab olishga, baholashga intilsa, u tushunchalar olamiga o‘tadi. Ezgulik va go‘zallik ham tuyg‘u sifatida, ham tushuncha va ideal sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchi holatda inson o‘ylab o‘tirmaydi, obyekt unda bevosita his-hayajon uyg‘otadi. Ikkinci holatda u haqda mulohaza yuritadi, tahlil qiladi. Masalan, kimningdir xulqidan, qilgan ishidan xafa bo‘lgan, jahli chiqqan kishidan sababini so‘rasangiz, u o‘sha kishi xatti-harakatining qaysi jihatlari axloqiy yoki boshqa ijtimoiy me’yorlarga mos kelmas-ligini, qanday xatoga yo‘l qo‘yanini yoki bilib turib g‘irromlik, surbetlik qilganini aytadi.

Materialistik yondashuvga binoan: «Ongda mustaqil mavjudlik yo‘q. U faqat miyaning obyektga nisbatan funksiyasi sifatidagina mavjud. Ongning o‘ziga xosligi shundaki, u qandaydir subyektiv, ideal narsadir. U o‘zining moddiy substratlariga - miya va in’ikos obyektiga – munosabatidan tashqari mustaqil mavjudlikka ega emas».

Ma’naviyat esa masalaga hatto materialistik yondashganda ham, mustaqil xulq-atvorda, faoliyatda, ijodda predmetlashgan, adabiyot, san’at asarlariga, ilmiy kashfiyotlarga, urf-odatlarga, marosimlarga, an’analarga aylangan madaniy meros-da mavjudlikka egadir. Ma’naviyat, avvalo, madaniyat orqali mustaqil mavjudligini namoyon etadi. U, shuningdek, iroda (shaxs va millat irodasi), ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muhitni qamrab oladi.

Ma’naviyat jamiyatda qaror topgan yetakchi g‘oyalarga hamda kishilarning dunyoqarashiga, e’tiqodiga bog‘liq. Haqiqatan, ma’naviyat ongdagi tasodifiy, ikkinchi darajali, vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin emas. U barqaror, mustahkam e’tiqodga aylangan, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, jamiyatdagi munosabat-larni va inson xatti-harakatini tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. E’tiqodsiz ma’naviyat bo‘lmaydi. E’tiqod ma’naviyatning eng asosiy ustunlaridan biridir. U ma’naviyatga mukammallik va uyg‘unlik bag‘ishlaydi. Uning turli tarkibiy qismlarini o‘zaro ichki jihatdan bog‘laydi va ma’naviyatni amaliyotga namoyon qiladi. E’tiqod ma’naviyatning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan biridir.

Ma’naviy ong ikki darajali hodisa dedik. Birlamchi daraja – uyat, hayo, minnatdorlik, mehr, qahr-g‘azab, xursandlik, g‘am-qayg‘u, oshuftalik, muhabbat, do‘stlik, vijdon, go‘zallik, zavq-shavq va shu kabi tuyg‘ular, kechinmalar yoki ma’naviyatning poydevorini tashkil etuvchi ko‘ngil dunyosidir. Uni inson mohiyati yoki ruhoniyat, yoki qalb, dil ham deydilar. Lekin inson faqat tuyg‘ulari bilangina yashamaydi. U ko‘rgan, boshdan kechirganlarini o‘zicha tahlil qiladi, ularga baho beradi, tushunchalar va nazariy qarashlar tizimi orqali umumlashtiradi, maqsad-muddaolari, jamiyat qadriyatları va talablari bilan bog‘laydi. Tushunchalar, baholar, qarashlar, ideallar insonning aqliy faoliyati mahsullaridir. Uni aql, fikrlar dunyosi (tafakkur) deb ataydilar. Shunday qilib, ma’naviy ong aql-tafakkur dunyosidan - ruhoniyat va o‘zlikni anglashning takomillashgan mahsulidir. Aql va ruhoniyatni bir-biridan ajratish, qarama-qarshi qo‘yish xatodir. Chunki ular, magnit qutblaridek, qarama-qarshiliklar birligidir. Bir qutbli magnit bo‘lmaganidek, faqat tuyg‘ulardan (ko‘ngildan, ruhoniyatdan) yoki aqldan tashkil topgan, turli nazariy fikrlardan iborat hodisa ma’naviyat bo‘lmaydi.

9.3. Ma’naviyatning gnoseologik asoslari, praksiologik jihatlari

Ma’naviyatning rivojlanishi bevosita jamiyat tomonidan olam, tabiat, ijtimoiy borliq, inson, ularning turli-tuman o‘zaro aloqalarini bilish, orttirgan, o‘zlashtirgan bilimlarga tayanib jamiyat hayotini, muhitini, odamlarning yaratuvchilik salohiyatini yuksaltirish bilan bog‘liq. Insonning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan me’yorlarni yaratishi hayotiy tajribasi davomida orttirgan bilimlariga bog‘liq. Bilish jarayoni ma’naviyatning gnoseologik asoslarini tashkil etadi.

Ma’naviyatni bus-butun tizim, sistema sifatida olsak, ijtimoiy ong shakllari uning qismlari hisoblanadi. Tabiiyki, bus-butunlik rivojlanishi uning qismlari rivojlanishiga bog‘liq. Masalan, axloqiy ong va axloqiy madaniyat yuksalsa, yangi g‘oyalar, me’yorlar bilan boyisa, u butun ma’naviyat mazmuniga ijobiy, barakali ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy ong va axloqiy madaniyat qashshoqlansa, buzg‘unchi g‘oyalar unda ko‘paysa, ma’naviyat ham ma’lum darajada yo‘qotishlarga duch keladi. Xuddi shunday ijtimoiy ongning boshqa har bir shakli rivojlanishi yoki turg‘unligi, inqirozi butun ma’naviyat tizimiga ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Ijtimoiy ong shakllarining rivojlanishi, avvalo, ushbu sohada jamiyatning amaliy va nazariy bilimlarining o'sishi, yangi bilimlar asosida yangi g'oyalar, me'yorlar, yangicha ijtimoiy munosabatlar shakllanishi, eskilarining takomillashishi bilan bog'liq. Bilishning o'zi qiyin, mashaqqatli va ziddiyatli jarayon. U bir chiziqli va uzlusiz emas. Ayniqsa, narsa va hodisalarning mohiyatini bilish hech qachon silliq kechmaydi. Mazkur jarayon bilmaslikdan bilishga, oddiy, jo'n bilimlardan murakkab bilimlarga, narsa va hodisalarning voqeligidan (namoyon bo'lishidan) mohiyatini bilishga tomon rivojlaiadi.

Inson, jamiyat bilishdan amaliyotga, yaratuvchilikka o'tadi. Bilish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar uchraydi, ko'plab xatolarga yo'l qo'yiladi. Bir-biriga tamomila zid, bir birini to'liq inkor qiluvchi yoxud mos kelmaydigan xulosalar, qarashlar, nazariyalar vujudga keladi. Ba'zi bir xato xulosalar, bilimlar, noto'g'ri tasavvurlar asrlar davomida ijtimoiy ongda yashashi mumkin.

Haqqoniy bilimlar qatorida noto'g'ri, xato bilimlar, bilish jarayonining yutuqlari qatorida kamchiliklari ham ma'naviyatda o'z aksini topadi. Bu haqda faylasuf A.Erkayev: "*Haqqoniy bilimlar asl qadriyatlarni yaratsa, noto'g'ri, xato bilimlar soxta qadriyatlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi.*"¹ - deb ta'kidlaydi.

Ma'naviyatning bilish jarayoni bilan bog'liqligi uning yuksalishida yorqin ko'zga tashlanadi. Inson dunyoqarashi, ijtimoiy ong shakllari turli xil xurofat va bid'atlardan, urf-odatlar qoloq unsurlar va illatlardan xalos bo'lib boraveradi. Ammo to'liq qutilolmaydi. Cunki ularning eskilari o'rniga yangilari paydo bo'lishi qatorida inson keksayishi davomida radikal fikrlashdan asta-sekin konservativ va dogmatik fikrlashga o'tadi. Ba'zan turli tabiiy ofatlar, ijtimoiyi larzalar (inqiloblar, inqirozlar, urushlar, ocharchilik va epidemiyalar va h-k.) xurofot va bid'atni jonlantiradi, oziqlantiradi. Lekin jamiyat taraqqiyoti jarayonida bilish ma'naviyatni umuman yuksaltiradi. Insonpavarlik, tenghuquqlilik, ijtimoiy adolat, tolerantlik, xurfikrlik, vijdon erkinligi, tafakkur erkinligi kabi g'oyalar ijtimoiy-gumanitar fanlar, adabiyot, san'at rivojlanishi jarayonida, jamiyatni, insonni ilmiy va badiiy bilish jarayonida vujudga keladi va tarqaladi. Ma'naviyatdagi mavjud ba'zi bir salbiy holatlar, biryoqlama qarashlar, ayrim zamonaviy soxta qadriyatlар ham, afsuski, bilishdagi kamchiliklarga borib tarqaladi.

¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. – Тошкент, 2-китоб, 2018. – 57- бет.

Bilish asosan tafakkur bilan bog'liq. Inson sezgi organlari – ko'rish, eshitish, ta'm, hid, teri orqali sezish organlari bergan axborotni aqli yordamida tahlil qiladi, umumlashtiradi. Bilish shakllari tafakkur shakllariga va tarziga mos bo'ladi. Ratsional va irratsional tafakkur tegishlicha ratsional va irratsional bilish shakllarini yuzaga keltiradi. Xuddi shunday metafizik va dialektik, dogmatik, relyativistik, eklektik, dunyoviy va diniy, asotiriy, konkret obrazli, badiiy va ilmiy tafakkur shakllari va tarzlari mos ravishda bilishning dogmatik va relyavistik, eklektik, dunyoviy va diniy, asotiriy, badiiy va ilmiy shakllarini yuzaga keltiradi.

Tafakkur tarzi voqelikni idrok etish va unga munosabatga ko'ra, ratsional (aqlga, mantiqqa asoslangan) va irratsional (aql va mantiq doirasidan chiqadigan, ularga zid yoki botiniy ishonchga, g'ayrishuuriy, mistik omillarga tayanadigan) kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Bundan tashqari, tafakkur tarzi, aniqrog'i, uslubi, voqelikni tahlil qilishiga va umumlashtirishiga ko'ra, metafizik yoki dialektik bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tafakkurning gnoseologik asoslari masalasi oqibat natijada tafakkur tarzi va shakllariga borib taqaladi.

Nazariy tafakkur haqida gap ketganda, ratsional tafakkur ko'proq G'arbgaga, irratsional tafakkur ko'proq Sharqqa xos degan qarashlar ancha keng tarqalgan. Aslini olganda, ratsional va irratsional tafakkur tarzi sharqiy va g'arbiy tamaddunlar, madaniyatlar mohiyatidan, geografik omillar yoki dinlar xususiyatidan kelib chiqmaydi. E'tirof etilgan omillarning barchasi tafakkurga ma'lum darajadata'sir ko'rsatishi mumkin, xolos. Yevropa mamlakatlarida, VI-VII asrlarni qo'ya turaylik, IX-XIV asr oxirigacha, ya'ni Uyg'onish davri (Renessans)gacha irratsional tafakkur hukmron edi.

Aksincha, IX-XII asrlarda islom dunyosida ilmiy tafakkurda ratsionalizm ustun edi. Hatto islom ilohiyoti – kalom ratsionalizmga tayanar edi. Islom olamida Chingizxon istilosidan keyin ma'naviyat va ratsional tafakkurda chuqur inqiroz boshlandi. Lekin shunda ham XV asr o'rtalarigacha ratsional tafakkur ta'siri irratsional va mistik tafakkurdan kam emas edi.

Tafakkurning irratsional mazmun kasb etishiga juda ko'p boshqa siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy begonalashuv, zulm, ijtimoiy qo'rquv, ijtimoiy turg'unlik, hukmron mafkuraning mavjudligi, axborot xuruji va ma'naviy tahdidlar, ijtimoiy adolatning buzilishi, mumtoz qadriyatlarning deformatsiyaga uchrashi, odamlarning

ijtimoiy ideallarga, har xil balandnarvoz g‘oyalarga ishonmay qo‘ygani va shu kabi omillar irratsionalizmni oziqlantiradi.

Ratsionalizmning rivojlanishida iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar sababli amaliy tafakkurning mazmunan va shaklan boyishi katta rol o‘ynagan. Amaliy tafakkur qadim zamonlardanoq insonning yashash uchun kurash zaruratidan kelib chiqib rivojlangan. Avvalo, mehnat qurollarini yasash va takomillashtirish, ov qilish, oziq-ovqat uchun yaroqli o‘simliklarni topish, o‘zini himoya qilish qadimgi ajdodlarimizdan aql bilan ish tutishni talab qilgan. Inson taraqqiyotining turli bosqichlarida amaliy tafakkurda ratsional unsurlar ko‘payib boravergan.

Tafakkurda ratsionalizmning uzil-kesil ustunlik qilishi, oxir-oqibatda, industrial jamiyatning vujudga kelishi bilan bog‘liq. Zavod-fabrikalarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning obyektiv usullariga, uni amalga oshiradigan mutaxassislarga – oqilona fikrlaydigan injenerlar, texniklar, hisobchibuxgalterlar, iqtisodchilar, malakali ishchilar va sh.k.larga ehtiyoj tug‘dirdi. Ilm dargohlarning vujudga kelishi, ayniqsa, fundamental nazariy va amaliy fanlarning yuksalishi ratsional tafakkurni yanada rivojlantirdi. Endi tafakkur mazmuniga baho berganda, uiing nafaqat ratsional yoki irratsionalligi, shuningdek, yanada yuksakroq mezonlar qo‘llanib, uning ilmiyligi yoki noilmiyligi qayd etila boshladi.

Ilmiy tafakkur shunchaki ratsional tafakkur bo‘lib qolmasdan, izchil mantiqiylikka, xolis ilmiy dalillarga asoslangan teran tafakkurdir. Noilmiy tafakkur esa, mantiq va ratsionallikka asoslanganda ham, dalillari xatolaridan xoli bo‘lmagan, oxirigacha tekshirilmagan, yoki noto‘g‘ri usullarga asoslangan tafakkurdir. Irratsional tafakkur, o‘z-o‘zidan ayonki, noilmiy tafakkurning bir ko‘rinishidir.

Ilmiy tafakkurda, umuman ilm-fanda, intuitiv kashfiyotlar, evristik tafakkur uchrab turadi. Lekin ichki sezgi va topag‘onlik tafakkuri, ma’lum darajada transsedentlik mazmuniga ega bo‘lsa-da, aslida insonning avval olgan bilimlariga, qiziqishlariga, intilishlariga bog‘liq bo‘lib, g‘ayritabiyy hodisa emas. Nyuton butun olam tortilish qonunini olma tushgani yoki Mendeleev davriy sistemasini tush ko‘rgani uchun kashf etmagan. Ular ilmiy faoliyati davomida ushbu masalalar bilan shug‘ullanib kelgan. Olma tushishi va tush ko‘rishi turtki bo‘lgan, xolos.

Biror hodisaning, predmetning xossalari tahlil qilayotganda, o‘rganayot-ganda, yangi xossalari izlab, kashfiyotlarga, amaliy ixtiolar qilishga intilayot-ganda, inson ko‘proq mavhum tushunchalar,

g‘oyalar yordamida mulohaza yuritadi. Konkret-obrazli tafakkurga adabiyot va san’at, mavhum tushunchaviy tafakkurga esa fan misol bo‘la oladi. Lekin har ikkala tafakkur tarzi nafaqat badiiy yoki ilmiy mulohazalarda va asarlarda, shuningdek, inson faoliyatining boshqa ko‘rinishlarida ham uchraydi. Tafakkur yordamida inson yangi bilimlar yaratadi. Yangi bilimlarning mazmuni tafakkur uslubiga, xususiyati va tamoyillariga bog‘liq. Ratsional tafakkur ratsional bilimlarni, diniy tafakkur diniy bilimlarni, ilmiy tafakkur ilmiy bilimlarni yaratadi va h.k.

Bugungi kunda ayon bo‘lmoqdaki, jamiyat insoniyat taraqqiyoti tafakkur tarziga va uning ma’naviyat bilan uzviy bog‘liqliliga tayanadi. Ma’naviyat mazmuni, ilg‘or g‘oyalarga yo‘g‘rilishi jamiyatda vujudga kelgan muhitga va tafakkur tarziga bevosita bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy tuzum mazmuni, tamoyillari va tafakkur tarzi ma’naviyatning gnoseologik asosini tashkil qiladi. Tafakkur erkinligini va ma’naviy ong yuksalishini ta’minalash uchun yangicha dunyoqarash va fikrlash tarzi shakllanishi zarur. Shu o‘rinda I.Karimovning bugungi kun vaziyatidan kelib chiqib, “Yangicha fikrlash va yashash davr talabidir” degan edi. Chunki tafakkur ijtimoiy borliqning mexanik in’ikosi emas va o‘z-o‘zidan borliq tomonidan belgilanib, vujudga kelib qolmaydi. Bir tomonidan, unga ijodiy fantaziya va transsidentlik xos. Ikkinchini tomonidan, u inersiya kuchiga ega. Shu bois an’anaviy, avtoritar va qoloq konservativ tafakkur unsurlari demokratik tamoyillar o‘rnatalgan erkin jamiyatlarda ham avom ongida sezilarli o‘rin egallashi mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy borliq o‘zgarishi bilan unga mutanosib ravishda ijtimoiy ong, tafakkur birdaniga o‘zgarib qolmaydi.

O‘zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishga intilishi bizdan har qanday ilmiy-texnikaviy, texnologik, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy yangiliklarga, yutuqlarga ochiq bo‘lgan jamiyat qurishni, ijtimoiy ongni, ma’naviyatning gnoseologik asosi – erkin, liberal tafakkurni tarbiyalashni talab qiladi.

Ma’naviyatning gnoseologik asoslari masalasi o‘zining ilmiy-metodologik jihatidan tashqari, aniq amaliy metodologik yo‘nalishiga ega. Chunki O‘zbekistonda yangi jamiyat, adolatparvar, huquqiy, demokratik jamiyat barpo etish ijtimoiy ongni, odamlarning olamga, insonga va jamiyatga munosabatini o‘zgartirishni taqozo etadi.

Ma’naviyatning praksiologik jihatlari ham mavjud. Praksiologiya – praktika (amaliyat), harakatchanlik va logos (so‘z, ta’limot) tushunchalaridan yasalgan. Praksiologiya jamiyatshunoslikting o‘ziga xos sohasi bo‘lib, u turli amallarning (harakatlarning) yoki ular

yig‘indisining, tizimining uslublari (metodikasi) samaradorligini aniqlash nuqtayi nazardan o‘rganadi. Boshqacha aytganda, praksiologiya amaliy harakat usullari samaradorligi to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Ma’naviyat jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga u yoki bu darajada amaliy ta’sir ko‘rsatishi tufayli praksiologik mazmun kasb etadi. Inson o‘z dunyoqarashi, e’tiqodi, qadriyatlari, ideallaridan kelib chiqib butun olamga, jamiyatga, hayotga, boshqa kishilarga munosabatini belgilaydi. Tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni, boshqalarning va o‘zining xulq-atvorini, faoliyatini baholaydi, hayotiy rejalar tuzadi, ularni amalga oshirishga intiladi, o‘z hayotini, faoliyatini oldiga qo‘ygan maqsadlariga muvofiq quradi. Ushbu holatda ma’naviyatning praksiologik mazmuni yuzaga chiqadi.

Ma’naviyatning praksiologik mazmuni deganda, birinchi navbatda, uning amaliyot bilan bog‘liqligi, oxir-oqibat amaliyotda (ta’lim-tarbiyada, xulq-atvorda, faoliyatda, yaratuvchanlikda va h.k.) yuzaga chiqishi, predmetlashishi, ma’naviyat-ning qaysi omillari qay darajada amaliyotga samaraliroq ta’sir ko‘rsatishi, va, nihoyat, ma’naviyatning inson va jamiyat hayotida muayyan vazifalarni bajarishi nazarda tutiladi. Ma’naviyatning praksiologik mazmuni tushunchasidan ma’naviyatga praksiologik yondashuv tushunchasini farqlash lozim. Keyingi tushuncha ma’naviyatga ilmiy-nazariy yondashuvni emas, ilmiy-amaliy yondashuvni anglatadi. Ya’ni ma’naviyatga jamiyat hayotining muhim amaliy tomoni hamda ma’naviyatga insonning, jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi, inson va jamiyatni rivojlantiruvchi omil sifatida qarashini bildiradi.

Ma’naviyatning praksiologik yondashuv, birinchi navbatda, ma’naviy tarbiyada, umuman, tarbiyaning barcha yo‘nalishlari va ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Tarbiya to‘lig‘icha ma’naviyatga kiradi: estetik tarbiya, huquqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, kasbga o‘rgatish, mehnat tarbiyasining turli ko‘rinishlari, jismoniy tarbiya ham ma’naviyatga taalluqli, iqtisodga yoki boshqa bir sohaga emas. Chunki ular inson ongiga, tafakkuriga ta’sir qilish, bilimini oshirish, irodasini chiniqtirish, yaratuvchilik salohiyatini ko‘tarish orqali inson shaxsini shakllantiradi. Iqtisodiy yoki kasbiy tarbiya olgan kishining o‘z bilimlari va ko‘nikmalaridan amalda foydalanishi – bu boshqa gap. Chunki uni moddiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishg‘a yo‘naltiradi. Ta’lim-tarbiya jarayoni esa, ya’ni bilim berish, mehnat, ishlab chiqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatga ma’lum munosabatni shakllantirish – bu ma’naviyat, ma’naviyatni amaliyotda qo‘llash. Boshqacha aytganda,

ma’naviyat praksiologik xarakterning namoyon bo‘lishidir. Ma’lumki, insonning har qanday faoliyati aniq maqsadni ko‘zlaydi. Inson avval miyasida qiladigan ishining rejasini tuzadi, qanday natijaga erishishini taxmin qiladi, tafakkur qiladi. Maqsadni belgilash, uni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlash uning ma’naviyatiga, imon-e’tiqodiga, bilimlari va foydalanadigan qadriyatlariga, me’yorlari va tamoyillariga bog‘liq. Kimsidir maqsadiga yetishish uchun hech narsadan toymaydi, nomaqbul, boshqalarga yoki jamiyatga zarar yetkazuvchi usullarni qo‘llaydi. Ezgulik, rahm-shafqat, insof va diyonatni unutadi yoki ularni o‘z foydasidan kelib chiqib, biryoqlama talqin qiladi. Kimsidir, aksincha, o‘z oldiga ezgu maqsadlarni qo‘yadi. Ularni amalga oshirishning boshqalarga, jamiyatga zarar yetkazmaydigan, hatto hammaga foyda keltiradigan maqbul usullarini va vositalarini tanlaydi. Gap bu yerda faqat buyuk, ulug‘vor maqsadlar va ishlar haqida ketmayapti. Aytiganchalar inson faoliyatining hamma turlariga taalluqli. Kimsidir savdosotiqa halollikni ustun qo‘ysa, kimsidir xaridor haqini tosh-tarozidan urish yoki mahsulotini ortiqcha narxlash, hisob-kitobda «o‘z foydasiga adashish»ni o‘ziga ep biladi. Shunday qilib, ma’naviyatning paksiologik mazmuni maqsad, usul va vosita tanlashda ham namoyon bo‘ladi.

Maqsadning o‘zi ezgulikdan yiroq yoki havoyi, nohayotiy, xayolparastlikka, noto‘g‘ri qarashlarga, nazariyalarga asoslansa, unga insonparvar, maqbul usullar, vositalar yordamida erishib bo‘lmaydi. Maqsad vositani oqlamasligi yoki havoyi, utopistik maqsadga hech qanday vositalar, qurbanlar bilan ham erishib bo‘lmasligini SSSR davlati va jamiyati taqdiri (boshqa sotsialistik mamlakatlar taqdiri ham) ko‘rsatdi. Sotsializm g‘oyasi aslida ijtimoiy adolat va tenglikni targ‘ib qilar edi. U adolat va ijtimoiy tenglikni qaror toptiruvchi, har tomonlama uyg‘un rivojlangan erkin insonni tarbiyalovchi jamiyat qurishni maqsad qilib qo‘ygan edi. «Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-soadati uchun» tamoyili sotsializmning asosiy shiori edi. Haqiqatan, sotsializm bu borada ulkan ishlarni amalga oshirdi. Xalq yoppasiga savodxon bo‘ldi, xurofot va bid‘atning aksariyatidan qutildi. Siyosiy-mafkuraviy sohalarda ancha tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgandi. Madaniy savyasi keskin o‘sdi. Amalda yangi tipdagisi inson shakllandi. Bundan ko‘z yumish yaramaydi. Lekin hayot sotsialistik g‘oya ko‘p jihatdan havoyi, utopik ekanini ko‘rsatdi.

Sotsializmni qurish usullari va vositalari esa zo‘ravonlikka, insonlar, millatlar ehtiyojlarini, manfaatlarini, fikrlari va qarashlarini pisand qilmaslikka, g‘oyaviy murosasizlikka, mutaassiblikka (sinfiylik

va partiyaviylikka) asoslandi. Natijada, sotsializm qurish maqsadida millionlab odamlar qurban qilindi, mol-mulkidan, erkinligidan ayrıldı, qatag‘onga uchradi, mustabidlikka qaram bo‘ldi. Odamlarning kelib chiqishi, dindorligi, dunyoqarashining o‘zgachaligi ularni ta’qib va qatag‘on qilishga sabab bo‘ldi. Sotsializm – ezgu maqsad – sarobga aylandi. Sotsialistik amaliyot ikkiyuzlamachilik axloqini tug‘dirdi.¹ Dohiyalar shaxsiga sig‘inish, madhiyabozlik, so‘zda, tilda vatanparvarlik, fidoiylik, ichida loqaydlik, tuzumga nisbatan tanqidiy munosabat, maishiy hayotda, ishlab chiqarishda tashmachilik, o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, qo‘shib yozishlar va h.k. buni isbotlab turibdi. Sotsializmda ijtimoiy hayot soxtalikka va odamlar ongiga singdirilgan qo‘rquvga tayanar edi. Ma’naviyat va amaliyot munosabatlari ancha murakkab va ziddiyatli. Bruno Yasenskiy shunday yozgan: «Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jumla va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

Demak, shartli ravishda olsak, uch toifa odamda ma’naviyat va amaliyot turlicha namoyon bo‘ladi. Lekin odamlar uch toifaga – do‘st, dushman va befarqlargagina bo‘linmaydi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda insoniy va ijtimoiy munosabatlar o‘ta xilma-xillashib ketgan. Endi ko‘p hollarda insoniy aloqalarda ham, davlatlarning xalqaro munosabatlarida ham pragmatik yondashuv, pragmatik siyosat ustunlik qilmoqda. Endi inson ko‘proq do‘stlari bilan emas, balki biznes yoki kasbiy ishi bo‘yicha hamkorlari bilan muloqotda bo‘ladi, ulfatchilik qiladi. Shaxsiy simpatiya yoki antipatiya (yoqish yoki yoqmaslik) – ikkinchi darajali bo‘lib qoldi. Bunday hol inson ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini o‘zgartirayotir. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mazmun-mohiyati (ontologiyasi) va amaliyotda qo‘llanilishi(praksiologiyasi) o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lmoqda.

Ma’naviyatning, uning doirasida milliy g‘oya va mafkuraning asosiy praksiologik vazifasi insonga ongli ravishda aniq hayotiy pozitsiyani egallashni, faol bo‘lishni, o‘z e’tiqodi, pozitsiyasi uchun kurasha olishni tarbiyalashdir. Bu bunyodkor g‘oyalarni, yuksak ijtimoiy ideallarni bilish, ularga intilish qatorida mafkuraviy immunitetni shakllantirishni bildiradi. Mafkuraviy immunitet – ma’naviyat praksiologiyasining namoyon bo‘lish shaklidir.

¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. – Тошкент, 2-китоб, 2018. – 57- бет.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma’naviyat insonga turli xil bilim, me’yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ijtimoiy bilim, maqsad va ideal berish orqali praksiologik mazmun kasb etadi. Inson maqsad va vositalar tanlashda, amaliy hayotda ma’naviyatga, ma’naviy baholar va talablarga tayanadi.

Ma’naviyatning praksiologik vazifalarini unutish, ya’ni uning iqtisodiy taraqqiyotdan, siyosiy boshqaruv va sud-huquq tizimini takomillashtirish vazifalaridan, jamiyatning amaliy hayotidan ajratish salbiy holatlarga olib keladi. Jamiyatda g‘oyaviy dogmatizm, g‘oyaviy mutaassiblik kuchayadi, dunyoqarash torayadi. Inson kamoloti uning ichki dunyosiga, kmsuqumligi va kamtarligiga qaratiladi, insonning yirik tadbirkorlik, texnologik va islohotlar qilish tashabbuslari, moddiy va ijodkorlik ehtiyojlari yetarlicha rag‘batlantirilmaydi. Natijada, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va intellektual qoloqlikka yuz tutadi. Bunga misol qilib ko‘plab mamlakatlar, xalqlar tarixini, jumladan, o‘z xalqimiz tarixini keltirish mumkin. XVI asrdan boshlab bizda ma’naviyatning praksiologik vazifalari unutila boshlandi. Go‘yo dinga, insonning kamolotiga katta e’tibor qaratildi. Amalda esa XIX asrga kelib qoloq xalqqa aylanib, mustaqillikdan ajraldik.

Ma’naviyat jamiyat taraqqiyotiga, avvalo, inson kamoloti, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy ideologiya orqali ta’sir ko‘rsatadi. Inson ta’lim-tarbiyani dastlab oilada, bog‘cha va maktabda oladi. Oila va maktabdan keyin ta’lim-tarbiya jarayonida jamiyatning aksariyat institutlari qatnashadi. Jamoatchilik fikri, urf-odatlar, ijtimoiy muhit har bir inson dunyoqarashiga, e’tiqodiga, xulqiga, jamiyatda o‘zini qanday tutishiga, hatto qanday kiyinishiga ta’sir qiladi. Demak, oila, muktab, mahalla (qishloq), urf-odatlar, jamoatchilik fikri, jamiyatning ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi barcha institutlari ma’naviyatning praksiologik mazmuni va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi vositalardir.

9.4. Ma’naviyatning aksiologik jihatlari

Ma’naviyatning aksiologik jihatlari ham mavjud bo‘lib, u tamoyillar sifatida amal qiladi. Uning ushbu jihatlarini oldingi mavzularda qadriyatning ma’naviyat tizimida tutgan o‘rnini yoritishga harakat qilganmiz. Bu mavzuda esa ma’naviyatning qadriyat sifatidagi tamoyillarining jtimoiy hayotdagi vazifalari, xususiyatlari nazarda tutiladi. Aksiologiya aksis – qimmatli, qadrli va logos – so‘z, ta’limot tushunchalaridan yaralgan. Uni o‘zbekchaga qadriyatshunoslik, deb

o'girish qabul qilingan. Ma'naviyatning aksiologya bilan aloqalarini tahlil qilish uchun dastlab qadriyatlar tushunchasini ko'rib chiqamiz.

Qadriyatlar inson, jamiyat uchun ahamiyatli, ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, hayotini yengillashtirishga, yuksaltirishga, ijtimoiy muhitni va munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan narsalar, predmetlar, ijobiy g'oyalar, me'yorlar, ideallar, tamoyillar, mezonlardir. Ularni moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lish mumkin. Moddiy qadriyatlarga tabiat, tabiiy boyliklar, mehnat vositalari, noyob arxektura obidalari, me'moriy yodgorliklar, moddiy mahsulotlar, shahar, qishloqlar va shu kabilar kiradi. Ma'naviy qadriyatlarga dunyoqarash va e'tiqod asoslarini tashkil etuvchi ilmiy-falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy, konkret-ilmiy g'oyalar, bilimlar va qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar kiradi. Ular ilmiy, badiiy, diniy asarlarda, asor-u atiqalarda, me'morchilik obidalarida, yuridik qonunlarda, siyosiy mafkurada, urfatatlarda mujassamlanadi va aksini topadi. Xalq og'zaki ijodi va amaliy-bezak san'ati, xalq hunarmandchiligi ham ma'naviy qadriyatlarning yuzaga chiqish va mavjudlik shakllaridir.

Lekin inson uchun nima ahamiyatli, nima qimmatga ega, haqiqiy qadriyat nima, degan savolga javob berish oson emas. Xuddi shunday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro munosabati, inson uchun qaysi ko'proq «foyda» keltirishi, ahamiyatliroq ekanligi juda bahsli masala. Shu sababdan ilm-fanda bu borada ko'plab bahslar yuritilgan. Din peshvolari o'rtasida ham diniy qadriyatlar to'g'risida yakdil fikr yo'q. Xatto AQShning ayrim olimlari qadriyatlar jamiyat taraqqiyotiga katta to'siq sifatida baholaydilar, go'yoki u mamlakatning rivojlanishga yo'l bermaydi, eski aqidalar ichida qolib, yangiliklarni qabul qilolmaydi, deb hisoblaydilar.

Aksiologya (qadriyatshunoslik) yoki aksilogik yondashuv borliqning ikki jihatini: reallik (voqelik)ni va ma'naviyatni inson uchun qadr-qimmatga ega xohish-istiklar va intilishlar obyekti sifatida tadqiq etish jarayonida vujudga keladi. Aksiologyaning bosh vazifasi – borliqning umumiy strukturasida (tuzilmasida) qadriyat qanday o'rin egallashini va uning reallikning faktlariga qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatishdir. Masalan, biror ro'zg'or buyumi oila uchun kerak, foydali, u oilaning normal turmush kechirishiga xizmat qiladi, qandaydir ehtiyojlarini to'ldiradi. Shu sababdan u "moddiy qadriyat" hisoblanadi. Uning odamlar uchun qadr-qimmati amaliy foydaliligi bilan belgilanadi. Ro'zg'or buyumi oilaning kanchalik ko'p yoki qanchalik

murakkab ehtiyojlarini qondirsa, shunchalik oila uchun qadri baland hisoblanadi. Zargarlik buyumi-chi? U hech qanday amaliy ehtiyojni qondirmaydi. Biroq ro‘zg‘or buyumiga nisbatan narxi baland, go‘yoki «qadrliroq»- Nega? Gap shundaki, zargarlik buyumi odamlarning birinchi galda estetik ehtiyojlarini qondiradi, ularni bezaydi, chiroyliroq ko‘rsatadi. Ikkinchidan, zargarlik buyumi o‘z egalarining jamiyatdagi mavqeidan, «to‘qligidan», go‘yoki didining nozikligidan dalolat beradi. Aslida, mutlaqo teskari bo‘lishi mumkin. Didi nozik, ziyoli va yuksak madaniyat sohiblari ortiqcha zeb-ziynatni yoqtirmaydi. Zeb-ziynatga mukkasidan ketgan kishi ma’naviyati cheklangan, molparast yoki maqtanchoq, o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘z qilishni yoqtiradigan kimsa bo‘lishi mumkin. Zargarlik buyumi amaliy-bezak san’ati mahsulotidir. Uni yasash juda katta ijodiy mahoratni, mehnatni talab qiladi. Bundan tashqari, zargarlik buyumi noyob materiallardan – oltin, kumush, platina, ularning qorishmalarini, boshqa kam uchraydigan metallardan, qimmatbaho toshlardan yasaladi. Ularning narxi balandligi ham shu ikki sababdan. Lekin masalaga tor «foydalilik» nuqtayi nazaridan yondashsak, har qanday amaliy ahamiyatga ega narsalarni qadriyat deb atashimizga to‘g‘ri keladi.

Aslida esa qadriyat deganda biz har qanday buyum va predmetni nazarda tutmaymiz. Aksincha, ko‘proq shaxs va jamiyat hayoti uchun o‘ta zarur, katta ahamiyatga ega narsalarni (moddiy yoki ma’naviyligidan qat’iy nazar) qadriyat hisoblaymiz. Bular toza havo, toza suv, qulay iqlim, unumdon tuproq – tabiat, xavf-xatarsiz, tinchlik osoyishtalikda, ahillik va xayrixohlik muhitida yashash, o‘z imkoniyaglarini, qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun odamlar birgalikda mehnat qilish, umr kechirish, turli aloqalarga kirishish jarayonida o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy, diniy g‘oyalarga, me’yorlarga, qoidalar, qonunlarga ehtiyoj sezadilar. Mazkur g‘oyalari me’yorlar, qoida va qonunlarning eng muhimlari – milliy va umuminsoniy ahamiyatga egalari qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Odamlarda bilim olish, olam sir-asrorini, jamiyatni, o‘z-o‘zini chuqurroq tushunish ehtiyojlari bor. Bu ehtiyojlarni ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari qondiradi. Binobarin, eng yaxshi ilmiy va badiiy g‘oyalari, ularni aks ettirgan ilmiy-badiiy asarlar ham qadriyatdir. Odamlar oilalarga, mahallalar, qishloq va shaharlarga birlashadi. Ularni amalga oshiruvchi urf-odatlari, an’analar, bayramlar tizimi vujudga kelgan. Xalqning urf-odatlari va h.k. ham qadriyatdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, qadriyat bu iinsonlarning ma’naviy ongi, faoliyati, ma’naviy ehtiyoji, yuksak ma’naviy axloqiy qarashlari negizida yuzaga keladi, ya’ni ma’naviyat qayerda bo‘lsa o‘sha yerda qadriyatlar uchun zamin paydo bo‘ladi. Ma’naviyatning har qanday tarmog‘i, qirrasi, uning mahsuli qadriyat darajasida ko‘tarilish uchun imkonyatdir. Ya’ni bilim olish, o‘zlikni anglash, milliy bayramlar, adabiyot va san’at asarlari va hokazo.

Lekin qadriyat sifatidagi g‘oyalar va ular tufayli yaratilgan voqelik, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘ta ziddiyatli. Predmetning o‘zi qadriyat bo‘lishi ham, aksilqadriyat – yovuzlik bo‘lishi ham mumkin. Badiiy g‘oyalar, obrazlar va ularning predmetlashgan shakli asarlar, madaniyat mahsulotlari to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Fahshni, zo‘ravonlikni, qotillikni va insonning boshqa tuban mayllarini, ehtiroslarini estetiklashtirib (jozibali, go‘zal qilib) tasvirlaydigan asarlar, qanchalik yuksak badiiy mahorat bilan yaratilmasin, asl qadriyat maqomini ololmaydi. Ko‘pchilik G‘arb olimlari ommaviy madaniyatga nisbatan umuman qadriyatlar tushunchasini qo‘llab bo‘lmasligini e’tirof etmoqdalar.

Ma’naviyatning o‘zi qadriyatdir. Ma’naviyat orqali yaratilgan badiiy asarlar, inson axloqi, san’at asarlari qadriyat maqomini oladi. Inson qadriyatlarga amal qilishiga, mo‘ljal olishiga qarab o‘z xatti-harakatini, xulqini, faoliyatini, intilishlarini, orzu-havaslarini belgilaydi. Kimdir xasis, ziqna, molparastlikka moyil bo‘ladi. Uning uchun boylik barcha qadriyatlarning boshi, qadriyatlar ierarxiyasida eng yuqori pog‘onani egallaydi. Kimdir mansabparast. U yuqori lavozimga erishish uchun laganbardorlik qiladi, o‘zidan yuqori lavozimdagagi mansabdorlarga yaltoqilik bilan xizmat qiladi. Ular noinsoflikni, nohalollikni o‘zları uchun maqbul hisoblaydi.

Qadriyat ma’naviylikdir. Inson ko‘ngli va aqlining mazmun-mohiyatini tashkil qilishda, insonga yuksak tuyg‘ular, orzu-havaslar, maqsad va ideallar berishda ma’naviyatning aksiologik mohiyati namoyon bo‘ladi. Inson tanlagan maqsad, ideal – bu uning ma’naviy ijtimoiy mo‘ljalidir. U qadriyatlar to‘g‘risidagi o‘z qarashlaridan kelib chiqib voqelikka, predmetlar va hodisalarga, g‘oya va me’yorlarga baho beradi. Qadriyatlar mo‘liali shaxs ichki (botiniy) tuzilmasining muhim unsurini tashkil etadi. Ular insoning hayotiy tajribasi, barcha ijobjiy va salbiy hissiy kechinmalari tomonidan mustahkamlangan.

Inson o‘zi uchun ahamiyatli, birinchi darajali qadriyatlarni ahamiyati pastlaridan ajratgan. Natijada, insonning qadriyatlar mo‘liali,

kengroq olinsa, ijtimoiy mo‘ljali shakllanadi. Insonning qadriyatlar mo‘ljali ma’naviyat ta’sirida shakllanadi va ma’naviy mo‘ljallar, ma’naviyat shaklida yuzaga chiqadi. Qadriyatlar mo‘ljalining shakllangan tizimi shaxs barqarorligini ta’minlovchi ongning o‘ziga xos mehvarini (o‘qini, umurtqasini) tashkil etadi. Qadriyatlar mo‘ljali ehtiyojlar va manfaatlar tomon yo‘naltirilgan ma’lum xulq-atvorni va faoliyatdagi vorisiylikni yuzaga chiqaradi. Shu sababdan qadriyatlar mo‘ljali shaxs motivatsiyasi (rag‘bati)ni belgilovchi va tartibga soluvchi omildir. Qadriyatlar mo‘ljali ong va ongosti darajasida harakat qiladi va insonning irodaviy kuchini, diqqatini va aql-zakovatini belgilaydi. Shaxsning rivojlangan qadriyatlar mo‘ljali – uning yetukligini, ijtimoiylashish me’yorini ko‘rsatadi. Va, aksincha, qadriyatlar qashshoqligi insonning ma’naviyati ham qashshoqligidan, uning shaxsi ichki tuzilmasida tashqi rag‘batlar, ob’yektning bevosita ta’siri kuchliligidan dalolat beradi. Ya’ni u ko‘ziga yaxshi ko‘ringan narsani, yoqib qolgan g‘oyani, fikrni, asarni notanqidiy, o‘ylamasdan qabul qiladi. Ular esa zararli, buzg‘unchi, soxta g‘oyalar bilan aralash bo‘lishi mumkin.

O‘tmish osor-u atiqalarimiz, san’atimiz va adabiyotimiz durdonalari, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlari, axloqiy, badiiy, ilmiy, diniy merosi milliy-ma’naviy qadriyatlarimizdir. U ijodkor xalqimizning ma’naviy olami, borlig‘i, yuksak ma’naviy salohiyati mevasidir. Ma’naviy taraqqiyot ma’naviy va moddiy qadriyatlar mahsulidir. Ular ajdodlardan avlodlarga o‘tib, avaylab-asrab kelinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi me’morchilik yodgorliklari biz uchun qadrli, muqaddas va ma’naviy boylikdir. Al Xorazmiy, Forobiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa daholarimiz qoldirgan ilmiy meros, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab asarlari, g‘azallari ham ma’naviy boyligimizdir. Islom ilm-faniga, ilohiyotiga, fiqh ilmiga beqiyos hissa qo‘shtigan al-Buxoriy, at-Termiziyy, Moturudiy, Abul-Mu’in Nasafiy, Koshifiy, Barokat Nasafiy, Marg‘inoniy va biz nomlarini qayd etmagan boshqa diniy olimlarimiz qoldirgan meros xalqimiz ma’naviy qadriyatlar xazinasida salmoqli o‘rin egallaydi. Biz ular bilan haqqoniy ravishda faxrlanamiz. Ayni paytda ular butun insoniyatning ma’naviy boyligidir. Shu sababdan ular jahonning rivojlangan tillariga tarjima qilingan, xorij mutaxassislari tomonidan o‘rganilib, targ‘ib etiladi.

Demak, ular nafaqat o‘zbek xalqi uchun, shuningdek, butun insoniyat uchun ham katta qadr-qimmatga ega. Ularda milliylik bilan bir qatorda umuminsoniylik mujassamslashgan. Agar milliylik soxta emas, haqiqiy qadriyatni ifodalasa, u umuminsoniylikka aylanadi. Asl milliylik umuminsoniylikning mavjudlik shaklidir. Hech bir xalqqa, hech bir millatga tegishli bo‘lmagan umuminsoniy adabiyot, san’at yoki umuman qadriyat yo‘q. Jahon adabiyoti deganda biz Gomer, Sofokl, Esxil, Evripid, Vergiliy, Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Sa’diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Dante, Shekspir, Gete, Pushkin, Tolstoy, Dikkens, Balzak, Gyugo, CHexov, Gorkiy, Jeyms Joys, Prust, Kamyu, Tagor, Stendal, Markes, Ch.Aymatov, Abdulla Oripov kabi daho adiblarni nazarda tutamiz. Lekin ular, bиринчи galda, o‘z milliy adabiyotlarining asl vakillaridir. Ular asarlarida, avvalo, o‘z millati vakillarining obrazlarini yaratganlar, xalqining ruhiy dunyosi, g‘amtashvishlari, umid va orzu-istikclarini ko‘rsatganlar.

Demak, ma’naviyatning o‘zi qadriyatdir. Ma’naviyat orqali yaratilgan badiiy asarlar, inson axloqi, san’at asarlari qadriyat maqomini oladi. Insonning qadriyatlar mo‘ljali ma’naviyat ta’sirida shakllanadi va ma’naviy mo‘ljallar, ma’naviyat shaklida yuzaga chiqadi. qadriyatlar qashshoqligi insonning ma’naviyati ham qash-shoqligidan, uning shaxsi ichki tuzilmasida tashqi rag‘batlar, obyektning bevosita ta’siri kuchliligidan dalolat beradi.

9.5. Ma’naviyatning metodologik mohiyati

Metodologiya o‘rganilayotgan ma’naviy jarayon, hodisaning, avvalo, g‘oyaviy-e’tiqodiy mezoni va negizini, jamiyatning tipini, asosiy talablarini va ehtiyojlarini aniqlaydi. Chunki g‘oyaviy-e’tiqodiy mezonlar jamiyat ehtiyojlarini, ma’naviyatning tarixiy o‘ziga xosligi na tadrijiy xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, agrar jamiyatda ma’naviyat ko‘proq diniy-e’tiqodiy g‘oyalar asosida rivojlangan. Lekin bu, dunyoviy g‘oyalar, tabiiy-ilmiy va muxoliflik mazmunidagi ijtimoiy-gumanitar g‘oyalar hech qanday rol o‘ynamagan, degani emas.

Jamiyat yuksalishi ma’naviyat yuksalishiga, ma’naviyat yuksalishi jamiyat yuksalishiga, binobarin, har ikki jarayon inson yuksalishiga olib keladi. Jamiyatning moddiy-iqtisodiy, diniy-e’tiqodiy asoslari o‘zgarishi, uning bir sifatdan ikkinchi sifatga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishi ma’naviyatni ham, insonni ham yangilaydi. Jamiyatda yangicha mafkura, yangilangan qadriyatlar tizimi, boshqacha

fikrlaydigan, dunyoqarashi, qiziqishlari, ijtimoiy mo‘ljallari o‘zgargan inson qaror topadi. Ma’naviyatning, qadriyatlar tizimining yangilanishi, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya tizimini, axloqiy qoidalarni, ba’zan hatto diniy qarashlarni, marosimlarni isloh qiladi.

Ma’naviyat funksiyalari obyektiv tabiiy-tarixiy ravishda amalga oshadi. Hech kim, hech qanday davlat hokimiysi vorisiylikni, ta’lim-tarbiyani, asrlar davomida shakllangan axloqiy, estetik, diniy me’yorlarni, qadriyatlarni, urf-odatlarni bekor qilolmaydi, ularning mohiyatini tubdan o‘zgartirib tashlashga ham ojizlik qiladi. Lekin ma’naviyat o‘z funksiyalarini qanday bajarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Davlat siyosatining ta’siri barcha zamonlarda (ibridoiy tuzumdan tashqari; unda davlatning o‘zi hali vujudga kelmagan) kuchli bo‘lgan. Faqat davlat tuzumi, muayyan hokimiyat inqirozga uchragan paytlardagina davlat siyosatining ma’naviyatga ta’siri pasaygan. Yoki zamonaviy g‘arb demokratik davlatlarida ma’naviy hayotning ba’zi sohalariga davlat bevosita aralashmay qo‘ygan. Ma’naviyat funksiyalariga diniy mafkuraning ta’siri ham o‘tmishda industrial jamiyatgacha kuchli bo‘lgan, Chunki diniy tashkilot davlatdan ajratilmagan, davlat siyosatini ma’naviy hayotda amalga oshiruvchi institutlardan yetakchisi hisoblangan. Shu bois davlatning kuchidan foydalangan. Amalda ma’naviy hayotda davlat siyosati va diniy tashkilot faoliyati birlashib ketgan. Faqat ayrim hollarda – yo davlat hokimiysi chuqur inqirozga tushganda, yo davlat keskin islohotlar o‘tkazib, diniy tashkilotni biroz chetga surib qo‘yganda, diniy tashkilot doirasida rasmiy davlat hokimiyatiga qarshi muxolifat guruhi vujudga kelgan.

Rasmiy davlat siyosati, ma’naviyat funksiyalarini bekor qilolmasada, unga sezilar ta’sir ko‘rsatishni turli usullar yordamida amalga oshiradi. Masalan, qonunlar orqali, senzurani joriy qilish, yoki aksincha, bekor qilish yordamida, din va cherkov masalalarini tartibga solish, adabiyot va san’at, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, OAVni rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soliq imtiyozlari berish, tegishli sohalarga kadrlar tayyorlashni rag‘batlantirish va h.k.

Erkin demokratik siyosat olib borilsa, qonun ustuvorligi ta’milansa, ijodiy tashabbuslar rag‘batlantirilsa, ma’naviyat o‘z funksiyalarini samarali ado etadi. Aksincha, erkinliklar cheklansa, senzura ma’naviy hayotni qattiq nazorat ostiga olsa, ijodiy tashabbuslar cheklanib, faqat davlat rasmiy mafkurasiga mos o‘zanga yo‘naltirilsa,

ma'naviyat o'z funksiyalarini samarali bajara olmay qoladi. Odamlar ongiga ba'zi bir xato, hatto ekstremistik, utopik g'oyalar majburan singdirila boshlaydi. O'zgacha, erkin, hur fikr yuritadiganlarga, adolat va haqiqat shubha bilan qaraladi, ba'zan ular turli ko'rinishlarda ta'qib qilina boshlaydi. Ma'naviy muhit buziladi. Ijtimoiy qo'rquv kuchayadi.

Ma'naviyat o'z funksiyalarini samarali bajarishi uchun insonparvar, demokratik davlat siyosati qatorida yana jamiyatning moddiy-iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Qashshoq jamiyatda ma'naviy ehtiyojlar o'smaydi, yangilari vujudga kelmaydi. Odamlar bir ilojini topib, kunini o'tkazish, bola-chaqasini boqish bilan ovora bo'lib qoladi. Ehtiyojlar o'smasa, ma'naviyat rivojlanmaydi. Moddiy jihatdan jamiyatning rivojlanishi odamlarda yangi ehtiyojlar tug'ilishini, ilm-fanga, siyosatga, madaniyatga, yangi kasblarnii egallashga intilishni oziqlantiradi. Ma'naviyat o'z funksiyalarini samarali bajarishi uchun olg'a surilgan yangi g'oyalar, ma'naviy yuksalish dasturlari iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlarimiz zamirida ma'naviy ma'rifiy ishlar, yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbir va choralar shular jumlasidan bo'lib, bu boradagi vazifalar O'zbekistonda ma'naviy-ma'riyyiy ishlarni taomillashtirish chora-tadbirlari, O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida yaqqol belgilab berilgan. Jumladan Harakatlar strategiyasining 4 yo'nalishi Yoshlarga oid Davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi chora tadbirlar hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ma'naviyatning ontologik mohiyatini izohlang?
2. Ma'naviyatning ontologik mohiyatini qamrab oluvchi elementlar tizimini Klaster usulida izohlang
3. Ma'naviyatning gnoseologik xususiyatlari nimirdan iborat?
4. Ma'naviyatning praksiologik xususiyatlari nimirdan iborat?
5. Ma'naviyatning aksiologik xususiyatlari nimirdan iborat?
6. Ma'naviyat o'z funksiyalarini samarali bajarishi, olg'a surilgan yangi g'oyalar, ma'naviy yuksalish dasturlarining ro'yobga chiqishi qanday omillarga bog'liq. Uni "FSMU texnologiyasi"da izohlang.
7. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlarimiz zamirida yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularning

intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbir va choralar ma’naviyatning qaysi funksional jihatini tashkil etadi?

8. “Nima axloqiy ekan, u go‘zaldir, axloqiylik talabiga mos kelmas ekan u xunuklikdir” degan fikr qaysi faylasufning fikri, va bu fikrning ma’naviyatga aloqadorligi nimada?

9. Ma’naviyatning metodologik mohiyatini “FSMU texnologiyasi”da izohlang.

10. Jahon ilmi va o‘tmish ajdodlarimiz merosida ma’naviyatning aksiologik jihatlarini “Intellektual jadval” orqali tahlil qiling.

10-mavzu: MA’NAVIYAT, RUHIYAT, MADANIYAT

1. *Ma’naviyat va ruhiyat. Inson tabiati va shaxs ma’naviyati.*
2. *Milliy ma’naviyatimizda ruhiyat muammolarining o’rganilishi va bu sohada erishilgan yutuqlarning ahamiyati.*
3. *Ma’naviyat – botiniy qudrat.*
4. «*Ma’naviyatshunoslik*» fani ijtimoiy va ma’naviyatga aloqador fanlar tizimida. “*Ma’naviyatshunoslik*” fanining “*Ruhshunoslik*”, “*Axloqshunoslik*” «*Madaniyashunoslik*», “*Nafosatshunoslik*”, «*Tarbiyashunoslik*» kabi inson va jamiyat hayotini o’rganuvchi turli fanlarga nisbati.

10.1. Ma’naviyat va ruhiyat. Inson tabiati va shaxs ma’naviyati

Ma’naviyat insonning ruhiyati bilan bog‘liq. Inson ruhiyati, albatta, tashqi ta’sirlar natijasida o‘zgarib turadi. Insonning iqtisodiy ahvoli, jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyi uning ma’naviyatiga ta’sir qilmay qolmaydi. Ammo, bari-bir, ma’naviyat o‘z mustaqil yo‘nalishiga ega. Masalan, inson qanchalik boy, o‘ziga to‘q bo‘lsa, shunchalik uning ma’naviy kamoloti yuqori yoki, aksincha, past bo‘ladi, desak, har ikki hukmda ham yanglishib qolamiz. Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Valiy, Maxdumi A’zam, Xoja Sa’d Jo‘yboriy kabi allomalar ham ma’naviy barkamol, ham nihoyatda badavlat bo‘lishgan. Shu bilan birga, dunyo molidan yuz o‘girgan, umrini zohidlikda o’tkazgan buyuk allomalarimiz ham kam emas. Aksincha, nihoyatda ziyod mol davlat sohibi bo‘lgan holda ma’naviy kamolotdan uzoq kimsalar yoki na dunyo molini, na ma’naviy kamolotni qo‘lga kirta olmagan bechoralar ham hayotda uchrab turishini hamma biladi.

Islom mintaqasida “filologiya” va “germenevtika”ga oid fanlar juda qadim-dan keng rivojlangan va muayyan ma’noda barcha inson va jamiyatga oid fanlarning avvaliga qo‘yilgan. Buning asosiy sababi ilohiy kitoblarga va ma’naviy merosga ayricha ahamiyat bilan bog‘liq bo‘lib, Yangi davr Yevropa odami ilmda ham, badiiy ijoddha ham ko‘proq originallikka, betakrorlikka intilsa, Islom mintaqasida har bir alohida inson o‘z bilimlarini yagona va cheksiz (g‘aybga ulanib ketuvchi) Borliq haqiqatining juziy qismi, xususiy sharhi deb yondashgan. Yevropada har bir shaxs o‘z fikrini o‘zgalar qarashidan farq qilib turishiga e’tibor qaratsa, bizning milliy an’analalarimizga ko‘ra har bir ulug‘ alloma o‘zi anglab yetgan haqiqatlarni ilohiy kalom va o‘zidan oldingi o‘tgan

salaflarga ayon bo‘lgan haqiqatlar bilan uyg‘un jihatlarini ta’kidlashga uringan. Buning natijasida, ba’zan Yevropa kishilari Sharqni original (yangicha) fikrlay olmaslikda ayplash singari holatlar ham uchraydiki, bu hayotga yondashuvdagagi o‘ziga xosliklarni tushunmaslikdan kelib chiqadi.

Barcha ijtimoiy va insonga oid ilmlar ilojsiz inson va millat ma’naviyatining u yoki bu qirralari, jihatlari bilan bevosita ish olib boradi, ularni muayyan nuqtayi nazaridan tekshiradi. Falsafa dunyo mohiyatini, unda insonning o‘rnini, vazifasini mantiqiy tafakkur asosida aniqlashga harakat qiladi. Sotsiologiya jamiyatni tadqiq etsa, psixologiya inson ruhiyatini o‘rganadi. Etnografiya turli elatlarning urf-odatlari, turmush tarzlaridagi o‘ziga xosliklarni, antropologiya fani esa alohida insonni o‘rganadi. Teologiya dirlarni, diniy e’tiqodga oid muammolarni o‘rganishga urinsa, teosofiya irfoniy bilimlarga e’tibor qaratadi. Ammo hozirgacha mavjud hech bir fan inson va millat ma’naviyatini yaxlit holda olib o‘rganmadni, hech qaysi fan insondagibotiniy qudratni, undagi fazilatlar, iste’dod va qobiliyatlarning kelib chiqish manbayi, hosil bo‘lish holatlarini yetarli va qoniqarli izohlab berishga qaratilmadi. Vaholanki, ayni shu masala yechilmas ekan, insonning asl mohiyati ochilmay qola beradi. Demakki, inson ruhiyati, axloqiy xususiyatlari, imon-e’tiqod, mehr, burch, ilmga intilish, yaratuvchilik qudrati va undan kelib chiquvchi madaniyat, san’at, adabiyotning paydo bo‘lish va rivojlanish sabablariga oid ko‘plab muammolar o‘z qoniqarli yechimiga ega bo‘lmaydi.

Materialistik izohlardan biri insondagagi imon-e’tiqod ehtiyojini uning o‘z o‘limini bilishi (anglab yetganligi) bilan tushuntirishga urinadi. Ammo nega hayvon shuni tushunmaydi yoki tushunadi, deb faraz qilsak, ongi shunga muvofiq o‘zgarmaydi? Chunki inson aqli boshqa mavjudotlarga nisbatan rivojlanganroq, deydi moddiyunchilar. Xo‘s, nega inson aqli rivojlanganroq bo‘lib qoldi? Nega filning, eshakning, bo‘rining yoki maymunning aqli rivojlanmay qoldi-yu, insonniki rivojlanib ketdi? Bunday savol-javoblar intihosiz va samarasi ham noaniq bo‘lib kelmoqda.

Gunoh va savob masalasi ham shunday moddiylik darajasida izohlab bo‘lmaydigan muammolardan. Xullas, Inson haqida, insonlar jamiyat haqida ma’naviyat nuqtayi nazaridan turib fikr yuritadigan alohida bir ilm yo‘nalishi shakllanmas ekan, ko‘p sohalarda muammolar ustiga muammolar tug‘ilaveradi, inson va jamiyatga oid ilmlarning boshi qovushmay turaveradi. Ma’naviyat haqidagi fan inson

va jamiyat uchun xos bo‘lgan barcha muammolarni bir yo‘la yechib bermaydi, albatta. Lekin ma’naviyat mezonlari barcha ilmlarning maqsad va muddaolarini to‘g‘ri yo‘nalishda faoliyat yuritishga yo‘naltiradi, ya’ni g‘oyat bir murakkab tizimda ushlab turgan ichki uyg‘unlik, inson ongi hech qachon to‘liq anglab eta olmaguvchi yaxlit mohiyat vazifasini o‘taydi.

Ma’naviyat ko‘ngil ko‘zgusidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Demak, ma’naviyatni tadqiq etish aslida shaxs ma’naviyatini o‘rganishdan boshlanmog‘i zarur. Darhaqiqat, har bir insonning ma’naviy dunyosi o‘ziga xos hududsiz bir olam. Ammo har bir inson muayyan bir jamiyatda, muayyan bir insonlar jamoasi ichida yashaydi, muayyan bir millatga mansub bo‘ladi. Tabiiyki, har bir alohida inson o‘sib ulg‘ayar ekan, unga atrof-muhitda yashayotgan insonlarning ta’siri bo‘ladi. Insonning ma’naviy kamoloti aynan shu muhitning ta’siridan boshlanadi. U ma’naviy kamolot pillapoyalarini birma-bir, birin-ketin, bosib o‘tib, atrof-muhitning ta’sirida o‘z ma’naviy olamni yaratib boradi. Atrofidagi odamlari, millati, qavmining hayotiy tajribalari, bilim, salohiyatini oladi, o‘zini bir millat vakili sifatidagi o‘rnini anglab yetadi.

10.2. Milliy ma’naviyatimizda ruhiyat muammolarining o‘rganilishi va bu sohada erishilgan yutuqlarning ahamiyati

“Ma’naviyatshunoslik” fani bevosita “Ruhshunoslik” fani bilan bog‘liq. «Ruhshunoslik» fani, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tomondan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha bu fan falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan. Ammo hozirgi zamon G‘arb psixologiya maktablarida ruhiyatni insonning moddiy borlig‘i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq ravishda (ya’ni eksperimental-zohiriy tajribalar asosida) o‘rganish yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Ular o‘z tadqiq mavzularini inson jismi moddiy mohiyat bilan bog‘liq holda o‘rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog‘liqligi ham shu sabablidir. Ammo ma’naviyatni bunday o‘rganib bo‘lmaydi. Ma’naviyat botiniy hodisa bo‘lgani uchun, zohiriy tajribalar bilan uning poyoniga yetib bo‘lmaydi. Ma’naviyat insonning Haq bilan munosabati. Shunday ekan, hech qachon bir inson o‘zga inson ma’naviyati haqidagina emas, hatto o‘z ma’naviy qudrati haqida ham to‘liq tasavvurga ega bo‘la olmaydi. Chunki ma’naviyat baqoning fanoda zuhuri sifatida doimo cheksizlikka tutashdir.

Inson mohiyatida ikki jihat mavjud. Biri – moddiylik. Ikkinchisi? Ba’zilar ma’naviyat, deydi. Boshqalar – ruhiyat. Bundan kimdir shoshib «Demak, ma’naviyat ruhiyat ekanda. Chunki moddiylik materiya (hayulo) bilan bog‘liq, u insonning shakliy vujudi, suvrati. Ruhiyat esa g‘ayrimoddiy, mavhum mohiyat», - deb xulosa qilishi mumkin. Asli unday emas. Inson moddiy vujud sifatida yaratilgan, shu bilan birga unga ma’naviy kamolot imkonli berilgan. Ruhiyat insonning tabiatiga oiddir. Unda shahvat bor: shahvat inson jismiga bog‘liq, ruhiyat timizdagi ko‘p holatlar ana shu shahvatning ta’sirida yuz beradi. Insonda nafs bor, moddiy vujudini doimiy qayta tiklab borishi uchun u turli ozuqa bilan taomlanib turmog‘i kerak. Insonda jahl bor, u ruhiyatga oid, ma’naviyatga emas. Shunday qilib inson ruhiyati botiniy voqelikdir.

Ruh masalasi islom dinida ham to’liq ochib berilmagan va insonlarga ham uni o’rganish borasida yo’l berilmagan, shuningdek Payg’ambar Muhammmad alayhissalom(s.a.v) bu borada biron sharh keltirmagan. Lekin Quronni Karimda “Ey Muhammad, sendan ruh haqida soraydilar va ul zot bu ilmdan istagan bandasiga ozgina ato qiladi”deb aytilgan(Al-Isro, 17/85)/ Abu Homid G’azzoliy o’zning “Kimiyoj saodat”(Ruh haqiqati) nomli asarida bu masalani shunday izohlaydi: “Insonlar va hayvonlar ehtiyojlarini harakatga keltiruvchi, jon ma’nosidagi ruh hayvonot ruhidir, ammo asl ruhkim, bizlar ham ani ruh atarmiz, Xudoi azza va jallaning ma’rifati bilan oziqlanur... Bu latif ruh na jism va na araz, balki javhardur, Farishtalar shu javhar jinsidandur. Va bu latif ruh haqiqatini tanimoq va ani sharh qilmoqg’a hojat yo’qdurkim, din oyini-yo’lini avvali riyozatdurdur”¹

Inson ruhi bevosita uning his-tuyg‘ular, sezish a’zolarining qobiliyati bilan, aql ishlatish, tafakkur yuritish va inson miyasining vazifikasi bilan bog‘liq, bu narsalarni bugun hech kim inkor qila olmaydi. Biz ma’naviyatga Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik deb ta’rif berdik. Demak, ma’naviyat ayni shu uyg‘unlik sifatida inson ruhida o’zini ko‘rsatadi. Ruhiyat aql va sezgilar bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviyat ruhiyatda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ruhiyat va ma’naviyat har biri alohida, ammo bir-biri bilan muayyan ma’noda tutash hodisalar.

Milliy ma’naviy merosimizda ruhiyat muammosini o‘rgangan allomalarimiz ijodi o‘ziga xos yo‘nalishda olib borilgan. Sanoiy va Anvariylar boshlab bergan she’riyatga yangicha yondashuv ularning

¹ Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат. Т.: Адолат, 2005, -Б. 34.

yaqin izdoshlari 12-asr oxirgi choragidan boshlab fors tilidagi she'riyat osmonida porlagan ikki yorqin yulduz Nizomiy Ganjaviy (1141—1202) va Farididdin Attor (1147—1229) siymolari misolida ikki alohida yo'naliish bo'yicha rivoj oldi. Bu ikki yo'naliishning farqi nimada?

Ma'lumki, adabiyot mavzularining markazida inson, uning ruhiyat dunyosi yotadi. Insonning kechinmalari esa, asosan, ikki yo'naliishda kechadi:

biri – insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga, sodda qilib aytsak, maxluqning Holiqqa munosabati, nisbati masalasi;

ikkinchisi – insonning o'zi singari maxluqlarga, ya'ni o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati.

Birinchi yo'naliish Insonni o'z ko'ngli bilan suhbatga chaqiradi, ruhiyatning ichki teran qatlamlariga yo'nalgan bo'ladi.

Ikkinchisi yo'naliishda ijtimoiy munosabatlar tizimida har bir insonning o'rni masalasiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Jaloliddin Rumiy (1207—1273) yozgan edi:

Attor ruh budu Sanoiy du chashmi o'

Mo az payi Sanoiyu Attor omadem.

(Attor ruh edi, Sanoiy uning ikki ko'zi, Biz Sanoiy va Attor izidan keldik.)

Sanoiy «ikki ko'z»ga qiyos etilmoqda. Ko'z tashqaridagi narsalarni ko'radi, ichkaridan tashqariga yo'nalgan bo'ladi. Attor esa «ruh» uning nazmdan maqsadi «asrori ilohiy adosi» («ilohiy sirlarni bayon etish») — inson ruhiyatidagi ilohiy asror pardalarini birma-bir ochib ko'rsatish. «Masnaviyi ma'naviy»dek buyuk ifoniq qomusni yaratgan Jaloliddin Rumiy ham ayni shu yo'ldan bordi. Tasavvuf she'riyatining mohiyati aslida shu.

Fors tilida ijod etgan buyuk ozarboyjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy esa faqat inson ruhiyatining ichki qatlamlariga teran nazar tashlash bilan cheklanib qolmay o'z dostonlarida shaxsning Haq va jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasiga ham alohida e'tibor qaratishni lozim topdi, ya'ni, uning asarlarida ifoniq va ijtimoiy muammolar oliy bir uyg'unlikda ifodalandi. Ayni shu uyg'unlik ifodasiga keyinchaliklik Alisher Navoiy tomonidan «Majoz tariqi» deb nom berilgan edi. Ammo 12-asrda hanuz «Haqiqat» va «majoz» masalasi kun tartibiga ro'yirost qo'yilgan emas, Nizomiy asarlarida «majoz» atamasi umuman iste'molga ham kirgan emas edi. Navoiy bu yo'naliishda mumtoz natijalarga erishgan zot asarlarini o'z ijodiy yo'lini

belgilashda porloq bir namuna sifatida tanlagan bo‘lsada, nazariy tadqiqotlarida Nizomiy nomini biror guruhga mansub etib tilga olmaydi.

Shaxs va millat ruhiyati murakkab voqelik sifatida o‘zida ham rahmoniy, ham shaytoniy xislatlarni, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy-irsiy, ham atrof-muhit ta’siridagi holatlarni aks ettirsa, ma’naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidagi ilohiy nur in’ikosini namoyon qiladi.

Inson vujudi tabiatga aloqador, aniqrog‘i uning bir uzvi, ajralmas bo‘lagi. Uning ruhiyati ham tabiati, moddiy borlig‘i bilan tutash. Ma’naviyat esa inson ruhini yagona ilohiy mohiyat, Haq bilan tutashtiradi. Shu ma’noda inson hayvon va farishta orasida turadi. Hayvon sof moddiy olamga, farishta sof ma’naviy olamga aloqador sanalsa, insonda hayvon zotiga xos moddiylik ham, farishtaga xos ma’naviyat ham mavjud. «Zubdat ul-haqoyiq» risolasida Azizuddin Nasafiy inson ruhiyatiga xos murakkabliklarni o‘z davri tushunchalari asosida shunday bayon qiladi: “Bilgilki, ba’zilarning fikricha, ayrim odamlarda to‘rtta ruh mavjud, ya’ni: o‘simlik ruhi, hayvon ruhi, jon (qalb) ruhi va inson ruhi (nafsi notiqa). Yana boshqa bir xil odamlarda beshta ruh bor deydilar, ya’ni: o‘simlik ruhi, hayvon ruhi, qalb ruhi, inson ruhi va muqaddas ruh. Va yana deydilarki, insoniy ruh va muqaddas ruh yuqori olamdanadir, ya’ni g‘ayb olamidanir-osmoniy farishtalar jinsidan. O‘simlik ruhi, hayvon ruhi va qalb ruhi – quyi olamdan, ozuqaning qiyomi va sharbatidan. Ushbu besh ruhning har biri bir javhardir. Ular bir-biridan ajratilgan va o‘zaro farqlanadi. Tana go‘yo sham bo‘lib, o‘simlik ruhi misli shamdon, hayvon ruhi go‘yo pilik, qalb ruhi bamisolli yog‘ bo‘lsa, inson ruhini nurga qiyoslash mumkin. Muqaddas ruh esa bu «nuran alo nur» (nur ustiga nur) dir. Boshqa ba’zilar har bir odamda faqat bitta ruh bor deydilar, ammo bu ruhning darajalari bor va har bir darajaning nomi mavjud. Ruh bitta va jism ham bittadir, lekin jisimning darajalari bor va har bir darajaning qandaydir nomi bor. Ruhning ham darajalari bor va darajalar qandaydir nomlarga ega. Jism ruhga muvofiqdir va ruh jismga muvofiqdir. Jism ham, ruh ham ikkalasi birga rivojlanadi va komillikkha erishguncha kamolot zinapoyalaridan ko‘tarilib boraveradi va darajalarni egallaydi. Ularning zuvalasini har qancha ko‘proq pishitsa, tarbiyalansa, ular mohiyatida yashiringan sifatlar ko‘rina boshlaydi”.¹

1 Азизиддин Насафий. Зубдат ул-хақойик. -Т.: Камалак, 1995. -Б.40.

Ruh tarbiyasi va uning irsiyatga ta'siri haqida ajdodlarimiz ko'p ibratli kitoblar qoldirganlar. Jumladan, 13 asrda yashab o'tgan Shayx Najmuddin Kubroning iste'dodli muridi Najmuddin Doya qalamiga mansub «Mirsod ul-ibod min al-mabda ilal-maod» (Alloh bandalarining boshlang'ichdan tugallanishgacha bo'lган hayot yo'li) risolasida ruhshunoslik va inson ma'naviy takomili haqida mufassal tahlil va mulohazalar mavjud. Bu kitobning millat ma'naviy takomiliga ta'sirini bilgan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) 19 asrda maxsus topshiriq berib uni fors tilidan o'zbekchaga o'girtirgan va kitobat ettirgan. Risolaning birinchi bobi – debocha, 5 fasldan iborat ikkinchi bobi esa inson ruhining tabiatini, ruh va tan nisbati kabi masalalarga oid bo'lib, mohiyatan ruhshunoslikka muqaddimadir. Kitobning eng asosiy qismi uchinchi bob – 20 faslni o'z ichiga oladi. Unda inson tarbiyasining asosiy masalalari qamrab olingan. Olimning fikriga ko'ra, eng avvalo, inson tanasini to'g'ri tarbiyalamog'i lozim. Muallif tanani ruhning g'ilofi (qolipi) deb hisoblaydi. Uni pok tutmoq, halol mehnatga, to'g'ri turmush tarziga odatlantirmoq lozim. Ikkinchi navbatda, ruhiyatni (ko'ngilni) poklamoq talab etiladi. Ushbu birinchi bosqich, Doyaning tasavvuriga ko'ra, shariat bosqichidir. Uni temir ma'dani (rudasi)dan sof temir moddasini ajratib olish jarayoniga qiyoslash mumkin. Ikkinchi bosqich, ya'ni po'lat eritish, undan ko'zgu yasash, toplash va sayqallash ishlari mohir ustalarning zukko mahoratini talab etadi. Shu sababli o'tmishda bu yumushlar tariqat suluklarida, ulug' shayxlar nazoratida amalga oshirilgan. Tariqat, ya'ni ma'naviy kamolot yo'li, inson nafsiga qayta ishlov berib, uni avval mumdek yumshatib, ko'ngil (dil) oynasini bunyod etuvchi olovli qo'raka o'xshatiladi. Ko'ngil ko'zgusiga shunday sayqal berish lozimki, u o'zida ilohiy nurni akslantirib, oy singari o'zi ham atrofga nur tarata boshlasin. Albatta, har bir inson mustaqil va samimi ravishda butun vujudi bilan Borliq haqiqati sari intilmas ekan, hech qanday ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi.

10.3. Ma'naviyat-botiniy qudrat

Ma'naviyat shunday tilsimki, uni bashar ahli to'liq anglab yetolmaydi. Chunki u inson qalbiga kuch bag'ishlar ekan, avvalo uning ichki ruhiy olamini boyitib botiniy qudrat kasb etadi. "Ma'naviyat – insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini

mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch» deb yozgan edi I.A.Karimov. Xo‘s, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladi? Jaloliddin Rumiyning buyuk irfoniy asari behudaga «Masnaviy ma’naviy» nomi bilan shuhrat taratgan emas. Bu yerdagi “ma’naviy” tushunchasi oliy bir mazmunni anglatmoqda, ulug‘ allomalarimiz uni “Haq asrori” deb ataganlar, zohiriylar nazarlar uchun u “g‘ayb”, agar bugungi ilmiy ifodalarga ko‘chirsak, biz zohir ko‘zimiz bilan ko‘rib turgan cheksiz zamon va makonda cheksiz va hududsiz shakllar majmuyini to‘zg‘itib yubormay, g‘oyat bir murakkab tizimda ushlab turgan ichki uyg‘unlik, inson ongi hech qachon to‘liq anglab yeta olmaguvchi yaxlit mohiyatdir. Shaxs ma’naviyati ayni shu behudud manbadan quvvat oladi.

Bugun mustaqil va farovon O‘zbekiston atalmish buyuk voqelikni vujudga keltirish uchun har bir insondan, millatning har bir vakilidan alohida ichki quvvat, cheksizlikka tutashuvchi botiniy kuch talab etilmoqda. O‘zini mustaqil shaxs deb bilgan har bir inson uni o‘zi uchun kashf etishi kerak. Buning uchun, avvalo, ruhimizdagи xudbin mayllarni, yolg‘on hoyu-havaslarni, ro‘yolarni yengib o‘tib, cheksiz qudrat manbayiga qalbimizni ochishimiz lozim.

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda faylasuf M.Imomnazarovning ta’rifiga ko‘ra ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi.

Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan Haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif birinchi marta ishlatalganda, ba’zi faylasuflarimiz uni diniy, mistik ta’rif deb tanqid ostiga oldilar. Darhaqiqat, bu ta’rif tasavvufiy talqinlarga suyangan so‘fyona, ramziy ta’rifdir. Zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yishi mumkin. So‘fiy ulamolarimiz «Haq asrori» haqida faqat ishora, ramz, timsol bilan so‘zlaganlar, chunki Haq ilmi biz uchun «g‘ayb ilmi»dir, inson mulohazalari esa doimo notugal va noto‘kis. Ammo, bari-bir, inson aqli bir narsalarni aniqroq bilgisi keladi, u yaxlit yog‘duni ham kamalak ranglariga ajratmagunicha ko‘ngli joyiga tushmaydi. Alloh inson aqliga shunday betizgin shiddat baxsh etgan ekan, bizda ne ixtiyor. Inson aqli, aniqrog‘i, mantiqiy tafakkur, har qanday hayotiy uyg‘unlikning ichki tarkibini birma-bir ko‘zdan kechirib chiqish, uning qismlarini, bularning

bir-biriga nisbatini tahlil va tadqiq etmoqqa qiziqadi, shuni amalga oshirmasa, ichi yonib, yuragi olovvana beradi.

Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur, degan ta’rifda, majoziy shaklda bo‘lsa ham, uning manbayi muayyan ma’noda inson jismidan tashqarida ekanligiga ishora bor. Bu bejiz emas. Alloh butun maxluqotlar qatori insonni ham moddiy mavjudot sifatida dunyoga keltirgan. O’tmishda ba’zi faylasuflar shartli ravishda «birinchi turtki» nazariyasi atalmish qarashlarni ham olg‘a surgan bo‘lib, unga ko‘ra, go‘yo Alloh olamni bir yo‘la yaratganu so‘ng unga muayyan rivojlanish qonunlari baxsh etib, o‘z holiga qo‘yib qo‘ygan, boshqa uning ishlariga aralashishni lozim topmagan. Bu nazariya hayot tajribasida o‘zini oqlamadi va shu sababli keyinchalik dunyo ilmida rad qilindi. Borliq haqiqati bilan inson orasidagi munosabat aslida bir martalik emas, doimiyydir. Alloh «nuri» degan ramz bilan ifodalanuvchi ilohiy fayz ushbu munosabatning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lib, u faqat insonlarga qaratiladi. U payg‘ambarlarga bevosita vahiy tarzida, avliyolarga ilohiy jalba shaklida, oddiy insonlarga iste’dod va ilhom ko‘rinishida, balki qobiliyat va yaratuvchilik qudrati sifatida yo‘naltirilishi mumkin. G‘aybni tan olmay, milliardlab insonlar e’tiqodini afyunga teng bilgan marksistlar ilohiy fayzni ham afsona deb talqin etdilar va uning inson hayotida namoyon bo‘lish shakllarini turlicha usullar bilan «materialistik» izohlashga urindilar. Bu urinishlar hech qachon ilmiy dunyoni qoniqtira olgan emas. Ammo ateizm zo‘rlik bilan mafkura asosi sifatida joriy etilgan zamonda «suyagi qotgan» sobiq mafkurachilar hanuz o‘sha aldovlar tuzog‘idan qutulib ketishi qiyin kechmoqda. Ular inson hayotining mohiyati faqat moddiy borliq bilan chegaralanmasligini tasavvurlariga sig‘dirishga qiynalmoqdalar. Chunki u Oliy haqiqat nurining inson qalbida aks etishi bilan bog‘liq. Asli ilohiyotga tayanuvchi bu majoziy ta’rif milliy ma’naviyatimiz takomil bosqichlari davomida mukammal shakllanib, turlicha tarzda qator allomalarimiz merosida ifodasini topgan. Majoziylik ilmning boshlanish nuqtasidir. Biz bugungi kun ilmiy ifodalari darajasida turib yuqoridagi ta’rifning falsafiy sharhini topishga ham urinib ko‘rishimiz mumkin. Bunda tushunchalarning muqobilini qidirib topish va hodisaning mohiyatini sharhlash yo‘lidan borgan ma’qul. Ma’lumki, “inson qalbi” birikmasi odatda “insonning ruhiy dunyosi” ma’nosida ishlataladi. Oliy haqiqatni esa falsafiy tilda “Borliq haqiqati” deb atasak, o‘ng‘ayroq jaranglaydi. Endi “nurning ko‘zguda aks etishi” esa ajdodlarimiz merosiga murojaat etishdir.

Masalaga insonning Borliq haqiqatini anglab yetishga bo‘lgan urinishlari jihatidan qaraydigan bo‘lsak, bizda buning ham ikki yo‘li mashhur: ularning biri ilm yo‘li bo‘lsa, ikkinchisi so‘fiylar tanlagan irfon yo‘li. Ilm yo‘li mantiqiy tafakkur, maxsus tajribalar va ularning tahlili shaklida amalga oshiriladi. Irfoni bilimning manbayi bevosita Haq nurining qalb ko‘zgusida aks etishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu hodisani yaqin o‘tmishda ateistik “ilm”nigina haqiqiy ilm deb o‘rgangan ko‘pchilik olimlar «mistika» deb baholab kelishdi. Aslida unday emas. Materialistlar tan oladigan ilm yo‘li juz’iy haqiqatlarnigina bila oladi. Irfon yo‘li esa bevosita Borliq haqiqatining mohiyatini anglab yetishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadga faqat mantiqiy tafakkur va maxsus tajribalar orqali erishib bo‘lmaydi.

Ma’naviyatning manbayi ilohiy fayz dedik. Shunday ekan, undan bahramand bo‘lishning asosiy sharti nima? Bunga ham ajdodlarimiz merosida mukammal javoblar mavjud. Ajdodlarimiz irfoni majozlarga tayanib, inson qalbini ko‘zguga, Alloh fayzini nurga qiyos etishlaridan maqsad nima? Qadimda ko‘zgu toblangan po‘latdan tayyorlangan. Demak, temir ma’dani qazib olinib, uni maxsus qo‘ralarda eritib, po‘lat hosil qilib, uni toblab, so‘ngra unga sayqal berilgan. Buyuk tasavvuf pirlari shogirdlarining ma’naviy kamolotini ayni shu murakkab jarayonga o‘xshatganlar. Ilohiy nur barkamol aks etishi uchun ko‘ngil ko‘zgusini shunday mashaqqatli riyozat jarayonida poklash, unga to‘kis sayqal berish lozim. Chunki yuksak darajada sayqal topmagan po‘lat sahnida hech qanday nur aks etmaydi. Ayni shu ko‘ngil ko‘zgusini sayqallash jarayoni tasavvufda ma’rifat deyilgan. Milliy ma’naviyatimizda bu jarayonning qanday kechishi, ya’ni ma’rifat yo‘llari masalasi ham batafsil ishlab chiqilgan. Ular ilm va imon, riyozat va mehr tushunchalari orqali ifodalanuvchi o‘zlikni anglash jarayoni bo‘lib, shu murakkab, mashaqqatli, ammo hech qanday moddiy dunyo lazzatlariga tenglashtirib bo‘lmaydigan sururli jarayonda inson ruhi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashib boradi. Demak, bugungi ilmiy tilimizda ajdodlarimiz shakllantirgan majoziy ta’rifni sharhlab beradigan bo‘lsak, Ma’naviyat – Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik deyish mumkin.

Inson – foni vujud, u bu dunyoga bir kun keladi, taqdirida belgilangan umrini yashab, yana tuproqqa qo‘silib ketadi. Borliq haqiqati esa – boqiy, azaliy va abadiy. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashgan muddatda fanoda baqo zuhur eta boshlaydi, natijada inson ruhida hadsizhududsiz qudrat bilan botiniy tutashuv yuz beradi.

Bu yerda faqat bir shart bor: xolislik, poklik. Ma’naviyat atalmish botiniy qudrat zarra g‘araz, xudbinlik, kibrni ko‘tarmaydi: botiniy tutashuv, Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik yo‘qoladi.

Shunday qilib, “Ruhshunoslik” inson vujudidagi murakkab ruhiy jarayonlarni o‘rgansa, “Ma’naviyatshunoslik” esa bevosita ruhiyatni emas, balki inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlikni o‘rganadi.

10.4. Ma’naviyatshunoslik» fani ijtimoiy va ma’naviyatga aloqador fanlar tizimida. “Ma’naviyatshunoslik” fanining “Ruhshunoslik”, “Axloqshunoslik”, «Madaniyashunoslik», “Nafo-satshunoslik”, «Tarbiyashunoslik» kabi inson va jamiyat hayotini o‘rganuvchi turli fanlarga nisbati

“Ma’naviyatshunoslik” fani bilan bevosita tutash bo‘lgan ba’zi fanlarni qisqacha qiyoslab ko‘ramiz. Avvalo, “Ruhshunoslik” faniga e’tibor qarataylik. “Ruhshunoslik” fani, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tomondan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha bu fan falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan. Ammo hozirgi zamon G‘arb psixologiya maktablarida ruhiyatni insonning moddiy borlig‘i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq ravishda (ya’ni eksperimental-zohiriyl tajribalar asosida) o‘rganish yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Ular o‘z tadqiq mavzularini inson jismi moddiy mohiyat bilan bog‘liq holda o‘rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog‘liqligi ham shu sabablidir. Ammo ma’naviyatni bunday o‘ganib bo‘lmaydi. Ma’naviyat botiniy hodisa bo‘lgani uchun, zohiriyl tajribalar bilan uning poyoniga yetib bo‘lmaydi. Ma’naviyat insonning Haq bilan munosabati. Shunday ekan, hech qachon bir inson o‘zga inson ma’naviyati haqidagina emas, hatto o‘z ma’naviy qudrati haqida ham to‘liq tasavvurga ega bola olmaydi. Chunki ma’naviyat baqoning fanoda zuhuri sifatida doimo cheksizlikka tutashdir.

“Ruhshunoslik” inson vujudidagi murakkab ruhiy jarayonlarni o‘rgansa, “Ma’naviyatshunoslik” esa bevosita ruhiyatni emas, balki inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlikni o‘rganishini yuqorida ko‘rdik.

Endi “Ruhshunoslik”dan keyingi o‘rinda ma’naviyatga eng yaqin turuvchi soha “Axloqshunoslik” (Etika)dir. Axloq – ma’naviyatning amalda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Inson ilmi va imoni, dunyoqarashi va idroki uning xulqida o‘ziga xos tarzda aks etib, ma’naviyati axloqiy fazilatlar sifatida zohir bo‘ladi. Ma’naviyat –

botiniy qudrat bo'lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloq insof vaadolat tuyg'usi, imon va halollik kabi ma'naviyatning o'zak tushunchalarini inson amaliy faoliyatida yuzaga chiqaruvchi hodisadir. Ma'naviyat – o'zlikni anglash, deymiz. O'zligini anglab yetgan inson – ma'naviy yetuk shaxs hisoblanadi. Uning bizga zohir bo'luvchi barcha insoniy fazilatlari qalbidagi ma'naviyat nurining jilolaridir. Axloqiy qusurlar esa – insonning ko'ngil ko'zgusidagi zang va chirklarning o'zgalar nigohida namoyon bo'lishi. Bir jumla bilan ifodalaganda ma'naviyat shaxsning o'zi uchun, o'z qalbiga qaratilgan, dil ko'zini yorituvchi nur, axloq ushbu ma'naviyatning mazhari, o'zgalar nazdida namoyon boliuvchi qirralari majmuyi, desak bo'ladi.

Axloqshunoslik fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga mana bu – qusur, mana bu – fazilat deb insonning mavjud xislatlarini tahlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yordan kelib chiqib baho beradi. Ma'naviyat baho bermaydi, u imkoniyatlardan so'zlaydi. “Ma'naviyatshunoslik” fani insonga uning ichki imkoniyatlarini ko'rsatadi, unga botiniy qudrat kasb etish yo'llarini o'rgatadi.

Bu fan inson qusurlarini qoralash bilan shug'ullanmaydi, balki fazilatlarning manbayini qidiradi, ularni qanday hosil qilishni o'rgatadi. Ma'naviyat nuqtai-nazaridan qaraganda qoralash yoki oqlash qozilik, sud ishi, ilm bu bilan shug'ullanmagani ma'qul. Axloqshunoslik inson xislatlarini boricha olib tahlil qiladi, “Ma'naviyatshunoslik” ularning hosil bo'lish asoslarini qidiradi.

“Ruhshunoslik” va “Axloqshunoslik” fanlari “Ma'naviyatshunoslik” faniga eng yaqin, u bilan ko'p o'rnlarda tutashib ketuvchi fanlardir, lekin bari-bir bu fanlarning har biri o'z tadqiqot mavzusi, qiziqish doirasiga ega.

“Ruhshunoslik” bugungi rivoji darajasida ijtimoiy fanlardan ko'ra tabiiy fanlarga yaqinroq tursa, “Axloqshunoslik” sof ijtimoiy fan sifatida shakllandi. Unda tarixiy-ijtimoiy yondashuv yuqori, an'anaga ko'ra unda inson axloqi jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlariga nisbatan baholanadi. Bu etikadagi normativlik xususiyati deyiladi. Ma'naviyat esa inson kamolotini ilm orqali uni qalban ulg'ayishga, ruhan poklashga chorlaydi, uni normativlash, ma'lum me'yorlarga bo'ysundirish yo'lidan bormaydi.

“Ma’naviyatshunoslik” bilan bevosita tutashuv hosil qiluvchi yana bir fan “Madaniyatshunoslik”dir. Bu fan o‘z xususiyatiga ko‘ra ko‘proq jahon, muayyan davr yoki millat madaniyatining moddiy ko‘rinishlarini tasvirlash va tasniflashga asosiy e’tiborni qaratadi. Fanning mavzusidan kelib chiqqanda bu yondashuv to‘g‘ri va muhim. Ammo bunday yondashuv ma’naviyat muammolarini izchil tadqiq etishdan tamomila farq qiladi.

“*Madaniyat*” tushunchasini turlicha sharhlaydilar. Biz uni sodda qilib, “ma’naviyatning moddiy voqelikdagi namoyon bo‘lish shaklidir” degan bo‘lur edik. Albatta, boshqacha ta’riflar va yondashuvlar ham bor. Ulardan biriga ko‘ra madaniyat insoniyatning barcha eng yaxshi ijodiy yutuqlarining sintezi.¹ Asli tabiatdan farqli o‘laroq, inson faoliyatining barcha mahsulini «madaniyat» (aniqrog‘i, kultura) deyiladi. Ammo masalaning bir nozik jihatni bor. Afsuski, inson voqelikni doim ham ijobiy tarafga o‘zgartiradi, deb bo‘lmaydi. Ajoyib qasrlarni bunyod etgan, vohalarni obod etadi, suningdek, shaharlarni to‘pga tutib kulini ko‘kka sovurgan, o‘rmonlarga o‘t qo‘ygan, terrorizm kabi balolar ham odam bolasi tomoidan sodir etiladi(zero hayvonning qo‘lidan bu ishlar kelmaydi). Dunyoni hayratga solgan kashfiyotlar, ko‘ngillarni zabit etuvchi g‘azallar, dostonlar inson aql-zakovati, iste’dodi mahsuli, ammo kitoblarni gulxan qilib yoqtqan, ona tuproqni zaharlab, zilol suvni og‘uga aylantirganlar ham johil sarboz-u savodsiz dehqon emas, o‘zini tabiat-u jamiyat ustidan hukm-farmo bilgan “ulamo”-yu “kubarolar”dir. Shu sababli madaniyatni insonning faqat yaratuvchilik faoliyati natijalariga nisbat bersak durust, buzg‘unchiligiga emas. Yaratuvchilik esa alq-idrok, iste’dod va mahorat, bilim va tajriba, riyozat va mehr bilan amalga oshadi, jaholat va qahr, xudbinlik va g‘aflat bilan emas.

Qisqasi, ma’naviyat madaniyatni yaratadi, ma’naviyat imkon, madaniyat ushbu imkondan tug‘ilgan mavjudlik. Ma’naviyat o‘tmish, bugun va keljakni qamrab oladi. Madaniyat esa o‘tmish va bugunga taalluqli. Ma’naviyat o‘tmish saboqlaridan keljakni belgilaydi, madaniyat bugungi ahvolni ko‘rsatadi.

“Shaxs madaniyati” degan tushuncha mavjud. Agar muayyan millatga taalluqli shaxslar ma’naviyati oxir natijada millat ma’naviyatining tarkibini hosil qilsa, milliy madaniyatning yaratuvchilari bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq, shaxs madaniyati ko‘proq

¹ J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muxammadiyev. Falsafa. Darslik. - Samarqand, 2021, -B.271.

millat madaniyati, aniqrog'i, milliy madaniyatning hosilasi sifatida namoyon bo'ladi.

Albatta, har bir millat madaniyatining tarkibi murakkab. Aslida inson tafakkuri va qobiliyatining amaliy hayotda moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy boyliklarni yaratish samaralari madaniyatshunoslik mavzularidir. Faqat ulardan ko'pchiligi alohida fan tarmog'i bo'lib, ajrab chiqib ketgan. Masalan, "Iqtisodiyot", "Ilmshunoslik", "San'atshunoslik", "Musiqashunoslik" va h.k. Biz ularning har biriga alohida to'xtab ulgurishimiz qiyin. Faqat yana ikki fanni eslab o'tmasak bo'lmas. Ularning biri san'at haqidagi fanlarning umumiylari nazariy asosini tashkil etuvchi falsafiy fan "Nafosatshunoslik" (Estetika)dir. Bu fanning asosiy mavzusi badiiy tafakkur qonuniyatlarini, go'zallikning mohiyatini o'rganish. Ma'lumki, go'zallik uyg'unlikdan tug'iladi. Demak, ma'naviyat va go'zallik ta'riflarida umumiylari jihatlar mavjud bo'lishi tabiiy. Ular orasidagi jiddiy farq shundaki, estetika uyg'unlikning hayotda va san'at asarlarida uchraydigan muayyan shakllarini o'rgansa, «Ma'naviyatshunoslik» umuman inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni o'rganadi. Bu ikki fanning ham tutashadigan joylari ko'p, ammo ularning mavzulari va yondashuv uslublari, bari-bir, boshqa boshqa.

Yana bir "Ma'naviyatshunoslik"ga yondash fan—"Tarbiyashunoslik" (Pedagogika). Insonning ta'lim-tarbiyasiga oid dolzarb nazariy uslubiy muammolarni tadqiq etuvchi bu fan bugungi kunda turli tarmoqlarga bo'linib ketgan. Ammo "Umumiylari pedagogika" bilan ma'naviyat tarbiyasiga oid ko'plab tutash masalalar mavjudki, ularni o'rganish uchun ikki fan vakillari yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ysalar, yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, "Ma'naviyatshunoslik" fanining o'z istiqbolli rejalarini bor, ya'ni insoniyatni buyuk ezgulikka, insonparvarlikka, ma'rifiylikka, komilllik sir asrorlariga erishitirish, farovon hayot, ozod va obod Vatan qurish, Borliq haqiqatinini anglab yetish. Uning mustahkam oyoqqa turib olishi, ko'p jihatdan, ilgaridan mavjud bo'lib kelgan unga yondash va tutash turli fan egalarining xolisligi va xayrixohligiga, yutuqlari va istiqbollariga ham bog'liq.

Ma'naviyat insonning Borliq haqiqati bilan nisbatiga asos e'tiborini qaratadi. Ma'naviyat insonni fanodan baqoga eltuvchi yagona yo'ldir. Asli falsafa ham, barcha o'zga fanlar ham Borliq haqiqatinini izlaydi, ammo "Ma'naviyatshunoslik asoslari" fani o'z izlanishlarini, birinchidan, milliy ma'naviyatimizning teran tomirlari bilan,

ajdodlarimiz bizga qoldirgan beba ho ma'naviy meros bilan bog'laydi, ya'ni muayyan insonlar qo'lga kiritgan tarixiy tajribaga tayanadi, uning asosida xulosalar qiladi. Ikkinchidan, faqat mantiqiy, ilmiy tafakkurga tayanib qolmay, o'zga tafakkur yo'nali shlarga ham keng e'tibor qaratadi.

Ma'naviy tarbiyaning vositalari faqat aql va bilimgina emas, balki ibrat, iroda, mehr kabilardir. Milliy ma'naviyatimizda shular barchasi mujassam ifodasini topgan. Undan tashqari milliy ma'naviyatimizni boyitishda kalom ilmi, fiqh, tasavvuf tariqatlari va irfoni, mumtoz adabiyot kabi o'ziga xos yo'nali shlarning ham ulkan hissasi borki, Yevropa ilmi ularni asrlar mobaynida Sharqdan o'zlashtirib keladi.

Xullas, Xoliqi olam ikki dunyoni inson uchun yaratdi, maqsad inson edi, unga butun maxluqlardan o'zgacha fazilatlar baxsh etdi. Inson ko'nglini ma'rifat xazina qilib, bu sehrli tilsim ichiga o'zini yashirdi. Inson ko'ngli maxfiy xazina sifatida Alloh haqiqati sirrini o'zida pinhon etgan bo'lib, uni yashringan ham, asraguvchi ham o'zidir. Ma'naviyat ana shu ko'ngil tilsimiga yashiringan Alloh haqiqatining zuhuridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ma'naviyat va ruhiyatning o'zaro bog'liqligini izohlang.
2. Ma'naviyat- botiniy qudrat ekanligini "FSMU texnologiyasi"da izohlang.
3. Ma'naviyatshunoslik» fani ijtimoiy va ma'naviyatga aloqador fanlar tizimidagi fanlarga nisbatini "Konseptual jadval"da ifodalang.
4. "Ma'naviyatshunoslik" fanining "Axloqshunoslik" fani bilan qanday uzviy aloqadorligi bor?
5. "Ma'naviyatshunoslik" fanining «Madaniyatshunoslik» fani bilan o'zaro uzviy aloqadorligini tahlil qiling.
6. "Ma'naviyatshunoslik" fanining "Nafosatshunoslik" fani bilan o'zaro uzviy aloqadorligini tahlil qiling.
7. "Ma'naviyatshunoslik" fanining «Tarbiyashunoslik» fani bilan o'zaro uzviy aloqadorligini tahlil qiling.
8. "Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo'q. Ma'naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi" usbu jumlalar qaysi muallifga tegishli ekanligini aniqlang va uni tahlil eting.
9. Milliy ma'naviyatimizda ruhiyat muammolarining o'rganilishi haqida o'z mulohazangizni "Esse"da ifodalang.

11-mavzu: DIN VA MA’NAVIYAT

1. *Din – ma’naviy hodisa.*
2. *Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g‘arazli talqini sifatida.*
3. *Din va ma’naviyat. O’zaro aloqadorligi. Umumiy va farqli jihatlar*

7.5. Din – ma’naviy hodisa

Din – e’tiqod va u har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi. Diniy nuqtayi nazarga ko‘ra, din – muayyan diniy e’tiqodlarga, ya’ni ilohga, uning tomonidan insonlarga xabar yetkazuvchilarning g‘ayrioddiy salohiyatga ega ekaniga (payg‘ambarlik), insonlar atrofida unga ko‘rinmaydigan ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi mavjudotlar borligiga (farishtalar, jinlar) inson ideal hayot kechirishi uchun azaldan belgilangan qonuniyatlar mavjudligiga (muqaddas kitoblar), inson hayoti muntazam nazorat ostida ekaniga, qilingan barcha yaxshilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (oxirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdir) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iborat.

Dunyoviy nuqtayi nazardan, din – tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta’limotdir.

Dinnning asosida e’tiqod yotadi. E’tiqod masalasi, albatta, ma’naviyatga aloqador. Ta’bir joyiz bo‘lsa, e’tiqod ma’naviyatning umurtqa pog‘onasidir. Demak, imon-e’tiqodsiz ma’naviyat bo‘lmaydi. E’tiqod inson m’naviy borligining bir elementidir. Har bir din turfa xil e’tiqod shakllarda bo‘lmasin, u inson ma’naviy olamini boyitish, ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi, axloqiy fazilatlar va burchlarni shakllantiradi, lekin e’tiqodsizlik ma’naviyatsizlik emas, lekin xech bir inson e’tiqodsiz yashay olmaydi. Faqat e’tiqodsizlik mukammal ma’naviy kamolotga erishish uchun yetarli.

O‘zbek tili lug‘at adabiyotlarida “din” – ishonch, ishonmoq, e’tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat,

parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qilish ma’nolarini bildirishi keltirib o‘tiladi. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va eng go‘zal ruhiy-ma’naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e’tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi.

“Islom” so‘zining o‘zi tinchlik-totuvlikni, hilm (yumshoqlik)ni, o‘zgaga yaxshilik tilagini bildiradi. “Assalomu alaykum” deb murojaatni boshlaymiz, demak, qarshimizdagi odamga Allohdan tinchlik va salomatlik, ezgulik istab muomalaga kirishamiz. Shunday ekan, yurt osoyishtaligi, insonlararo ahillik va murosa, o‘zgani tushunishga intilish, Allah yaratgan barcha mavjudotga samimiyl mehr ko‘zi bilan yondashuv haqiqiy islomiq qadriyatlardandir va bugun biz mustaqillik ma’naviyatini ushbu asos nuqtalarga tayanib shakllantirmoqdamiz.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma’naviy yangilanish jarayoni va tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi. “Din xalq uchun afyundir” deguvchilar insonning eng muhim ehtiyojlaridan bo‘lmish imon ehtiyojini tan olmaydilar yoki nazarga ilmaydilar. Imon-e’tiqod ehtiyoji, agar u samimiyl inson bo‘lsa, hatto dahriyda ham bo‘ladi. Faqat u o‘z botiniy ehtiyojini ko‘pchilik e’tiqod qiluvchi dinlardan emas, turli «izm»lardan qidiradi yoki shaxsan o‘zi uchun alohida e’tiqod tizimi yaratishga urinadi.

Qalbni, ko‘ngil ko‘zgusini poklash avvalo imon-e’tiqoddan boshlanadi. “Ezgulikka sadoqati bo‘lmagan, biror narsaga ixlos qo‘ymagan, ishonmagan odam qo‘rqinchlidir”, deb ogohlantiradi muhtaram I.A.Karimov Albatta, ma’lum bir davrda kommunistik g‘oyaga ham samimiyl ishon ganlar bo‘lgan, sof vijdonli dahriylar ham hayotda uchrashi mumkin. Ammo dahriylik inson tarixida alohida holatlarda bir-bir namoyon bo‘luvchi hodisa. Din esa asrlar davomida million-million insonlarning e’tiqodini shakllantirib kelgan. Jumladan, islam dini 14 asrdan beri ulug‘ bir mintaqada insonlar tafakkur yo‘nalishiga ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Marksizm ongimizda ajdodlar salohiyatiga napisandlikni tarbiyaladi. Kimki 5-6 asr ilgari o‘tgan bo‘lsa, uning mulohazalari bizga noqis ko‘rinadigan bo‘ldi (ayni marksizm aqidalariga nomuvofiqligi tufayli). O‘z vaqtida biz Imomi A’zam, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro va hokazo yuzlab jahonshumul ulug‘ allomalarining

e’tiqodini “afyun” deb e’lon qildik va aslo o‘ylab ko‘rmadikki, “xo‘s, ular yaratgan ulkan ma’naviy merosga o‘zimiz bir misqol qo‘sish qudratiga egamizmi?” Mustaqillik bizga imonimizni, e’tiqodimizni qaytarib berdi. “Islom dini bu biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma ‘rifatdir, demak bu ma’naviyatning ajralmas qismidir.

Ma’naviyat har bir insonning Haqqa (Alloh haqiqatiga, Borliq haqiqatiga) munosabati ekan, bu aslida foni insonning Baqoga (abadiylikka) munosabatidir. Bundan farqli o‘laroq insonning insonga munosabati faqat shu yorug‘ dunyo tashvishlariga oid narsa. Har kim o‘zining Haq oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri anglab masalaga yondoshsa, o‘zi foyda qiladi, birovning Haq oldidagi mas’uliyati haqida o‘zboshimchalik bilan hukm chiqarish yoki, ayniqsa, o‘zgani zo‘rlik bilan, zug‘um bilan imonli qilishga urinish ma’naviyat nuqtayi nazaridan mutlaqo botil harakatdir. Chunki Insonning imonga kirishi faqat Allah irodasiga bog‘liq, bandaning vakolati doirasidan tashqarida.

Mustaqillik sharofati bilan 1300 yil mobaynida ota-bobolarimiz e’tiqod qilib kelgan islom diniga munosabat ham tubdan o‘zgara boshladи. O‘tmish diniy ulamolarimizning tabarruk nomlari, meroslari tiklandi. Maqbaralari qadamjoyga, ziyoratgohga aylanmoqda. Jumladan, Imom Buxoriy maqbarasi majmuyining bunyod etilishi, Bahovuddin Naqshband, At-Termiziylarning masjidi-maqbarasining yangidan ta’mirlanib, obod etilishi, Imom Moturidiy, Burhonuddin Marg‘inoniy kabi buyuk siymolarning xoki poklari qo‘yilgan Samarqanddagi Chokardiza qabristonini tiklash va o‘rganish ishlarining jiddiy yo‘lga qo‘yilishi barchasi mustaqil O‘zbekiston rahbariyatining muqaddas dinimizga, ushbu dinni ma’rifat, ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘tarilib, jahonga tanitgan ulug‘ ajdodlarimizga bo‘lgan yuksak va samimiy ehtiromning yorqin namoyishidir.

Din odamzodni hech qachon yomon yo‘lga, yovuzlikka boshlamaydi. Dinni niqob qilib nizolar chiqarishga urinish ostida esa doimo muayyan xudbin niyat, g‘arazgo‘ylik yoki jaholat yotadi.

Ma’naviyat har bir insonning Haqqa (Alloh haqiqatiga, Borliq haqiqatiga) munosabati ekan, bu aslida foni insonning Baqoga (abadiylikka) munosabatidir. Bundan farqli o‘laroq insonning insonga munosabati faqat shu yorug‘ dunyo tashvishlariga oid narsa. Har kim o‘zining Haq oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri anglab masalaga yondoshsa, o‘zi foyda qiladi, birovning Haq oldidagi mas’uliyati haqida o‘zboshimchalik bilan hukm chiqarish yoki, ayniqsa, o‘zgani zo‘rlik bilan, zug‘um bilan imonli qilishga urinish ma’naviyat nuqtai nazaridan

mutlaqo botil harakatdir. Chunki Insonning imonga kirishi faqat Alloh irodasiga bog‘liq, bandaning vakolati doirasidan tashqarida.

11.2. Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g‘arazli talqini sifatida

Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g‘arazli talqinlardan biridir. Bugungi kunda uning turli shakllari insoniyat ijtimoiy ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir etb kelmoqda.

Diniy ekstremizm (ekstremizm – “o‘ta” degani) – xavfsizligimizga tahdid soluvchi tashqi omillardan biri bo‘lib, u barcha diniy tashkilotlarda faqat o‘zi sig‘inadigan dinni to‘g‘ri deb, boshqa har qanday dunyoqarashning to‘g‘riligini inkor etuvchi (keskin choralar va harakatlar tarafidlari bo‘lgan), o‘ta fanatik (mutaassib) dindor yoki dindorlarning faoliyati tushuniladi.

Diniy aqidaparastlik yoki fundamentalizm (lotincha – “asos” degani) – barcha dinlarda o‘z ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida “so‘zsiz” qabul qilib, ushbu dinlar paydo bo‘la boshlagan dastlabki aqidalarga, fundamental g‘oyalarga qaytish, me’yorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yo‘llar bilan joriy qilishga urinishdir.

Bugungi kunda, “dunyoviylik” tamoyilini to‘g‘ri anglash, jamiyat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash lozim bo‘ladi. Zero, dinning jamiyatda o‘ziga xos o‘rni mavjud. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda: “Yurtimizda hukm surayotgan diniy bag‘rikenglik muhiti tufayli mamlakatimizda 2 ming 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish, fuqarolar qaysi din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, ularning teng huquqlilagini ta’minlash bundan buyon ham eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi.

Biz muqaddas dinimizni noto‘g‘ri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, o‘rta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzg‘unchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qat’iy kurash olib boramiz”¹-deb, ta’kidlagan edi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 47- б.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqimiz diniy va ma’naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Yurtimizda dinlararo bag‘rikenglikning haqiqiy demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy asosi yaratilganki, buni asosiy qonunimiz bo‘lgan Konstitutsiyada: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”¹-deb, belgilab qo‘yilganligida ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda din jamiyatda fuqarolarning insonparvarlik mezoni asosida shakllanishida, halollik, poklik, kamtarinlik, to‘g‘riso‘zlik, ma’naviyati yuksak, beqiyos axloqiy tarbiyasi, barcha fazilatlarni o‘zida qamrab olgan, barkamol inson bo‘lib etishishida xizmat qiladigan ma’naviy hodisadir.

Bizda davlat dindan ajratilgan. Chunki biz qurayotgan davlat dunyoviy davlatdir. Shuning uchun davlatni boshqarish siyosat yo‘nalishiga, din, e’tiqod masalasi esa ma’naviyatga oid masaladir. Davlatda qonun bor, zarur o‘rinda kuch ishlatiladi, umuman, siyosat insonlararo muomalaga oid bo‘lganligi sababli turlicha vaziyat bo‘lishi mumkin. Ammo ma’naviyat ko‘ngil ishi, insonning o‘z shaxsiga munosabati, asl mohiyatiga muvofiq aytilsa, har bir insonning yagona Haq oldidagi mas’uliyati masalasidir. Shu sababli davlat va dinning bir-biridan ajratilganligi mantiqqa muvofiqdir. Jamiyatdagи umumiy ma’naviy saviya qancha past bo‘lsa, bu jamiyatda odamlar orasidagi muomalada kuch ishlatish ehtiyoji va ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi. Ma’naviy barkamollik esa siyosatni ham mo‘tadillashtiradi, kuch ishlatuvchi tuzilmalar xizmati qisqarib, fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi asosidagi jamoat tashkilotlarining mavqeyi oshib boraveradi.

Bir insonning Allohga bo‘lgan imon-e’tiqodini o‘zga birov o‘zining boshqalarga qarshi amalga oshirmoqchi bo‘lgan biror-bir g‘arazli niyati yo‘lida vositaga aylantirishga urinsa, u ikki karra jinoyatga qo‘l urgan bo‘ladi. Birinchidan, muayyan inson shaxsiga qarshi jinoyatga yo‘l qo‘yadi, Chunki bir inson ikkinchi insonni o‘z g‘arazlari yo‘lida vositaga aylantirishga haqqi yo‘q. Yer yuzidagi barcha mavjudot inson uchun vosita, ammo hech bir inson o‘zga insonlar uchun

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 13- б.

vosita, quroq deb qaralishi mumkin emas. Ikkinchidan, o‘zga insonning Allohga bo‘lgan imonini o‘z g‘arazi yo‘lida vositaga aylantirishga uringan zot Alloh oldida ham og‘ir gunohga botadi. Bunday odam, islomiy nuqtai nazardan, nafaqat mo‘minlar safidan chiqadi, balki u oddiy munofiq darajasidan ham tubanlashadi. Chunki oddiy munofiq o‘zi sidqidildan mo‘min bo‘lmagan holda faqat odamlar ko‘ziga o‘zini dindor qilib ko‘rsatishga urinadi, holos. O‘zgalar e’tiqodidan o‘z g‘arazi yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lib, ular orasiga diniy asosda nizo solishga uringan kimsa esa Alloh oldida munofiqlan ham, mushrikdan ham battar kufrga yo‘l qo‘yadi, deyish mumkin.

Islom dini – Allohning dini, “islom fundamentalizmi” esa tor bir guruuhlar tomonidan musulmonlarning diniy aqidalarini o‘zlarining muayyan siyosiy maqsadlariga bo‘ysundirib “talqin” etishlari. Bu “talqin”lar asosida siyosiy faoliyat boshlansa, islom ekstremizmi kelib chiqadi. Allohning kitobidagi oyatlarni mufassirlar turlicha tafsir qiladilar, payg‘ambarimiz hadislari ham turlicha talqin etilishi mumkin, Chunki insonlarning masalalarga yondoshuvi turlicha. Ammo o‘z talqinini eng to‘g‘ri deb da’vo qilib, fikriga qo‘shilmaganlarni islom nomidan qoralash, hatto kofirga chiqarishga urinish, kamida o‘zga insonga zulm darajasiga ko‘tarilgan takabburlikdir.

Dinni ekstremistik talqin etuvchi guruuhlar insoniyat tarixida qadimdan ma’lum, ammo ular doimo ozchilikni tashkil etishgan. Bir haqiqatni ochiq tan olish kerak, XX asr diniy ekstremizmi ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi o‘ta ekstremistik harakat bo‘lmish marksizmdan, ayniqsa, uning ijtimoiy terror yo‘lini dasturulamal qilib olgan leninchabolshevikcha ko‘rinishidan juda ko‘p narsani o‘zlashtirdi. Bolsheviklarning avval sobiq Rossiya imperiyasi hududida, keyinroq «sotsialistik sistema» atalmish kengroq hududda vaqtincha hukmdorlikni qo‘lga kiritishi, aytish mumkinki, “inqilobiyo‘l”ning yolg‘on “imkoniyatlari”ga mahliyolikni kuchaytirib yubordi. Buning ustiga g‘oyaviy jihatdan dinga dushmanlik e’lon qilgan kommunist aqidaparastlar muayyan g‘arazlar bilan o‘zları hukmron bo‘lmagan o‘lkalardagi «inqilobiyo‘lislom» tarafdarlarini doimo ham zimdan, ham ochiq siyosatda qo‘llab keldilar. Bugun ham bunday kuchlar yo‘q emas.

Terrorizmga qarshi kurash yo‘llaridan biri bu odamlarimiz, avvalobor, yoshlарimizni ma’naviy tarbiyalash – iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-

avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning men o‘zbek farzandiman, deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida yuqori minbar-dan turib: “Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib bora-yotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kura-shish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”¹deb, ta’kidlagan edi.

11.3. Din va ma’naviyat. Umumiy va farqli jihatlar

Din va ma’naviyat ijtimoiy hodisadir. Din va ma’naviyatni birlashtiruvchi fazilat e’tiqoddir. Din e’tiqod deb aytdik, u ilohiylikni anglab yetishdir, e’tiqodni ijtimoiy hayotda namoyon qilish ma’naviyatda aks etadi. Ma’naviyat ishonch tuygusida shakllangan fazilatlar tizimidir, lekin ma’naviyat bu din emas. Alloh imonli odamning qalbida bo‘ladi. Imonli odam imonini birovning «boshini urib yorish»ga vosita qilmaydi. Bu shunchaki gap emas. Ayni shu ma’no Allohnинг kitobida qator oyatlar mazmunini tashkil etadi. Ushbu matn boshida eslab o‘tilgan “Nur” surasining 35-oyatida esa bu g‘oya bevosita ifodalangan. Keyinchaliklik bu g‘oya payg‘ambar hadislarida, buyuk tasavvuf shayxlari, piri murshidlarning hikmatlarida mukammal talqinini topdi.

Milliy ma’naviyatimiz an’analariga tayanib xulosa qiladigan bo‘lsak, insonning Haq bilan bog‘lanuvi ikki yo‘nalishdadir. Birinchisi, insonning moddiy vujud sifatida Alloh tomonidan yaratilganligiga oid bo‘lib, bunda inson tabiatning uzviy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Biz bu haqda oldingi bobda ham aytib o‘tdik. Ammo insonning Haq bilan tutashuvi faqat «birinchi turtki» masalasiga borib taqalmaydi. Ikkinci yo‘nalish ham bor. ma’lumki, insonning har bir xatti-harakatida

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти бош ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи (Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь) // Халқ сўзи. 2017. - 20 сентябрь, № 189 (6883).

Allohning irodasi namoyon bo‘ladi. Alloh insonning yaratuvchisi, unga rizq ato etuvchi bo‘lish barobarida uni hidoyatga yo‘llovchi hamdir. Oxirgi masalada bir o‘ziga xos jihat bor. Alloh insonni yaratadi, shu bilan birga moddiy dunyoning turli ne’matlari orqali uning rizqini ham sochib qo‘yadi. Biroq bu dunyo inson uchun sinov dunyosi. Shunday ekan, Alloh hidoyati majburiy tarzda emas, balki ixtiyoriy bir shaklda, da’vat, taklif shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bu dunyoda Alloh taolo insonga to‘g‘ri yo‘lni tanlash imkoniyatini bermoqda. Inson hayotining o‘ziga xosligi, boshqa mavjudot-u maxluqotlardan farqi shunda. Chunki Alloh insonni Yer yuzida xalifa qilib yaratgan, shu sababli unga bu dunyoda iroda erkinligini ham bergen. «Fayzi ilohiy» masalasi ham oldingi bobda yoritildi. Payg‘ambarlarga Alloh hidoyati bevosita vahiy shaklida g‘ayri-moddiy mavjudotlar bo‘lmish farishtalar orqali yuborilsa, oddiy insonlarga «fayzi ilohiyni» yetkazuvchi, biz iste’dod, ilhom, karomat, bashorat kabi nomlar bilan belgilovchi, g‘ayri moddiy vositalar ham mavjud. Bu hodisalarni moddiy asosda turlicha izohlashga urinishlar fanda hech qachon ko‘ngildagidek samara bergen emas, Chunki mohiyatan g‘ayri moddiy hodisalarni moddiy dunyo qonuniyatlariga tayanib izohlashga urinish o‘zi aslida g‘ayri ilmiy tamoyillarga yetaklovchi harakatdir. Ma’naviyat insonning Haq bilan bevosita bog‘lanishidir. Bu – asos mohiyatiga ko‘ra g‘ayri moddiy munosabat. Demak, ma’naviyatni birinchi yo‘ldan emas, ayni ikkinchi yo‘ldan borib qidirgan maqsadga muvofiqroq.

Bugungi kunda diyonat, axloq tushunchalari imon-e’tiqoddan ajralmas ekanligi ravshan bo‘lib qoldi. Ammo islam ma’rifati masalasida hanuz jiddiy xulosaga kela olmay, gumon aralash turibmiz. Chunki tug‘ilganimizdan buyon marksistik mafkura bizning yoshimizdagi avlodga birdan bir haqiqiy ilm – faqat hayotni materialistik idrok etishga asoslangan ilmdir deb uqtirib kelingan. Yaqin o‘tmishda shunday yalpi targ‘ibot ta’sirida ta’lim olgan ko‘pchilik. Bizgacha o‘tmishdan yetib kelgan kitoblar ham ikki toifa ilohiy matnlarga tayanuvchi, ya’ni «vahiy» orqali etib kelgan, insoniy matnlar asosidagi, ya’ni insonlar ijod etgan kitoblar. Bularidan birinchilarining mazmuni azaliy va abadiy mohiyatga tutashadi, ikkinchilari esa muayyan zamon va makonda yashab o‘tgan insonlarga tegishli bo‘lgani tufayli, ayni o‘sha zamon va makonning ta’siridan holi emas, ya’ni ularga mutlaq haqiqat sifatida yondashish noto‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, Qur’on oyatlari mazmuni o‘zida mutlaq haqiqat sirini yashirgandir, ammo uning turli tafsirlari mufassirlar shaxsi bilan, ularning turlicha

talqini bilan bog‘liq. Ilmlarni turlarga ajratadigan bo‘lsak, masalan, maqsad yo‘nalishiga ko‘ra farqlash mumkin. Shunda dunyoviy maqsadlarga yo‘nalgan yoki uxraviy (oxiratga, ya’ni bu dunyodagi faoliyatimizning u dunyodagi oqibatiga oid) maqsadlarga yo‘nalgan ilmlar haqida gapishtirish mumkin bo‘ladi. Ma’naviyat ayni dunyoviy va uxraviy maqsadlarimizni uyg‘unlashtirishga oid sohadir. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Haq yo‘lida qilinadigan har qanday ilm haqiqiy ilmdir va u inson ruhini poklashga xizmat qiladi, ilmda haqiqatdan har qanday chekinish esa jaholatga olib keladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan umumiy jihatlardan kelib chiqib, ba’zilar din va ma’naviyatni bir narsa deb qarashga moyil bo‘lishadi. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Har bir insonning o‘z dini bo‘lmaydi. Dinlar ko‘p dunyoda, lekin ular muayyan. Din ilohiy kitoblar orqali nozil etilgan alohida qonun-qoidalarni bildiradi. Ma’naviyat qat’iy qonun-qoidalalar tarzida tasavvur qilinmaydi, u uzluksiz jarayonda takomillshib boradi. Har bir shaxs ma’naviyati o‘ziga xos, har bir insonning o‘z ma’naviy olami mavjud. Din insonning dilida bo‘lishi kerak, albatta, ammo har bir inson bir dinni qabul qilib oladi va uning qonun-qoidalalariga umr bo‘yi rioya qiladi. Ma’naviyat esa inson qalbidagi nur, u tanlab olinmaydi, u Allohning inoyati, odamni Haq yo‘lga yetaklovchi, uning qonun-qoidalari ochiq bayon qilingan hukmlar bilan chegaralab berilmaydi. Ma’naviyat inson umri davomida, millatning tarixiy taraqqiyotida takomil topib boradi, din esa ilohiy vahiy asosida, payg‘ambar hadislariga tayangan holda ulamolar tomonidan muayyan chegaralarda qat’iy qilib belgilab beriladi, bu chegaralarni har kim ham o‘zgartira oladigan narsa emas. Har holda bizning tasavvurlarimiz shunday.

Samimiyl diniy e’tiqod ma’naviyat eshiklaridan biridir. Yana bir nozik masala. Ko‘proq oddiy e’tiqod egalari dinni sunna darajasida idrok etadilar. Yaqin o‘tmish-da, ilm va imon ikki qutbga ajratib tashlangan, san’at marksizm g‘oyalarining targ‘ibotchisiga aylantirilgan bir sharoitda, darhaqiqat, Qur’on va payg‘ambarimiz hadislari din ahli uchun yagona ma’naviy panoh bo‘lgan edi. Ammo voqelikda milliy ma’naviyatimiz maydonlari behududdir. O‘z vaqtida buyuk allomalarimiz ijodida ilm va mantiq, irfon va badiiyat olamlari imondan tashqari bo‘lмаган, balki ilm va imon bir-biriga quvvat bag‘ishlagan, tavhid e’tiqodini idrok etish ilm va irfon orqali teranlik kasb etib borgan.

Din va ma’naviyatni birlashtiruvchi fazilat e’tiqoddir. Dinning zohiriyl va botiniy jihatlari bor. Botiniy jihatni imon bo‘lib, qolgani ibodatlar – zohiriyl jihatlar, ular imonni muayyan tashqi harakatlar bilan

tasdiqlaydi. Ammo imon faqat tilda bo'lsa, islomiy hayot qonunlari bilan ichki ma'naviy uyg'unlik hosil qilinmasa, unda ma'naviyat nuqtayi nazaridan dahriyning o'z aqidasisiga e'tiqodi munofiqning tashqi dindorligidan afzal bo'lib chiqadi. Chunki e'tiqodli dahriy do'zax azoblari xavfi oldida ham o'z bilganidan qaytmaydi. Munofiq esa o'z hayot tarzi bilan halol insonlarning dinga ixlosini qaytaradi.

Dinning zohiri saqlab qolinsa-yu, botiniga e'tibor yetarli bo'lmasa, din xurofotga aylanadi. Dinni xurofot darajasida tushungan zohirbin aqidaparast nuqtai-nazarida din va ma'naviyat butkul bir-biriga zid narsalar bo'lib qoladi. Dinni aqidaparastlik darajasida tushunish insonlar orasida arzimagan narsadan nifoq chiqishiga, balki og'ir xunrezliklargacha olib kelishi mumkin. Bunday yondashuvda turli din vakillari orasidagina emas, hatto bir dinga e'tiqod qiluvchilar orasida ham qonli nizolar kelib chiqishi hech gap emas. Tarixda bunday fojeiy voqealar ko'p bo'lgan. Payg'ambarimizning eng yaqin sahabalari, Haq yo'ljadi xalifalardan hisoblangan hazrati Usmon va Alilarning shahid etilishi g'ayridinlar tomonidan emas, ayni islam aqidaparast oqimlarining vakillari tomonidan amalga oshirilganligi tarixdan ma'lum. Sunniy, shia qirg'inlarichi? Ayni shu sabablar tufayli O'zbekiston rahbaryati dinga ma'naviy qadriyat sifatida yondashuvni izchil qo'llab chiqmoqda. bunda dinning zohiri jihatlarini inkor qilmagan holda, uning botiniy, ma'naviy jihatiga birinchi darajali ahamiyat qaratishni maqbul ko'rmoqda. Chunki jahon dinlarining botiniy jihat o'zaro uyg'unlikni taqozo etadi.

Ma'naviyat uchun turli dinlararo farqlar muhim emas, inson qalbidagi imon nuri muhim. Bunday yondashuv ko'proq tasavvuf irfoni sohiblariga oiddir.

Har qanday vaziyat bo'lganda ham, e'tiqod dilda bo'ladi, u insonning o'zi uchundir, ibodatlar tashqi xatti-harakat bilan ifodalanadi, bunda inson ham shaxsiy e'tiqod tuyg'usini qondiradi, ham qaysi dinda ekanligini o'zgalarga zohir etadi. Ibodatni ado etmaslikning ham sababi ikki xil bo'lishi mumkin. Bin agar shaxs o'zgalar uchun biror-bir savobli ishni bajarishni o'zi uchun (ibodat doim insonning o'zi uchundir) bajariladigan ibodatdan ortiq bilsa (albatta, bunda yanglishuvi ham mumkin). Ikkinchisi, o'z shaxsiy g'arazi yo'lida ibodat o'rniga boshqa bir yumushga chalg'isa. Har ikki holatda ham inson o'z kelajak taqdirini xavfga qo'yadi. Alloh oldida buning javobi qanday yolg'iz Yaratganga ayon. Har holda ma'naviyat uyg'unlikka intiladi, shu jihatdan mo'min faqat ibodat bilan qoniqib, o'zga amallarini ezgulik bilan

uyg‘unlashtirishga e’tibor qilmasa, bunday insonni ma’naviy barkamol deyish qiyin.

Dinda e’tiqod, taqvo, halol va harom masalalari asosiylardan bo‘lib, bular bevosita inson ma’naviyatiga aloqadordir. Ma’naviyat muayyan ma’noda dinning botiniy jihat bilan tutashadi. Taqvo ma’naviyat belgisi bo‘lib, halol rizq taqvoning eng o‘zak tushunchasi hisoblanadi. Daho shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida din va ma’naviyatning uyg‘unligini ilm orqali bog’laydi:

Ulum ichra o’qur ersang yuz tuman fasl,
Tamomi far’u din ilmi erur asl.

Ya’ni, din ilmi- asl ildiz, boshqa ilm-fanlar esa uning shox-shabbalari, juz’lari, qismlaridir.zero, din, axloq, ma’aviyat olimlari payg’ambar vorislardir.

Yosh avlodni milliy ma’naviyatimiz an’analari ruhida tarbiyalash, ular ongini turli g‘arazli “oqimlar” ta’siridan himoyalashning eng samarali yo‘li bu ma’navi-yatdir. E’tiqod ma’naviyatning o‘zak tomiri. E’tiqodsiz kishida ma’naviyat bo‘lmaydi, tashqi madaniy ko‘rinish, hatto ancha-muncha bilim ham bo‘lishi mumkin, ammo mag‘zida ma’naviyat bo‘lmaydi.

Kishida umurtqa pog‘onasi shikastlangan bo‘lsa, unday inson gavdasini tik tutib tura olmaydi. Ma’naviy olam uchun e’tiqod ham shunday bir narsadir. Kommunistlar olg‘a surgan g‘oyalarga xalq ozmi-ko‘pmi ishongan, umid bog‘lagan davrda sovet davlati ancha-muncha o‘sdi, rivojlandi. “Kommunizm” g‘oyalari puch narsa ekani ma’lum bo‘lib qolgach, asta-sekin bu tuzum ich-ichidan yemirila boshladi va oxiri barbod bo‘ldi. Shuning uchun yolg‘on g‘oyalarga ishonish, o‘ylab topilgan aqidalarning etagini tutish yaxshilikka olib bormaydi. E’tiqod masalasi jiddiy masala. Tarixda turli yolg‘on payg‘ambarlar ko‘p bo‘lgan. Ular oxir oqibat beburdlikka mahkum bo‘lganlar. Bashariyat, el, xalq qabul qilgan Oliy haqiqatlar esa asl ma’nosи bilan ilohiy, azaliy va abadiy manbaga egadir. Islom dinimiz ana shunday ilohiy inoyat hisoblanadi. Bizni 70 yil bu e’tiqoddan qaytarishga urindilar, jazoladilar, masxaraladilar, taqiqladilar. Bari befoyda bo‘ldi. SSSRda mafkuraviy tazyiq kuchaygan sari, jahonda islomning nufuzi oshib bordi. Amerika, Yevropa, Avstraliyaga islom dadil kirib bormoqda. Marksist dahriylar islomni arab bosqinchiligi bilan bog‘lamoqchi bo‘ldilar. Nahot 1400 yil avvalgi bosqinchilik asorati shuncha kuchli bo‘lishi aqlga to‘g‘ri kelsa?

Aleksandr Makedonskiy, Chingizzon, chor Rossiyasi olib kelgan e’tiqodlar qani? Haqiqat boshqa narsa, bosqinchilik boshqa.

Biz imon haqida gapirdik. Ammo imon darajalari ham har xil: taqlidiy imon bor, unga ibrat bosqichida erishiladi, agar uni ilm bilan mustahkamlanmasa, oqibati yaxshi bo‘lmasligi mumkin, Chunki bunday insonlar ishonuvchan bo‘ladilar, bugungi murakkab dunyoda makr tuzog‘iga tushib qolishlari xavfi bor. Ibrat va ilmdan tashqari, milliy ma’naviyatimiz an’analarida riyozat va mehr yo‘llari ham ma’rifatga oid hisoblanadi. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg‘unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma’rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko‘ngil ko‘zgusini pok tutib turadi. O‘z navbatida Borliq haqiqatini anglab yetishning ham o‘z darajalari borki, ular ulug‘ ma’naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat atalmish silsilada ifodasini topadi. Bularning har biri haqida qimmatli fikr va mulohazalar tahlili alohida tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladi. Biz hozircha faqat ba’zi eng umumiylar mavzularga qisqacha to‘xtalib utdik. Yana ko‘p masalalar haqida bahs hali davom etadi. Ammo bari-bir ma’naviyat xususidagi bahs inson hayoti davomida tugamaydi.

Din va ma’naviyat nisbati haqidagi mulohazaning xulosasi shuki, dinni siyosiylashtirishdan qochish, unga buyuk ma’naviy qadriyat sifatida yondashib, yoshlarimizdagagi e’tiqod ehtiyojini ayni shu yo‘nalishda, Birinchi Prezidentimiz «Jaholatga qarshi ma’rifat» deb chiroyli ifodalagan ma’noda botiniy qudratga, ma’naviy kamolot sari yetaklovchi boqiy quvvatga aylantirish uchun butun imkoniyatlarni safarbar qilmog‘imiz zarur.

Mavzu bo‘yicha xulosa:

Xalqimiz diniy va ma’naviy qadriyatlarning hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Din va ma’naviyatni birlashtiruvchi fazilat e’tiqoddir. Dinning zohiriylari va botiniy jihatlari bor. Botiniy jihatimmon bo‘lib, qolGANI ibodatlar – zohiriylari jihatlar, ular imonni muayyan tashqi harakatlar bilan tasdiqlaydi. Dinda e’tiqod, taqvo, halol va harom masalalari asosiylardan bo‘lib, bular bevosita inson ma’naviyatiga aloqadordir. Ma’naviyat muayyan ma’noda dinning botiniy jihat bilan tutashadi. Din va ma’naviyat nisbati haqidagi suhbatning xulosasi shuki, dinni siyosiylashtirishdan qochish, unga buyuk ma’naviy qadriyat

sifatida yondashib, yoshlarimizdagи e'tiqod ehtiyojini ayni shu yo'nalishda, «Jaholatga qarshi ma'rifat» yo'li bilan amalga oshirishimiz lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ma'naviyat va e'tiqod tushunchalarining o'zaro bog'liqligini izohlang.
2. Din va ma'naviyat ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini Venn diagrammasida qiyosiy tahlil qiling
3. Dunyoviy nuqtayi nazardan, din tushunchasini izohlang
4. Diniy jihatdan din tushunchasiga ta'rif bering.
5. . Diniy aqidaparastlik va ekstremizmning jamiyat hayotidagi xavfini "FSMU texnologiyasi"da izohlang.
6. Diniy fundamentalizmning jamiyat ma'naviy hayotiga salbiy ta'sirini izohlang.
7. Dunyoviylik va dininylikning xususiyatlarini jamiyat va malalakat hayotidagi ijobiy va salbiy omllarini "T-sxema"da izohlang?
8. "Din xalq uchun afyundir" iborasi nima maqsadda joriy etilgan va uning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri nimada? Ushbu savolni "Debat" usulida talqin eting.
9. Milliy ma'naviyatimizda dinning inson ma'naviy hayotidagi o'rni haqidagi qarashlarni izohlang.
10. Bugungi kunda din va ma'naviyat sohalarining uzviyligi haqida o'z mulohazangizni "Esse"da ifodalang.

12-mavzu: MA’NAVIYAT, SIYOSAT VA AXLOQ

12.1. Axloq – ma’naviyatning o’zagi. Axloq va ma’naviyat nisbati. Zamonaviy axloq muammolari.

12.2. Axloqiy fazilatlar shaxs ma’naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Iymon-ye’tiqod, mehr-shafqat, poklik va halollik, ahdga vafo ma’naviy barkamol shaxsning axloqiy fazilatlari sifatida.

12.3. Ijtimoiy hayot va siyosat. Siyosatda huquq va axloq qatlami.

12.4. Zamonaviy shaxs axloqi. Axloqiy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri.

12.1. Axloq – ma’naviyatning o’zagi. Axloq va ma’naviyat nisbati. Zamonaviy axloq muammolari

Axloq ma’naviyatning birlamchi negizlaridan hisoblanadi. Azaldan ma’na-viyat tushunchasi axloq tushunchasi bilan juda yaqin bog‘langan. Hatto ba’zi o‘rinlarda u ma’naviyatning ma’nodoshi sifatida qo‘llaniladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da «ma’naviy» sifatining ikkinchi mazmuni «axloqiy» deb berilgan. Chop etilayotgan ba’zi kitoblarda ma’naviyat ba’zan axloq va e’tiqodning sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu, ayniqsa, G‘arb tillariga xos, chunki ular ma’naviyatning lug‘aviy sinonimlarini diniylik mazmunida qo‘llaydi.

Ma’naviyat axloqdan boshlanib, axloqda mujassamlashadi. Jamiyatning barcha yutuqlari, ilm-fan, siyosat, adabiyot va san’at, urfodatlar va umuman madaniyat, oxir oqibatda, inson hayoti, munosabatlari, xulq-atvori yaxshilanishiga, erkinlik darajasi o’sishiga xizmat qiladi. Shu sababdan biz axloqni ma’naviyatning birlamchi poydevori va yakuniy qubbasi deymiz. Ko‘p tillarda «ma’naviy muhit» tushunchasi axloqiy muhit, axloqiy iqlim va sh.k. atamalar bilan almashtiriladi. Sharq ma’naviyati (nafaqat islom mamlakatlari, shuningdek, Xitoy, Hindiston, Janubi Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Koreya va Yaponiya ham) yadrosini, mag‘zini axloq tashkil etadi. Insonni tanish odobdan boshlansa, u bilan muloqot davomida axloqiy xislatlarini bila borasiz. Va’daga vafo qiladimi, do’stga sadoqati qanday, himmati va saxovati, jur’ati va shijoati, o’ktamligi va oriyati – barcha axloqiy fazilatlari birma-bir ko‘z oldingizda namoyon bo‘la boradi. Bu fazilatlar majmuyi zamirida esa, yaxlit shaxs ma’naviyati nurlanadi.

Axloq ma’naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo‘lsa, odob o‘z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni

anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranlashib boradi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma'naviyat esa, axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda ham bari-bir, uning ma'naviy dunyosini to'liq qamrab olgan bo'lmafsiz. Asli ma'naviyat Haq nurining ko'ngil ko'zgusida aks etishi bo'lganligidan muayyan ma'noda ko'ngil egasining o'ziga ham oxirigacha ma'lum emasdir, g'aybga tutashdir. Allomalar inson ko'nglini tilsim ataydilar. Ko'ngil ko'zgusidagi ma'naviyat nuri tufayli har bir inson o'zi sehrli tilsimga aylanadi, mohiyatdan cheksizlik kasb etadi.

Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asaridan bir parcha keltirib e'tibor qaratamiz.

“...Orfarinishdin qilib inson g‘araz,
Oni anglab xalq ichinda beevaz.
Ko‘nglin oning mag‘zani irfon qilib,
Ul tilsim ichra o‘zin pinhon qilib.
Roziy mahfiy ganj o‘lib bu turfa jism,
Sun’iydin ul ganj hifzig‘a tilsim.
Ham tilsim ul mahzan uzra, ham amin,
Ofarin so‘ng‘g‘ung‘a, ey jon ofarin
Aylaganda rozini gajini arz,
Ne samo aylab qabul, oni ne arz,
G‘ayri inson kim qilib oni qabul...¹”

(Butun olamni yaratishdan maqsad inson bo‘lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo‘qdir. Uning ko‘ngli irfon xazinasi bo‘ldi. Va bu tilsim ichida Haq o‘zini yashirdi. Shunday qilib, bu ajoyib jism, ya’ni inson vujudi maxfiy xazina sirini o‘zida yashirgan va ul xazinani saqlovchi tilsimdir. Inson ham bag‘riga xazina yashirgan tilsim, ham ul xazinaning posboni, ishonchli ehtiyotlovchisidir. Ey insonga jon bag‘sh etuvchi, bunday yaratgan mo‘jizanga ofarinlar bo‘lsin! Haq o‘z sirining xazinasini taklif etganda, na yer, na osmon uni qabul etishga botinmadilar, faqat insongina uni qabul etdi.)

Demak, inson ko‘ngli irfon xazinasi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, irfon Xaq sirini qalb bilan anglab yetish bo‘lib, unga erishgan shaxs, Orif deyiladi. Haq siri tavhid ma’rifatidir. Tavhid – yagonalik, ya’ni butun borliqning yagona, yaxlit mohiyati. Bu oliy haqiqatni butun

1 Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. –Т., 1991. -Б.19.

ko‘lami va teranligi bilan tushinib yetish oson emas. Buning uchun inson atrof-voqelik, tabiatga, o‘zga insonlar, bashariyatga, Vatan va millatga, ota-onaliga, farzand, do‘stga nisbatan huquq, burchlarini mukammal anglab yetmog‘i, o‘zini ichki qudrati va salohiyati, ruhiyati, iroda va himmatini qalban his qilmog‘i zarur. Har bir inson bu yorug‘ olamga, bu sinov maydoniga bir oliy vazifa bilan kelgan.

Axloq ma’naviyat vujudga kelishiga va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgani kabi, ma’naviyat ham axloq rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviyat tizimida axloq takomillashadi, sayqal topadi, Chunki unga ma’naviyatning boshqa tarkibiy qismlari – falsafa, din, adabiyot va san’at barakali ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy tushunchalar va kategoriyalarning mazmun-mohiyatini falsafa va ilm-fan boyitsa, chuqurlashtirsa, unga yanada aniqlik kirlitsa, rivojlanish omillarini ochib, ko‘rsatib bersa, adabiyot va san’at axloqiy tushuncha va kategoriyalarga hayotiylik, obrazli aniqlik bag‘ishlaydi, turli vaziyatlarda qanday yuzaga chiqishini ko‘rsatadi, inson ruhiy olami va taqdiri bilan bog‘laydi.

Lekin bugungi kunda zamonaviy axloq muammolari yuzaga kelmoqda. Uning shaxs, millat va muayyan jamiyatga taalluqli masalalari bilan birgalikda butun insoniyatga tegishli umumjahoniy muammolari ham mavjud. Zamonaviy til bilan aytganda, ham ma’naviy sohada ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni bugun axloqshunoslikda ham o‘z aksini topmoqda. Axloqning qator global muammolari borki, ular haqida alohida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera – axloqiy muhitning buzilishidir. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani – texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz – yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxmlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz.

Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus-ukrain olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi – biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin

kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, – deb yozadi. Yana bir muhim muammo, bu – biologik axloq. Mazkur hodisa so‘nggi bir necha o‘n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a’zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo‘li bilan o‘tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtayi nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo‘lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Biologik axloq muammolari ikki yo‘nalishdan iborat: biri insonlaming kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo‘lgan munosabatlari bilan bog‘liq «tashqi», ikkinchisi – insonlarning o‘z-o‘ziga va o‘zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog‘liq “ichki” axloqiy masalalar. Biz odatda “ekologik axloqshunoslik” deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. “Ichki” axloqiy masalalarga abort, bir jinsli nikoh, oila ajrimlari, evtanaziya(zavqli o‘lim), lezbiyanka, amoralizm, immoralizm, gedonizm, evdomonizm, tibbiyot axloqi(inson organizmlarini bo‘lib sotish), ”ommaviy madaniyat” unsurlari va hokazo.

Ushbu muammolarni hal etish insonlarni ma’naviy-axloqiy yetuklik asosida amalga oshirish mumkin, axloqiy fazilatlarni inson ma’naviy amaliy faoliyatları mezoniga aylantirish lozim.

13.2. Axloqiy fazilatlar shaxs ma’naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Iymon-ye’tiqod, mehr-shafqat, poklik va halollik, ahdga vafo ma’naviy barkamol shaxsning axloqiy fazilatlari sifatida

Jamiyat taraqqiyoti davomida axloqiy tushunchalar, me’yorlar, g‘oyalari boyib, murakkablashib, insonparvarlik darajasi yuksalib boradi. Murakkab axloqiy tushunchalar – ezgulik va yovuzlik, vijdon va vijdonsizlik, baxt va baxtsizlik, insonparvarlik va aksilinsoniylik, sadoqat va xoinlik kabilarning mazmuniga, milliy shart-sharoitlardan tashqari, turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar manfaatlari, mafkuralari, tarixiy o‘zgarishlar hamda siyosiy, geosiyosiy, kurraviy (global) muammolar ta’sir ko‘rsatadi.

Axloq hayotning barcha sohalarida – oilada, mahallada, mehnatda, ishlab chiqarishda, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo va h.k. aloqalarda odamlarning o‘zaro munosabatini va qarashlarini tartibga

soladi. U ijtimoiy-siyosiy kuchga (davlat va ma'muriy organlar kuchiga) emas, balki jamoatchilik fikriga tayanadi. Axloqiy qoidalarni va talablarni bajarmagan kishilarga nisbatan tevarak-atrofdagilarning munosabati sovuq bo'lgan, ularni qo'pol ravishda buzganlardan esa odamlar yuz o'girgan, jumladan, qishloqdan, mahalladan quvgan. Shu sababdan axloqiy talablar va me'yorlarga odamlar ixtiyoriy bo'ysungan. Axloqiy g'oyalar, me'yorlar, tamoyillar umumijtimoiy mazmunga ega va muayyan madaniyat vakillarining barchasi uchun barobar. Shu bilan birga axloqiy fazilatlar shaxs ma'naviyatining zuhuri hisoblanadi. Shaxs ma'naviy fazilatlarining asosini axloqiy fazilatlar tashkil etadi. Iymone'tiqod, mehr-shafqat, poklik va halollik, ahdga vafo ma'naviy barkamol shaxsning axloqiy fazilatlari ekan ayni paytda bu fazilatlarsiz shaxs ma'naviyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda ma'naviyat insoniy ijtimoiy-madaniy mavjudod sifatidagi mohiyatini, ya'ni insonning mehr-muruvvat,adolat, to'g'irilik, sofkillik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmui sifatida ham qamrab oladi. Ushbu xislatlar va fazilatlar insonning insoniylik qiyofasi va xususiyatini belgilaydi. Shuningdek, ma'naviyat bu shunchaki insoning xislatlari majmuigina emas, balki ijobiy xislatlar va fazilatlar yig'indisidir. Shunga ko'ra "Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy, ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlaragina ma'naviyat deb ataladi".¹ Mazkur insoniy fazilatlar ijtimoiy taraqqiyotda umuminsoniy ideallar darajasida ijtimoiy munosabatlarning axloqiy, estetik, diniy, huquqiy va boshqa me'yorlarini, urf-odat, an'analarini tashkil etib boradi va qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

Oddiy (elementar) axloqiy tushunchalar – salomatlik, uyat, aldamaslik, to'g'rilik, rostgo'ylik, o'zaro yordam, mehr, haromdan hazar qilish, yolg'onchi, firibgar, maqtanchoq kishilarga salbiy munosabat va shu kabilar me'yoriy mazmunga ega. Ular odamlarning kundalik munosabatini, aloqalarini, turmushini tartibga soladi. Axloqiy me'yorlar undovchi (rag'batlantiruvchi) va cheklovchi (taqiqlovchi) vazifalarini bajaradi. Oddiy axloqiy me'yorlar umuminsoniy xarakterga ega. Ular inson tabiati takomillashuvi bilan bevosita bog'liq. Shu sababdan ular,

¹ Yusupov E. Ma'naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti. – Xo'jand, 1996. – 29-bet.

tilidan, dinidan, madaniyatidan qat’iy nazar, hamma xalqlar uchun mohiyatan bir xil, ammo shaklan ba’zan ancha farq qilishi mumkin.

Hamma xalqlar to‘g‘ri so‘zni, rostgo‘ylikni yoqtiradi, yolg‘onni yomon ko‘radi, qoralaydi, Hamma xalqlarda qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, jamoadoshlar bir birini og‘ir damlarda qo‘llab-quvvatlagan, yordam bergen va h.k. Oddiy axloqiy me’yorlar odamlarni birlashishga, birgalikda qiyinchiliklarni yengishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga undagan. Bu bilan odamlarning jamoaviylik tuyg‘usini, ijtimoiylashish darajasini, ma’naviyatini yuksaltirgan, qadriyatlarning tizimli poydevorini yaratgan. Birlashish, jamoaviylik tuyg‘usi va me’yorlari odamlarning moddiy va ma’naviy yaratuvchilik imkoniyatlarini oshirgan.

Oddiy kundalik me’yorlarni ifodalovchi tushunchalardan tashqari, yuqorida ta’kidlanganidek, umumiylashtirish universal axloqiy tushunchalar ham bor. Ular axloq kategoriyalari, deb ataladi. Axloqning asosiy kategoriyalari quyidagilar kiradi: ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, burch, vijdon, imon, diyonat, sadoqat, baxt-saodat. Albatta, bulardan tashqari insonparvarlik,adolat, ishq (muhabbat), haqgo‘ylik (haqiqatparvarlik) va shu kabi muhim murakkab axloqiy tushuncha va tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Lekin ular, oxir-oqibat, yuqoridagi kategoriyalarning ma’lum vaziyatda namoyon bo‘lish shaklini ifodalaydi. Masalan, sadoqat burchning yoki vijdonning,adolat insonparvarlik va ezgulikning konkret ko‘rinishidir. Huzur-halovat (lazzat, zavq-shavq) baxt-saodatning muayyan holatda yuzaga chiqishidir.

Ezgulik insonning aqli, ma’naviy va ijtimoiy mavjudot sifatida takomil-lashishiga, uning sog‘lom ehtiyojlari o‘sishiga, kamchiliklari kamayishiga, ijodiy imkoniyatlari, salohiyati yuzaga chiqishiga yordam beradi. Va, aksincha, yovuzlik inson shaxsiyatini ich-ichidan yemiradi, uning hayotga, jamiyatga, hatto o‘z-o‘ziga noto‘g‘ri munosabatini shakllantiradi, salbiy xususiyatlarini ko‘paytiradi, xudbinlik, mas’uliyatsizlik, jaholat botqog‘iga botiradi. Ushbu munosabat bilan ma’rifat bu – ezgulik; jaholat bu – yovuzlik; ezgulik bu – mas’uliyat; yovuzlik - mas’uliyatsizlik; ezgulik bu – saxiylik, o‘zgalarga xayrixohlik, mafkuraviy tolerantlik, bag‘rikenglik; yovuzlik bu – ziqlanalik, xasislik, xudbinlik, o‘zgalarga befarqlik, o‘zgacha fikrlar, qarashlarga, qadriyatlarga toqatsizlik, deyish ham mumkin.

Vijdon axloq ilmi – etikaning eng ziddiyatli kategoriyalaridan biridir. Diniy-falsafiy qarashlarga muvofiq, vijdon Xudo tomonidan

insonga uqtirilgan aql qonunidir. Islomda vijdon (diyonat) Olloh insonga ato etgan tuyg‘u va majburiyat, u ko‘proq ko‘ngilga mansub. Yevropa mutaffakirlari orasida ham vijdonda tug‘ma «axloqiy tuyg‘u», his-hayojon katta o‘rin egallashini tan oladiganlar bor. Masalan, ingliz faylasufi A.Shefgsberi (1671-1713) axloqiy tuyg‘u insonda tug‘ma bo‘ladi, deb hisoblagan. Buyuk nemis faylasufi I.Kant vijdon va burch o‘rtasida tenglik alomatini qo‘ygan, vijdonni insonning o‘z burchini anglab olishi va bajarishi, deb hisoblagan. Burch kategoriyasi Kant etikasining asosiy yadrosini tashkil qiladi. Burchiga sodiq kishi vijdonli, burchiga hiyonat qilgan kishi esa vijdonsizdir. Burch kategoriyasi talqinidai kelib chiqib, Kant yana o‘zining ikkita «qat’iy imperativ» va «inson maqsaddir» degan axloqiy qonunlarini ta’riflaydi.

Insonning axloqiy e’tiqodi tayyor andozaviy me’yorlar, obro‘ ko‘rsatmalari asosida ko‘r-ko‘rona emas, balki uning tanqidiy tafakkuridan o‘tib, tanlanib, ongli qabul qilinsagina, gumanistik vijdon shakllanadi. Gumanistik vijdon egasi o‘z xatti-harakatlarini obro‘ tomonidan belgilangan me’yorlarga, talablarga mosligiga qarab emas, balki ezgulik va yovuzlik mezonlariga muvofiq ijobiy yoki salbiy baholashi kerak.

13.3. Ijtimoiy hayot va siyosat. Siyosatda huquq va axloq qatlami

Siyosiy ong jamiyat hayotini tashkil etish va boshqaruvni takomillashtirishda, demokratik huquqiy davlatni qaror toptirishda, inson huquqlari va erkinliklarini yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu bilan jamiyat ma’naviyati rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda siyosiy ongning insonparvarlashuvi, liberallashuvi yoki avtoritar mazmun kasb etishi siyosiy rejim qatorida jamiyatning ma’naviyatiga bog‘liq. Muayyan mamlakatda milliy konsolidatsiya darajasi kuchli, adolat, erkinlik g‘oyalari, ma’naviyat yaxshi rivojlangan bo‘lsa, hech qachon nodemokratik siyosiy rejimlar o‘rnatilmaydi. Harbiy fitna va to‘ntarishlar orqali bunday rejim o‘rnatilib qolganda ham, umri qisqa bo‘ladi. Tarix guvohlik beradiki, qaysi mamlakat xalqiga milliy jipslik yetishmasa, turli sinflar, tabaqalar o‘rtasida hokimiyat uchun talashlar kuchayib, siyosiy parokandalik sodir bo‘lsa, o‘sha mamlakatda turli xil diktaturalar, siyosiy rejimlar o‘rnatilishi mumkin. Rossiyada Oktyabr to‘ntarishi va proletariat diktaturasi o‘rnatilishi, Germaniyada Gitler boshchiligidagi natsional-

sotsialistlarning hokimiyat tepasiga kelib fashistik diktatura o‘rnatalishi, Italiyada Mussolini, Ispaniyada Franko fashistik rejimlari va boshqa qator davlatlarda harbiy rejimlarning qaror topishi turli ijtimoiy guruhlarning nosog‘lom raqobati, milliy jipslikning yetishmasligi, ma’naviy va siyosiy parokandalik tufayli yuz bergen edi.

Jamiyatning falsafiy va siyosiy ongi mamlakat rivojlanishida tarixiy burilish, tarixiy yangilanish yuz berayotganda uning hayotiga, shu jumladan, ma’naviy hayotiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tarixiy burilish, tarixiy yangilanish deganda, jamiyatning bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o‘tishi nazarda tutiladi. Bu borada, ayniqsa, feodalizmdan (agrар jamiyatdan) kapitalizmga (industrial jamiyatga) o‘tish davri ko‘plab misollar beradi. Yevropada burjua inqiloblari davrida jamiyatning siyosiy ongi kuchli rivojlangan, ijtimoiy ongning boshqa shakllariga qattiq ta’sir ko‘rsatgan, ular orasida yetakchiga aylangan edi. Agrar jamiyatning siyosiy tuzumi (asosan monarxiya), boshqaruv usullari, ma’naviy hayotning yetakchi e’tiqodiy instituti – din va cherkov qattiq tanqidga uchradi.

Siyosiy g‘oyalari, qarashlar ta’sirida revolyusion yo‘l bilan davlat va jamiyat institutlari, ma’naviy-madaniy hayoti qayta qurildi. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi. Cherkov senzurasi rasmiy bekor qilindi. Axloq, adabiyot va san’at zo‘ravonlik vositasida tubdan o‘zgartirilmagan bo‘lsa-da, yangicha mezonlar, tamoyillar, hurfikrlilik va huquqiy erkinlik asosida rivojiana boshladi.

Industrial jamiyatda tabaqaviy imtiyozlar bekor qilindi. Qonun oldida hamma tenglashtirildi. Qonunchilik asoslari va qonunlar tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Natijada, jamiyatning yangi huquqiy ongi, huquqiy madaniyati shakllanishiga zamin yaratildi. Bular hammasi fuqaroning hech kim oldida shaxsan qaram bo‘lmasisligi, jamiyat a’zolarining teng huquqligini, erkinligini yoqlovchi falsafiy va siyosiy g‘oyalari, qarashlar ta’sirida ro‘y berdi. Falsafiy va siyosiy qarashlar ta’sirida Yevropada XVIII asrdan boshlab ma’naviyatning ko‘plab sohalariga tanqidiy ruh, dogmatizm va eski qarashlarni tanqid qilish, ratsional tafakkur, hurfikrlilik, taraqqiyparvarlik g‘oyalari kirib keldi va rivojiana boshladi. Insonparvarlikni tushunish ancha kengaydi va chuqurlashdi. Bular jamiyatning ma’naviyatiga, umuman, ijtimoiy hayotga qattiq ta’sir ko‘rsatdi. Barcha sohalarda raqobat qaror topdi. Individualizm kuchaydi. Odamlar ko‘proq o‘z manfaatlarini o‘ylay, o‘z foydasini ko‘zlay boshladi. Mehr-oqibat, ba’zi bir an’anaviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar deformatsiyaga uchradi. Yangi jamiyatga xos yutuqlar, yuksalish, ilg‘or

g‘oyalar bilan bir qatorda salbiy unsurlar, axloqiy illatlar ko‘paydi. Ijtimoiy fanlar jamiyatni o‘rganuvchi fanlar bo‘lgani uchun tabiiy fanlarga nisbatan siyosat bilan ko‘proq bog‘langan. Ma’lumki, davlatning jamiyat hayotini tashkil qilish, yo‘naltirish va boshqarish faoliyati siyosat deyiladi. Siyosat, shuningdek, partiyalarning davlat hokimiyati uchun kurashidir. Ibtidoiy jamiyatdan keyingi jamiyatlar hayotining qaysi sohasini olmaylik, o‘rganmaylik, unda bevosita yoki bilvosita siyosatning ijobjiy yoki salbiy ta’sirini ko‘ramiz. Demak, ularni o‘rganuvchi fanlar bu ta’sirni qaysidir darajada aniqlaydi, tahlil etadi. Shu sababdan, ijtimoiy fanlar siyosiy mazmun va ahamiyat kasb etadi.

12.4. Zamonaviy shaxs axloqi. Axloqiy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri

Bugungi globallashuv davrida, dunyo xalqlari madaniy aloqalarining kengayib borishida, kishilarimizda, ayniqsa yoshlarimizda milliy, axloqiy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko‘ra yoshlarimiz milliy, axloqiy madaniyatni shakllantirish bugungi tarbiya tizimining muhim vazifasi hisoblanadiki, oila buni amalga oshuruvchi asosiy subyekt sanaladi. Darhaqiqat, odob ko‘nikmalari bolada yoshlikdan bevosita ota-onaning namunaviy xatti-harakatlari ta’sirida shakllanadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”degan xalq hikmatida ana shu oddiy haqiqat mujassamlashgandir.

Zamonaviy shaxs odobi, axloqi faqat muayyan millat, xalq munosabatida emas, balki xalqaro ijtimoiy-siyosiy miqyosida, xususan, diplomatiya sohasida qabul qilingan qonun-qoidalar tarzida ham amal qilishni talab etadi. Zamonaviy shaxs qanday axloqiy fazilatlar egasi bo‘lisni kerak? Zamonaviy shaxs avvalo umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan axloqiy madaniyat unsurlarini, kasbiy odob, etiket qoidalariga amal qilishi, ishbilarmonlik, faol hayot tarzi, ko‘p tillarni bilishi, bag‘rikenglik, demokratiya prinsiplariga sodiqliknii, texnika va texnologiyalarda salohiyat, yuksak bilimlar egasi bo‘lishni talab etadi va albatta yuksak ma’naviy madaniyat va axloqiy qadriyatlar bo‘lgan insonparvarlik va ezgulikga amal qilishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Inson ma’naviyat sohibi ekanligi uning axloqiy madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra shaxs axloqiy tarbiyasi inson mohiyati bilan bog‘liq azaliy falsafiy muamolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Chunki barcha tarbiya yo‘nalishlari o‘zaro birlikda jamiyat va shaxs ma’naviyatini shakllantirish uchun xizmat qilib mazkur jarayonning natijasi axloqiylik mezonlari bilan o‘lchanadi. Chunki umuman har qanday tarbiyaning amaliy ko‘rinishi, uning maqsad, vazifalarining qay darajada reallashishi shaxs axloqiy tarbiyasi darajasi bilan belgilanadi. Va shunga ko‘ra axloq ma’naviyatning negiz elementi hisoblanadi.

Shu bois axloqiy tarbiya masalasiga har bir davrda o‘ta dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Tarixdan ma’lumki, axloqiy tarbiya Konfutsiy, Aflatun, Arastu, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Koshifiy, Ahmad Yuknakiy, Avloniy kabi mutafakkirlarning diqqat markazlarida bo‘lgan va ular o‘zlarining bu haqda noyob fikrlarini meros qilib qoldirganlar. Bu yerda har bir alloma fikriga to‘xtalish imkoniyati ega bo‘lmasak-da, ayrimlarining fikrini keltirib o‘tamiz. Yunon faylasufi Aflatun (er. avv. 4 asr)ning fikricha, tarbiya faqat azaldan insonga berilgan fazilatlarni shakllantiradi, yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto‘g‘ri berilsa, u holda insondagi azaliy fazilatlar o‘zgarishi yoki o‘chishi mumkin.

Axloqiy tarbiya insonni komillikka eltuvchi yo‘llarning eng asosiysi hisoblanadi. Yunon faylasufi Arastu (er. avv. 4 asrda) “Ma’naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan kishidir. Fazilat (axloqiy-tarbiya mahsuli) insonning qo‘lga kiritgan sifatidir.”- deb ta’kidlangan edi. Shunga ko‘ra axloqiy tarbiya shaxsni ma’naviy-ruhiy kamol topishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Shaxsni axloqiy tarbiyalash murakkab uzlusiz jarayon bo‘lib u jamiyat uchun eng dolzarb masala hisoblanadi. O‘z vaqtida buni taniqli map’rifatparvar Abdulla Avloniy bir jumla bilan ifodalab bergen edi: “Tarbiya- biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Allomaning ushbu fikri hozirgi kunda yoshlarimizni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda dasturamaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxs axloqiy tarbiyasi axloqiy fazilatlar, me’yor va tamoyillarning muayyan usul va vositalari yordamida, qadriyatlar darajasida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq

kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli. Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi va u axloqiy qadriyatlar darajasida qadr-qimmatga ega, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mavzu bo‘yicha xulosa

Demak, ma’naviyat axloqdan boshlanib, axloqda mujassamlashadi. Jamiyatning barcha yutuqlari, ilm-fan, siyosat, adabiyot va san’at, urfodatlar va umuman madaniyat, oxir oqibatda, inson hayoti, munosabatlari, xulq-atvori yaxshilanishiga, erkinlik darajasi o‘sishiga, jamiyat qonunlari va huquqiy qonunlarni amal qilishiga xizmat qiladi. Shu sababdan biz axloqni ma’naviyatning birlamchi poydevori va yakuniy qubbasi deymiz. Insonni tanish odobdan boshlansa, u bilan muloqot davomida axloqiy xislatlarini bilib borasiz. Va’daga vafo qiladimi, do’stga sadoqati qanday, himmati va saxovati, jur’ati va shijoati, o’ktamligi va oriyati – barcha axloqiy fazilatlari birma-bir ko‘z oldingizda namoyon bo‘la boradi. Bu fazilatlar majmuyi zamirida esa, yaxlit shaxs ma’naviyati aks etadi. Axloq ma’naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo‘lsa, odob o‘z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan-axloqqa, axloqdan ma’naviyatga qarab teranlashib boradi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma’naviyat esa, axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda ham bari-bir, uning ma’naviy dunyosini to‘liq qamrab olgan bo‘lmaysiz.

Ma’naviyat tizimida axloq takomillashadi, sayqal topadi, Chunki unga ma’naviyatning boshqa tarkibiy qismlari – falsafa, din, adabiyot va san’at barakali ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy tushunchalar va kategoriylarning mazmun-mohiyatini falsafa va ilm-fan boyitsa, chuqurlashtirsa, unga yanada aniqlik kirlitsa, rivojlanish omillarini ochib, ko‘rsatib bersa, adabiyot va san’at axloqiy tushuncha va kategoriyalarga hayotiylik, obrazli aniqlik bag‘ishlaydi, turli vaziyatlarda qanday yuzaga chiqishini ko‘rsatadi, inson ruhiy olami va taqdiri bilan bog‘laydi.

Axloq ma’naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo‘lsa, odob o‘z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan-axloqqa, axloqdan ma’naviyatga qarab

teranlashib boradi. Axloq yuq joyda ma'naviyat ham bo'lmaydi. Axloqiylikka javob bermaydigan har qanday g'oya, ta'limot, hodisalar ma'naviyiy hodisalar bo'lolmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Axloq ma'naviyatning o'zagi ekanligini hayotiy misollar bilan bog'lab izohlang
2. Axloq va ma'naviyat nisbatini qiyosiy tahlil qiling.
3. Zamonaviy axloq muammolarini "Klaster" usulida ifodalang.
4. Individualizm va jamoaviylik tushunchalarini "T-sxema"da izohlang?
5. Global axloqiy muammolar ma'naviy mohiyatini "Tushunchalar tahlili" usulida yoriting.
6. Siyosatda huquq va axloq qatlamini "Venn diagrammasi"da qiyosiy tahlil qiling
7. "Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy, ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarigina ma'naviyat deb ataladi" ushbu jumla kimga tegishli va uni izohlang
8. Siyosat va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi nimada?
9. Siyosiy ongning insonparvarlashuvi, liberallashuvi yoki avtoritar mazmun kasb etishining ma'naviyatga bog'liqligi haqida o'z mulohazangizni "Esse"da ifodalang.

13-mavzu: SAN'AT, ADABIYOT, MA'NAVIYAT

13.1. *Ma'naviyat va nafosat. Shaxs ma'naviyati – inson botiniy go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at.*

13.2. *Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari.*

13.3. *Ijtimoiy ma'naviy muhitni yaratishda san'at turlarining o'rni va ahamiyati. Mustaqil O'zbekistonda san'at va adabiyotning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati.*

13.4. *Ma'naviyat va adabiyot. So'z san'atining shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma'naviyatining akslanishi .*

13.5. *Teatr – ibrat maktabi.*

13.1. Ma'naviyat va san'at. Shaxs ma'naviyati – inson botiniy go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at

Ma'naviy – ruhiy hissiyot nafosat fanining tadqiqot doirasi – predmeti va ayni paytda uning (predmetining) o'zlashtirilish usuli, vositasi mavqeini o'taydi. Mazkur hissiyotni konkret-obrazli tarzda ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan nafosat fanining ham tadqiqot doirasi, ham uning bilish usuli hisoblanadi. Shunga ko'ra nafosat, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, barcha davrlarda asosan badiiy ma'naviy qadriyatlar, sanat asarlarining yaratilishi, idrok etilishi, baholanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi san'at falsafasi, ya'ni san'atshunoslikning nazariyasi fani sifatida ta'riflanib kelingan. San'at ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. Sanat asarlarining yaratilishi, idrok etilishi, baholanish jarayoni umuminsoniy qadriyatlarning yaratilishi, o'zlashtirilishining qonuniyatlarini tamoyillariga bo'ysunadi.

Ta'kidlanganidek, nafosat "Ma'naviyatshunoslik" fani bilan bevosita aloqadorlikdadir. Ma'lumki, mazkur fanning tadqiqot obyekti – murakkab ijtimoiy hodisa sanalmish manaviyat hisoblanadiki, uning tarkibiy qismiga estetik bilimlar ham kiradi. Shuningdek, "Ma'naviyatshunoslik" bilimlar majmuining orasidagi aloqadorlik va ularning kishi ko'nikma va malakalari orqali hayot tarziga aylanishini,

o‘rganishini¹ hisobga oladigan bo‘lsak, mazkur fanlar orasidagi uzviy aloqadorlik yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Nafosat inson ichki ma’naviy go‘zalligini nafosat qonuniyatlari bilan o‘rganadi. Ma’naviyat shaxs ma’naviyati – inson botiniy go‘zalligining asosi hisoblanadi. Uni boyitish uchunaxloqiy va estetik madaniyat shakllantirish lozim. Lekin uni to‘g‘ri anglab yetmaslik, amal qilmaslik ma’naviy qashshoqlikni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda inson mohiyati va ma’naviyatini anglab yetish, uni turli ma’naviy tahdidlardan, mafkuraviy xurujlardan asrab qolish global muammolardan biridir. Mazkur tahdid va xurujlar asosan kishilarni, xususan yoshlarni ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bo‘lsa, san’at asarlari inson ma’naviy borlig‘ini boyituvchi muhim ma’naviy omil hisolanadi. Ayni paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yaratilishi funksiyasini bajarish bilan birga jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim omilidir. Lekin san’atning ma’naviyat fenomeni sifatidagi maqomati estetik fikr taraqqiyotida yetarli darajada o‘rganilmay kelinmoqda.

San’at ma’naviy qadriyatlarning, badiiy estetik asarlarining yaratilishi, idrok etilishi, baholanish jarayoni bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlarning yaratilishi, o‘zlashtirilishining qonuniyatlari tamoyillariga bo‘ysunadi. San’at, jumladan, badiiy adabiyot o‘zlikni anglab yetishning mustaqil yo‘li bo‘lib, aslida taxayyul o‘yinlari vositasida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinishdir. San’at insoniyatning badiiy va estetik ijodining ma’naviy va amaliy mahsuli, estetik faoliyati va ehtiyojini qondirishning o‘ziga xos usulidir. San’atning ko‘pfunksionallik xususyati insonning estetik ongi, his tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligidagi amaliy faoliyati bilan kechadi. Bunda san’atning inson ma’naviyatining mahsuli ekanligini va u noyob va betakrorligi bilan inson ruhiyatini junbushga keltiradigan va unga ruhiy qudrat bag‘ishlaydigan kuch ekanligini anglash kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra san’atning ushbu xususiyatini o‘rganish va tahlil qilish ilm-fan oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

San’atdagi his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi uning estetik ong shakli va estetik faoliyatni belgilaydigan muhim jihat bo‘lib, bu san’atning ma’naviyat tizimining tarkibiy qismi, ma’naviyat fenomeni maqomida amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

¹ Qarang: B.Ziyomuxammedov, S.Ziyomuxammedova, S.Qodirova. Ma’naviyat asoslari. – T., 2000. – 27-28-betlar.

Ijtimoiy ong shakllari san'atdagi his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi orqali o‘zaro funksional aloqaga kirishadilar va jamiyat ma’naviy hayoti maqomida amal qiladilar, qadriyatlarga aylanadi. Shu ma’noda san’at faqat ma’naviyatni kamol toptirish, yuksaltirish omili emas, balki uning mavjudlik usuli, mezoni bo‘lib hisoblanadi.

San’atning ma’naviyat tizimi tarkibida tutgan xuddi ana shu funksional, tizim tashkil etuvchi xususiyati tadqiqotchilarning e’tiboridan chetda qoladi. “Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ma’naviyatning ijtimoiy ong shakllari, iqtisodiyot bilan o‘zaro munosabati tahlil qilingani holda, bunda san’at yodga ham olinmaydi.¹.

Bizningcha, ma’naviyatning, “beqiyos kuch va insonning barcha qarashlari-ning mezoni” ekanligi san’atning his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi bilan belgilanadigan noyob ijtimoiy hodisa (fenomen) – estetik ong shakli va estetik faoliyat turi sifatidagi ma’naviyat mezoni bilan zaruran shartlangandir.

San’atning mohiyati, predmeti, maqsadi falsafiy-estetik fikr tarixida doimo dolzarb, bahsli masala bo‘lib kelganki, bu uning ma’naviyat fenomeni sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatib kelganligi bilan izohlanadi. Nemis mumtoz falsafasining namoyandalari I.Kant va G.V.Gegel mazkur masalani o‘zlarining fundamental asarlarida teran falsafiy tahlil qiladilar va o‘z konsepsiylarini yaratadilar. I.Kant fikricha, san’at inson faoliyatining uyg‘unlashgan sohasidirki, bunday uyg‘unlikni hissiyot va aql birligiga asoslangan estetik maqsadga muvofiqlik yuzaga keltiradi. (Kant, I. 1965. b.94)

Faylasuf o‘zining mazkur qarashini transdental (lot. transedere-chegaradan chiqmoq), ya’ni tajribadan ilgari, unga bog‘liq bo‘lmagan bilish haqidagi konsepsiyanidan kelib chiqqan holda ilgari suradi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, I.Kant falsafasining negizini *Haqiqat*, *Ezgulik*, *Go‘zallik* oliy qadriyatlarning mazmunini o‘zida uyg‘unlashtirgan (sintezlashtirgan) estetik ong shakli va estetik faoliyat sohasi – san’at tashkil etadi.

Insonning o‘z borlig‘ini transcendental mohiyatini anglashi san’atning ma’naviyat fenomeni maqomining o‘zak masalasi bo‘lib, bunga u oddiy mantiqiy usul, tamoyillari, empirik darajadagi hissiyot bilan emas, balki yuksak aprior aql va ruh birligidagi intuitiv bilish orqali erishadi va bunda san’at belgilovchi rol o‘ynaydi, deb qaraladi.

¹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T., 2010. -B. 300-330.

Xulosa qilib aytganda, insonning o‘z borlig‘ini – transendental mohiyatini anglashi san’atning ma’naviyat fenomeni sifatidagi maqomining o‘zak masalasi hisoblanadi. Bunga u oddiy mantiqiy usul, tamoyillari, empirik darajadagi hissiyot bilan emas, balki yuksak aprior aql va ruh birligidagi intuitiv bilish orqali erishiladi va bunda san’at belgilovchi rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra san’atning ma’naviyat mezoni sifatidagi mohiyati uning his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unlida namoyon bo‘ladi, deb aytish mumkin. San’atning ushbu jihatni uning umuminsoniy qadriyat darajasida yaratilishi va amal qilishining muhim mezonidir. Shu ma’noda san’at asarlarini yaratishda ijodkor shaxsni ma’naviy borlig‘ini va o‘zligini shaxs sifatida kamol topishida yuksak umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo‘lib ayni paytda yaratilgan san’at asarlari inson ma’naviy olamini boyitishga hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda kishilarimiz, xususan, yoshlarimizni umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida o‘zligini anglashi, ma’naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazishda milliy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatga ega falsafiy-estetik g‘oyalari, ta’limot, yo‘nalishlar bilan yaqindan tanishib, ular haqida estetik dunyoqarashi va tafakkurga ega bo‘lmog‘i zarur, yangidan-yangi san’at asarlari yaratuvchisi va ijodkoriga aylanishiga turki bermoq kerak.

13.2. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari

Badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi so‘z san’tidir. Adib va shoир ham o‘z ishiga beg‘araz yondashsagina, hayot haqiqatini uyg‘un aks ettira oladi. Uning ustiga badiiy asarlar insonga ibrat, aql, tafakkur, tuyg‘u, his-hayajon, timsollar vositasida ta’sir etishga urinadi.

Baqo – cheksiz, mutlaq haqiqat esa – g‘ayb. Demak, ilm uni oxirigacha anglab yeta olmaydi. Ilm majoz (metafora)dan boshlanadi. San’at esa to‘lig‘icha majozga quriladi. Ilm hech qachon Borliq haqiqatining oxiriga yeta olmaydi. Mumtoz san’at asari esa Borliq haqiqati haqida uyg‘un tasavvur bera oladi. Asli shunga erisha olmasa, u mumtoz san’at emas. Ilmiy iste’dod va badiiy iste’dod boshqa-boshqa narsalar, ammo ulug‘ san’atkorlar va buyuk allomalar faqat bir tomonlama iste’dod egalari bo‘lishgan emas.

Agar mantiqiy tafakkur har bir narsa-hodisani qismlarga ajratib ilmiy tushunchalar yordamida tahlil qilishga urinsa, badiiy tafakkur voqelikni yaxlit uyg‘unlikda idrok etishga urinadi. Buning uchun turli ramzlar, timsollar, ishora va tashbehlardan foydalanadi. Badiiy til ramzu ishoralar tilidir. Agar ilm tilini mutaxassislargina tushunsa, badiiy ijod mahsuli ko‘pchlikka taqdim etiladi. Badiiy tafakkur yaratgan dunyo san’at dunyosidir. Ilm faqat inson aqliga murojaat qilsa, haqiqiy san’at asari insonning ham aqli, ham tuyg‘ularini junbo‘shga keltiradi. Shu sababdan san’atning ilmdan qamrovi kengroqdir. San’atkor faylasuf singari voqelikni ilmiy izohlashga urinmaydi, balki uning muayyan talqinini yaratib, uni o‘zgalarga beixtiyor yuqtirish yo‘lidan boradi. San’atning ta’sir kuchi undagi timsoliy tafakkur qudratidandir.

Asotir (mif) bilan badiiy asarning umumiyligi tomoni – ular har ikkisi ham mohiyatni hayotiy yoki xayoliy timsollar asosida anglatishga urinadilar, farq qiluvchi tomoni – asotirni o‘z davrining odami haqiqat deb qabul qiladi, san’at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o‘ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi. Qadim elatlar ma’lum muddat turli sanamlar qudratiga ishonganlar va ularga topinganlar. Zevs, Apollon, Afrodita kabi Olimp tog‘ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilingan sanamlar sharafiga yunonlar ibodatxonalar qurib, qurbanliklar keltirganlar. Badiiy timsol haqiqatni o‘zida to‘liq ifodalashga da’vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi. Fariuddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi jahon qushlarining afsonaviy hukmdori Simurg‘ faqat badiiy timsol, Haqiqat sirlariga ishoradir. Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi qahramonlar ham shoir ko‘nglidagi muayyan tasavvurlarga ishora qiladi, dostonlarning badiiy mazmuni shoirning Borliq haqiqati haqidagi fikr-u o‘ylariga bizni oshno etadi.

San’at, jumladan, badiiy adabiyot o‘zlikni anglab yetishning mustaqil bir yo‘lidir. San’at aslida yosh bolaning o‘yinidan kelib chiqqan narsa. O‘yin – Borliq haqiqatini amaliy anglab yetish – o‘zlashtirishning ilk ko‘rinishi. Yosh bola Borliqni anglab yetish uchun hayotiy jarayonlarni o‘yinda modellashtiradi.

San’at turlari behisob, ularning har biri voqelikda mavjud muayyan imkondan foydalanadi. Haykaltarosh toshni “jonlantiradi”, musavvir ranglar tovlanishini ishga soladi, musiqa san’ati qadimgilar ishonchiga ko‘ra, inson tuyg‘ulariga bevosita koinot uyg‘unligini olib kiruvchi vosita hisoblanadi. Ammo badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi, nazarmizda, badiiy so‘zdir.

Inson xatti-harakat, imo-ishora bilan ham ko‘p narsani tushuntira oladi. Ammo baribir so‘z, inson nutqi axborot almashuvining bosh vositasidir. San’atni ham ahli basharning o‘ziga xos axborot almashuv vositalaridan biri deb qarasak, so‘z san’ati ushbu badiiyat dunyosida alohida mavqega egadir.

Adabiyot inson tafakkurining, ma’naviyatining asosi va bosh ozig‘idir. Chunki unda hayot aks etadi. Ammo o‘z holicha, ko‘zgudagi-dek emas, balki muallif maqsadiga bo‘ysunib, uning nigohi orqali sizga ko‘rinadi. Adabiy asar ko‘z oldingizdan kechayotgan ayqash-uyqash hodisalar girdobini ma’lum ma’no tizimiga joylab, undan sizning ko‘zingizga, ongingizga ma’no, mazmun chiqarib beradi.

Endigina harfni harfga urishtirib kitob o‘qishga o‘rgangan besh-etti yoshli bola tevarak-atrofdagi hayotni qanday tahlil qilib, to‘g‘ri xulosalar chiqara oladi? Buning uchun unga kim yordam beradi? Albatta, birinchi navbatda, ona va otasi, opa-akalari, tarbiyachilari, atrof-muhitdagi insonlar ta’siri bo‘ladi. Biroq ushbu insonlar ko‘rsatadigan ta’sir, ular gapiradigan gaplar o‘z navbatida ularning ong va saviya darajasiga, ularning o‘zi hayotni qanday tushunishiga bog‘liq. Kitob esa, agar arzigulik kitob bo‘lsa, ma’lum ma’noda, umumbashariyat tajribasi asosida yozilgan, hayotning bir qirrasini bola uchun tushunarli usulda umumbashariyat ma’naviy olami ko‘zgusi orqali xayrli bir niyat sari yo‘naltirib aks ettirgan bo‘ladi. Mana shu ma’noda adabiyotni inson ma’naviy dunyosining shakllanishidagi ilk va oziq vosita deya olamiz. Falsafiy va ilmiy dunyo daholari ham odatan badiiy adabiyot yo‘rgagida voyaga yetadilar.

Adabiyot haqida yoshligidan kitobga mehri tushgan, kitob ichida o‘sgan odamgina gapirishga haqli bo‘lsa kerak. Keyinchalik katta bo‘lib, sababi tirikchilik, adabiyotshunoslikka qo‘l urgan kishilarning so‘zlari bu dargoh uchun begona so‘zlardir. Ular yo o‘zgalardan ko‘chirma qiladilar, yo chinakam adabiyot uchun yot bo‘lgan qarashlarni unga tirkamoqchi bo‘ladilar. Bu ishlarni ko‘ra bila turib qiladilarimi, yo ko‘r-ko‘ronami, bunisining oxir-natija uchun unchalik ahamiyati yo‘q.

Yoshligidan kitob o‘qishga o‘rgangan odam odatda falsafiy, siyosiy, diniy adabiyotdan boshlamaydi, avval badiiy adabiyot namunalari bilan tanishadi. Agar boshqa biror tur adabiyot qo‘liga tushganda ham, tabiiyki, bola tafakkuri bilan uni tushunishga qodir bo‘lmaydi. Badiiy asar unday emas, u yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma ham undan o‘z fahm-farosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Adabiyot – ibrat maktabi, mehr

parvarishidir. Mumtoz adabiyot Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega.

San'atni, jumladan, adabiyotni o'yinga qiyos qildik. Shu ma'noda san'at va adabiyot insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o'ynaydi, o'yin orqali bola hayotni o'rganadi. Adabiyot ham o'ynab turib o'rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o'yini – beg'araz. Kattalarning o'yiniga doimo g'araz xavf solib turadi. Adabiyot ham shunday. Adib va shoir beg'araz bo'lsa, u hayot haqiqatini uyg'un aks ettira oladi. Ammo g'araz aralashsa, g'arazli adabiyot vujudga keladi. G'arazli adabiyot inson diliga zulmat keltiradi, ruhini tumanlashtiradi, aqlini adashtiradi. Mumtoz adabiyot beg'arazdir.

Adabiyot inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardandir. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda ilmiy tadqiqotlar va darsliklarda 12 – 15 asrlar o'zbek adabiyotidagi yaxlit jarayonni «dunyoviy adabiyot» deb nomlangan taraqqiy parvar yo'nalish; «diniy-mistik» va «feodal-saroy» adabiyotlari deb tamg'a bosilgan «reaksion» oqimlarga ajratib, ularni bir-biriga keskin qarshi qo'yib kelinganligi hammamizga ma'lum. Ammo bu atamalar davr badiiy tafakkuri mohiyatini uning asosiy badiiy mezonlar silsilasiga mos holda ochib bera olmadi. Chunki ular aslida marksistik mafkura nuqtanazarini ifodalab, ushbu mafkura targ'ibotchisining dunyoni idrok etish me'yorlarini o'tmish ajdodlar merosiga jiddiy tahrirsiz tatbiq etishga asoslangan. Shunday yondashish oqibatida, masalan, Alisher Navoiy badiiy tafakkur olami o'z yaxlitligida to'g'ri talqinini topadi, sun'iy ravishda turli usullar, turli uslublarning qovushmagan yig'indisiga «aylanib qoldi». Natijada, shoir asarlarini keng kitobxonga taqdim etish jarayonida uning ijodidagi ba'zi jihatlar, bob va qismlar «oshiqcha», «keraksiz» hisoblanib, tushirib qoldirildi. Masalan, «Hayrat ul-abror»ning kitobxon ko'zidan «yashirib» qolingga kirish boblari va birinchi, ikkinchi maqolatlarida nafaqat yolg'iz bu asar, balki butun «Xamsa», demakki, shoir ijodining asosiy mohiyatini, undagi takomil bosqichlari silsilasini to'g'ri tushunib olish uchun kalit mavjud edi. Ularni ommaviy nashrlarda qisqartirib tashlab qoldirish bilan ulug' shoir ijodining asos mohiyatini to'g'ri anglash yo'liga mutlaqo oqlab bo'lmaydigan g'ovlar olib tashlandi.

Alisher Navoiyning dunyoni badiiy idrok etishi o'ziga xos murakkab jihatlarga ega. Agar biz uning badiiy tafakkur mohiyatini davr istiloh va tushunchalariga tayangan holda, ularning ichki mazmunini to'g'ri tushunib yetishga jiddiy intilib, talqin va ta'rif etmasak, o'zimiz

o‘ylab topgan, bugungi kunga xos yoki o‘zga madaniyat an’analariga moslangan atamalar bilan ifodalashga urinsak, ulug‘ daho qarashlarini ma’lum darajada jo‘nlashtirib tushuna boshlaymiz, natijada o‘z ma’naviy ufqlarimizni muayyan qoliplar doirasida cheklab qo‘yish xavfiga ro‘baro‘ bo‘lamiz. Shu sababli Navoiy fikrlarini uning o‘z istilohlarida anglab yetishga uringanimiz xayrlidir.

Mavjud adabiyotshunoslik fani adabiyotning shaklini o‘rganadi, mazmuniy mohiyatini jiddiy o‘rganmaydi. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni o‘yin sifatida o‘rganadi, ya’ni undagi o‘yin qoidalarini tahlil etadi. Albatta, adabiy asar mazmunini to‘g‘ri tushunishimiz uchun undagi «o‘yin qoidalarini», ya’ni ramz va timsol, shakliy, uslubiy o‘ziga xosliklarni to‘g‘ri anglashimiz kerak. Ammo, baribir, badiiy tafakkur qonuniyatlarini bilish, shakl va uslubni farqlash hali asar mazmunini to‘liq, asliga muvofiq tushunib yetish degani emas. Chunki adabiyotdan har bir shaxs o‘z hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, tafakkur darajasiga ko‘ra, qisqasi, o‘ziga yarasha ibrat oladi. Mumtoz o‘zbek adabiyotini she’riyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki o‘zbek tilida yetib kelgan ma’naviy merosimizning 80 foizini she’riyat tashkil etadi. Ona zaminimizga islom dini bilan birga arab tili va she’riyat ilmi ham kirib keldi. Madrasalarda Qur’oni karim, tafsir, hadis ilmi, arab tili bilan bir qatorda she’r ilmi – (aruz) nazariyasi qonun-qoidalari ham o‘qitib, yodlatilar edi. Yod olish esa aqlni peshlatib chiniqtirar, tiniqlashtirar, tafakkurni chuqurlashtirib oydinlashtirar va nafosat bilan so‘zlashga asos bo‘lardi. Qomusiy olimlarimizning deyarli barchalari she’riyat bilan oshno bo‘lib, yo she’riy qasida bitganlar, yo she’riyat nazariyasi aruzga oid asarlar yaratganlar.

13.3. Ijtimoiy ma’naviy muhitni yaratishda san’at turlarining o‘rni va ahamiyati. Mustaqil O‘zbekistonda san’at va adabiyotning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati

Zamonaviy insonning estetik, axloqiy, hatto siyosiy ongida yuksak va ommaviy madaniyatlarga o‘zaro ta’siri madaniyat mahsulotlarida emas, ko‘proq jamiyat a’zolarining, san’at ahlining, siyosatchilar va ijodkorlarining badiiy estetik qarashlarida, kengroq olsak, ijtimoiy mo‘ljallarida, ya’ni ma’naviyatida namoyon bo‘ladi.

San’atkor, albatta, insonning psixologiyasi va ichki dunyosini, shu jumladan, ong osti instinktlarini, muayyan ijtimoiy reallikning, shaxs hayotining o’tkinchilini ko‘rsatishga, badiiy tahlil qilishga haqli. Lekin

san'atkor doimo ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi chegarani aniq yoki intuitiv his qilmog'i, asarida uni yo'qotib qo'ymasligi, yovuzlik tomonga o'tib ketmasligi kerak. Bundan mutlaqo asarning xulosasi optimistik bo'lishi kerak, degan fikr kelib chiqmaydi. Asar qanday yakunlanishidan qat'iy nazar insonparvarlik g'oyasiga xilof kelmasligi lozim. Mumtoz tragediyalarni eslasak, ularning mudom yuksak ideallarga mosligiga amin bo'lamiz.

Ma'lumki, ommaviy madaniyat bozor talablari va moda asosida rivojlanadi. Aynan ushbu omillar madaniyatlar interferensiyasiga ko'pincha sabab bo'ladi. Teatrlarga tomoshabinlarni jalg qilish maqsadida sayoz mazmunli, sxematik, lekin tomoshabin ehtiroslarini qitiqllovchi sahna ko'rinishlarini, ongosti, mistika, absurd unsurlarini ustalik bilan spektaklga tiqishtirgan asarlar ko'plab qo'yilmoqda. Ular qatorida mumtoz asarlar mazmunini o'ta jo'nlashtirish, ba'zan ochiqchasiga soxtalashtirish, ataylab buzish, asarni modaga mos sxematik andozaga solish, modaga kirgan g'oyalarni asarga tiqishtirish misollari ham ko'p. Aynan shular madaniyatlar interferensiyasiga misoldir. Masalan, P.Chaykovskiyning «Oqqush ko'li» baletining yangi versiyasida, yosh oqqushlar raqsi yo'llarda qator turib, mijoz kutadigan fohishalar raqsi bilan almashtirilgan. Tabiiyki, balet musiqasining partiturasi ham tegishli joylarda o'zgartirilgan

Sahna va ekranlarda barcha janrlar va uslublar qorishtirib yuborilmoqda. Agar bu obrazni teranroq ochishga, asar badiiy va estetik saviyasini ko'tarishga xizmat qilganida, uni qabul qilish mumkin edi. Shunday filmlar paydo bo'ldiki, ularda hamma narsa – Sharq yakka kurashlarini, vampirlarni, fahsh, dahshat, zo'ravonlik va fantastikani va h.k.ni ko'rsatish aralash-quralash bo'lib ketgan. Yangicha talqin qilish, asarning zamonaviy versiyalarini yaratish nafaqat teatr va kinoda, balki boshqa san'at turlarida, shu jumladan, badiiy adabiyotda ham uchramoqda. Freydizm modaga kirganda yozilgan Ayris Merdokning «Qora shahzoda» romani qahramoni Hamlet xatti-harakatini «Edip kompleksi»ning namoyon bo'lishi - o'z onasiga nisbatan anglanmagan shahvoniy intilish, o'z otasiga (o'gay otasiga) nisbatan qotillik maylining namoyon bo'lishi sifatida talqin qiladi. Balki, roman noan'anaviy jinsiy mo'ljallar modaga kirgan bugungi kunda yozilganida, Hamletning Ofeliya muhabbatini rad etishi, Goratsioga munosabati asar qahramoni tomonidan noan'anaviy shahvoniy intilish sifatida tushuntirilmadi! Ba'zi «peshqadam» rejissyorlar shu yo'ldan bormoqda. A.P.Chevovning «Uch opa-singil» dramasining

sahnalashtirilgan zamonaviy versiyasida ularning lesbiyankalarga (ayolning ayolga shahvoniy intilishi) aylantirilishiga nima deysiz? Butun jahon yuksak adabiyoti mazmuni shunday qilib soxtalashtirilmoqda. Madaniyatlar interferensiyasi tufayli qadriyatlar, mezonlar tizimi o‘zgarmoqda, san’atda degumanizatsiya (insonparvarlikni yo‘qotish) chuqurlashmoqda. Bu holat bizning o‘zbek rejissyorlarimizning yaratayotgan o‘zbek seriallarida asosiy mavzuga aylanib bormoqda.

Yuksak va ommaviy madaniyatlar interferensiyasi yangicha talqinlardan tashqari yangi janrlar va yo‘nalishlarni vujudga keltirmoqda. Masalan, Serbiyalik rassom ayol Marina Abramovich ko‘chada o‘tgan-qaytganga qaychi, bo‘yoqlar, mo‘yqalam va x.k. hamda to‘pponcha va bir dona patron berib, o‘ziga nisbatan istagan narsani qilishni taklif etgan. Yig‘ilganlar dastlab unchalik botinmasdan, keyinchalik ancha qizishib, uning kiyimlarini kesib tashlagan, badaniga atirgul tikanlarini tiqqan, bo‘yoqlarni tanasining turli a’zolariga chaplab tashlashgan va h.k. odamlar ko‘z o‘ngida sadizm va behayolik bilan aralashib ketgan go‘yoki badiiy aksiya sodir bo‘lgan. Aksionizmda qay darajada axloqiy va estetik qadriyatlar aks etishi to‘g‘risida keltirilgan ushbu misollar dalolat beradi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur yo‘nalishda nafosat va axloq emas, odamlarni estetik tarbiyalash emas, balki epatajlik – hayratga solish va ruhiy muvozanatdan chiqarish ko‘zlanadi. San’atning asosiy maqsadi – odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish, tuyg‘ularini, didini tarbiyalash esdan chiqariladi.

Kapitalizm rivojlanib, ommaviy iste’molchilik jamiyatni shakllangani sayin individualizmni jamoaviylikka qarama-qarshi qo‘yish kuchaydi. Mumtoz gumanizm g‘oyalari deformatsiyaga uchray boshladi. Aslida insonni jamiyat hayotining markaziga qo‘yish, barcha bunyodkorlik ishlarini, taraqqiyotni uning manfaatlariga bo‘ysundirish Sharq va G‘arb mutafakkirlarining orzusi edi. Inson olamning mehvari, tabiatning gultoji, degan g‘oya Sharqda keng tarqalgan edi. G‘arbda ham Renessans va Ma’rifatparvarlik davridan falsafiy antropologiya rivojlandi. Adabiyot va san’at inson ongi-tafakkuri jilolanishi, evrilishlari, ruhiy kechinmalari ulug‘vorligi-yu tubanligi, ularning har xil qirralari, imkoniyatlari to‘g‘risida obrazli bilim beradi. Odamlarning tuyg‘ularini tarbiyalaydi, e’tiqodini, ma’naviy dunyosipi insonparvarlik, ezgulik, go‘zallik,adolat, ishq, muhabbat, vatanparvarlik va shu kabi g‘oyalar bilan boyitadi, baland marralarni egallahda ilhom beradi. Adabiyot va san’at jamiyatning, odamlar ongingin, axloq va huquqning, siyosatning ezgulik, insof,adolat, rahm-shafqat, mehr-oqibat, go‘zallik

kabi qadriyatlar, ijtimoiy ideallar bilan boyishida, ma’naviy erkinlik o’sishida ulkan rol o‘ynaydi. Adabiyot va san’atning ma’naviyatga ta’siri uning bilim berish, estetik ehtiyojlarni qondirish va tarbiyalash vazifalaridan kelib chiqadi.

O‘zbek xalqi XX asr boshlarida Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy siymolarini qanday tasavvur etar edi? Xalq Amir Temurning buyuk davlat arbobi va sarkardaligini, vatanni mo‘g‘ul zulmidan ozod etib, obod qilganini, dunyoning yarmini o‘ziga bo‘ysundirganini yarim rivoyat, yarim haqiqat ko‘rinishida bilgan. Ulug‘bekning buyuk astronom-olim va madaniyat homiysi bo‘lganini, o‘g‘li Abdullatif roziligi bilan qatl etilgani va u haqda og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan rivoyatlarni eshitgan. Kimdir Samarqandga borib Go‘ri Amirni ziyorat qilgan bo‘lsa, tasavvurlari yangi taassurot bilan biroz boyigan, ammo juda kemtik va mavhumligicha qolgan.

Alisher Navoiyning ba’zi g‘azallariga kuy bastalanib, hofizlar tomonidan ijro etilgani uchun ismi xalqqa yaxshi tanish bo‘lgan. Lekin Navoiy hayoti, yashagan davri muhiti to‘g‘risida avom deyarli aniq hech narsa bilmagan.

13.4. Ma’naviyat va adabiyot. So‘z san’atining shaxs va millat ma’naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma’naviyatining akslanishi

Xalqning tarixiy xotirasi, milliy g‘ururi tiklanishida, o‘zligini anglashida, ma’naviyati rivojlanishida tarixiy mavzudagi badiiy adabiyot va san’at katta rol o‘ynaydi. O‘zlikni anglash faqat o‘tmishni bilishga taalluqli emas. U o‘zining bugungi ahvolini, muammolarni, tahdid solayotgan ma’naviy xavf-xatarlarni hamda kelajak bilan bog‘liq maqsad va vazifalarni anglashni ham bildiradi. Milliy o‘zlikni anglatishda badiiy adabiyotning oldiga na fan, na din, na axloq, na huquq tusha oladi. Badiiy obraz millatning yulduzli onlari, bosqinchilarga qarshi matonatli kurashi, buyuk farzandlari shonli g‘alabalari va madaniy yutuqlarini konkret-obrazli tasvirlab, milliy g‘ururni tarbiyalaydi. Xalq boshiga tushgan fojealarni, alamlarni, ularning sabablarini jonlantirib, saboq chiqarishga undaydi. Mavjud kamchiliklar va illatlarni, ma’naviy xavf-xatarni yoki ulug‘vor maqsadlarni his qilish darajasida tushunarli va ishonchli qilib tasvirlaydi, ifodalaydi. O‘quvchida qabihlikka, tubanlikka nisbatan nafrat, halollik va mardlikka nisbatan mehr-muhabbat, intilish uyg‘otadi.

Jadidlar ijodi, Abdulla Qodiriyning «O’tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Cho’lpon va Fitratlarning ijodiy merosi, faoliyatlari o’tgan asrning 20-30-yillarida xalqimiz o’zligini anglashida beqiyos ahamiyat kasb etgan edi. 60-80-yillarda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon she’rlari xalqimizning yangi avlodiga ajdodlari kim ekanligini, ularga munosib bo’lish lozimligini yana eslatdi. Xalq g’ururini yana bir pog’ona ko’tardi. «Ushshoq chigitni ham etmay deb uvol, million egatlarga sochilgan»ini (A. Oripov), o’sha ushshoq chigitni olish uchun egilib, qaddini ko’tarmasdan, ezilib ketganini, kuz chiroyini ham sezmay qolayotganini, tilidan, imon-e’tiqodidan, madaniyatidan begonalasha-yotganini kuyunib ifodalagan, or-nomusni, milliy g’ururni eslatib o’kinib yozilgan she’rlar o’zbek jamoatchiligi, ayniqsa, yoshlar qalbida g’alayon ko’tardi, zimdan uni istiqlol uchun kurashga undadi. Sho’rolar tuzumining ma’naviy-axloqiy va siyosiy jihatdan noqisligi, notabiyligi, odamlarni ko’plab insoniy xislatlardan mahrum qilishi Aqsad Muxtarning «Chinor» romanida, O’lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz» p’esasida, Shukur Xolmirzayev, O’tkir Hoshimov, Murod Muhammad Do’st, Tog’ay Murod, Erkin A’zam, Xayriddin Sulton asarlarida yorqin bo’yoqlarda tasvirlandi.

Adabiyot va san’atda milliylik va umuminsoniylikni ulug’lash, yovuzlikini, tubanlikni qoralash, ezgulikni, go’zallikni, insonga saboq beradigan har xil obrazlarni, jozibali ideallarni tasvirlash badiiy ijodning mazmunini tashkil etadi. Shu sababdan jamiyat ma’naviyatiga yuksak xalqparvar adabiyot va san’at ko’pchilik ijtimoiy ong shakllariga nisbatan kuchliroq ta’sir ko’rsatadi. Adabiyot va san’atning yaxlit ma’naviyat doirasida ilm-fanga, dinga, axloqqa, siyosiy ongga, huquqqa ta’siriga bir necha dalil keltiramiz. Tasavvuf tariqatlarining aksariyat asoschilar, yirik shayxlari o’z g’oyalarini yoyishda badiiy so’zdan foydalanganlar. Ulardan Yassaviy, Attor, Rumiy, hattoki, mumtoz shoirlar hisoblanadi. Garchi shoirlik ular uchun asosiy kasb bo’lmasa-da, Navoiyning fikricha, Attor va Rumiyning (shuningdek, Hazrati Alining) she’r yozishdan maqsadlari adabiyot emas, balki ilohiy sir-asrorni bilishdir.

Keltirilgan misollar adabiyot va san’atning ijtimoiy ongning boshqa shakllariga, diniy, axloqiy, huquqiy va siyosiy qarashlarga, ular orqali butun ma’naviyatga, ma’naviy muhitga, odamlarning intilishlari-yu hayotiy pozitsiyalariga ta’sirini ochib beradi.

Ilm-fanning, adabiyot va san'atning, demokratik qadriyatlarning, ularni tarqatuvchi OAVning rivojlanishi jamiyat ma'naviyatini yuksaltiradi, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtiradi, ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy muhit yaxshilanadi.

Ilm-fani, adabiyot va san'ati yaxshi rivojlanmagan, dunyoviy va diniy e'tiqodi ziddiyatlarga to'la, ongi xurofot va bid'at botqog'iga cho'kib qolgan xalq ma'naviyati qoloqlikka mahkum, zero unda ma'naviy ehtiyojlar yuksalmay qoladi. Bunday xalq turli soxta va buzg'unchi g'oyalarning; siyosiy ig'volarning, har-xil mish-mishlarnipg tuzog'iga tez tushadi. E'tiqod, teran dunyoqarash, axloq, insonning o'z huquq va manfaatlarini yaxshi anglashi, siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga oid bilimlari va ijtimoiy faolligi uni ma'naviy tahdidlardan himoya qilibgina qolmay, unga fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat idoralari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish imkonini beradi.

Adabiyot inson ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy manbadir. Adabiy asar ko'z oldingizda kechayotgan ayqash uyqash hodisalar girdobini ma'lum ma'no tizimiga joylab, undan sizning ko'zingizga, ongingizga ma'no, mazmun chiqarib beradi. Badiiy asar yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma ham undan o'z fahfarosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Shu sababli adabiyot – ibrat maktabi, mehrparvarishidir. Mumtoz adabiyot Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriyl timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega. Ana shu xislati tufayli u inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiylarini va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lon aytganidek, "Adabiyot yashasa – millat yashaydi".

13.5. Teatr – ibrat maktabi

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab borayotgan Yangi O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'analariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'st-u

birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz orqali o'zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi.

Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko'zga ko'rindigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo'q.

Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini teatr sohasida boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud.

Uzoq yillar davomida o'zbek teatrini to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lif olayotgan iste'dodli o'g'il-qizlarimizni mana shu mashhaqqatli, ayni paytda oljanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «*Teatr – bu ibratxonadur*», deb aytgan fikrini eslash o'rinnlidir. Darhaqiqat, teatr insonlarni tarbiyalaydi. Har bir millatning o'z ijodkori tomonidan yaratilgan teatr, sahna asarlari shu millat ma'naviy hayotining ajralmas qismi, badiiy ijodi mahsuli sifatida shu millat ma'naviy olamini boyitish bilan birga o'zga millatlar uchun ham xizmat qiladi

Bizning milliy teatr san'atimiz tarixan juda katta yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning qadimiy ildizlari xalq o'yin va tomoshalariga borib taqaladi. Lekin XX asrga kelib o'zbek teatr san'ati yangitdan – yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o'tib kelayotgan an'ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e'tirof etish zarur. Xususan, poytaxtimiz va viloyat teatrlarida namoyish etilgan dunyo sahna san'atining mumtoz namunalari o'z vaqtida nafaqat yurtimiz, balki chet el tomoshabinlarini ham hayratda qoldirgani bu fikrni isbotlaydi. Shu bilan birga, teatr ijodkorlarimiz tomonidan

yaratilgan ko‘plab milliy ruhdagi sahma asarlari xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyat bilan ijro etib kelinadi.

Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtida respublikamiz teatrlarida turli mavzu va janrlarda ko‘plab spektakllar yaratilmoqda, o‘ziga xos ijodiy izlanishlar davom etmoqda.

Ayni paytda teatr san’atimizda ham bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni o‘ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtayi nazaridan badiiy yuksak asarlar, afsuski, kam ekanini tan olishimiz lozim. Aksincha, real haqiqatdan yiroq, odamga katta ma’naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to‘ldirish holatlari ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda.

Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylig, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish – barcha san’at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste’dodli dramaturg va rejissyorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Eng ommaviy san’at turi bo‘lmish va teatrning zamonaviy turi kino sohasini oladigan bo‘lsak, o‘z vaqtida bu borada bizda o‘ziga xos ijodiy maktab yaratilganini mamnuniyat bilan qayd etish lozim. «Tohir va Zuhra», «O‘tgan kunlar», «Sen yetim emassan», «Mahallada duv-duv gap» kabi mumtoz filmlarimiz haqqoniylig milliy hayotimizning namunasi. Mana shunday tom ma’nodagi milliy asarlar nafaqat xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga, balki uning go‘zal qadriyatlarini butun dunyoga tanitishga ham katta hissa qo‘sib kelmoqda.

Kino san’atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga ta’siri beqiyos ekanini hisobga olgan holda, istiqlol yillarida milliy kinematografiyanı ham har tomonlama rivojlantirish, bu borada zarur moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar tufayli yangi-yangi filmlar suratga olinmoqda, ular orqali tariximiz va bugungi hayotimiz bilan bog‘liq turli mavzular yoritilmoqda. O‘zbek kinolari nufuzli xalqaro festivallarda sovrinli o‘rinlarga sazovor bo‘layotgani, albatta, quvonarlidir.

Lekin shuni ham xolisona aytish kerakki, yoshlarning tarbiyasiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan zamonaviy qahramon obrazi kino ekranlarimizda hali yaratilganicha yo‘q. Suratga olinayotgan aksariyat

filmlarda kinochilarimizning bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o'tkir muammolarini chuqr his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi.

Buning sabablari haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin asosiy sabablardan biri shundaki, kinosan'ati sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari ilgari O'zbekistonda umuman mavjud emas edi. Sobiq Markazdagi kino institutlarida ta'lim olgan oz sonli o'zbek rejissyorlari va kinodramaturglari esa, afsuski, milliy ruh, milliy zamindan begona bo'lgan mutaxassislar bo'lib yetishar edi va ana shunday holatning salbiy asorati va ta'siri aksariyat kinoijodkorlarimiz faoliyatida hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Shuning uchun keyingi yillarda milliy kinodramaturg va rejissyorlar tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Chunki, buni ochiq tan olishimiz kerak – professional kino mutaxassislari, xususan, rejissyorlar, ssenaristlar tayyorlaydigan tom ma'nodagi milliy mактаб o'zimizda hanuzgacha shakllangani yo'q.

Bu ahvolni tubdan o'zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Albatta, bu yo'lda dastlabki qadamlar qo'yilayotganini aytish lozim. Masalan, Mustaqillik va Navro'z bayramlari, «Sharq taronalari» musiqa festivaliga bag'ishlangan asosiy tomosha va tantanalarni tayyorlash bo'yicha teatr va televide niye rejissyorligi, badiiy-publitsistik, ssenaristlik borasida ulkan tajriba to'plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqr o'rganish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, teatr san'ati, kino san'ati insonni ma'naviy-ruhiy tarbiyalashning asosiy o'chog'i hisoblanadi, undan axloqiy, estetik, badiiy tarbiyani oladi, o'z-o'zini tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida shaxs o'zligini anglaydi, o'z borlig'ini qayta kashf etadi. Teatr ibrat maktabi sifatida milliy- ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ma’naviyat va nafosat uyg‘unligini nima tashkil etadi. O‘z fikringizni “FSMU” texnologiyasida asoslang.
2. Inson botiniy go‘zalligining asosi nima?
3. Ma’naviyat va san’atning maqsadlarini Venn diagrammasida qiyosiy tahlil qiling.
4. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishda qanday vazifani o‘taydi?
5. Ramz va timsol – Borliq haqiqatini badiiy ifodalashning asosiy vositasi ekanligini izohlang.
6. Ijtimoiy ma’naviy muhitni yaratishda san’at turlarining o‘rni va ahamiyatini izohlang?
7. Milliy o‘zlikni anglatishda badiiy adabiyot rolini izohlang
8. Mustaqil O‘zbekistonda san’at va adabiyotning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati nimada? Uni Klaster usulida yoriting
9. Ma’naviyat va adabiyot o‘zaro nisbatini maqsadlarini Venn diarammasida qiyosiy tahlil qiling.
- 10. “Teatr – ibrat maktabi” mavzusida “Esse” yozing.**

GLOSSARIY

Adabiyotshunoslik – literature, letters – ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, badiiy adabiyotni Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtiruvchi so‘z san’ati sifatida o‘rganadi. Juhon va milliy adabiyotlar tarixi, adabiy tanqid va adabiyotning nazariy masalalari bu fanning asosiy mavzularini tashkil etadi.

Adolat (tuyg‘usi) – fairness, справедливость – milliy ma’naviyatimizga xos Oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining to‘rtinchi darajasi, ma’naviyatning siyosat sohasida (ya’ni, insonlararo munosabatlarda) akslanishi (yuzaga chiqishi).

«Avom ishqisi» – public flame of love – Alisher Navoiyning ta’rifiga ko‘ra «oddiy odamlar ishqisi bo‘lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir. Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi – shar’iy nikohdir. Quyiroq martabasida janjal, tashvishlar, ko‘ngilsizlik va sharmandaliklar ko‘rinadiki, bu haqda so‘zlash – odobsizlik, bayon etish hayosizlikdir» («Mahbub ul-qulub» asari, 2-qism, 10-bob).

«Avom» – pulic- народ – 1) omi odamlar, Alisher Navoiy nazdida ijtimoiy kelib chiqishi, boyligi va amalidan qat’i nazar, o‘zligini anglab yetmagan, ma’naviy saviyasi past bo‘lgan insonlar, agar kimki o‘zligini anglab yetmagan bo‘lsa, o‘zini yeb-ichib, «kayfi safo qilib» yurishdan ortiqqa arzitmasa hanuz u haqiqiy shaxs maqomiga ko‘tarilmagan, oddiy bir «xudoning maxluqi» darajasida qolib ketgan, bunday insonlarning jamlanmasi esa «xalq» emas, «olomon» atalishga loyiq bo‘ladi. Haqiqiy fuqarolik jamiyati, o‘zini muayyan millatga mansub deb bilgan shaxslar ogoh odamlardan iborat bo‘lmog‘i kerak; 2) keyingi davrlarda yuqori tabaqa vakillari orasida «qora xalq», past tabaqa vakillari ma’nosida ishlatila boshlagan.

«Ahli qabul» —faithful -Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini e’tirof etuvchi, insof va diyonat,sabr va rizolik, halollik va mehr yo‘lini tanlagan imon e’tiqodli insonlar.

«Ahli rad» – unfaithful - Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini tan olishdan bosh tortuvchi, norizolik va badbinlik, xiyonat va xudbinlik, harom va qahr yo‘lini tanlaganlar, imonsiz kishilar.

Amaliy tafakkur – practical-thinking – muayyan hayotiy tajriba asosida amaliy xulosa qilish.

Asotir (mif) – myth – ibtidoiy inson ongida Borliq haqiqatining xayoliy timsollar vositasida ifodalanishi. Hozirgi zamon odami asotirni afsona sifatida tushunadi, ammo qadimgi dunyo odamlari asotirning Borliq haqiqatini ifodalashiga shubha qilmaganlar. Masalan, Qadimgi yunonlar Zevs, Apollon, Afrodita kabi turli sanamlarni Olimp tog‘ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilganlar va ular sharafiga ibodatxonalar qurib, qurbanliklar keltirganlar. Asotir va badiiy asarning umumiyligi tomoni Borliq haqiqatini timsollar vositasida anglash va anglatishga urinish bo‘lib, ularning o‘zaro farq qiluvchi tomoni – asotirni o‘z davrining odami haqiqat deb qabul qilgan, san’at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o‘ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi.

Asotir tafakkur – myth thinking – Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo‘lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o‘rtalashtirishga odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g‘ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.

Ahli futuvva – yoki javonmardlar 9-15-asrlarda islom mintaqasida keng tarqalgan ijtimoiy ma’naviy oqim namoyandalari, asosan shahar kosib-hunarmandlaridan iborat bo‘lib, piri komil rahbarligida ham jismoniy, ham ma’naviy kamolot sari intilishni halol rizq topish harakati bilan uyg‘unlikda olib borgan yuksak ma’naviyatli shaxslar jamoasi.

Axloq – ethics – har bir shaxs ma’naviyatining uning xulqida, o‘zga insonlarga munosabatida aks etishi, yuzaga chiqishi.

Axloqiy tafakkur – etics-thinking – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma’naviy-axloqiy tartib qoidalar nuqtayi nazaridan baholash.

Axloqshunoslik – ethics- ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, inson xulqi, uning axloqiy fazilatlari va qusurlarining xolis tahlili bu fanning asosiy mavzusini tashkil etadi.

Badiiy adabiyot – artistic – san’atning bir turi, inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardan bo‘lib, milliy ma’naviyatmiz an‘analarida ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra Borliq haqiqatining botiniy sirlarini zohiriylashtirishga odamning tafsilotiga ega.

Badiiy ijod tariqi – artistic creation- adabiyot nazariyasiga oid muhim tushuncha, badiiy adabiyotning mazmuniy jihat, ya’ni badiiy tafakkur qonun qoidalariga aloqador bo‘lib, arab tilidagi «tariq» so‘zi

qadim yunon tilidagi «metodos», ya’ni «yo‘l», «borliqni anglab etish va aks ettirishning o‘ziga xos yo‘li» ma’nosini anglatadi. Alisher Navoiy ushbu atamadan ijodiy foydalanib, islom mintaqa adabiyotida «haqiqat tariqi» va «majoz tariqi» deb atalmish ikki adabiy yo‘nalish va badiiy ijod tariqi mavjudligini kashf etdi va ularning har birini qisqacha ta’riflab, 12-15 asrlarda yashab forsiy va turkiy tillarda ijod etgan ulug‘ shoirlarning qaysi biri qaysi yo‘nalishga mansub ekanligini aniq ko‘rsatib berdi. Natijada badiiy ijodga Borliq mohiyatini idrok etish va ijodiy akslantirishning alohida bir yo‘nalishi sifatida ongli yondoshuv islom mintaqasida Evropadan bir necha asr ilgari mukammal shakllandi. Alisher Navoiyning badiiy ijod tariqiga oid nazariy mulohazalari «Mahbub ul-qulub» risolasi «Avvalgi qism»ining «Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida» deb atalgan 16-faslida mukammal bayon qilingan.

Badiiy tafakkur – artistic-thinking- ko‘proq timsoliy va evristik tafakkur asosiga qurilgan murakkab tarkibli tafakkur turlaridan bo‘lib, ijodkorning Borliq haqiqati haqidagi o‘z tasavvurlarini hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi. Badiiy timsol haqiqatni o‘zida to‘liq ifodalashga da’vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi.

Baqo – eternity- abadiylik, azaliy va abadiy qudrat, mutlaq Haqiqat, inson ma’naviy kamolotining niqonunu maqsadi.

Baho – price - har bir narsa, hodisaning muayyan zamon va makon o‘zgarishi bilan o‘zgarib turuvchi qiymati. Ibtidoiy xo‘jalik insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir insonning o‘z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy munosabatlariga kirishib, o‘z aqli, malakasi, mehnati yordamida o‘zi va oilasi uchun rizq topishi.

Bozor iqtisodi – markettabl ekonomikal - mulk turlarining xilma-xilligi, erkin talab va taklif asosida o‘zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi tizim.

Bozor iqtisodining asosiy ko‘rsatkichlari – evidence on appel bazic of markettabl ekonomikal – 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati, 2) talab va taklif erkinligi, 3) erkin raqobat imkoniyati, 4) bozorning har uch yo‘nalishi: mahsulot, ishchi kuchi va qimmatli qog‘ozlar bozorining mukammal shakllan-ganligi.

Botin – interior – ichki, inson ruhiyatiga oid tashqi sezgi a’zolari bilan bilib bo‘lmaydigan jihatlar.

Botiniya – interior – Islom ma’rifatchiligi bosqichida shakllangan Borliq haqiqatini idrok etishga oid yana bir yirik yo‘nalish bo‘lib, uning asosida ismoiliya bid’ati yotadi. Shia mazhabidan ajralib chiqqan bu bid’at namoyandalari boshqa shialar kabi oltinchi imom Ja’far as-Sodiq (700— 765) ning kichik o‘g‘li Muso al-Kozim (vafoti 799 yil) ni emas, katta o‘g‘li Ismoilni imomlikdagi vorisi degan da’vo bilan chiqdilar (Ismoil bin Ja’far otasi hayot chog‘ida 762-yilda vafot etgan). Misrda Fotimiylar davlat tepasiga kelgach (909-yil), ismoiliylarning mintaqa bo‘ylab faoliyati avj oldi va ta’siri ham kuchaydi. Davr aql va mantiqiy tafakkur davri edi. Shunga munosib ravishda ismoiliya bid’ati targ‘ibotchilari o‘zlarining murakkab falsafiy tizimini ishlab chiqdilar. Ular bilimni zohiriyligi (tashqi) va botiniy (ichki) darajaga ajratdilar. Zohiriyligi bilim avom uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosan shia mazhabi shariat ahkomlariga mos kelardi. Botiniy bilim esa faqat tanlangan tor doira – xoslar orasidagina tarqalishi nazarda tutilar va borliqni idrok etishning murakkab falsafiy tizimidani iborat edi. Botiniy bilimlar qomusi sifatida shuhrat qozongan buyuk meros – 10 asrda yaratilgan 52 risoladan iborat «Rasoili ixvon-us-safo va xullon ul-vafo» («Pok birodarlar va vafodor do‘stlar risolalari») majmuasi bo‘lib, bu majmuada 14 risola riyoziyot (matematika)ga, 17 risola tabiiy fanlarga, 11 kitob Oliy haqiqat sirlari va yana 10 kitob diniy masalalarning mantiqiy tahliliga bag‘ishlangan edi. Bu mukammal qomus islomgacha hosil bo‘lgan ilmiy-falsafiy merosni chuqur o‘zlashtirish asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mintaqa ilmining keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Botiniya yo‘nalishi asosan ismoiliya bid’atiga bog‘lab talqin etilsa ham, aslida o‘sha davrlarda ko‘pchilik rasmiy aqidaga muholif qarashlar shu nom ostida umumlashtirib talqin qilinganligini ham nazardan qochirmasligimiz kerak. Ushbu yo‘nalishning Movarounnahrdagi yirik namoyandasini buyuk shoir va mutafakkir Nosir Xusrav (1004-1088) ismoiliya qarashlarini jiddiy falsafiy ruhda talqin qilib, ijtimoiy adolat masalalariga alohida diqqatini qaratdi.

«Baqo bi-l-loh» – lug‘aviy ma’nosи «boqiylikda (abadiylikda) Alloh bilan». Tasavvufiy ma’nosи: nafsoniy va xudbinlik mayllaridan butkul ozod bo‘lib, irodasini to‘liq Borliq haqiqatiga bo‘ysundirish, oriflik maqomiga yetishish.

Vatan (tuyg‘usi) – motherland – milliy ma’naviyatimizga xos oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining avvalgi darjasи, har bir insonning muayyan moddiy makonga ma’naviy munosabati. Bu timsol-tushunchaning ma’no

ko‘lami yana o‘z ichki takomil darajalariga ega (1ruh uchun badan, 2-xonodon, 3-shahar, qishloq, 4-mamlakat, 5-onasayyora).

Ma’naviyatning diniy asoslari – the spirituality of religious backgrounds – insoniyat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarini o‘zida aks etgan ezgulik, mehr-oqibat, poklik, halollik, do‘stlik, birodarlik ma’naviyatning diniy asosidir. Insonning imon va tafakkurni kamol toptirishi, mustahkam e’tiqod va dunyo-qarashni shakllantirishi; din inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida kishi-larning Yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Din ma’naviyat takomilida, milliy madaniyat va turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlar, an’analarning bezavol saqlanishi hamda asrlar mobaynida xalq qalbiga chuqur o‘rnashishida qudratli omil bo‘lib kelgan. Insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat kabi fazilatlar ana shu zaminda ildiz otib rivojlanadi

Ma’naviyatning kategoriyalari - in the category of spirituality (tushunchalari) fan sifatida shakllanib bormoqda. Bu uning xuddi boshqa fanlar kabi o‘ziga xos tushunchalarni rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqarayotganligini ham bildiradi. Uning ayrim tushunchalari axloqshunoslik va nafosatshunoslik fanlari b-n uyg‘unlashgan holatda namoyon bo‘ladi. Ammo uning tushunchalariga jamiyat va ma’naviyat omillarining o‘zaro ta’siri munosabatlari nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, yuqoridaq ikkala fanlardan mustaqil ravishda tushunish imkonini beradi. Shunga muvofiq Ma’naviyat asoslarining kategoriyalarini shartli ravishda inson, millat va jamiyat hayoti b-n bog‘liq bo‘lgan quyidagi tushunchalarni kiritish mumkin: insonning o‘z-o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, sahiylik, samimiylilik, xayrihohlik, imonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, ornomuslik, sharm-hayolilik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar. Shaxsning millat vakili sifatidagi maqomida: milliy o‘z-o‘zini anglashi, milliy g‘urur, milliy iftixor, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma’suliyat, milliy manfaat ustivorilagini his etish, milliy til, milliy tarbiya, adabiyot, san’at, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga hurmat, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, tadbirkorlik, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo‘lish, uni qo‘llab-quvvatlash, milliy va jamiyatda mavjud bo‘ladigan salbiy

jarayonlarga befarq bo‘lmaslik, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida faollik va boshqalarni tashkil qiladi.

Xalq ma’naviyati – national spirituality – xalq yoki millat qadriyatlarning muayyan tartibda, darajada va yo‘sinda tizim holiga kelishi. Barcha xalqlarning ma’naviyati ham asosan bir xil qadriyatlardan tashkil topadi. Bu tizim sirasiga ozodlik, tinchlik, xotirjamlik, iymon, insof, lafz, oriyat, farovonlik, kattalarga hurmat, hamkorlik,adolat, mehmondo‘stlik singari qadriyatlar kiradi. Lekin, ayni bir xil qadriyatlardan tashkil topishiga qaramay, turli xalqlar ma’naviyatining o‘ziga xos bo‘lishiga bois shuki, o‘sha ayni bir xil qadriyatlar ma’naviyatda o‘ziga xos yo‘sinda bog‘lanadi. Masalan, bir x.m.da mehmondo‘stlik ustuvor bo‘lsa, boshqa x.m.da jasurlik ustun bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir x.m. taraqqiyotidagi bir bosqichda o‘sha mehmondo‘stlik yoki kattalarga hurmat katta o‘rin tutsa, keyingi bosqichda jasorat yokiadolat eng ustuvor qadriyat bo‘lib qolishi mumkin.

Ziyolilik - the intellectuals – ma’naviy tushuncha ma’nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati b-n birga yuzaga keldi. Lekin uning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari o‘rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma’rifatparvarlar hayotida shakllanganini e’tirof etmoq lozim. U insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot b-n bog‘liq. Shu bois uni inson paydo bo‘lganidan ancha keyin vujudga kelgan ma’naviy-axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq.

Gumanizm - humanism (lot. *humanus* – insoniylik) – insonga nisbatan yuksak ma’naviyat tamoyillari asosida munosabatda bo‘lish, insonparvarlik g‘oyasi va amaliyoti.

Fahm-farosat - soundness of mind – oddiy turmush hodisalaridan ham, murakkab hayotiy munosabatlarda ham muayyan holatni, vaziyatni idrok yordamida tez anglay bilish.

Bilim – overview – ijtimoiy-tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan adyekvat in’ikosi. Kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari aqida hosil qilgan ma’lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi.

Ruhiy poklanish – spiritual purification – ma’naviyat negizi va mazmun-mohiyatini belgilaydigan asosiy xususiyati, inson ma’naviy dunyosining milliy ma’naviyat ildizlaridan bahramand bo‘lishi, qalban

uyg‘onish, inson ma’naviy olamining yuksalishi; ilohiy nafas va Alloning amrlaridan bo‘lib, nafs, ruh qolipidir, ruhiy poklanish insondan katta sabr-toqatni talab etadi. Nafsi ammora yomonlikka buyuruvchi nafs bo‘lsa, nafsi lavvoma xato-kamchiliklarini anglay boshlab, o‘zini tanqid qiluvchi, ruhiy yuksalishni xohlagan, nafsi taskin topgan, nafsi roziya – Alloning ne’matlariga rozi, nafsi marziya Allo tomonidan sevilgan bandaga aylangan, poklangan ruh – nafsi sofiya, qusur va illatlardan batamom poklangan ruh nafsi komiladir.

Ma’naviy qadriyat – spiritual values – bu mafkuraga bog‘liq bo‘lmay, balki milliy mafkura qadriyatlarimizga, ma’naviyatimizga asoslangan bo‘lib, dastlab bunday ma’naviyatning mezoni kishilarning mas’uliyatiga yuklangan muqaddas vazifa bo‘lib, kishilarda halollik, poklik, insof, diyonat, qanoat, shijoat, sabr-toqat, intizom, vatanni sevmoq, sadoqat, muhabbat kabi fazilatlar bo‘lishi demakdir.

Ziyolilik - the intellectuals – ma’naviy tushuncha ma’nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati b-n birga yuzaga keldi. Lekin uning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari o‘rtalar va undan keyingi davrlardagi ma’rifatparvarlar hayotida shakllanganini e’tirof etmoq lozim. U insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot b-n bog‘liq. Shu bois uni inson paydo bo‘lganidan ancha keyin vujudga kelgan ma’naviy-axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq.

Ma’naviy hayat – spiritual life – jamiyatdan ma’naviy ishlab chiqarish b-n bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ongni shakllantirish, yaratish jarayoni. M.h. ikki xil ko‘rinishga ega: ma’naviy boyliklar yaratish va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish. M.h.ning muhim belgisi shuki, borliqni nazariy, ratsional bilishga va ayni paytda yangi ma’naviy qadriyatlar ishlab chiqishga qaratilgandir. Ushbu jarayonda inson o‘z ongini o‘stiradi, boyitadi. Boshqa tomondan esa, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi g‘oyalar, bilimlar, nazariyalar, badiiy obrazlar va boshqa ma’naviy qadriyatlar ishlab chiqaradi. M.h. O‘zbekiston birinchi Prezidenti ta’kidlaganidek, parvoz qilayotgan qushning bir qanotidir. M.h. moddiy hayat b-n uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi yuksalish yuz beradi, shundagina inson, davlat va jamiyat hayatida o‘zgarish jarayonlari sodir bo‘ladi.

Ma’naviy birlik – spiritual unity – xalqning imon va e’tiqodini belgilaydigan, poklik va soflik, beg‘arazlik va oliyjanoblik fazilatlarini namoyon etadigan jamoaviylik tuyg‘usidir. M.b. ka intilgan xalq hech qachon bir millatni ikkinchi millatdan yuqori qo‘ymaydi, boshqa millat

vakillariga begona ko‘z b-n qaramaydi. Aksincha, o‘zidagi barcha ne’mat, mehr-muruvvatini o‘zgalar b-n baham ko‘radi. M.b. ona-Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat xalq e’tiqodiga aylanadi: shu zamin muqaddasligini his etish, shu Vatan tuyg‘usi b-n yashashga intiladi. O‘zbek xalqining m.b. qadimiy tarixga ega. Chunki, xalqimiz azaldan bir bo‘lib yashashga intilib kelgan. Ularda qorindoshlik, millatdoshlik, hamshaharlik, hamqishloqlik, mahalladoshlik kabi jamoaviylik tuyg‘usi shakllanganki, bunda millatidan, irqidin, dinidan qatiy nazar barcha bir oila bo‘lib yashashga intilgan. Shuning uchun ham O‘zbekistonni m.b. yuksak hisoblangan davlat deyish mumkin. Zero, urush va vayronalik yillarda o‘zga millat va xalqlarning farzandlarini o‘z farzandidek qabul qilganligi, nochor oilalarga muruvvat ko‘rsatganligi, bugungi kunda esa o‘z bag‘rida yuzdan ortiq millat vakillari b-n tinch-totuv yashab kelayotganligi Vatanimiz fuqarolarining m.b.dan dalolat beradi.

Tinchlik va barqarorlik - peace and stability- Urushlarga yo‘l qo‘ymaslik, davlatlararo nizo va majarolarni siyosiy vositalar b-n hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinchlik yo‘li b-n bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta’minalash. Insoniyat irqi, millati, madaniy boyliklariga, urf-odatlariga buyuk hurmat b-n qarab kelgan. Bugungi zamonda ma’naviy boyliklarni saqlab qolish uchun, avvalo, qonli majarolarga barham berish, tinchlik va totuvlikni qaror toptirish, madaniy meros, osori-atiqalar, urf-odatlarni asrab avaylash, dun, xalqlarining ilm-fan yutuqlaridan birdek bahramand bo‘lishiga erishish zarur. Tinchlik va barqarorlikda 1) ozodlik,adolat va demokratik tamoyillariga asoslangan do’stona va ittifoq madaniyat; 2) zo‘ravonlikni qaytaruvchi va nizolar paydo bo‘lgan zahoti uni bartaraf etishga chorlaydigan, muammolarni muloqot va muzokaralar yo‘li b-n hal etuvchi madaniyat; 3) o‘z jamiyatining ichki rivojida uning barcha huquqini, har kishining to‘la miqyosida va imkoniyatlarini amalga oshirishda to‘liq ishtirokini ta’minlovchi madaniyatga erishishlik g’oyasi asos qilib olinishi kerak.

Ma’naviy boyliklar – spiritual values – kishilik jamiyatining tafakkuri va aql-idroki b-n yaratilgan ma’naviy qadriyatlar. M.b. moddiy boyliklardan farqli o‘laroq moddiy jihatdan baholanmaydi, narxlanmaydi, yuksak madaniyatli, ilg‘or tafakkurli jamiyatlarda oldisotdi yoki kim oshdi savdosи uchun obyekt sifatida narxlar bozoriga jalb etilmaydi. Ularning qadri xalq va millat tafakkuriga, ruhiyatiga ko‘rsatgan ma’naviy oziqa sifatida ta’siri b-n belgilanadi. M.b. umumbashariy ma’naviy boyliklar, milliy ma’naviy boyliklar va

shaxsiy-insoniy, ma’naviy boyliklar kabi ko‘rinishlarga xos. Insoniyat ma’naviy boyliklari deyilganda – ilmiy, badiiy adabiyotlar, yuksak san’at darajasida e’tirof etilgan me’morchilik, rassomchilik va boshqa san’at turlarining durdonalari tushuniladi.

Tinchlikparvarlik – peacemaking urushning, qon to‘kishning har qanday ko‘rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinchqtotuv yashashga bo‘lgan ijobiy munosabati b-ngina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig‘inlarda ma’ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, uyuştiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Ma’naviy burch – moral duties insonga xos fazilat, hissiyot. M.B. tarbiya ko‘rgan, yuksak ma’naviyatli va madaniyatli insonlar his etiladigan hamda amalga oshirilishi vazifalaridan deb biladigan xislatdir. M.b. inson tarbiyasi davomida uning tafakkuriga singdiriladi yoki oilaviy, milliy an'analar tarzida qabul qilinadi. Insonning M.b. uning ma’naviyatiga, ruhiyatiga, tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, tarbiyasida muhim rol o‘ynagan narsa, hodisa va shaxslarga nisbatan ma’naviy qarzdorlikni to‘lash tarzida kechadi. M.b. tushunchasi juda keng va o‘ta tor ma’nolarda talqin etiladi.

Imon faith (arab. Aman– ishonch va e’tiqod) –murakkab tafakkur tarzi va kuchli xotiraga ega inson ongi va ruhiyasining nodir hodisasi. Muayyan fikr, oliv

g‘oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi alohida ruhiy holat. I. inson ongi va ruhiyatiga singgan, undan mustahkam o‘rin olgan g‘oya va dunyo-qarash sifatida qudratli harakatlantiruvchi kuch, inson irodasini mustahkamlash vositasidir.

Ma’naviy bo‘shliq – spiritual emptiness umuminsoniy, milliy va ma’naviy qadriyatlardan bebehra qolish, qadriyatlar sifatida e’tirof qilingan ma’naviy boyliklarni anglamaslik yoki tan olmaslik holati. M.B. insonni yoki bu holatga duchor bo‘lgan jamiyat a’zolarini kutilmagan ma’naviy ahvolga yetaklash yoxud tanazzulga boshlash mumkin.

Inson ma’naviyati – human spirituality insonga xos bo‘lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir. U jamiyat, davlat va millat ma’naviyati b-n uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma’naviyati mohiyat jihatidan yaqin bo‘lib, bir-birini o‘zaro boyitsa va to‘ldirsada, lekin ular aynan teng emas. Inson ma’naviyati millat, davlat va jamiyat ma’naviyatining

tarkibiy qismidir, Insonning ma’naviyati, shaxsning ma’naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo‘lgan ko‘p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy imkoniyat va shart-sharoitlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat va mamlakatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti inson ma’naviy kamolotiga asos bo‘ladi.

Ma’naviy va moddiylikning uyg‘unligi – spiritual and moddiylikning of harmony – masalasi, insonning hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o‘rin tutishi, ularning qay biri ustuvorlik kasb etishi xususida turli-tuman, ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud. Umuman, barcha zamon va makon mutafakkirlari, faylasuflari ijodida moddiy va ma’naviy olam munosabatlari masalasi tahlil etilgan. Ularning ba’zilari ruhiy olamni, ayrimlari esa moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yanlar. Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida materializm va idealizm ta’limotlari shakllangan. Bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o‘z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli ijtimoiy guruh va toifalar qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi.

E’tiqod – belief (ishonch, iymon) — muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda E. tushunchasi turlicha izohlanmoqda. Bilim E.ni vujudga kelishi uchun eng muhim asos vazifasini bajaradi. Lekin, E. va bilim biri ikkinchisiga uyqash tushunchalar emas. Turgan gapki, bilimlarning chinligi E.ni mustahkam bo‘lishida, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo, E.ni mustahkam bo‘lishida bilim yagona asos deb bo‘lmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya’ni tajriba chig‘irig‘idan o‘tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo‘lgan bilimlargina (g‘oyalar, nazariyalar) E.ning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’naviy madaniyat – spiritual culture insonning aqli va ma’nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma’naviy madaniyat fan, falsafa, san’at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma’rifat va hokazolar yig‘indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma’naviyati, ruhiyati olamidir.

Xulq – behavior - kishining fe’li, xarakteri b-n bog‘liq ma’naviy hodisa, fe’lning axloqiylik doirasida namoyon bo‘lishi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakati xulqdan tashqari yana odob va axloqni o‘z ichiga oladi. Odob kundalik turmush masalalarida voqe bo‘lsa, axloq shaxsning jamiyatga ,davlatga, insoniyatga bo‘lgan munosabatlarida o‘z aksini topadi. X. ana shu ichki ma’naviy hodisaning

o‘rtalig‘idagi xususiyatlariga ega. Odobga nisbatan keng, axloqqa nisbatan tor qamrovlidir. X. oila, mehnat jamoasi, mahalla-ko‘y doirasida sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi hamda o‘zini yaxshilik va yomonlik, jo‘mardlik, mehmondo‘stlik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyilni o‘zida namoyon etadi. Xushxulq inson o‘zgalarga mo‘loyimlik, nazokat, shirinsuxanlik, mehribonlik singari ma’naviy qadriyatlarga tayanib munosabat qilsa, badxulq odam, qo‘pol, og‘zishaloq, bemehr, ma’naviyatsiz kimsa hisoblanadi. Xushxulqlilikni xulqning go‘zallik tarzida estetika fani ham o‘rganadi

Ma’naviy meros – spiritual heritage – uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytildi. Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi b-n o‘zining qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his tuyg‘usiga ta’sir etib ular ongini boyitadi, axloq odobini ezgulik sari yetaklaydi.

Darvesh — internally persons – Navoiy nazdida ma’naviy kamolotga erishgan shaxs, haqiqiy ziyoli timsoli, «ichi tashi-bilan muvofiq, balki arig‘roq (pok, botini zohir bila musoviy (teng muvozanatda), balki yorug‘roq» deb ta’riflaydi ularni shoir. Bu toifa ahli elga faqat ma’rifat, ilm nurini tarqatish bilan kifoyalanmaydi, ular insonlar diliga poklik, mehr oqibat, ezgulikka intiqlik, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘ularini singdiradi.

Din – religios – muayyan insonlar guruhining Borliq Haqiqati haqidagi (odatda ilohiy vahiyga asoslangan) tasavvurlari, ularga qat’iy ishonchi, shu ishonchga muvofiq amal qilishga intilishi. Dinning botiniy va zohiriy jihatlari mavjud bo‘lib, botiniy jihat imon, zohiriy jihat iбodat lardir. Imon masalasi din va ma’naviyatning umumiy jihat bo‘lib, diniy imon ma’naviyatning muayyan jihatiga nisbatan xususiy holdir.

Diniyadolat – fairness of religioz - o‘z e‘tiqodiga sodiqlik tufayli o‘zga e‘tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik.

Dinshunoslik – religion-t ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, dunyoda mavjud diniy tizimlar, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari, turli dinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o‘rnii bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

Dunyoviy maqsadlar – мирские цели - biz yashab turgan moddiy dunyoga oid (o‘tkinchi) maqsadlar.

Madaniyat – culture - inson ma’naviy faoliyatining hosilasi, ma’naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviyat botiniy imkon bo‘lsa, madaniyat — ushbu imkondan tug‘ilgan voqe mavjudlik. Shaxs va millat ma’naviyatining nazariy masalalarini o‘rganish uchun ilojsiz ravishda ayni shu voqe mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to‘g‘ri keladi Ma’naviyat sohasiga aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqelik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

Madaniyatshunoslik – culture (Kulturologiya) – ma’naviyat sohasiga aloqador yo‘nalishdagi asosiy fanlardan bo‘lib, jahon va mintqa madaniyatlarini inson ma’naviy faoliyatining hosilasi bo‘lmish mavjud voqelik sifatida olib o‘rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

Mantiqiy bilim – logical science – inson bilgan narsalarini fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilgan bilimlari.

Mantiqiy tafakkur — logical thinking- asosiy tafakkur turlaridan, sababo qi bat bog‘lanishlari asosida fikr yuritish.

Millat (tuyg‘usi) — nation – milliy ma’naviyatimizga xos oliy ma’naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o‘z tili, davlati, ma’naviy, siyosiy va hududiy birligiga ega bo‘lgan) insonlar uyushmasiga o‘zini aloqador ekanligini anglab yetishi.

Milliy ma’naviyat – nationally spirituality – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyati majmuyini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma’naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo‘lib, millatning o‘tmishi, buguni, hamda kelajagini o‘zida mujassam etadi. U millatimizning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istiklarida o‘z aksini topgandir. Uning teranligi va ko‘lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy-ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda aks etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosat — politics- inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan biri, har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlari. Siyosat sohasi o‘z navbatida axloq va huquq qatlamlaridan iborat bo‘lib, ularning har birini o‘rganuvchi alohida fan yo‘nalishlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021.

2. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yil, 23 aprel Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 6-son, 169-modda). <http://www.lex.uz/>.

3. “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil, 9-sentyabrr Farmoni. <http://www.lex.uz/>.

4. “Respublika ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1999-yil, 3- sentyabrr Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 242-modda). <http://www.lex.uz/>.

5. “Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyul Qarori. <http://www.lex.uz/>.

6. “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzuridagi “Oltin meros” xalqaro hayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-sentyabrr Qarori. <http://www.lex.uz/>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qaror.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021-yil 26 martdagi qarori

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi” to‘g‘risidagi qarori.

10. “Mustahkam oila yili” davlat dasturi. – T: O‘zbekiston, 2012. – 80 b.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.

2. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T., 2017.

3. Sh.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. –T., 2017

4. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birlgilikda bapo etamiz. –T., 2017.

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2017, 27 –бет.

6. Ш.Мирзиёев . Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – Б. 22-23.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис депутатлариiga Мурожаатномаси. 2021.

III. Buyuk davlat va siyosat arbobi I. A.Karimov asarlari

1. Каримов И.А. Т- 1. –Т.: Ўзбекистон, 2014.

2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Т.: Ўзбекистон, 1996. -366 б.

3. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -410б.

4. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пиравард мақсадимиз. Т.8. -Т.: Ўзбекистон, 2000. -528 б.

5. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9.-Т.: Ўзбекистон, 2002.-432 б.

6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. -Т.: Ўзбекистон, 2005. - 448 б.

7. Каримов И.А. Инсон, унинг хуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. -Т.: Ўзбекистон, 2006.-280 б.

8. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. -Т.:Ўзбекистон, 1998. -30 б.

9. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.

10. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришидир. –Т.: Ўзбекистон, 2010. -80 б.

11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

12. Каримов И.А. Она юртимиз баҳт-у иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир. -Т.: Ўзбекистон, 2015. -48 б.

IV. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, kitoblar, risolalar, lug‘atlar

1. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. Ўқув қўлл. -Т.: Ўзбекистон, 2006.-448-б.

2. Отамуротов С., Раматов Ж., Хусанов С. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. -Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси, 2002. -213 б.

3. Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. -Т.: “Шарқ”, 2005. -128 б.

4. Имомназаров М., эшмуҳамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари: (Олий ўқув юртлари учун маъруза матнлари) -Т.: Тошкент ислом университети, 2001.-432 б.

5. Имомназаров М., Сайдов М. Миллий тараққиётимизнинг маънавий-ахлоқий асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Академия, 2005.

6. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Монография.– Тошкент, 2018, 1,2-китоб .

7. Эркаев А. Маънавият миллат нишони. – Т., 1997.

8. Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. -Т.: Маънавият, 2007.

9. Нурматова М.А. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. –Т.: Университет, 2009 .

10. М.Абдураҳмонов., С.Отамуротов., Маънавий салоҳият. Услубий қўлланма. – Т.: Университет. -2009. -140 б.

11. Қуранбоев Қ., Абдураҳмонов М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият

– енгилмас куч” асарини ўқитиш бўйича ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2010.

12. Ҳамдамова М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2008.

13. Садулла Отамуратов. Сарвар Отамуратов. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. Ўқув қўлланма. -Т.:Янги аср авлоди, 2003.

14. Иброҳим А. Миллат овози. -Т.: Шарқ, 2002. -240 б.

15. Шермуҳамедова Н.А. Фалсафа ўқув услубий қўллама. - Т.: Университет, 2012.

16. Ёкубова М.И. Ижтимоий тараққиёт ва маданиятнинг ахборотлашуви/ Услубий қўлланма. -Т.: Ношир-Нишон.-2010. -47 б.

17. Бобоев Ҳ., Ғофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий маърифий таълимотлар тараққиёти. - Т.: Янги аср авлоди, 2001. - 477 б.

18. Дубровская Э.Н., Соколова И.В. Социальная информатика. - М.: Политиздат, 1996. - 208 стр.

19. Отамуродов С., Мамашокиров С., Ҳолбеков А. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. - Т.: Янги аср авлоди, 2001. - 52 б.

20. Абдуллаева М. ва бошқа. Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари/(илмий мақолалар тўплами)-Т.: Ношир, 2009. -207 б.

21. Шарифхўжаев М., Даврон З. Маънавият асослари. (Ўқув қўлланма).-Т.: ТМИ, 2005.

22. Мунавварова М. Миллий ғоянинг маънавий илдизлари.- Т.: Маънавият, 2011. - 96 б.

23. Қувондиқов И. Миллий-маънавий қадриятлар – ўзликни англаш омили. –Т.: Нишон, 2010.

24. Алиқулов Х. Гуманистик мерос ва шахс маънавий камолоти. -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006.

25. Қўчқоров В. Маънавият ва миллий ўзликни англаш. -Т.: Академия, 2008.

26. Мирҳамидов М. Ўзбекистонда демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлида. -Т.: Университет, 2003.

27. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: Янги аср авлоди, 2008.

28. Шайхова Х. Маънавият ва соғлом авлод камолоти. -Т.: Академия, 2006.
29. Қуронов М. Оталар китоби. -Т.: Ўзбекистон, 2006.
30. Бегматов А. Маънавият фалсафаси. -Т.: Шарқ, 2000.
31. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети. -Т.: Янги аср авлоди, 2004.
32. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. -Т.: Шарқ, 1998. -240 б
33. Каримов Иброҳим. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. -Т.: Фан, 2001. -214 б.
34. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. -Т.: Ўзбекистон, 2008. -80 б.
35. Т.Махмудов. Нафосат ва маънавий қадриятлар. – Т, 2001.
36. Қаҳҳарова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг тоявий асоси. -Т.: Тафаккур, 2009.
37. Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. -Т.: Тошкент ислом университети, 2005. -360 б.
38. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1997. -656 б.
39. Маънавият юлдузлари. -Т.: А. Қодирий номидаги халқ мерос, 2001. -408 б.
40. Каримов И.А. “Алпомиш” достонининг яратилганлигининг 1000 йиллигига бағишиланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи”, 1999-й. 9-ноябр.
41. Фалсафа қомусий луғат. -Т.: Шарқ, 2004. -496 б.
42. Авесто: Яшт китоб. -Т.: Шарқ, 2001. -128 б.
43. Ҳамидов Ҳ. “Авесто” файzlари. -Т.: Мерос, 2001. -96 б.
44. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. -Т.: А. Қодирий номидаги халқ мерос, 2001
45. Турон қавмлари. /Тузувчи З.Зиётов. -Т.: Истиқлол, 2008. -232 б.
46. Комилов Н. Тафаккур карvonлари. -Т.: Маънавият, 1999. -204 б.
47. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Т.: Шарқ, 1998. -400 б.
48. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. -Т.: Маънавият, 2011. -320 б.
49. Ҳамидов Ҳ. Тасаввуф алломалари..-Т.: Шарқ, 2009. -208 б.

50. Куръони карим (Абдулазиз Мансур таржимаси ва изоҳи билан). –Т., 2001.
51. Имом Ал-Бухорий Ҳадис. 1-4-китоб. -Т., 1993. -1998.
52. Комилов Н. Тасаввуф. 2-китоб. -Т.: Ёзувчи, 1999.
53. Темур тузуклари. -Т.: Ўзбекистон, 2011. -184 б.
54. Фойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. -Т.: Адабиёт ва санъат, 2001. -48 б.
55. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Т.: Муҳаррир, 2010.
56. Норқулов Х. Оиласда ғоявий тарбия. –Т. Муҳаррир, 2010.
57. Қурунов М. Миллий тарбия. -Т.: Маънавият, 2007. -240 б.

5.Elektron ta’lim resurslari:

www.gov.uz
 www.press-service.uz/uz/
 www.ziyonet.uz.
 www: ref. uz.
 http://www.lex.uz/.
 www. e-darslar.net.
 www. marifatars-inform.uz.
 www.infomicer/net.
 www.turkistonsarkor.uz
 www. Manaviyat.uz.pak.uz
 UzNU http:// www.nuu.uz
 www.info XS.uz.
 ye-tarix.uz.
 http://milliy manaviyat uz /node/ 229
 www.philosophy.ru.
 http://www.intencia.ru.
 http://www.anthropology.ru
 http://www.ido.rudn.ru.
 http://www.filosofia.ru.
 http://www.falsafa.dc.uz.
 http://www.phenomen.ru.
 http://www.lib.ru/FILOSOF.
 www.ilm.uz

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1 BO'LIM.		
MUSTAQILLIK – MA'NAVIY TIKLANISH VA YUKSALISH ASOSI		
1-mavzu	"MA'NAVIYATSHUNOSLIK" FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA MA'NAVIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI.....	6
1.1.	Ma'naviyatshunoslik" fanining obyekti, predmeti	6
1.2.	"Ma'naviyatshunoslik" fanning maqsad va vazifalari.	9
1.3.	Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.	11
1.4.	"Ma'naviyatshunoslik" tarixiy-nazariy fan sifatida.	14
1.5	"Ma'naviyatshunoslik" fanining metodologik asosi.	16
2-mavzu	MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MA'NAVIYAT MASALARINING DAVLAT SIYOSATI DARAJASIGA KO'TARILISHI VA BUNING SABABLARI.	20
2.1.	Mamlakatimizda ma'naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviyat masalalariga alohida e'tibori.	22
2.2.	I.A.Karimovning milliy ma'naviy tiklanish konsepsiyasining tadrijiy xarakteri va uning ahamiyati...	227
2.3.	Ma'naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning sabablari.	37
2.4	Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati.	40
2.5	Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotida o'rnining oshib borishi. Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni	41
2.6	Mustaqillik-ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi. Ajdodlarimiz ma'naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi.	46
3-mavzu	MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, ASOSIY KATEGORIYALARI,	

	TUZILMASI, NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI...	51
3.1.	Ma’naviyat tushunchasining mohiyati, mazmuni.	51
3.2.	Ma’naviyatning turli ta’riflari. Ularning bir-biriga muvofiqligi....	55
3.3.	I.A.Karimov asarlarida ma’naviyatga berilgan ta’riflar va ularning metodologik mohiyati.	59
3.4.	Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari: o‘zlikni anglash, insoniylik, axloqiylik, ezgulik, oila, fuqarolik burchi, diyonat, iymon va b., tuzilmasi, namoyon bo‘lish shakllari	62
3.5	Shaxs ma’naviyati va milliy ma’naviyat. Umuminsoniy ma’naviyat.....	70
3.6	Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari. Milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari.....	76
4-mavzu	MA’NAVIYATNING VUJUDGA KELISHI (GENEZISI) VA DASTLABKI RIVOJLANISH DAVRI.....	81
4.1.	Ma’naviyat ijtimoiy hodisa.....	81
4.2.	Insonning ijtimoiylashuvi va ma’naviyat. Insonning bioijtimoiy xususiyatlari, ibtidoiy sinkretizm.....	83
4.3.	Ma’naviyatning vujudga kelishiga oid turlicha qarashlar. Mehnat nazariyasi, ong, tafakkur, nutq, til, e’tiqod, o‘zlikni anglash.	86
4.4.	Moddiy va ma’naviy ehtiyoj birligi.....	92
5-mavzu	MA’NAVIYATNING ME’YORIYLIGI, IJTIMOIY FUNKSIYALARI VA UNING RIVOJLANISH QONUNLARI.....	95
5.1.	Ma’naviyatning me’yoriyligi.	95
5.2.	Insonning asl xislatlari, fazilatlari, o‘zini anglashi, hayvonot olamidan ajralib turishi, turmush me’yorlari, qoidalari.....	96
5.3.	Ma’naviyatning ijtimoiy funksiyalari.	98
5.4	Ma’naviyatning rivojlanish qonunlari (vorisiylik, davomiylik, o‘zaro ta’sir va aks ta’sir, insonning ma’naviyatga bo‘lgan ehtiyojning shaklsiz o‘sib borishi.)	101
6-mavzu	MA’NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI VA	

	RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
6.1.	Ma’naviyatning tarkibiy qismlari: qadriyatlar, urf odatlar, ma’naviy meros, madaniyat, mafkura, ma’rifat. Ma’naviyat va madaniyat, ularning o‘zaro munosabati....	113
6.2.	Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati.....	117
6.3.	Ma’naviy meros - ma’naviyat rivojlanishining asosi.....	121
6.4.	Ma’naviyat va ma’rifat. Ma’rifatning tor va keng ma’nolari. Ma’rifat inson qalbiga sayqal berish jarayoni sifatida. Ma’rifat yo’llari.....	125
6.5	Ma’naviyat va mafkura, ularning jamiyat, inson hayotida tutgan o‘rni va roli.....	129
6.6	Iqtisod, siyosat, ma’naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o‘zaro uyg‘unligi zarurati.....	132
7-mavzu	MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASINI SHAKLLANTIRISHNING UMUMMETODOLOGIK ASOSLARI.....	137
7.1.	Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.....	137
7.2.	Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatmizning uyg‘unligi.....	140
7.3.	Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat nisbati.....	142
7.4	Milliy ma’naviyatimizning umuminsoniy mohiyati.....	143
7.5.	Mustaqillik va milliy munosabatlar.....	146
8-mavzu	MA’NAVIYATNI ANGLASH. MILLIY MA’NAVIYA- TIMIZNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.	153
8.1.	“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyati, tarkibi, nazariy va amaliy ahamiyati.....	153
8.2.	Ma’naviyatni anglash. Ma’naviyat mezonlari.....	156
8.3.	Milliy ma’naviyatimizning ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi.....	162
8.4.	Inson hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati.	166
8.5	Jahon ilmi va o‘tmish ajdodlarimiz merosida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan o‘rganilishi.	169

9-mavzu	MA'NAVIYATNING FALSAFIY ASOSLARI.....	177
9.1.	Ma'naviyatning falsafiy- ontologik mazmuni. Ma'naviy borliq mohiyati.....	177
9.2.	Ong va ma'naviyat. Ma'naviy ong.....	180
9.3.	Ma'naviyatning gnoseologik, praksiologik jihatlari.....	182
9.4	Ma'naviyatning aksiologik, axloqiy, estetik jihatlari.	190
9.5	Ma'naviyatning metodoligik ahamiyati.	195
10-mavzu	MA'NAVIYAT, RUHIYAT, MADANIYAT	199
10.1.	Ma'naviyat va ruhiyat. Inson tabiatini va shaxs ma'naviyati.	199
10.2.	Milliy ma'naviyatimizda ruhiyat muammolarining o'r ganilishi va bu sohada erishilgan yutuqlarning ahamiyati.....	201
10.3.	Ma'naviyat-botiniy qudrat.	205
10.4.	«Ma'naviyatshunoslik» fani ijtimoiy va ma'naviyatga aloqador fanlar tizimida. “Ma'naviyatshunoslik” fanining “Ruhshunoslik”, “Axloqshunoslik” «Madaniyashunoslik», “Nafosashunoslik”, «Tarbiyashunoslik» kabi inson va jamiyat hayotini o'r ganuvchi turli fanlarga nisbati.....	209
11-mavzu	DIN VA MA'NAVIYAT.....	214
11.1.	Din – ma'naviy hodisa.....	214
11.2.	Diniy aqidaparastlik va ekstremizm — diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g'arazli talqini sifatida.....	217
11.3.	Din va ma'naviyat. Umumiy va farqli jihatlar.....	220
12-mavzu	MA'NAVIYAT, SIYOSAT VA AXLOQ	227
	“Axloq ma'naviyatning o'zagi”. Axloq va ma'naviyat nisbati. Zamonaviy axloq muammolari.....	227
	Axloqiy fazilatlar shaxs ma'naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Iymon-ye'tiqod, mehr-shafqat, poklik va xalollik, ahdga vafo ma'naviy barkamol shaxsning axloqiy fazilatlari sifatida.	230

	Ijtimoiy hayot va siyosat. Siyosatda huquq va axloq qatlami.....	233
	Zamonaviy shaxs axloqi. Axloqiy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasiga ta'siri.....	235
13-mavzu	SAN'AT, ADABIYOT, MA'NAVIYAT	239
13.1	Ma'naviyat va nafosat. Shaxs ma'naviyati – inson botiniy go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at.	239
13.2	Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari.....	242
13.3	Ijtimoiy ma'naviy muhitni yaratishda san'at turlarining o'rni va ahamiyati. Mustaqil O'zbekistonda san'at va adabiyotning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati.....	246
13.4	Ma'naviyat va adabiyot. So'z san'atining shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma'naviyatining akslanishi	249
13.5	Teatr – ibrat maktabi.....	251
	Glossariy.....	256
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	268

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	3
СЕКЦИЯ 1. НЕЗАВИСИМОСТЬ – ОСНОВА ДУХОВНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ПОДЪЕМА.....	6
ГЛАВА I. ОБЪЕКТ, ПРЕДМЕТ И МЕСТО ДУХОВНОСТИ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА.....	6
1.1. Предмет и объект дисциплины «Духовность».....	6
1.2. 2. Цели и задачи дисциплины «Духовность».....	9
1.3. 3. Роль духовности в обществе.	11
1.4. 4. «Духовность» как историко-теоретическая наука.	14
1.5 5. Методологические основы предмета «Духовность»....	16
ГЛАВА 2. ПОДЪЕМ ДУХОВНОСТИ НА УРОВЕНЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	22
2.1. Вопрос духовности в нашей стране поднялся до уровня государственной политики. Особое внимание Первого Президента Республики Узбекистан И.А. Каримова к вопросам духовности...22	
2.2. Эволюционный характер концепции национального духовного возрождения И. А. Каримова и его значение.....	27
2.3. Признание духовности в целом. Подъем духовности на уровень государственной политики в независимом Узбекистане и причины этого.....	37
2.4. Проблема избавления от сложностей старой идеологии в сознании человека и необходимости нового мышления.....	40
2.5. Возрастающая роль духовности в развитии общества. Реформы и их моральные критерии.....	41
2.6. Независимость – духовное наследие и восстановление наших национальных ценностей. Радикальное обновление отношения к духовному наследию наших предков.....	46
ГЛАВА III. ПОНЯТИЕ ДУХОВНОСТИ: СУЩНОСТЬ, СОДЕРЖАНИЕ, ОСНОВНЫЕ КАТЕГОРИИ, СТРУКТУРА, ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ	51
3.1. Сущность и смысл понятия духовности.	51
3.2. Различные определения духовности. Их совместимость	55
3.3. Определения духовности в трудах И.А. Каримова и их методологическое значение.	59

3.4. Основные категории духовности: самосознание, человечность, нравственность, добро, семья, гражданский долг, религия, вера и др., структура, формы проявления	62
3.5. Индивидуальная духовность и национальная духовность.	
Универсальная духовность	70
3.6. Основные принципы духовности независимости.	
Глубокие жилиы нашей национальной духовности	76
Глава IV. ПОЯВЛЕНИЕ И РАННЕЕ РАЗВИТИЕ ДУХОВНОСТИ.....	81
4.1. Духовность - явление социальное	81
4.2. Человеческая социализация и духовность. Биосоциальные характеристики человека, примитивный синкретизм	83
4.3. Различные взгляды на происхождение духовности. Теория труда, разум, мышление, речь, язык, вера, идентичность.	86
4.4. Единство материальных и духовных потребностей	92
Глава V НОРМАЛЬНОСТЬ ДУХОВНОСТИ, СОЦИАЛЬНЫХ ФУНКЦИЙ И ЗАКОНЫ ЕГО РАЗВИТИЯ.....	95
5.1. Норма духовности.....	95
5.2. Исконные качества человека, добродетели, самосознание, отличие от животного царства, нормы жизни, правила.....	96
5.3. Социальные функции духовности.....	98
5.4 Законы развития духовности (преемственность, преемственность, взаимодействие и отражение, бесформенный рост потребности человека в духовности).....	101
Глава VI. КОМПОНЕНТЫ ДУХОВНОСТИ, ЕГО ВЗАИМООТНОШЕНИЯ И ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ...113	
6.1.. Составляющие духовности: ценности, обычаи, духовное наследие, культура, идеология, просвещение. Духовность и культура, их взаимосвязь.....	113
6.2.. Духовные ценности и их значение в развитии человека.....	117
6.3.. Духовное наследие – основа духовного развития.....	121
6.4. Духовность и просвещение. Узкое и широкое значения просветления. Просвещение как процесс формирования человеческого сердца. Пути просветления.....	125
6.5. Духовность и идеология, их место и роль в обществе и жизни человека.....	129
6.6 . Экономика, политика, духовность: необходимость их гармонии в жизни человека и общества.....	132

Глава VII. ОБЩИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОЙ ТЕОРИИ.....	137
7.1. Духовно-нравственные основы национального развития.....	137
7.2. Гармония общечеловеческих ценностей и нашей национальной духовности	140
7.3. Соотношение общечеловеческих ценностей и национальной духовности	142
7.4. Универсальная сущность нашей национальной духовности	143
7.5. Независимость и национальные отношения.	146
Глава VIII. ПОЗНАНИЕ ДУХОВНОСТИ. ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ.....	153
8.1. Сущность, состав, теоретическая и практическая значимость произведения «Непобедимая сила высокой духовности».....	153
8.2. Понимание духовности. Критерии духовности	156
8.3. Формирование научно-теоретических основ нашей национальной духовности.....	162
8.4. Роль и значение духовности в жизни человека.	166
8.5 Теоретическое изучение духовности в мировой науке и наследии наших предков.....	169
ГЛАВА IX. ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОСТИ.....	177
9.1. Философское и онтологическое содержание духовности. Сущность духовного существа.....	177
9.2. Разум и духовность. Духовное сознание.....	180
9.3. Эпистемологические и праксиологические аспекты духовности.....	182
9.4 Аксиологические, нравственные, эстетические аспекты духовности.....	190
9.5 Методологическое значение духовности.....	195
ГЛАВА X. ДУХОВНОСТЬ, КУЛЬТУРА.....	199
10.1. Духовность. Человеческая природа и личная духовность.....	199
10.2. Изучение духовных проблем в нашей национальной духовности и важность достижений в этой области.....	201

10.3. Духовность - это внутренняя сила.....	205
10.4. Предмет «духовности» находится в системе социальных и духовных наук. Связь духовности с различными дисциплинами, изучающими человеческую и социальную жизнь, такими как психология, этика, культурология, психология и педагогические исследования.....	209
ГЛАВА XI. РЕЛИГИЯ И ДУХОВНОСТЬ.....	214
11.1. 1. Религия – это духовное явление	214
11.2. 2. Религиозный фанатизм и экстремизм как предвзятое толкование религиозных ценностей в духе тоталитаризма.....	217
11.3. 3. Религия и духовность. Общие и разные аспекты....	220
ГЛАВА XII. ДУХОВНОСТЬ, ПОЛИТИКА И ЭТИКА.....	227
12.1. «Нравственность – основа духовности». Взаимосвязь морали и духовности. Проблемы современной этики.....	227
12.2. Нравственные качества как проявление духовности человека. Поведение и этика. Вера, сострадание, чистота и честность, верность завету как нравственные качества духовно зрелого человека.....	230
12.3. Социальная жизнь и политика. Слой права и этики в политике.....	233
12.4. Этика современного человека. Нравственные ценности и их влияние на воспитание подрастающего поколения.....	235
Глава XIII. ИСКУССТВО, ЛИТЕРАТУРА, ДУХОВНОСТЬ.....	239
13.1 Духовность и изысканность. Духовность человека как основа внутренней красоты человека. Духовность и искусство.....	239
13.2. Художественное мышление как особое направление понимания реальности Бытия. Символы и эмблемы – главное средство художественного выражения реальности Бытия.....	242
13.3. Роль и значение искусства в создании социальной и духовной среды. Роль искусства и литературы в духовном воспитании подрастающего поколения независимого Узбекистана.....	246
13.4. Духовность и литература. Особая роль речи в формировании духовности личности и нации. Отражение творческой духовности в художественной литературе.....	249
13.5. Театр – образцовая школа.....	251

TABLE OF CONTENTS

Introduction	3
SECTION 1. INDEPENDENCE IS THE BASIS OF SPIRITUAL REVIVAL AND RISE.....	6
CHAPTER I. THE OBJECT, SUBJECT AND PLACE OF SPIRITUALITY IN THE LIFE OF SOCIETY.....	6
1.1. The subject of the discipline «Spirituality»	6
1.2. 2. Goals and objectives of the discipline «Spirituality».	9
1.3. 3. The role of spirituality in society.	11
1.4. 4. «Spirituality» as a historical-theoretical science.	14
1.5 5. Methodological basis of the subject «Spirituality».....	16
CHAPTER 2. THE RISE OF SPIRITUALITY TO THE LEVEL OF STATE POLICY IN INDEPENDENT UZBEKISTAN AND THE REASONS FOR THIS.....	22
2.1. The issue of spirituality in our country has risen to the level of state policy. Special attention of the first President of the Republic of Uzbekistan IA Karimov to the issues of spirituality.....	22
2.2. The progressive nature of IA Karimov's concept of national spiritual revival and its significance.....	27
2.3. Recognition of spirituality as a whole. The rise of spirituality to the level of state policy in independent Uzbekistan and the reasons for this.....	37
2.4 The problem of getting rid of the complications of the old ideology in the human mind and the need for new thinking.....	40
2.5. The growing role of spirituality in the development of society. Reforms and their moral criteria.....	41
2.6. Independence - the spiritual heritage and the restoration of our national values. A radical renewal of the attitude to the spiritual heritage of our ancestors.....	46
CHAPTER III. THE CONCEPT OF SPIRITUALITY: ESSENCE, CONTENT, MAIN CATEGORIES, STRUCTURE, FORMS OF MANIFESTATION	51
3.1. The essence and meaning of the concept of spirituality.....	51
3.2. Different definitions of spirituality. Their compatibility	55
3.3. Definitions of spirituality in the works of IA Karimov and their methodological significance.	59

3.4. The main categories of spirituality: self-awareness, humanity, morality, goodness, family, civic duty, religion, faith, etc., structure, forms of manifestation	62
3.5 Individual spirituality and national spirituality. Universal spirituality	70
3.6 Basic principles of the spirituality of independence. The deep veins of our national spirituality	76
Chapter IV. EMERGENCE AND EARLY DEVELOPMENT OF SPIRITUALITY	81
4.1. Spirituality is a social phenomenon	81
4.2. Human socialization and spirituality. Biosocial characteristics of man, primitive syncretism	83
4.3. Different views on the origin of spirituality. Labor theory, mind, thinking, speech, language, belief, identity.	86
4.4. Unity of material and spiritual needs	92
Chapter V NORMALITY OF SPIRITUALITY, SOCIAL FUNCTIONS AND THE LAWS OF ITS DEVELOPMENT	95
5.1. The norm of spirituality.....	95
5.2. Man's original qualities, virtues, self-awareness, distinction from the animal kingdom, norms of life, rules.....	96
5.3. The social functions of spirituality.....	98
5.4 Laws of development of spirituality (succession, continuity, interaction and reflection, formless growth of human need for spirituality.).....	101
Chapter VI. COMPONENTS OF SPIRITUALITY, ITS RELATIONSHIP AND DEVELOPMENT CHARACTERISTICS...113	
6.1. Components of spirituality: values, customs, spiritual heritage, culture, ideology, enlightenment. Spirituality and culture, their relationship.....	113
6.2. Spiritual values and their importance in human development.....	117
6.3. Spiritual heritage is the basis of spiritual development.....	121
6.4. Spirituality and enlightenment. The narrow and broad meanings of enlightenment. Enlightenment as a process of shaping the human heart. Ways of enlightenment.....	125
6.5 . Spirituality and ideology, their place and role in society and human life.....	129
6.6 Economy, politics, spirituality: the need for their harmony in the life of man and society.....	132

Chapter VII. GENERAL FUNDAMENTALS OF FORMATION OF THE NATIONAL SPIRITUAL THEORY.....	METHODOLOGICAL
	137
7.1. Spiritual and moral foundations of national development ...	137
7.2. The harmony of universal values and our national spirituality.....	140
7.3. The ratio of universal values and national spirituality	142
7.4 The universal essence of our national spirituality	143
7.5. Independence and national relations.....	146
Chapter VIII. UNDERSTANDING SPIRITUALITY.	
FORMATION OF THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF OUR NATIONAL SPIRITUALITY.....	153
8.1. The essence, composition, theoretical and practical significance of the work «Invincible power of high spirituality»	153
8.2. Understanding spirituality. Spirituality Criteria	156
8.3. Formation of scientific and theoretical bases of our national spirituality.....	162
8.4. The role and importance of spirituality in human life.	166
8.5 Theoretical study of spirituality in world science and the heritage of our ancestors.	169
Chapter IX. PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUALITY.....	177
9.1. Philosophical and ontological content of spirituality. The essence of spiritual being.....	177
9.2. Mind and spirituality. Spiritual consciousness.....	180
9.3. Epistemological and praxiological aspects of spirituality... ..	182
9.4 Axiological, ethical, aesthetic aspects of spirituality.....	190
9.5 Methodological significance of spirituality.....	195
Chapter X. SPIRITUALITY, SPIRITUALITY, CULTURE....	199
10.1. Spirituality and spirituality. Human nature and personal spirituality.....	199
10.2. The study of mental health problems in our national spirituality and the importance of the achievements in this field.....	201
10.3. Spirituality is inner strength.....	205
10.4. The subject of «spirituality» is in the system of social and spiritual sciences. The relationship of spirituality to various disciplines that study human and social life, such as Psychology, Ethics, Cultural Studies, Psychology, and Education.....	209

Chapter XI. RELIGION AND SPIRITUALITY	214
11.1 . Religion is a spiritual phenomenon	214
11.2. Religious fanaticism and extremism as a biased interpretation of religious values in the spirit of totalitarian thinking.....	217
11.3. Religion and spirituality. General and different aspects....	220
Chapter XII SPIRITUALITY, POLITICS AND ETHICS.....	227
12.1. «Morality is the core of spirituality.» The relationship between morality and spirituality. Problems of modern ethics.....	227
12.2. Moral qualities as a manifestation of a person's spirituality. Behavior and ethics. Faith, compassion, purity and honesty, fidelity to the covenant as moral qualities of a spiritually mature person.....	230
12.3. Social life and politics. The layer of law and ethics in politics.....	233
12.4. Ethics of the modern person. Moral values and their impact on the upbringing of the younger generation.....	235
Chapter XIII. ART, LITERATURE, SPIRITUALITY	239
13.1 Spirituality and sophistication. Spirituality of a person as the basis of a person's inner beauty. Spirituality and art.....	239
13.2 Artistic thinking as a specific direction of understanding the reality of Being. Symbols and emblems are the main means of artistic expression of the reality of Being.....	242
13.3 The role and importance of art in creating a social and spiritual environment. The role of art and literature in the spiritual upbringing of the younger generation in independent Uzbekistan.....	246
13.4 Spirituality and Literature. The special role of the art of speech in the formation of the spirituality of the individual and the nation. Reflection of creative spirituality in fiction.....	249
13.5 Theater is a model school.....	251

Marhabo Allayarova

MA‘NAVIYATSHUNOSLIK

(Falsafa - 5120500)

O‘quv qo‘llanma

**Muharrir Ozoda Sharapova
Musahhih Xosiyat Rahimova
Texnik muharrir Nodir Isroilov**

ISBN 978-9943-5942-1-0

2021 yil 22 mayda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2021 yil 27 mayda orginal-maketedan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84. 1/16 «Times New Roman» garniturasi.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i 18,0
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 453.

**SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.**

